



Дурдона АБДУАЗИЗОВА,  
Доктор филологических наук, профессор Образовательного университета Ренессанс

На основе рецензии д.фил.н, профессора И.Сиддиковой

### ТАКСОНОМИЯ ПАРАКИНЕСИЧЕСКИХ СРЕДСТВ

Аннотация

В статье проводится таксономический анализ паракинесических средств. Проводится сравнение паракинесических средств английской, узбекской и русской лингвокультур. Автор классифицирует паракинесические средства, включающие жесты, мимику и телодвижения, по разным основаниям: форме, содержанию, взаимодействию с лингвистическими средствами, характеру ситуации и функциям.

**Ключевые слова:** Таксономия, паракинесические средства, лингвокультура, жесты, мимика, телодвижения, речевое общение, паралингвистика, вербальное, невербальное общение.

### PARAKINESIK VOSITALAR TAKSONOMIYASI

Аннотация

Maqolada parakinesik vositalarning taksonomik tahlili keltirilgan. Ingliz, o'zbek va rus lingvomadaniyatining parakinesik vositalarini taqqoslash amalga oshirilgan. Muallif imo-ishoralar, yuz ifodalari va tana harakatlarini o'z ichiga olgan parakinesik vositalarni turli sabablarga ko'ra tasniflaydi: shakli, mazmuni, lingvistik vositalar bilan o'zaro ta'siri, vaziyatning tabiati va funktsiyalari.

**Kalit so'zlar:** Taksonomiya, parakinesika, lingvomadaniyat, imo-ishoralar, yuz ifodalari, tana harakatlari, nutq aloqasi, paraingvistika, verbal, nonverbal aloqa.

### TAXONOMY OF PARAKINESIC MEANS

Annotation

The article provides a taxonomic analysis of parakinesic means. A comparison of the parakinesic means of English, Uzbek and Russian linguistic cultures is carried out. The author classifies parakinesic means, including gestures, facial expressions and body movements, on various grounds: form, content, interaction with linguistic means, the nature of the situation and functions.

**Keywords:** Taxonomy, parakinesics, linguistic culture, gestures, facial expressions, body movements, speech communication, paralinguistics, verbal, non-verbal communication.

**Введение.** Паралингвистика – это раздел языкознания, изучающий невербальные средства речевого общения и включающий парафонетические и паракинесические средства. Паралингвистика, как наука о невербальном общении характеризуется различными подходами к анализу паралингвистических средств. Одной из основных проблем, является таксономический анализ, предполагающий определение и классификацию всех паракинесических и парафонетических средств общения.

**Анализ литературы по теме.** Проблемы паралингвистики освещались в монографиях, диссертационных работах, статьях таких учёных как Р. Бердвистелл, Ж.ЛюГрэйджер, Е.Холл, Дж.Катфорд, А. Пиз, Г.В.Колшанский и т.д. [8]. Но, несмотря на значительное количество работ, посвящённых канесическим явлениям, недостаточно разработанным остаётся вопрос таксономии паракинесических средств. Как указывал Д. Кристал: «Определённые содержания передаются не только при помощи вербальной речи, но и при помощи невербальных средств - жестов, мимики и телодвижения. Значения паракинесических средств бывают обусловлены определенной ситуацией, соответственно, представители разных народов отличаются друг от друга мимическим поведением, характером жестов, хотя в функциональном отношении между вербальной речью и невербальными средствами можно найти аналогии, все же нельзя говорить о точном соответствии внеязыкового жеста и слова как языковых единиц».[2, с.212] Жесты и мимика обусловлены ситуациями общения, эмоциональным состоянием коммуникантов, неразрывно связаны с движением мыслей и чувств.

**Методология исследования.** Паракинесические средства как невербальные средства коммуникации характеризуются различными подходами к анализу исследования. Исследование проводится с использованием

описательного метода, таксономического анализа, сравнительно-сопоставительного анализа, метода параметризации, кросс-культурного анализа.

В паралингвистическом плане следует чётко различить человеческие движения, которые участвуют в невербальной коммуникации. Это, в первую очередь, жесты, которые создаются осознанными или неосознанными движениями - главным образом, головой, лицом (включая глаза), частями тела, в зависимости или независимо от вербальной речи, совместно или самостоятельно. К паракинесическим средствам также относятся манеры поведения, многие из которых обусловлены социально-ритуальными факторами, а также позы, кодифицированные социальными нормами и непосредственно связанные с социокультурными факторами (социальный статус, гендерная идентичность, возрастные характеристики, культурный уровень).

**Анализ и результаты.** Другое различие в кинесике относится к движениям свободного и ограниченного типа. Свободные движения выполняются одной или несколькими частями тела, тогда как ограниченные движения возникают при взаимодействии других частей тела, вещей и предметов. Движение, как и артикуляция звуков, имеет три фазы: начало, центральный момент и конец движения. Эти три фазы кинесического поведения создают паракинесическими качествами интенсивности, дистанции и скорости. Как указывает Ф. Пойатос, совокупность всех фаз жеста имеет «семантическую ценность»[8]. Не все движения тела можно отнести к паракинесике. Только движения, имеющие знаковый характер могут отнеситься к паралингвизмам. Человек может просто протянуть руку вперед, сделать наклон, сесть, встать, но это не имеет статус жеста. Движение приобретёт статус жеста, только в том случае, если он имеет символическое значение. Например, жест имеющий символический смысл – при приветствии или прощании.

Кроме того, жест должен иметь коммуникативную направленность: жест всегда непосредственно обращён к другому человеку, или хотя бы предполагает наличие некой внешней среды.

Невербальные паракинесические средства по своим функциям могут быть классифицированы по разным

#### Критерии типологизации паракинесических средств

Критерии	Типы паракинесических средств
Форма	кивок головой, рукопожатие, улыбка, подмигивание и др.
Содержание	Этикетные, оценочные, эмоциональные ритуальные, аттрактивные, угрожающие, оскорбительные, указательные, регулятивные, запрещающие, предупредительные, жесты галантности и др.
Взаимодействия с лингвистическими средствами	Замещающие язык, сопровождающие язык, усиливая прагматический эффект.
Характер ситуации	Приветствие, прощание, согласие/несогласие, выражение благодарности
Функции	Коммуникативная, аппелятивная, экспрессивно-услительная, прагматическая, смыслообразующая, функция языковой экономии, социокультурная и др.

Существуют и другие принципы классификации жестов. Можно выделить нейтрально-обиходные (применяемые в общественных местах), фамильярные (напр., похлопывания), вульгарные, защитные, жесты, демонстрирующие уважение и др. Естественно, различаются и общие нормы жестикюляции, принятые у разных народов (в упрощённом виде: от сдержанной у северян до темпераментной у южан).

Существуют традиционно-ритуальные жесты, имеющие определённое денотативно-коннотативное значение (стойка смиренно, рукопожатие, целование знамени). Например, приложить правую руку к правой стороне нижнего края головного убора, пальцы при этом сомкнуты вместе, ладонь слегка обращена наружу, а локоть на высоте плеча, сопровождаемая взглядом, провожающим начальника глазами, является ритуальным жестом приветствия у военных. Строевая подготовка (foot drill) у англичан подразумевает, что военнослужащие должны уметь выполнять различные строевые приёмы: строиться, поворачиваться, разворачиваться, перестраиваться и т.д. При команде «Вольно!» («Rest») поза расслаблена, разрешается поворачиваться и даже говорить в строю; по команде «Разойдись!» военнослужащие расходятся совсем, то есть покидают место; команда «Отделение, в одну шеренгу – СТАНОВИСЬ» означает занять свое место в строю, набрать установленные интервал и дистанцию, принять строевую стойку.

Свои стандарты и некоторые отличия в «словаре жестов» имеют различные социальные, профессиональные и конфессиональные группы, не говоря уже об отличиях в составе и употреблении жестов у мужчин и женщин, взрослых и детей. Вопросы семантики жестов становятся особенно значимыми при межнациональном общении. Ошибки в интерпретации происходят, в основном, при формальном совпадении: сходному жесту придаётся то значение, которым он обладает в своей культуре. Например, диаметрально противоположное распределение движений головой при утверждении и отрицании наблюдается у узбеков, русских, болгар, англичан и американцев»[1].

Картина мира в сознании человека, в большинстве своём строится по принципу бинарных оппозиций: состоит из оппозиций, таких как счастье - несчастье, жизнь - смерть, враг - друг, мужской - женский, свой - чужой, небесное - земное и т.д. Как отмечают исследователи, «характер оппозиции «правое-левое» непосредственно определяется неравноценностью правой и левой руки. Биологические предпосылки для праворукости обуславливаются функциональной асимметрией человеческого мозга. Культурные установки поддерживают праворукость, с одной стороны, и основываются на ней - с другой. На этом фундаменте зиждется оппозиция «правое-левое», определяющая многие особенности ритуального и этикетного поведения»[1].

В узбекской культуре есть примета, «переступить через порог правой ногой». У узбеков плохое в жизни человека выражает узбекское «чап томони билан турмоқ» (буквально – «встать с левой стороны»), снимать одежду и обувь, совершать религиозный обряд перед чтением корана

основаниям: по форме и содержанию, по характеру коммуникативной ситуации, по степени взаимодействия с лингвистическими средствами, по функциональной направленности (см. Табл.).

также следует правой рукой, что нашло свое отражение в Коране. Например, при омывании рук, движение начинается с кончиков пальцев и заканчивается локтями (три раза) с правой руки; полоскание рта: после того, как будут вымыты руки, следует прополоскать рот три раза, уделяя внимание тому, чтобы взять воду и подносить ко рту правой рукой и т.д.

Рассмотрим жесты и мимику утверждения и отрицания у англичан, узбеков и русских. Кивок головой служит здесь выражением согласия, иначе говоря, синонимом слова «да», что наблюдается также у тюркоязычных народов, в частности, у узбеков. Данный жест может выступать как самостоятельный знак вербального подтверждения в речи. Кивок головой является универсальным полисемантическим жестом в рассматриваемых культурах. Его форма совпадает с формой приветствия. Кивок головой находит себе близкую аналогию в ритуале приветствия многих народов, в том числе узбеков, русских и англичан. Покачивание головы вперёд выступает в значении согласия с мнением собеседника, он же говорит о готовности к положительному ответу на вопрос собеседника. Голова, склоненная вниз - знак повиновения, а жест движения головы в сторону – знак несогласия, расхождения мнений, отказа, отрицания. В узбекском общении, при кивке головой сверху вниз, и имеющем значение утвердительного ответа, может сопровождаться диффузным звукосочетанием «ha». Когда узбек не согласен он машет головой из стороны в сторону, и это сопровождается фонациями «yo'q», yo''[5].

Паракинесические средства характеризуются национально-культурной спецификой, что, в частности, проявляется в том, что один и тот же жест у разных народов имеет различный, а иногда прямо противоположный смысл. Так, например, у болгар, поворот головы из стороны в сторону означает согласие, тогда как у узбеков это движение имеет отрицательный смысл. При этом движении, у узбеков губы тесно сомкнуты. Движение головой сверху вниз означает одобрение, а многократное кивание головой вперёд-назад соответствует абсолютному, эмфатическому одобрению, многократному «да-да-да» у узбеков и казахов [6]. Однако неоднократный поворот головы может означать сожаление, сочувствие и эмоцию человека у узбеков. В этом отношении данный жест является полисемантическим. Формы наклонного движения головы «вперёд» - для утверждения и «назад», в стороны - для отрицания являются распространенными у многих народов. Эти формы существуют у греков в Афинах, в некоторых районах Южной Италии и отдельных участках Средиземноморья[7].

В узбекском общении жест - разводить руками, ладони обращены вперёд или вверх, может означать отрицание факта, о чем спрашивается, или же он означает-остановить движение или речь. Аналогичный жест «в английском общении означает удивление, радость при встрече, при восприятии какой-либо информации и может сопровождаться высказыванием «Go on!»[3].

Р. Якобсон тонко установил «да» и «нет» в мимике и писал: «Работа лицевых мышц, вызывающая движение брови в направлении к скуле или от скулы, создаёт своего рода синекдоху: опущенная и поднятая бровь становится

значимым, самоценным субститутом покорно склонённой или же, напротив, строптиво закинутой головы».[5, с.288] Он же указал, что в некоторых арабских племенах, которые пользуются подобным противопоставлением наклонов лба и затылка, в начальной фазе, т.е. при обратном загибе головы произносится сопутствующий шелкающий «звук-клик», относящийся к числу фонационных паралингвистических явлений. Характерным в описании Р.Якобсона является также то, что «у русских и у большинства европейцев при отрицании кивок закинутой назад головы с выдвинутым вперёд и вверх подбородком либо застывает в этом положении, либо адресант слегка поводит ею в обе стороны, сопровождая это действие широко открытыми глазами»[7]. Аналогичный жест наблюдается у узбеков и может сопровождаться чмоканьем или кликом. Здесь можно увидеть как парафонетические и паракинесические средства взаимодополняют друг друга и делают речь яркой.

Жесты приветствия могут налагаться на вербальную речь, следовать за ней или опережать вербальную речь. У узбеков имеется форма приветствия - когда младший по возрасту прикладывает правую руку ладонью с разомкнутыми пальцами к груди или к области сердца. Голова может быть наклонена вниз.

Русские и англичане, расставаясь, машут рукой, но русские обращают ладонь от себя, а англичане раскачивают ею из стороны в сторону. В узбекском общении движение кистью руки вперёд-назад, сопровождаемое взмахиванием руки, обычно называется жестом прощания. Видимо, этот жест универсален и наблюдается у многих народов, в том числе и у англичан, русских и казахов.[6,с.82] У узбеков прощание может выполняться жестом прикладывания руки к груди. Такой жест наблюдается при прощании с гостями.

Жест победы у англичан и американцев выполняется так: указательный и средний пальцы правой руки разомкнуты, принимая форму “V”, при этом ладонь обращена вперёд, а мизинец, безымянный и большой пальцы собраны к центру ладони. Данный жест может демонстрироваться на

стадионах, улицах, при встрече с товарищем и т.д. Он не имеет аналога в русском [5] и узбекском общении. «Если же при этом жесте рука повернута ладонью к говорящему, то жест приобретает оскорбительное значение- “заткнись”. В большинстве стран Европы, однако, “V – жест” означает “победу”. Поэтому, если англичанин хочет этим жестом сказать европейцу, чтобы он заткнулся, тот будет недоумевать, какую победу имел ввиду англичанин» [4].

Приведённые примеры свидетельствуют о том, что без учёта национально-специфических особенностей паракинесических средств невозможна правильная коммуникация, что соответственно, может стать причиной конфликтных ситуаций.

**Выводы.** Таким образом, паракинесические средства, включающие жесты, мимику и телодвижения, отличаются большим многообразием, и могут быть классифицированы по разным основаниям:

а) по форме (кивок головой, рукопожатие, улыбка, подмигивание) и содержанию (благодарность, одобрение/неодобрение, выражение эмоций)

б) по взаимодействию с лингвистическими средствами (замещающие язык, сопровождающие язык, усиливая прагматический эффект, акцентирующие и др.)

в) по характеру коммуникативной ситуации (приветствие, прощание, выражения благодарности и др.)

г) функциональной направленности (коммуникативная, апеллятивная, экспрессивно-усилительная, эмотивная, экспрессивная, прагматическая, смысловоразличительная, смыслообразующая, функция языковой экономики).

Следует подчеркнуть, что предложенные классификации имеют условный характер, так как: во-первых, паракинесические средства характеризуются многозначностью и одно и то же по форме паракинесические средства может иметь различные значения и выполнять различные функции; во-вторых, одна и та же функция может выражаться различными паракинесическими средствами.

#### ЛИТЕРАТУРЫ

1. Байбурун А.К., Топорков А. Л. У истоков этикета. Этнографические очерки – Л.: Наука, 1990. – С. 28-29.
2. Дорошевский В.Элементы лексикологии и семиотики. – М.: Прогресс. 1973. – С.212.
3. Нурманов А., Саидхонов М.М. Паралингвистические средства выражения утверждения и отрицания. Советская тюркология. – Т.,1986. №5. – Б.33.
4. Пиз Аллан. Язык телодвижений. Как читать мысли других по их жестам. – М.: Изд. Ай Кью, 1995. – С.56.
5. Смирнова Н. И..Сопоставительное описание элементов русской и английской кинесической коммуникации. Национально-культурная специфика речевого поведения. – М.: Наука, 1977. – С.226.
6. Татубаев С. С. Жесты как компонент искусства. – Алма-Ата.: зд. Казахстан, 1979. – С. 48.
7. Якобсон Р.О. Да и нет в мимике. Язык и человек. – М.: МГУ., 1970. – С. 287-288.
8. Poyatos F. Paralanguage. A linguistic and interdisciplinary approach to interactive speech and sound. – Amsterdam. Philadelphia, 1993. – P.133-134. Термины «паракинесические качества, интенсивность, дистанция и скорость» принадлежат Ф. Пойатос.
9. Birdwhistell, R. L. Introduction to Kinesics: An Annotation System for Analysis of Body Motion and Gesture. – Louisville: University of Louisville, 1952. – 88p..
10. Trager G.L. Paralanguage: a first approximation // Studies in Linguistics. – Saskatoon: University of Saskatchewan, 1958. – V.13. – P. 27.(Reproduced in: Language, culture and personality. A reader in linguistics and topology. Edited by D. Hymes. – N.Y. Evanston, London, 1964. – P. 10-37.
11. Hall. E.T. The Silent Language. –N.Y., 1959. – 240 p.
12. Stankevich E. Problems of emotive language. // In: Approaches to semiotics: Cultural anthropology. Education. Linguistics. Psychiatry. Psychology: Transactions of the Indiana Univ. conference on paralinguistics and kinesics. –Hague., 1964. – 276 p.
13. Catford J.C. The Articulatory Possibilities of Man. Manual of Phonetics, ed. B. Milberg. – Amsterdam: North-Holland Publishing Co, 1968. – 339 p.



Nuriya ABDULLAYEVA,  
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti o'qituvchisi  
E-mail: nuriya\_235@mail.ru

Filologiya fanlari nomzodi PhD Sh.Xakimova taqrizi asosida

## O'ZBEK VA XITOIY TILLARIDA SEGMENT VA SUPERSEGMENT ELEMENTLAR

Аннотация

Ushbu maqolada o'zbek va xitoy tillarining segment va supersegment elementlari taqqoslanadi hamda ularning fonetik va fonologik jihatlari tahlil qilinadi. Segment elementlar fonemalar yoki bo'g'inlarni tashkil etuvchi asosiy tovush birliklari bo'lib, har ikkala tilning tovush tizimida muhim o'rin tutadi. O'zbek tili aglutinativ til bo'lib, unda undosh tovushlar soni ko'p, urg'u va intonatsiya muhim omil hisoblanadi. Xitoy tili esa izolyativ til bo'lib, bo'g'in tuzilishida tonallik yetakchi rol o'ynaydi. Supersegment elementlar, jumladan urg'u, intonatsiya va tonlar ikki til fonologiyasida sezilarli farqlarga ega. Ushbu maqola ushbu elementlarning ta'siri va ularning lingvistik farqlarini chuqur o'rganadi.

**Kalit so'zlar:** Segment elementlar, supersegment elementlar, fonologiya, fonetika, o'zbek tili, xitoy tili, urg'u, intonatsiya, tonallik, bo'g'in tuzilishi, aglutinativ til, izolyativ til, undosh tovushlar, unli tovushlar, fonemalar.

## СЕГМЕНТНЫЕ И СУПЕРСЕГМЕНТНЫЕ ЭЛЕМЕНТЫ В УЗБЕКСКОМ И КИТАЙСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация

В данной статье проводится сравнение сегментных и суперсегментных элементов узбекского и китайского языков, а также анализируются их фонетические и фонологические особенности. Сегментные элементы представляют собой основные звуковые единицы, такие как фонемы или слоги, которые играют важную роль в звуковой системе обоих языков. Узбекский язык является агглютинативным, в нем большое количество согласных звуков, а ударение и интонация имеют значительное значение. Китайский язык относится к изолирующим языкам, где ведущую роль в структуре слога играет тональность. Суперсегментные элементы, такие как ударение, интонация и тоны, демонстрируют значительные различия в фонологии двух языков. В данной статье подробно исследуется влияние этих элементов и их лингвистические различия.

**Ключевые слова:** Сегментные элементы, суперсегментные элементы, фонология, фонетика, узбекский язык, китайский язык, ударение, интонация, тональность, структура слога, агглютинативный язык, изолирующий язык, согласные звуки, гласные звуки, фонемы.

## UZBEK AND CHINESE LANGUAGES: SEGMENTAL AND SUPERSEGMENTAL ELEMENTS

Annotation

This article compares the segmental and suprasegmental elements of the Uzbek and Chinese languages and analyzes their phonetic and phonological aspects. Segmental elements are the basic sound units, such as phonemes or syllables, that play a crucial role in the sound system of both languages.

Uzbek is an agglutinative language with a large number of consonant sounds, where stress and intonation are significant factors. In contrast, Chinese is an isolating language in which tonality plays a leading role in syllable structure. Suprasegmental elements, including stress, intonation, and tones, exhibit considerable differences in the phonology of these two languages. This article explores the impact of these elements and examines their linguistic distinctions in depth.

**Keywords:** Segmental elements, suprasegmental elements, phonology, phonetics, Uzbek language, Chinese language, stress, intonation, tonality, syllable structure, agglutinative language, isolating language, consonant sounds, vowel sounds, phonemes.

**Kirish.** Tilshunoslikda segment va supersegment elementlar til birliklarining muhim jihatlardan biri hisoblanadi. Har bir til fonetik va fonologik jihatdan o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bu xususiyatlar tilning tovush tizimini shakllantiradi. Ushbu maqolada o'zbek va xitoy tillarining segment va supersegment elementlari taqqoslanadi hamda ularning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi.

**Segment elementlar.** Segment elementlar fonemalar yoki bo'g'inlarni tashkil etuvchi asosiy tovush birliklari hisoblanadi. O'zbek tilida unililar va undoshlar aniq farqlanadi. Unililar qatorida old va orqa qator unililari mavjud bo'lib, ular urg'u va intonatsiyaga ta'sir qiladi. Undosh tovushlar soni ko'p bo'lib, ularning orasida portlovchi, sirg'aluvchi va burun tovushlari mavjud. Bo'g'in tarkibi odatda ochiq yoki yopiq shaklda bo'lishi mumkin. O'zbek tilida urg'u mustahkam bo'lib, so'z ma'nosini o'zgartirmaydi.

Xitoy tili tovush tizimi asosan bo'g'inlarga asoslangan bo'lib, bo'g'inlarning tarkibida bosh undosh, qism undosh va unli tovushlar mavjud. Xitoy tilida undosh tovushlar nisbatan kam, lekin unililar va ularning kombinatsiyalari muhim rol o'ynaydi. Tonallik xitoy tilining muhim segment jihatlardan biri bo'lib, u ma'noga ta'sir qiladi. Xitoy tilida urg'u o'rniga bo'g'inlar ohangi ma'no farqlashda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi.

O'zbek tili segment elementlari:

O'zbek tilida unililar va undoshlar aniq farqlanadi. Unililar qatorida old va orqa qator unililari mavjud bo'lib, ular urg'u va intonatsiyaga ta'sir qiladi.

Undosh tovushlar soni ko'p bo'lib, ularning orasida portlovchi, sirg'aluvchi va burun tovushlari mavjud.

Bo'g'in tarkibi odatda ochiq yoki yopiq shaklda bo'lishi mumkin.

O'zbek tilidagi fonemalar o'zbek tilining dialektlarida ba'zan farq qilishi mumkin, masalan, ba'zi shevalarda undoshlar yumshoqroq yoki qattiqroq talaffuz qilinadi.

Xitoy tili segment elementlari:

Xitoy tili tovush tizimi asosan bo'g'inlarga asoslangan bo'lib, bo'g'inlarning tarkibida bosh undosh, qism undosh va unli tovushlar mavjud.

Xitoy tilida undosh tovushlar nisbatan kam, lekin unililar va ularning kombinatsiyalari muhim rol o'ynaydi.

Tonallik xitoy tilining muhim segment jihatlardan biri bo'lib, u ma'noga ta'sir qiladi.

Xitoy tili fonetik jihatdan izolyativ tillarga kiradi, bu esa uning so'z tarkibi va morfologik tuzilishiga ta'sir qiladi.

Xitoycha bo'g'inlar ko'pincha oddiy va qisqa bo'lib, ular mustaqil so'z sifatida ishlatilishi mumkin.

### Supersegment elementlar

Supersegment elementlar intonatsiya, urg'u va tonallik kabi fonologik xususiyatlarni o'z ichiga oladi. O'zbek tilida urg'u odatda oxirgi yoki oldingi bo'g'inda bo'lishi mumkin. Intonatsiya gapning modal va kommunikativ ma'nolarini belgilashda muhim ahamiyatga ega. Fonetik qoidalar asosida ba'zi undosh tovushlarning talaffuzi o'zgarishi mumkin. O'zbek tilida so'z ohangi nutqning ma'no yukini oshiruvchi omil bo'lib xizmat qiladi, biroq u mustaqil ravishda so'z ma'nosini o'zgartirmaydi. O'zbek tilida intonatsiya gap turiga qarab farqlanadi: so'roq, buyruq va undov gaplarda intonatsiya har xil bo'lishi mumkin. O'zbek tilida urg'u sintaktik jihatdan mustahkam bo'lib, u grammatik shakllarning farqlanishida ishtirok etmaydi.

Xitoy tilining eng muhim supersegment elementi tonallik bo'lib, har bir bo'g'inning o'ziga xos ohangga ega bo'lishi nutq ma'nosiga bevosita ta'sir qiladi. Xitoycha so'zlarda urg'u mavjud emas, lekin tonallik ma'noni belgilovchi asosiy omil hisoblanadi. Intonatsiya esa asosan hissiy holat va gap turiga qarab o'zgaradi. Xitoy tilidagi to'rt asosiy ton (baland, ko'tariluvchi, pasayuvchi-ko'tariluvchi va pasayuvchi) bir xil tovushli so'zlarning ma'nolarini butunlay o'zgartirishi mumkin. Xitoy tilida intonatsiya so'zning ma'nosidan tashqari gapning umumiy mantiqiy va emotsional mazmuniga ta'sir qiladi. Xitoycha jumalalarda urg'u bo'lmasa ham, ba'zi hollarda ayrim so'zlar kontekstga qarab kuchliroq talaffuz qilinishi mumkin.

O'zbek tili supersegment elementlari:

O'zbek tilida urg'u odatda oxirgi yoki oldingi bo'g'inda bo'lishi mumkin.

Intonatsiya gapning modal va kommunikativ ma'nolarini belgilashda muhim ahamiyatga ega.

Fonetik qoidalar asosida ba'zi undosh tovushlarning talaffuzi o'zgarishi mumkin.

O'zbek tilida so'z ohangi nutqning ma'no yukini oshiruvchi omil bo'lib xizmat qiladi, biroq u mustaqil ravishda so'z ma'nosini o'zgartirmaydi.

O'zbek tilida intonatsiya gap turiga qarab farqlanadi: so'roq, buyruq va undov gaplarda intonatsiya har xil bo'lishi mumkin.

O'zbek tilida urg'u sintaktik jihatdan mustahkam bo'lib, u grammatik shakllarning farqlanishida ishtirok etmaydi.

Xitoy tili supersegment elementlari:

Xitoy tilining eng muhim supersegment elementi tonallik bo'lib, har bir bo'g'inning o'ziga xos ohangga ega bo'lishi nutq ma'nosiga bevosita ta'sir qiladi.

Xitoycha so'zlarda urg'u mavjud emas, lekin tonallik ma'noni belgilovchi asosiy omil hisoblanadi.

Intonatsiya esa asosan hissiy holat va gap turiga qarab o'zgaradi.

Xitoy tilidagi to'rt asosiy ton (baland, ko'tariluvchi, pasayuvchi-ko'tariluvchi va pasayuvchi) bir xil tovushli so'zlarning ma'nolarini butunlay o'zgartirishi mumkin.

Xitoy tilida intonatsiya so'zning ma'nosidan tashqari gapning umumiy mantiqiy va emotsional mazmuniga ta'sir qiladi.

Xitoycha jumalalarda urg'u bo'lmasa ham, ba'zi hollarda ayrim so'zlar kontekstga qarab kuchliroq talaffuz qilinishi mumkin.

Qo'shimcha taqqoslash

O'zbek va xitoy tillari fonetik va fonologik jihatdan bir-biridan keskin farqlanadi. O'zbek tilida undosh tovushlar soni ko'p bo'lsa, xitoy tilida unli tovushlar ustunlik qiladi. O'zbek tilida urg'u bor, lekin u so'z ma'nosiga ta'sir qilmaydi, xitoy tilida esa urg'u o'rniga tonallik ishlatiladi. Intonatsiya o'zbek tilida gapning sintaktik va semantik jihatlarini ifodalash uchun muhim bo'lsa, xitoy tilida intonatsiya gapning hissiy holatiga ta'sir qiladi. O'zbek tilida bo'g'in ochiq yoki yopiq bo'lishi mumkin, xitoy tilida esa asosan ochiq bo'g'inlar ustuvor. Xitoy tilida tonallik ma'noni belgilovchi asosiy omil hisoblanadi, o'zbek tilida esa bunday hodisa kuzatilmaydi. Nutq ohanglari o'zbek tilida semantik va pragmatik jihatdan muhim ahamiyatga ega bo'lsa, xitoy tilida ular so'z ma'nosini tubdan o'zgartirish xususiyatiga ega.

**Xulosa.** O'zbek va xitoy tillari segment va supersegment elementlari jihatidan sezilarli farqlarga ega. O'zbek tilida urg'u va intonatsiya muhim rol o'ynasa, xitoy tilida esa tonallik asosiy element hisoblanadi. Segment jihatdan esa o'zbek tilida undosh tovushlar ko'p bo'lsa, xitoy tilida bo'g'in va unli ustuvorlik qiladi. Ushbu farqlar ikki tilni o'rganishda va taqqoslashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, ushbu farqlar fonetik va fonologik tadqiqotlar uchun ham katta ahamiyatga ega bo'lib, o'zbek va xitoy tillari o'rtasidagi fonetik tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish zaruriyatini ko'rsatadi. Kelgusida ushbu mavzuda batafsil tadqiqotlar olib borish orqali ikki tilning tovush tizimi, urg'u va intonatsiya tizimidagi o'xshash va farqli jihatlarni chuqurroq o'rganish mumkin. Bu esa nafaqat tilshunoslar, balki til o'rganuvchilar uchun ham foydali bo'ladi.

Bundan tashqari, ushbu mavzu bo'yicha olib boriladigan tadqiqotlar til o'rgatuvchi dasturlar, tarjima tizimlari va sun'iy intellekt asosidagi ovoqli yordamchilarning sifatini oshirishda ham qo'l keladi. Har ikki tilning fonetik va fonologik tizimini chuqur o'rganish orqali turli tillarning fonetik xususiyatlariga moslashgan avtomatik ovoqli tarjima vositalari va til o'rgatuvchi dasturlar ishlab chiqilishi mumkin.

Shu sababli, o'zbek va xitoy tillarining segment va supersegment elementlari bo'yicha olib boriladigan ilmiy izlanishlar nafaqat akademik nuqtai nazardan, balki amaliy jihatdan ham katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqotlar kelajakda tilshunoslik, tarjima ilmi va texnologiyalar sohasida yangi yutuqlarga olib kelishi mumkin.

### ADABIYOTLAR

1. Xudoyberganova, D. (2019). O'zbek tilining fonetik tizimi. Toshkent: Fan.
2. Li, W. (2020). Chinese Phonetics and Phonology. Beijing: Peking University Press.
3. Qosimov, B. (2018). Tilshunoslik asoslari. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.
4. Zhang, Y. (2021). The Role of Tone in Mandarin Chinese. Shanghai: Language Research Institute.
5. Karimov, A. (2022). O'zbek va Xitoy tillarining fonologik xususiyatlari. Toshkent: Sharq nashriyoti.
6. Chao, Y. R. (1968). A Grammar of Spoken Chinese. Berkeley: University of California Press.
7. Bekmurodov, I. (2017). O'zbek tilshunosligi: Nazariy va amaliy masalalar. Toshkent: Universitet nashriyoti.
8. Duanmu, S. (2007). The Phonology of Standard Chinese. Oxford: Oxford University Press.
9. Xu, Y. (2013). Prosody in Mandarin Chinese: A Phonetic Perspective. Cambridge: Cambridge University Press.
10. Norman, J. (1988). Chinese. Cambridge: Cambridge University Press.



UDK:811.512

**Burxon ABDULXAYROV,**  
*Milliy rassomlik va dizayn instituti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi*  
E-mail: [abdulxayrov@list.ru](mailto:abdulxayrov@list.ru)

*Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti, PhD N.Ramazonov taqrizi asosida*

### LIFE CREATED BY SOFIZADY AND INTERPRETED BY MIYONA BUZRUKA

Annotation

The article examines the treatise of Miyon Buzruk Salikhov, a literary scholar who lived and worked in the 1920s and 1930s, on the life and work of the Uzbek modernist poet Muhammadsharif Sofizoda from a modern point of view. It is known that in the 1920s and 1930s it was a difficult period for poets, writers, and artists. Poetomu proizvedeniya, sozdannye v etot period, often schitayutsya zarajennymi vulgarnym sotsiologizmo. However, there is a lack of published work, because it is upominalos, izuchenie predstavlenykh v nix tsennykh svidetelstv i soobrajeniy imeet vajnoe znachenie dlya sogodnyashnego Uzbekskogo literaturovedeniya. Naprimer, ix analiz pozvolyaet objektivno izuchit idei i vzglyady, otrajennye v Uzbekskoi intelligentsii, sozdannye eyu godojestvennye i nauchnye proizvedeniya.

**Key words:** Uzbek djadid literature, djadidism, contemporary Uzbek literature, progressiveness.

### ЖИЗНЬ И ТВОРЧЕСТВО СОФИЗАДЫ В ИНТЕРПРЕТАЦИИ МИЙОНА БУЗРУКА

Аннотация

В статье рассматривается трактат миёна бузрука салихова, литературоведа, жившего и работавшего в 1920–1930-е годы, о жизни и творчестве узбекского поэта-модерниста мухаммадшарифа софизода с современной точки зрения. Как известно, 1920–1930-е годы были очень трудным периодом как для поэтов, так и для литературоведов, изучавших их творчество. Поэтому произведения, созданные в этот период, часто считаются зараженными вульгарным социологизмом. Однако, хотя подобные работы были опубликованы с недостатками, как уже упоминалось, изучение представленных в них ценных свидетельств и соображений имеет важное значение для сегодняшнего узбекского литературоведения. Например, их анализ позволяет объективно изучить идеи и взгляды, отраженные в узбекской интеллигенции, созданные ею художественные и научные произведения.

**Ключевые слова:** Узбекская джадидская литература, джадидизм, современное узбекское литературоведение, прогрессивность.

### SO‘FIZODA HAYOTI VA IJODI MIYON BUZRUK TALQINIDA

Annotation

Ushbu maqolada XX asrning 20-30-yillarida yashab ijod etgan adabiyotshunos olim Miyon Buzruk Solihovning o‘zbek jadid shoiri Muhammadsharif So‘fizoda hayoti va ijodini tadqiq etib yozgan risolasi bugungi kun nuqtai nazaridan tadqiq etildi. Ma‘lumki, o‘tgan asrning 20-30-yillari yozuvchi shoirlar uchun ham ular ijodini tadqiq etgan adabiyotshunos olimlar uchun ham juda murakkab kechgan davr hisoblanadi. Binobarin, bu davrda yaratilgan asarlar ko‘pincha vulgarsotsiologizm illati bilan zararlangan hisoblanadi. Biroq bu kabi asarlar aytilgani singari nuqsonlar bilan dunyo yuzini ko‘rgan esa-da, ularda keltirilgan qimmatli dalil va mulohazalarni o‘rganish bugungi kun o‘zbek adabiyotshunosligi uchun muhim sanaladi. Chunonchi, ularni tahlil qilish orqali o‘zbek jadid ziyolilari va ular tomonidan yaratilgan badiiy va ilmiy asarlarda aks etgan g‘oya va qarashlarni xolis tadqiq etish imkonini beradi.

**Kalit so‘zlar:** O‘zbek jadid adabiyoti, jadidchilik, zamonaviy o‘zbek adabiyotshunosligi, taraqqiyparvarlik.

**Kirish.** Zamonaviy o‘zbek adabiyoti va adabiyotshunosligi o‘tgan asr 20–30-yillarida shakllanish davrini boshidan kechirdi. Biroq bu shakllanish turli qarama-qarshilik va ziddiyatlar ichida kechganligi bois bugungi kunda uni o‘rganish borasida muhozasali, ayrim o‘z yechimini topmagan o‘rinlar mavjud. Chunonchi, bu davr adabiyoti va adabiyotshunosligida hayoti va ijodi kommunistik mafkura bilan to‘qnash kelishi oqibatida o‘zgachalik kasb etgan Hamza Hakimzoda, Mirmuhsin SHermuhammedov, Otajon Hoshimov singari ayrim shaxsiyatlar borki, bugungi adabiyotshunoslikda ular ijodida aks etgan qarashlar haqida chuqur mulohazalarga asoslangan tahlillar yetarli deb bo‘lmaydi. Ana shunday ijodkorlar qatoriga Muhammadsharif So‘fizoda (1869–1937) va Miyon Buzruk Solihovlarni ham kiritish mumkin. Bizningcha, Hamza, Mirmuhsin, So‘fizoda singari ijodkorlar hayoti va ijodi haqida yorqinroq tasavvurga ega bo‘lish uchun ular to‘g‘risida 20–30-yillarda yaratilgan manbalarni chuqur o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Mana shunday manbalar sirasiga Miyon Buzruk Solihovning “So‘fizoda va uning ijodi haqida” nomli risolasi ham kiradi.

Bizningcha, masalaning bunday bo‘lishi Miyon Buzrukning boshqa asarlariga xos bo‘lgan kamchiliklar ushbu risolaga ham xos ekanligida deya baholash mumkin. Masalan, risola sho‘ro mafkurasiga bilan murosa zaruriyatidan kelib chiqib vulgar sotsiologizm illati bilan zararlangan. Ikkinchidan, risolada 30-yillarda o‘zbek adabiyotshunosligi hali to‘la shakllanib

ulgurmaganligi sababli unga xos kamchiliklar ham kuzatiladi. Uchinchidan esa, Miyon Buzrukning mazkur risolasi tilini o‘sha davrdagi boshqa ijodkorlar asarlari tili bilan qiyoslaganda ham kamchiliklarga ega. Bu holat Miyon Buzrukning boshqa asarlarida ham uchraydi. Buning sababi, olimning 20-yillarda O‘zbekistondan xorijda yashaganligidadir. Shu bois u zamonaviy o‘zbek adabiy tili shakllanishining dastlabki bosqichini amalda o‘z boshidan o‘tkazmagan. Natijada, uning 30-yillarda yozgan asarlarida eski madrasa tiliga xos konstruksiyalar hamda so‘z va iboralar ko‘p qo‘llanilganligi kuzatiladi. Mana shunday sabablarga ko‘ra Miyon Buzrukning boshqa asarlari singari, mazkur risoladan ham bugungi kunda to‘g‘ridan-to‘g‘ri istifoda etib bo‘lmaydi. Biroq u bu kamchiliklaridan qat‘iy nazar So‘fizoda hayoti va ijodiga xolis baho berish borasida muhim manbadir. Shularni hisobga olib ushbu maqolada Miyon Buzruk risolasidagi So‘fizoda hayoti va ijodini yoritishga xizmat qiluvchi ma‘lumot va qarashlar asosida shoir ijodiga bugungi kun nuqtai nazaridan yangicha baho berish maqsad qilib olingan.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Miyon Buzrukning “Sufizoda va uning ijodi haqida” nomli risolasi 1934-yil nashrdan chiqqanidan keyin shoir va olim Maqsud Shayxzodaning “So‘fizoda va uning ijodi haqida” nomli maqolasi “Mash’ala” jurnalida e‘lon qilinadi [Maqsud Shayxzoda., 3]. Keyinroq, 1967-yilda adabiyotshunos olim To‘lqin Rasulovning “Muhammad Sharif So‘fizoda” nomli risolasi “O‘zbek sovet adabiyoti tarixi”

o'quv-qo'llanmasining 1-tomidan joy oladi [Rasulov T., 4]. Atoqli adabiyotshunos olim, akademik Naim Karimov 2012-yilda "Muhammadsharif So'fizoda" nomli risolasi nashrdan chiqdi. Olim ushbu risolada So'fizoda haqidagi shu paytgacha yozilmagan juda ko'p yangiliklardan xabardor etgan [Karimov N., 1].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolani yozishda, asosan, o'zbek jadidchilik harakati tarixiga oid shu kungacha yaratilgan ilmiy asarlarga tayanildi. Xususan, jadid ziyolilarining O'zbekiston zamonaviy tarixini yaratish borasidagi ilmiy izlanishlari natijalari hisoblangan asarlar va mustaqillik yillarida jadid ziyolilar ilmiy merosini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar maqola ilmiy yo'nalishi va metodologiyasini belgilab beradi.

**Tahlil va natijalar.** Miyon Buzruk Solihovning mazkur risolasi 1934-yilda Toshkentda nashr etilgan. Risola ikki qismdan iborat. Uning birinchi qismida So'fizodaning hayoti va ijodi tahlil etilgan bo'lsa, ikkinchi – ilova qismida esa shoirning turli yillarda matbuot sahifalarida e'lon etilgan she'rlaridan 8 tasi namuna sifatida berilgan.

Miyon Buzruk So'fizodaning Namanganning Axxi-shaxand qishlog'ida, kambag'al dehqon oilasida dunyoga kelganligi va dastlab an'anaviy mumtoz adabiyot yo'nalishida ishqi mazmunda she'rlar yozganligini aytadi. So'fizoda 1893–1898-yillarda Qo'qonda yashaganidan keyin o'zi tug'ilib o'sgan Chustga qaytib keladi. Biroq bu yerda ham ko'p turish iloji bo'lmaganidan 1900–1914-yillarda Vatandan tashqarida yashashga majbur bo'ladi. So'fizoda xorijda yashagan kezarlarida Ozarbayjon, Turkiya va Arabiston kabi o'lkalarga sayohat qilgan. U bu yerlarda taraqqiyparvar ziyolilar bilan muloqotda bo'lib, ular ta'sirida jadid muallimi va shoiri bo'lib shakllangan.

So'fizoda 1914-yilda Namanganga qaytib keladi va dastlab o'zining tug'ilib o'sgan yeri – Chust shahrida usuli jadid maktabi ochib, o'qituvchilik qila boshlaydi. U o'zi ochgan maktab peshtoqiga:

Men ul bo'yoqchiki, maktab xumida rang berib,

O'n ikki oyda qaro chappalarni oq qilaman, –

degan xarakterli baytni yozib qo'ygan. Aytish mumkinki, mana shu ikki misra she'rda usuli jadid maktablarining butun afzalliklariyu o'ziga xos jihatlari aks etgan. Bu yerda shoir o'qituvchini buyumlarni bo'yardigan kosibga, maktabni uning xumiga, hali o'qish-yozishni bilmaydiganlarni esa ranglanmagan – qora buyumga o'xshatadi. Mana shu qora buyumni oqqa aylantirish, ya'ni maktabga endi qadam qo'ygan, hech narsani bilmaydigan kishining o'n ikki oyda savodini chiqarish eski, islohtalab bo'lib qolgan madrasalar bilan qiyoslaganda juda tez va samarali edi.

So'fizoda muallimlik qilish bilan birga badiiy ijod bilan ham shug'ullandi. U o'z asarlarida, asosan, jadidchilik g'oyasini jozibali ohanglarda tarannum etadi. Uning she'rlarida o'sha davrning tegilishi xavfli va nozik nuqtalari yoritilgan. Masalan, 1910-yilda "SHo'ro" jurnalida chiqqan bir she'rida ayollar yuzini ochib yurishi mumkin bo'lmagan zamonada parangi zararlari haqida baralla fikr yuritilgan. Bu she'r xotin-qizlar tilidan quyidagicha yozilgan:

Qayerda qizlar uchun maktab etdingiz ta'sis?

Qayerdadir u kitoblarki, biz o'qib-yozalim?

Hijobimiz biza mone' emasmi tahsila?

Bosh uzra parangi bo'lsa, tabiiy, biz qochalim .

Shuningdek, shoirning 1917-yilga qadar yozilgan "O'qing, onalar" she'ri ham u jadidchilik g'oyalari asosida ijod etganligini ko'rsatadi. Bu she'rda asosan, jadidchilik va ayollar ozodligi hamda bunga jamoatchilik munosabati masalasi aks etgan. Ma'lumki, XX asr boshlarida ayollar yuzlarini ochib yurolmas, shuningdek, erkaklar bilan teng bilim olish imkoniyatiga ham ega emas edilar. Buning ustiga, tushunmaslik va nochorlik oqibatida ko'pchilik ota-onalar tarafidan yosh qizlarni boy xonadonlarga cho'rilikka berish odat tusiga kirgan edi:

Muncha yomon sho'rladi peshonalar?

Qizlarimiz joriyai xonalar,

Siz edingiz jonlara jononalar,

Qadringizi bilmadi devonalar,

Qumri bilan bulbulu bedonalar,

Yaxshi o'qur, siz ham o'qing, onalar.

Islom dinida o'qish, bilim olish erkak va ayol uchun birday farz ekanligi aytilgan. Lekin ijtimoiy hayotda ma'naviy tanazzul yuz bergan paytlarga kelib shariatning ayollarga beradigan bu kabi haq-huquqlariga amal qilinmagan. Shuning uchun ham shoir bu haqda quyidagicha yozadi:

Rasmi ravish shul esa nisvoniyat,

Kulsa kerak olami islomiyat.

Qayda shariat? Qani haqqoniyat?

Qildi sizi johila nafsoniyat.

Yoki:

Dod o'shal olami ruhonidan,

Qo'shdi shariatga o'zi yonidan,

Xormi edi dini aziz jonidan,

Millat uchun kechmadi o'z nonidan.

Mana shunday ayanchli ahvoldan ta'sirlangan shoir ayollarga bunday huquqsizlikdan qutulishning yagona yo'li o'qish, bilim olish ekanligini uqtiradi:

Millati islomiyaning bonusi,

O'zbek elining qorako'z ohusi!

Ko'r qilar bir kuni joh og'usi,

Ilmu amal ushbu kasal durusi.

Miyon Buzruk So'fizodaning xotin-qizlar ozodligi borasidagi bu kabi qarashlari sotsializm g'oyasiga to'g'ri kelmasligi, balki u har jihatdan jadidlar mafkurasiga mosligi haqidagi haqli qarashni ilgari surgan. Biroq T.Rasulov esa: "Ba'zi tadqiqotchilar shoir (So'fizoda – B. A.) ijodiga baho berishda uni jadid ideologlarining yirik vakili sifatida tasvirlashga uringanlar. Lekin shoir ijodi bu fikrlarni mutlaqo rad etadi", – deya Miyon Buzrukning bu fikriga qarshi chiqqan. Bizningcha, Miyon Buzruk So'fizoda qarashlari kommunistik mafkuraga to'g'ri kelmasligi, balki jadidchilik g'oyasiga mosligi haqida aytganida kommunistlarning har qanday din va diniy qarashlarni inkor etganligini, jadidlar esa dinning asos masalalariga emas, balki unga yopishgan xurofotlarga qarshi ekanliklarini nazarda tutgan. Darhaqiqat, jadidlar xotin-qizlar ozodligi masalasida ham sho'ro mafkurachilaridan farqli o'laroq, tutgan yo'llarini Qur'on va Hadis talablariga moslash tarafdori bo'lganlar.

Miyon Buzruk, shuningdek, ayollar ozodligi masalasi ilgari surilgan bu she'r feodalizm sharoitidagi reaksiyon qarashlarga, ya'ni xotin-qizlarni ozodlikka chiqarishga urinish jaholatparast guruhlar tarafidan "kofirlik" sanalib turgan bir davrda katta jasorat bilan yozilgan asar ekanligini qayd etgan.

Ma'lumki, So'fizodaning mana shunday she'rlari va u ochgan jadid maktabi ta'sirida manfaatlariga ziyon yetayotgan Chustdagi mutaassiblar unga qarshi hujumga o'tadilar. Ular So'fizodani dinsiz va kofir deb e'lon etadilar. Shariat nomidan e'lon qilingan bu hukm bilimsiz ommani So'fizodaga qarshi hujumga chorlaydi. Natijada shoirning yangi qurilgan turmushi buzilib, u rafiqasi bilan ajrashadi. O'z manfaati yo'lida qora guruhlarni dastaklovchi chor hukumati esa bu hodisaga tomoshabin bo'lib qarab turishdan nariga o'tmaydi. Kuchliushman guruh qarshisida o'jizlanib qolgan So'fizoda esa o'zi yashab turgan yurti tashlab ketishga majbur bo'ladi. Biroq bu mag'lubiyat So'fizodani umidsizlantirmaydi, balki uning qalbida jaholatparast kimsalarga nisbatan bir umrlik kuchli nafrat paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. U fursat va sharoit topishi bilan:

Quvdi meni johillar o'shandoq Vatanimdan,

Lekin quva olmas suxanimni dahanimdan, –

deya ularga qarshi yozishda davom etadi.

So'fizoda 1914-yilda yurtidan haydalanganidan keyin Xivaga yo'l oladi. U Xivaning Qo'ng'iro't qishlog'iga kelib o'r'nashadi va bu yerda muallimlik qilish bilan birga badiiy ijodini ham davom ettiradi. Uning bu yerda yozgan jadidchilik ruhida she'rlari Tataristonning Orenburg shahrida chiqadigan "SHo'ro" jurnali sahifalarida e'lon etilgan. Shuningdek, ba'zi she'rlari Toshkentda chiqadigan "Turkiston viloyatining gazetisi" nomli rasmiy gazetada ham nashr qilingan.

So'fizoda bir muddat Xorazmda bo'lganidan keyin Afg'onistonga yo'l oladi. U bu yerda Mozori Sharifning hojilar yashaydigan zax va qorong'i hujralarida qiyin sharoitda och va bemorlikda yashagan. Keyinroq esa u Afg'oniston davlat idoralariga ishga o'tadi va 1919-yilda Afg'on hukumati ma'murlaridan iborat guruh qatorida O'zbekistonga keladi. Biroq

u bu yerga kelganidan keyin o'z yurtida qolish ishtiyoqi ustun kelganidan Afg'on delegatsiyasidan ajralish maqsadida ularga quyidagi mazmundagi xat bilan murojaat qiladi:

“O'z yurtimda ishlashga sharoit bo'lmagan chog'larda va og'ir kunlarimda yurtimga xizmat qilishga imkon va yordam berdilaringiz. Bunga tashakkur etaman. Hozirda bu mamlakat xalqi ozodlikka erishgan va mening tilagim hosil bo'lgan. Shu holda bu yerda ishlashimga hech qanday mone' qolmagan. Buni arz etmak bilan birga omonatlaringizni qaytaraman”.

Shundan keyin So'fizoda insonparvarlik g'oyalari o'zlariga shior qilib olgan va kelajak haqida zo'r va'dalar berishdan charchamaydigan sho'rolar pozitsiyasiga o'tib ishlay boshlaydi. Chindan ham So'fizoda 1920-yilda Chustga borib, u yerda firqa tashkilotchisi o'laroq, yacheyka tashkil qiladi. Shoirni hali o'z o'tmishidagi alamzadalik tark etmagan edi. Shuning uchun ham u bir guruh o'ziga o'xshagan alamzada, nohaqlik qurboniga aylanganlarni atrofiga to'plab, boy va amaldorlardan o'ch olishga kirishadi. Biroq u bu ishga haddan ortiq berilib ketadi. Natijada u bilan sho'ro hukumatining Chustdagi mahalliy hokimiyati tarkibiga kirib ishlayotgan, asli jadidchilik harakatiga mansub amaldorlar o'rtasida ziddiyat yuzaga kelgan. Bu holat uning 1917-yil oktabr to'ntarishidan keyingi adabiy ijodida aks eta borgan. Masalan, So'fizoda 1925-yilda yozilib, “Farg'ona” gazetasida bosilgan “Ezuvchilar kim” nomli she'rida SHO'ro hukumatining Chustdagi ana shunday ma'murlaridan birini tanqid qilib, quyidagicha yozgan:

Ahli davlat sinfidan bir dasta vijdoni kasal,  
Yig'ladi, yalvordi, yo'qsullik dedi, oldi amal,  
Otga mindi, “ota go'ridan” o'qib baytu g'azal,  
Man agar yolg'on desam, insof ko'zi bilan qarang,  
Yozga yetmay suvchi meshkidek chunon bo'ldi tarang.

Agar yuqoridagi she'riy parchaga e'tibor berilsa, unda “ahli davlat sinfi”, ya'ni boylardan bo'lgan bir kishi o'zini kambag'alga solib sho'ro hukumati tarkibiga kirib olganligi haqida so'z ketayapti. Miyon Buzrukning qayd etishicha, mana shu tanqid qilingan ma'mur turli yo'llar bilan So'fizodaga qarshi ish olib borgan va uni firqa xizmatidan chetlashishga majbur qilgan.

So'fizoda o'z she'rlarida o'tgan hayotida eski tuzumdan ko'p jabr ko'rgan inson bo'lganligidan sho'ro hokimiyatini kambag'al va jabrdiydalar homiysi bilib madh etgan. Chunonchi, bu madhgo'ylik 1933-yilda yozilgan “Oktabr taronasi” nomli she'rdagi quyidagicha aks etgan:

#### ADABIYOTLAR

1. Karimov N. Muhammadsharif So'fizoda. Toshkent, Muharrir nashriyoti, 2012. 132 bet.
2. Solihov M.. So'fizoda va uning ijodi haqida. O'zDAVNASHR. 1934. Toshshkent, 1934. 43 bet.
3. Maqsud Shayxzoda. So'fizoda va uning ijodi haqida. “Mash'ala” 1935. 1-son, B.29.
4. Rasulov T. Muhammadsharif So'fizoda. O'zbek sovet adabiyoti tarixi. 1-tom. Toshkent, 1967. 306–310-betlar.

Siyosiy rahbarimiz firqai odilparvar,  
Ishonchli quvvatimiz qahramon qizil askar,  
Hamisha ko'rsatadur dunyoga zafar va hunar,  
Amalda yer yuzining xalqiga vafo gustar.

Miyon Buzruk So'fizodaning ruhoniyilar va boylarga qarshi yozgan she'rlarini jadid adabiyoti vakillarining reaksion ulamoga qarshi yozgan asarlariga o'xshatib bo'lmashligini aytadi. Uning fikricha, So'fizoda o'zining Oktabr o'zgarishidan keyingi asarlari bilan jadidlardan ajralganligini isbotlagan. Binobarin, u jadidlarning aksilinqilobiy harakatlariga qarshi ham she'rlar yozgan. Masalan, uning 1925-yilda yozilib, “Qizil O'zbekiston” gazetasida bosilgan “Madaniy makiyonlarga” nomli she'ri bunga yorqin misol bo'la oladi. Unda jadidlarga qarata shunday deyiladi:

Uqmadi majlisda Akmal pandini go'shi karing,  
Shubhasiz, ahmoqligingdin aynamish mag'zi caring...  
Hech tuzalmaydir sening qalbi xiyonatparvaring!  
Bo'lmaganing shul Cho'qayev bo'lsa topgan rahbaring!

Ijtimoiy-madaniy nuqtayi nazardan, edad konsepti inson hayoti davomida kechadigan turli yosh bosqichlari, ularning o‘ziga xos xususiyatlari hamda jamiyatdagi qabul qilingan qarashlar orqali shakllangan tasavvurlarni aks ettiruvchi muhim lingvistik birlik hisoblanadi. Yosh—individning jismoniy, psixologik va xulq-atvor jihatdan rivojlanish bosqichlarini belgilovchi asosiy kategoriya bo‘lib, uning shakllanishi kognitiv jarayonlar, jumladan, idrok, xotira, tafakkur, nutq, shaxsiy xususiyatlar, qiziqishlar, mulohazalar, dunyoqarash hamda xulq-atvor motivlarida o‘z ifodasini topadi. Shuningdek, yosh tushunchasi inson ongining evolyutsion shakllanishida, bolalarning intellektual va shaxsiy rivojlanishida, shaxsning ijtimoiy moslashuvi va psixologik yetukligini belgilashda muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Tilshunoslik va konseptologiya nuqtayi nazaridan, ispan tilidagi edad konsepti vaqt va rivojlanish tushunchalari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, uning semantik maydoni turli yosh bosqichlari va ularning jamiyatdagi

aks sadosi bilan kengayib boradi. O‘zbek tilidagi "yosh" leksemasi esa inson yoki predmet rivojlanishining turli bosqichlarini, jumladan, o‘shish, ulg‘ayish, yashash davomiyligi, tarixiy davrlar, asrlar, yillar, oylar, soatlar va hatto daqiqalar bilan bog‘liq tushunchalarni ifodalash xususiyatiga ega. Bu ikki konsept o‘zaro ma‘no jihatidan bog‘liq bo‘lsa-da, har ikkala tilning lingvomadaniy xususiyatlari, tarixiy taraqqiyoti va ijtimoiy-huquqiy meyorlari sababli ularning semantik chegaralari o‘ziga xoslik kasb etadi. Ispan va o‘zbek tillarining leksikografik manbalarini qiyosiy tahlil qilish natijasida edad konsepti va "yosh" leksemasining semantik talqinida ayrim tafovutlar mavjudligi aniqlanadi. Ushbu tafovutlar har ikkala xalqning madaniy dunyoqarashi, falsafiy yondashuvi hamda etnolingvistik xususiyatlari bilan bog‘liq holda shakllangan bo‘lishi mumkin. Shu bois, tadqiqot davomida bu konseptlarning paremiologik birliklardagi ifodalanish xususiyatlari keng qamrovli tahlil qilinadi.

Bizning ilmiy izlanishimiz avvalgi tadqiqotlardan farqli o‘laroq, "Edad" konseptining ispan va o‘zbek tillaridagi leksik-semantik xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Ushbu tadqiqot doirasida quyidagi yo‘nalishlar ko‘rib chiqiladi:

Ispan va o‘zbek tillarida "Edad" konseptini ifodalovchi ko‘p darajali birliklarning (leksik, frazeologik va semantik-funksional) semantik tahlili

Ikkala til doirasida "Edad" konseptiga xos bo‘lgan konseptual xususiyatlarning aniqlanishi



Mazkur xususiyatlar asosida asosli shakl tuzilishining belgilab olinishi

Bu yondashuv konseptual tahlil va qiyosiy lingvistik asosida amalga oshiriladi va natijada ispan hamda o'zbek tillarida "Edad" konseptining umumiy hamda farqli jihatlarini tizimli ravishda ochib beriladi. Ushbu tadqiqot yangi ilmiy yondashuv taklif qilishi va mavjud leksik-semantik modellarni boyitishi bilan ahamiyatlidir.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqot ispan va o'zbek tillarida "Edad" konseptining leksik-semantik va stilistik xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, uning samaradorligini ta'minlash uchun quyidagi metodlardan foydalanildi:

Nazariy tahlil – "Edad" konseptining lingvistik va konseptual asoslarini aniqlash uchun ilmiy manbalarni o'rganish va ularni umumlashirish.

Chog'ishtirma tahlil – ispan va o'zbek tillarida "Edad" konsepti bilan bog'liq til birliklarining o'xshash va farqli jihatlarini aniqlash.

Leksik va stilistik tahlil – "Edad" konseptining turli kontekstlardagi ishlatilishiga, ayniqsa, barqaror iboralaridagi stilistik xususiyatlariga e'tibor qaratish.

Ushbu tadqiqotda ispan va o'zbek tillarida "Edad" konsepti bilan bog'liq ko'chma ma'nolar va barqaror iboralar o'rganildi. Ikki tilda mazkur konseptning qo'llanilishi va unga taalluqli muqobil barqaror birliklarning semantik-funksional jihatlarini tahlil qilindi.

Shuningdek, tadqiqot davomida ispan va o'zbek tillarida "Edad" konsepti bilan bog'liq tushunchalarning shakllanishi va rivojlanishi jarayonida milliy qadriyatlarining ta'siri o'rganildi. Bunda mazkur konseptning har ikkala tilda ifodalanishi orqali leksik, frazeologik va semantik-funksional birliklarning xususiyatlari tahlil qilinib, asosiy konseptual o'ziga xosliklar aniqlab berildi.

**Tahlil va natijalar.** Semantik tahlil jarayonida va til birliklarini aktualashirish misollarida ispan va o'zbek madaniyatiga xos bo'lgan "Edad" konseptining milliy o'ziga xos idrok etilish xususiyatlari aniqlashga alohida e'tibor qaratildi. Ushbu tadqiqot davomida "Edad" konsepti bilan bog'liq leksik va frazeologik birliklarning semantik tahlili amalga oshirildi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, til birliklarining semantik xususiyatlarini tahlil qilish jarayonida ispan va o'zbek madaniyatida shaxsning yosh bilan bog'liq holatlarini konseptiyalashning o'ziga xos jihatlar mavjud. Ushbu jarayonda har ikkala tildagi yosh konseptiga oid tasavvurlar va ularning lingvistik ifodalanishi shakllari aniqlab berildi.

Olingan natijalar asosida ispan va o'zbek tillarida yosh konseptining milliy-madaniy jihatdan shakllanishi, semantik funksional o'zgarishlari hamda barqaror iboralar orqali qanday ifodalanishi ilmiy asosda yoritildi. Ushbu yondashuv ikki til va madaniyat oralig'ida konseptual tafovutlar va umumiyliklarni aniqlashga yordam berdi.

"Edad" Konsepti: Semantik qamrovi va ilmiy talqini

Lingvistik va konseptual tahlil nuqtayi nazaridan "Edad" konsepti odatda "ma'lum kuch va xususiyatlarga ega hayot davri" sifatida talqin qilinadi. Ushbu tushuncha "inson hayotining muayyan bosqichi" bilan uzviy bog'liq bo'lib, u inson taraqqiyotining turli pog'onalarini tavsiflashda muhim ahamiyat kasb etadi. [Z.P. Achilova "Ekonomika i sotsium" p. 51]

Biroq, "Edad" konsepti faqatgina biologik yosh bilan cheklanmaydi. U turli kontekstlarda quyidagi ma'nolarni ham o'z ichiga oladi:

Hayot bosqichi va biologik rivojlanish jarayoni – insonning yoshga bog'liq tarzda o'zgarishi, turli bosqichlardagi ruhiy va jismoniy xususiyatlarini tavsiflash uchun ishlatiladi.

Tarixiy va madaniy davr – jamiyat rivojlanishining ma'lum bosqichlarini ifodalovchi tushuncha sifatida qo'llanadi.

Aniq vaqt oralig'i va chegara – vaqt tushunchasining chegaralangan davr yoki bosqich sifatida idrok etilishini anglatadi.

Keksalik va qarilik – inson hayotining so'nggi bosqichini tavsiflashda foydalaniladi.

Geologik va tabiiy jarayonlarning vaqt o'lchovi – yer qobig'ining shakllanish bosqichlarini ifodalashda qo'llaniladigan ilmiy tushuncha.

Shu nuqtayi nazardan, "Edad" konsepti turli fan tarmoqlarida, jumladan, tilshunoslik, tarix, sotsiologiya, falsafa va tabiiy fanlarda keng qo'llaniladigan ko'p qirrali tushuncha hisoblanadi. Uning semantik doirasini chuqur o'rganish orqali turli madaniyatlarda vaqt, yosh va tarixiy bosqichlarni idrok etish xususiyatlari haqida muhim xulosalar chiqarish mumkin. [Z.P. Achilova "Ekonomika i sotsium" №5 (120)-1 2024.p. 51]

"Edad" Konsepti: Sinonimik qator va ma'no noaniqligi

Tilshunoslik nuqtayi nazaridan "Edad" konsepti o'zining ko'p ma'nolilik xususiyati bilan ajralib turadi. Uning turli semantik qatlamlarga ega bo'lishi bir vaqtning o'zida bir necha sinonimik qator tarkibiga kirishiga imkon yaratadi. Bu konsept semantik va stilistik jihatdan turlicha sinonimlarni o'z ichiga oladi:

"Birovning tug'ilishidan yoki biror narsaning paydo bo'lishidan, o'sib unishidan buyon o'tgan vaqt" ma'nosida "Edad" konsepti quyidagi sinonimlarga ega: [Z.P. Achilova "Ekonomika i sotsium" №5 (120)-1 2024.p. 51]

año, años (yil, yillar) – umumiy vaqt o'lchovi sifatida qo'llaniladi.

enero (yanvar), invierno (qish) – keksa insonlarga nisbatan qo'llaniladi.

primavera (bahor) – yoshlarga nisbatan ishlatiladigan metaforik sinonim.

"Muayyan kuch darajasi bilan ajralib turadigan hayot bosqichi" ma'nosida quyidagi sinonimik birliklar mavjud:

infancia (bolalik) – hayotning dastlabki bosqichi.

juventud (yoshlik) – insonning faol va energiyaga to'la davri.

vejez (keksalik) – qarilik yoshi bilan bog'liq bosqich.

"Hayot davri" yoki "umrning davomiyligi" tushunchasi quyidagi sinonimlarda namoyon bo'ladi:

periodo (davr) – aniq chegaralangan vaqt oralig'ini bildiradi.

generación (avlod) – tarixiy yoki ijtimoiy jihatdan bir vaqtning o'zida yashagan insonlar guruhi.

"Keksalik, qarilik" ma'nosida ishlatiladigan sinonimik birliklar:

ancianidad (juda qarilik, antiklik, qadimiylik) – insonning hayotining so'nggi bosqichini anglatadi.

feliz edad (baxtli yosh) – keksalikning ijobiy talqini.

tercera edad (uchinchi yosh) – odatda nafaqadagi insonlarning hayot bosqichini tavsiflashda ishlatiladi.

edad del planeta (sayyora yoshi) – geologik nuqtayi nazardan vaqt tushunchasi bilan bog'liq.

otoño de la vida (hayotning kuzi), invierno de la vida (hayotning qishi) – metaforik ifodalar bo'lib, inson hayotining keksalik davrini tasvirlaydi.

fase final de la vida (hayotning oxirgi bosqichi) – hayot siklining yakuniy bosqichi

Yuqorida keltirilgan sinonimlar shuni ko'rsatdiki, "Edad" konsepti o'zining integrallik xususiyati bilan xarakterlanadi va turli kontekstlarda ma'nodosh tushunchalar bilan boyitilgan holda qo'llanilishi mumkin. Bu konsept turli sohalarda keng konseptual qamrovga ega bo'lib, til birliklari va madaniy tafakkur tizimi bilan o'zaro bog'liq holda shakllanadi.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda, insonning yoshi ko'p jihatdan uning ijtimoiy mavqei va lingvomadaniy muhitdagi rolini belgilaydi. Yoshga bog'liq "Edad" konsepti til tizimida "bolalik, o'smirlik, yoshlik, o'rta yosh va qarilik" kabi bosqichlarni qamrab oluvchi asosiy tushunchalardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu komponentlar o'rganilayotgan konseptiyaning dinamik tuzilishini shakllantirib, uning markaziy va periferik qatlamlardan iborat murakkab strukturasi aniqlash imkonini beradi. [Z.P. Achilova "Ekonomika i sotsium" №5 (120)-1 2024.p. 51]

Tadqiqot davomida "Edad" konseptini ifodalovchi birliklarning semantik-funksional xususiyatlari tahlil qilindi hamda konseptning shakl va mazmun tuzilishi rekonstruksiya qilindi. Shu asosda ispan va o'zbek tillarida ushbu konseptning semantik-funksional xususiyatlarini tahlil qilish ilmiy yo'nalishlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

## ADABIYOTLAR

1. Achilova Z.P. "Semantics of the lexeme EDAD as a central lexeme of the nominative field of the concept of "age" in spanish and uzbek languages". International multidisciplinary journal for research development. [Achilova Z.P №12, issue 01 (2025). p. 51]
2. Achilova Z. Ispan va o'zbek tillarida "EDAD" tushunchasi bilan bog'liq bo'lgan ko'chma ma'nolarni idrok etishning milliy o'ziga xos xususiyatlari. "Экономика и социум" №5 (120)-1 2024
3. Achilova Z. P. Tarjima qilish qiyin bo'lgan murakkab morfologik hodisalar va sintaktik konstruksiyalarning o'ziga xos xususiyatlari // Journal of Innovations in Scientific and Educational Research. – 2023. – T. 6. – № 2. – С. 310-315.
4. Achilova Z. P. Og'zaki matn tarjimasining fonetik va leksik qiyinchiliklari va uni yengib o'tish imkoniyatlari // Pedagog's Jurnal. – 2022. – T. 3. – № 1. – С. 170-178.
5. Ачилова, Зулхумор Пулатовна "Синхрон таржима жараёнида мураккаб морфологик ҳодисалар ва синтактик конструкцияларнинг ўзига хос хусусиятлари." Образование наука и инновационные идеи в мире 31.2 (2023): 23-28.
6. Ачилова Зулхумор Пулатовна "Таржима қилиш қийин бўлган мураккаб морфологик ҳодисалар ва синтактик конструкцияларнинг ўзига хос хусусиятлари". Journal of innovations in scientific and educational research 6.2 (2023): 310-315.
7. Ачилова, Зулхумор Пулатовна. "Таржимашунослик назарияси мутахассислиги фанларига бағишланган замонавий дарсликлар яратишнинг аҳамияти" journal of innovations in scientific and educational research 6.2 (2023): 316-318.
8. Ачилова Зулхумор Пулатовна. "Применения метода корректирующей компенсации при переводе политических выступлений." Journal of innovations in scientific and educational research" 6.2 (2023): 319-322.
9. Ачилова Зулхумор Пулатовна. "Словообразовательные и грамматические трудности при переводе испанского текста на русский". Центральнo азиатский журнал образования и инноваций. 2.6 Part 6 (2023): 220-224.
10. Ачилова, Зулхумор Пулатовна. "Оғзаки матн таржимасининг фонетик ва лексик қийинчиликлари ва уни енгиб ўтиш имкониятлари". PEDAGOGS journali 3.1 (2022): 170-178.



UDK:811.512

**Gulmira BURXONOVA,**

Lecturer at Is'hoqhon Ibrat Namangan State Institute of Foreign Languages

E-mail: burxonovagulmira795@gmail.com

Review professor N.Abdurakhmanova

## SOCIOCULTURAL PROCESS AS AN OBJECT OF LINGUISTIC RESEARCH

Annotation

This article analyzes the interrelation between sociocultural processes and linguistic research. It examines how language directly influences sociocultural processes and its significance in society and communication. Additionally, the study reflects the research findings, the concepts of language and culture in sociocultural processes, and the interconnection of sociolinguistics with other disciplines.

**Key words:** Sociocultural process, language and culture, social interactions, cultural and social context, role of language, sociocultural linguistics.

## СОЦИОКУЛЬТУРНЫЙ ПРОЦЕСС КАК ОБЪЕКТ ЛИНГВИСТИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ

Аннотация

В данной статье анализируется взаимосвязь между социокультурными процессами и лингвистическими исследованиями. Рассматривается, как язык непосредственно влияет на социокультурные процессы, его значимость в обществе и процессе общения. Кроме того, в исследовании отражены результаты анализа, понятия языка и культуры в социокультурных процессах, а также взаимосвязь социолингвистики с другими науками.

**Ключевые слова:** Социокультурный процесс, язык и культура, социальные взаимодействия, культурный и социальный контекст, роль языка, социокультурная лингвистика.

## SOTSIOMADANIY JARAYON-LISONIY TADQIQOTLAR OBYEKTI SIFATIDA

Аннотация

Ushbu maqolada sotsiomadaniy jarayonlar va lisoniy tadqiqotlar o'zaro bog'liqlik tahlil qilinadi. Til sotsiomadaniy jarayonlarga bevosita ta'sir etishi, uning jamiyatdagi va so'zlashuv jarayonidagi ahamiyati o'rganiladi. Shuningdek, tadqiqot natijalari, sotsiomadaniy jarayonlarda til va madaniyat tushunchalari, sotsiolingvistikaning boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi aks etadi.

**Kalit so'zlar:** Sotsiomadaniy jarayon, til va madaniyat, ijtimoiy aloqalar, madaniy va ijtimoiy kontekst, tilning roli, sotsiomadaniy lingvistik.

**Kirish.** Jamiyatning ijtimoiy va madaniy hayotida yuz berayotgan o'zgarishlar, madaniyatning shakllanishi va rivojlanishi, shuningdek, ijtimoiy guruhlarning bir-biriga ta'siri bilan bog'liq jarayonlar "sotsiolingvistik jarayonlar" termini orqali ifodalaniadi. Sotsiolingvistik jarayonlar til orqali aks etadi va tilning rivojlanishiga, madaniyatning shakllanishiga, ijtimoiy tuzilmalar va qadriyatlarining o'zgarishiga olib keladi. Shuningdek, sotsiolingvistika, til orqali jamiyatdagi ijtimoiy sinflar, etnik guruhlar, hududiy farqlar va boshqa ijtimoiy qatlamlar o'rtasidagi aloqalarni tahlil qilish imkonini beradi. Masalan, tilning hududiy va ijtimoiy o'zgarishlari, odamlarning yoshiga, jinsiga, ijtimoiy maqomiga qarab qanday o'zgarishi, tildagi dialekt va lahjalarning qanday shakllanishi sotsiolingvistik tadqiqotlarning asosiy mavzularidan biridir.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Sotsiomadaniy jarayonlar va lisoniy tadqiqotlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganish ko'plab ilmiy tadqiqotlar va adabiyotlarda muhim o'rin tutgan. Bu tahlil, tilning jamiyatdagi o'rni va ijtimoiy hamda madaniy jarayonlarga qanday ta'sir qilishi haqida chuqur tushuncha beradi. Quyidagi adabiyotlar bu sohada olib borilgan izlanishlar va ularga asoslanadigan asosiy nazariyalar va metodologiyalarni keltiradi. Ulardan biri sotsiolingvistikaning otasi amerikalik tadqiqotchi Uilyam Labov o'zining (1972). "Sociolinguistic Patterns" deb nomlangan asarida sotsiolingvistikani "tilni o'zining ijtimoiy kontekstida" o'rganadigan fan sifatida belgilaydi [1]. Yevropalik olim Ispaniyaning Salamanka universiteti o'qituvchisi Gonsalo De Korreas tilning ijtimoiy turlarini aniq ajratib ko'rsatgan: "Shuni ta'kidlash kerakki, tilda viloyatlarda mavjud bo'lgan dialektlardan tashqari, ushbu viloyatlarning yoshi, mavqei va mol-mulki bilan bog'liq ba'zi turlar mavjud; qishloq aholisi, oddiy odamlar, shahar aholisi, olijanob janoblilar va saroy ahli, olim va tarixchi, oqsqoqol, voiz, ayollar, erkaklar va hatto kichik bolalarning o'z tillari bor"[1]. Yana bir tadqiqotchi Hymes, D. (1974). "Foundations in

Sociolinguistics: An Ethnographic Approach" asari orqali sotsiomadaniy lingvistikaning peshqadamlaridan biri sifatida tanilgan. Uning asarida til va jamiyatning o'zaro aloqasi, tildan foydalanishning ijtimoiy kontekstda qanday shakllanishi o'rganiladi. Hymesning ethnography of communication (kommunikatsiya etnografiyasi) yondashuvi tilni faqat grammatika va so'z boyligi nuqtai nazaridan emas, balki ijtimoiy va madaniy omillarga asoslangan ravishda tahlil qilishni ta'kidlaydi. U til va madaniyat o'rtasidagi bog'lanishni o'rganishda sotsiomadaniy jarayonlarni tahlil qilishning muhimligini ko'rsatadi[4]. Bourdieu, P. (1991). "Language and Symbolic Power". Pierre Bourdieu tilni ijtimoiy va madaniy kapital sifatida ko'rib, uning ijtimoiy stratifikatsiya va hokimiyat tizimlarida qanday ishlashini o'rgangan. Uning Language and Symbolic Power asarida tilning ijtimoiy strukturadagi roli va uning madaniy kod sifatida ishlatilishi tahlil qilinadi. Bourdieu shunday ta'kidlaydi "tilning kuchi faqat ma'lum ijtimoiy guruhlar va qatlamlar tomonidan boshqariladi. Bu esa til va sotsiomadaniy jarayonlar o'rtasidagi o'zaro aloqani chuqur tushunishga imkon beradi"[5]. Bu borada yana yana bir ingliz sotsiolingvistlari Gumperz, J. J., & Hymes, D. (1972) larning fikrlari qimmatli. Ular hammualliflikda yozgan "Directions in Sociolinguistics: The Ethnography of Communication"[6] deb nomlangan asarida ijtimoiy aloqalar terminiga alohida ta'rif beradi. Gumperz va Hymesning bu asari til va jamiyat o'rtasidagi o'zaro aloqalarni yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi. Asarda, ijtimoiy aloqalar va kommunikatsiya jarayonlarida madaniyat va tilning o'rni muhokama qilinadi. Sotsiokadaniy jarayonlarning tilga qanday ta'sir ko'rsatishini o'rganishda, Gumperz va Hymes tilni ijtimoiy kontekstda o'rganishning ahamiyatini ta'kidlaydilar. 5. Fairclough, N. (1992). "Discourse and Social Change". Norman Fairclough, tilning ijtimoiy o'zgarishlar va hukumat siyosatlarini bilan qanday bog'liqligini o'rgangan. Uning asarida diskursning ijtimoiy o'zgarishlar va hokimiyat tizimlaridagi o'rni, til va

madaniyatning o'zgarishi bilan bog'lanadi. Bu asar til va sotsiokadaniy jarayonlar o'rtasidagi dinamikani tushunish uchun muhim mamba hisoblanadi. Fairclough, diskursni faqat tilning grammatik jihatlarini sifatida emas, balki uning ijtimoiy, siyosiy va madaniy ahamiyatini o'rganish zarurligini ko'rsatadi[7].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu maqolada sotsiomadaniy jarayonlarning tilshunoslik tadqiqotlarida o'rganilishi va tilning ijtimoiy hamda madaniy kontekstdagi roli o'rganiladi. Tadqiqot metodologiyasi quyidagi asosiy metodlar va yondashuvlarga tayanadi:

1. Etnografik yondashuv. Sotsiomadaniy jarayonlarni tahlil qilishda etnografik yondashuv muhim metodlardan biridir. Bu metod tilning ijtimoiy va madaniy kontekstda qanday ishlatilishini o'rganadi. "Etnografiya yordamida tadqiqotchi tilda yuzaga keladigan o'zgarishlarni, kommunikatsion strategiyalarni va guruhlar o'rtasidagi aloqalarni o'rganadi. Etnografik yondashuvda muhim bo'lgan narsa – tahlil qilinayotgan til va madaniyatni faqat laboratoriya sharoitida emas, balki haqiqiy ijtimoiy muhitda, ya'ni jamiyatda va kundalik hayotda o'rganishdir"[4].

2. Sotsiolingvistik tadqiqot. Sotsiolingvistika sohasidagi metodlar til va jamiyatning o'zaro aloqasini tahlil qilishda keng qo'llaniladi. Bu metodlar yordamida, tilshunoslar turli ijtimoiy guruhlar, madaniy toifa yoki etnik guruhlar orasida qanday til o'zgarishlari sodir bo'lishini o'rganadilar. Labovning ijtimoiy qatlamlar va til o'zgarishlari haqida olib borgan tadqiqotlari sotsiolingvistik metodning muhim namunasidir. Sotsiolingvistik tadqiqotda aniq ijtimoiy guruhlar, mintaqalar yoki etnik guruhlar orasidagi til farqlari va ularning kommunikativ funksiyalari o'rganiladi[1].

3. Diskurs tahlili. Diskurs tahlili tilning ijtimoiy kontekstda qanday shakllanishi va o'zgarishini tahlil qilishga yo'naltirilgan metodologiyadir. Bu metod tilni nafaqat tilshunoslik, balki siyosiy, ijtimoiy va madaniy diskurslarning shakllanishini va ularning jamiyatdagi o'rnini o'rganishda ham qo'llaniladi. Diskurs tahlilining asosiy maqsadi tilning ijtimoiy hokimiyatini saqlash yoki o'zgartirishdagi rolini aniqlashdir[12].

4. Kontent tahlili. Bu tilshunoslarga matnlarning tarkibini va tuzilishini o'rganishga yordam beradi. Ushbu metod yordamida, tahlil qilinayotgan matnlarda ijtimoiy va madaniy aspektlarning qanday aks etganini aniqlash mumkin. Shuningdek, kontent tahlili til va madaniyat o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlashda muhim vosita hisoblanadi. Bu metod orqali, tilning ijtimoiy jarayonlarga ta'siri va undan qanday foydalanilishi tahlil qilinadi[11].

**Tahlil va natijalar.** Sotsiomadaniy jarayonlar ijtimoiy o'zgarishlarni va tilni o'zgartiradigan asosiy omillardan biri hisoblanadi. Jamiyatdagi ijtimoiy qatlamlar o'rtasidagi farqlar, etnik guruhlar va madaniy toifalar tilni ishlatishda aniq farqlarga olib keladi. Bu o'zgarishlar faqat grammatik jihatlarida emas, balki tilni ishlatishdagi kontekstual va ijtimoiy munosabatlar asosida ham yuzaga keladi. Masalan, "choyxona" so'zi genderlarda va turli etnik guruhlarda turlicha anglashiladi. O'zbek mintalitetida ayollar uchun choyxona ovqatlaniladigan va faqat erkaklar borishi mumkin bo'lgan joy, erkaklar uchun biror munosabat bilan yig'iladigan qulay manzil. Turk millati vakillari uchun faqat choy ichiladigan maxsus joy. Inglizlar "choyxona" so'zini "Teahouse" yoki "Tearoom" tarzida tarjima qilishadi va kafe, restoranlarga o'xshash joy sifatida tushunishadi. Amerikalik tadqiqotchilardan biri Labov Nyu-Yorkning turli ijtimoiy sinf vakillari o'rtasida "r" fonemasining talaffuzini taqqoslash orqali Nyu-Yorkdagi yuqori va quyi sinf vakillari talaffuzini tadqiq etgan. Tadqiqot davomida

yuqori sinf vakillari "r" harfini aniq talaffuz qilganlar, o'rtada va past sinf vakillari esa bu harfini talaffuz qilishlarida farqli jihatlarni aniqlagan. Bu farq sotsial stratifikatsiyani aks ettiradi. Yuqori sinf vakillari ko'pincha jamiyatda yuqori mavqega ega bo'lgan va tilni "standart" shaklda ishlatishadi.[1] shu o'rinda sotsiolingvistika, o'z navbatida, etnik guruhlarining til ishlatishdagi o'ziga xosliklarni, til va identifikatsiya o'rtasidagi bog'liqlikni, hamda bu jarayonlar jamiyatdagi ijtimoiy, siyosiy va madaniy o'zgarishlarga qanday ta'sir qilishini o'rganadi. Shuningdek, sotsiolingvistika etnik guruhlar o'rtasidagi til farqlarini ijtimoiy stratifikatsiya kontekstida o'rganadi. Etnik guruhlarining til ishlatish uslublari ijtimoiy pozitsiyalarni va guruhlar o'rtasidagi tengsizliklarni aks ettiradi. Misol uchun Amerikadagi afrika-amerikaliklar orasida o'ziga xos bir dialekt, ya'ni African American Vernacular English (AAVE) mavjud. Bu dialekt bir tomondan etnik guruhning o'ziga xos madaniyatini aks ettirsa, ikkinchi tomondan, jamiyatning yuqori sinflari tomonidan kamroq qadrlanadi va ko'pincha sotsial-iqtisodiy tengsizlikni aks ettiradi. AAVE ning yuqori sinflar tomonidan "past" til deb hisoblanishi, ijtimoiy tengsizlikni kuchaytirishi mumkin. Boshqa tomondan, bu til guruhiy va madaniy identifikatsiyaning muhim bir elementi sifatida, etnik guruhlarining o'z o'rni va ahamiyatini saqlab qolishga yordam beradi[6].

Sotsiolingvistikada gender va til masalasi sotsiolingvistika doirasida tilning jinsi bilan bog'liq jihatlarni o'rganadi. Bu masala til va jamiyat o'rtasidagi o'zaro ta'sirni, ayollar va erkaklar o'rtasidagi til ishlatish farqlarini, tilni gender tomonidan qanday shakllantirishini va til orqali gender stereotiplari va tengsizliklarini aks ettirishni o'rganadi. Tadqiqotimizda shuni aniqladikki, ayollar odatda ko'proq emotsionallik, samarali muloqot, e'tiborli va mehribon bo'lishadi. Bu esa, til ishlatishdagi muhim farqlarni yaratadi. Erkaklar esa ko'proq sodda, to'g'ridan-to'g'ri va ko'pincha tezkor bo'lishadi. Bu farqlar, ko'pincha, jamiyatdagi gender rollarining aksidir. Bu borada amerikalik tilshunos, sotsiolog va sotsiolingvistika sohasidagi mashhur olim Deborah Tannenning izlanishlari ham qimmatlidir.[13] U ayniqsa, ayollar va erkaklar o'rtasidagi til farqlari va kommunikatsion uslublardagi gender farqlarini o'rganishi bilan tanilgan. Tannenning eng mashhur asarlaridan biri "You Just Don't Understand: Women and Men in Conversation" (1990) bo'lib, u bu kitobida erkaklar va ayollar o'rtasidagi muloqot farqlarini tahlil qilgan. Tannen, ayollar va erkaklar o'rtasidagi suhbatlar va kommunikatsiya uslublari o'rtasida farqlarni o'rgangan. Uning qarashlariga ko'ra, erkaklar va ayollar tilni ishlatishda turli yondashuvlarni qo'llashadi. Erkaklar ko'pincha konkret faktlar, avtorizatsiya qilish, va hokimiyatni namoyish qilish orqali gaplashishadi, ayollar esa ko'proq hamjihatlik, emotsionalarni ifodalash va yordam berishga e'tibor berishadi.

**Xulosa va takliflar.** Ushbu tadqiqot sotsiomadaniy jarayonlarning tilga ta'sirini o'rganishga qaratilgan. Sotsiomadaniy jarayonlar tilni shakllantiradi. Zero, tilning o'zgarishi faqat grammatika va lug'at boyligi bilan cheklanmaydi. U ijtimoiy va madaniy jarayonlar, o'zgarishlar va ijtimoiy qatlamlarning o'zaro ta'siridan kelib chiqadi. Sotsiomadaniy jarayonlar tilni jamiyatda va madaniyatda qanday ishlatilishini belgilaydi. Uning asosiy elementi til va u ijtimoiy guruhlarini identifikatsiya qiladi, va shu bilan birga o'ziga xos guruh tilining ishlatilishi orqali ijtimoiy ajralishlarni aks ettiradi. Ushbu tadqiqot davomida shu aniq bo'ldiki, sotsiolingvistika fani juda kengqamrovi va zaruriy fan bo'lib uni yanada mukammalroq o'rganish zarur.

#### ADABIYOTLAR

1. Labov, W. (1972). *Sociolinguistic Patterns*. Philadelphia: University of Pennsylvania Press
2. <https://www.semanticscholar.org/paper/Macro-Sociolinguistics%3A-Insight->
3. Language-Sangia/0d0f7f475d2047c71780a0d2940b74a33b635e41
4. Hymes, D. (1974). *Foundations in Sociolinguistics: An Ethnographic Approach*. Philadelphia: University of Pennsylvania Press
5. Bourdieu, P. (1991). *Language and Symbolic Power*. Cambridge: Polity Press
6. Gumperz, J. J., & Hymes, D. (1972). *Directions in Sociolinguistics: The Ethnography of Communication*. New York: Holt, Rinehart, & Winston
7. Fairclough, N. (1992). *Discourse and Social Change*. Cambridge: Polity Press
8. Woolard, K. A. (1998). *Simultaneity and Bilingualism: Multiple Voices on the Language of Social Life*. Cambridge: Cambridge University Press

9. Hymes, D. (1974). *Foundations in Sociolinguistics: An Ethnographic Approach*. Philadelphia: University of Pennsylvania Press.
10. Ferguson C.A. *Language structure and language use*. – Stanford, 1971. –P.157.
11. Qurbonova M. va b. *Sotsiolingvistika / o'quv-uslubiy majmua*. – T. 2017.
12. Usmanova Sh. va b. *Sotsiolingvistika / o'quv qo'llanma*. – T. 2013.
13. AI resource. <https://openai.com/index/gpt-4/>



UDK: 81'42:81'276 (=512.131)(=450)

*Malika GULAMOVA,*  
*Samarqand davlat chet tillar instituti tayanch doktoranti*  
*E-mail: gulamova-m@samdchi.uz*

*O'zMU professori N.Sa'dullayeva taqrizi asosida*

#### MADANIY KONTEKSTDA KOMMUNIKATIV STRATEGIYALAR: O‘ZBEK VA ITALYAN TILLARI MISOLIDA

Annotatsiya

Ushbu maqola o‘zbek va italyan tillarida qo‘llaniladigan kommunikativ strategiyalarni madaniy kontekstda tahlil qilishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda lingvistik va sotsiolingvistik yondashuvlar asosida har ikki tilga xos bo‘lgan muloqot usullari, hurmatni ifodalash, diplomatik nutq strategiyalari hamda harakatga undash taktikalari ko‘rib chiqiladi. Maqola madaniy omillarning kommunikativ strategiyalarga ta‘sirini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, o‘zbek va italyan lingvomadaniyatidagi asosiy o‘xshashlik va farqlarni ochib beradi. Tadqiqot usuli sifatida esa adabiyotlar tahlili tanlangan bo‘lib, mavzu bo‘yicha ilgari o‘tkazilgan tadqiqotlar asosida xulosa va tavsiyalar beriladi. Ushbu maqola tilshunoslik, madaniyatshunoslik va pragmatika sohalarida izlanish olib borayotgan tadqiqotchilar uchun foydali bo‘lishi mumkin.

**Kalit so‘zlar:** Kommunikativ strategiyalar, lingvomadaniyat, madaniy kontekst, pragmatika, adabiyotlar tahlili, hurmatni ifodalash, diplomatik nutq.

#### КОММУНИКАТИВНЫЕ СТРАТЕГИИ В КУЛЬТУРНОМ КОНТЕКСТЕ: НА ПРИМЕРЕ УЗБЕКСКОГО И ИТАЛЬЯНСКОГО ЯЗЫКОВ

Аннотация

Данная статья посвящена анализу коммуникативных стратегий, используемых в узбекском и итальянском языках в культурном контексте. В исследовании рассматриваются способы общения, выражение уважения, дипломатические речевые стратегии и тактики побуждения к действию, характерные для обоих языков, с опорой на лингвистические и социолингвистические подходы. Цель статьи – выявить влияние культурных факторов на коммуникативные стратегии, а также раскрыть основные сходства и различия в узбекской и итальянской лингвокультурах. В качестве метода исследования выбран анализ литературы, а выводы и рекомендации даны на основе ранее проведенных исследований по данной теме. Статья может быть полезна исследователям в области лингвистики, культурологии и прагматики.

**Ключевые слова:** Коммуникативные стратегии, лингвокультура, культурный контекст, прагматика, анализ литературы, выражение уважения, дипломатическая речь.

#### COMMUNICATIVE STRATEGIES IN A CULTURAL CONTEXT: THE CASE OF UZBEK AND ITALIAN LANGUAGES

Annotation

This article is dedicated to analyzing communicative strategies used in Uzbek and Italian languages within a cultural context. The study examines communication methods, expressions of respect, diplomatic speech strategies, and persuasive tactics characteristic of both languages based on linguistic and sociolinguistic approaches. The article aims to identify the influence of cultural factors on communicative strategies, highlighting key similarities and differences in Uzbek and Italian linguistic cultures. The research method chosen is literature analysis, and conclusions and recommendations are made based on previous studies on the topic. This article may be useful for researchers in the fields of linguistics, cultural studies, and pragmatics.

**Key words:** Communicative strategies, linguistic culture, cultural context, pragmatics, literature analysis, expressing respect, diplomatic speech.

**Kirish.** Til nafaqat fikr almashish vositasi, balki u jamiyatning madaniyati va mentalitetini aks ettiruvchi muhim omildir. Har bir tilda muloqot jarayoni o‘ziga xos kommunikativ strategiyalar yordamida amalga oshiriladi. Ushbu strategiyalar esa milliy urf-odatlar, tarixiy an‘ana va ijtimoiy qadriyatlar bilan chambarchas bog‘liqdir. Shunday ekan, o‘zbek va italyan tillarida qo‘llaniladigan kommunikativ strategiyalarni tahlil qilish, ularning madaniy omillar bilan qanday bog‘liq ekanini aniqlash dolzarb masala hisoblanadi.

Mazkur maqola o‘zbek va italyan tillarida qo‘llaniladigan kommunikativ strategiyalarni lingvomadaniy va sotsiolingvistik nuqtayi nazardan o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqotda ushbu tillarda muloqot davomida ishlatiladigan hurmat ifodalari, diplomatik nutq shakllari hamda harakatga undash taktikalari tahlil qilinadi. Maqolada madaniy kontekstning kommunikativ strategiyalarga ta‘siri ham o‘rganilib, o‘zbek va italyan tillarida uchraydigan asosiy o‘xshashlik va farqlar yoritiladi. Tadqiqot usuli sifatida adabiyotlar tahlili tanlangan bo‘lib, ilgari o‘tkazilgan ilmiy tadqiqotlar, maqolalar va lingvistik manbalar asosida tahlil yuritiladi. Ushbu ish natijasida o‘zbek va italyan tillaridagi kommunikativ strategiyalarning o‘ziga xos jihatlari aniqlanib, madaniyat va til o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni tushunishga hissa qo‘shiladi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Kommunikativ strategiyalar va madaniy kontekst masalalari lingvistik, sotsiolingvistik va pragmatika doirasida keng o‘rganilgan mavzulardan biridir. Turli madaniyatlar orasidagi muloqotning o‘ziga xos jihatlarni tahlil qilish tilshunoslar tomonidan pragmatik va diskurs tahlili usullari asosida amalga oshirilgan. G. Hofstede [4] tomonidan ilgari surilgan madaniy o‘lchamlar nazariyasi turli jamiyatlarda kommunikativ strategiyalarning shakllanishiga ta‘sir etuvchi omillarni tushuntirish uchun muhim manba hisoblanadi. U madaniyatni individualizm va kollektivizm, kuch masofasi, noaniqlikka yo‘l qo‘yish darajasi kabi ko‘rsatkichlar orqali tahlil qiladi, bu esa o‘zbek va italyan tillaridagi muloqot uslublarini solishtirishga asos bo‘ladi. Shuningdek, E. Goffman [2] tomonidan ishlab chiqilgan “Yuz” nazariyasi (Face Theory) muloqotda hurmat va izzatni saqlashga qaratilgan strategiyalarni tushuntirish uchun ishlatiladi. Bu nazariya yordamida o‘zbek va italyan tillarida hurmat ifodalari va diplomatik nutq shakllarining o‘xshashligi va farqlari aniqlanadi.

O‘zbek tilida kommunikativ strategiyalar masalasiga oid tadqiqotlar O. Mo‘minova [8], A. Mamatov [6] kabi olimlar tomonidan o‘rganilgan bo‘lsa, italyan tilshunosligi doirasida P. Grice [3] ning Hamkorlik tamoyili va S. Levinson [5] ning pragmatikaga doir qarashlari muhim nazariy asoslarni tashkil

etadi. Ushbu yondashuvlar italyan va o'zbek lingvomadaniyatida muloqotga ta'sir qiluvchi omillarni tahlil qilishda qo'llaniladi. Ushbu tadqiqot o'zbek va italyan tillarida kommunikativ strategiyalarni madaniy kontekstda o'rganish bo'yicha ilgari olib borilgan ilmiy ishlarga tayangan holda yangi qiyosiy xulosalar chiqarishga qaratilgan.

Ushbu tadqiqot adabiyot tahlili usuliga asoslangan bo'lib, o'zbek va italyan tillaridagi kommunikativ strategiyalarni madaniy kontekstda o'rganishga qaratilgan. Tadqiqot jarayonida mavjud ilmiy manbalar, jumladan, tilshunoslik, pragmatika va sotsiolingvistika sohalaridagi tadqiqotlar tahlil qilinadi. Avvalo, kommunikativ strategiyalar va lingvomadaniyatga oid nazariy manbalar aniqlanib, ushbu mavzuga oid ilmiy yondashuvlar o'rganiladi. Keyingi bosqichda o'zbek va italyan tillari bo'yicha mavjud adabiyotlar solishtirib tahlil qilinib, har ikki tilda qo'llaniladigan muloqot strategiyalarining o'xshash va farqli jihatlari aniqlanadi. Shu bilan birga, madaniy omillarning kommunikativ uslublarga ta'siri sotsiolingvistik va pragmatik nuqtayi nazardan baholanadi. Tadqiqot davomida asosiy e'tibor muloqotda hurmat ifodalari, diplomatik nutq shakllari hamda harakatga undash taktikalari kabi jihatlarga qaratiladi. Hamda o'zbek va italyan tillaridagi kommunikativ strategiyalarning umumiy va o'ziga xos jihatlari tizimli tahlil qilinib, til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlik yuzasidan ilmiy xulosalar beriladi. Ushbu metodologik yondashuv yordamida mavzuga oid ilgari o'tkazilgan tadqiqotlar chuqur tahlil qilinib, lingvistik va madaniy o'zgarishlarning kommunikativ strategiyalarga ta'siri ochib beriladi.

**Natijalar tahlili va muhokama.** Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kommunikativ strategiyalar til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aks ettiradi. Har bir til jamiyatining ijtimoiy va madaniy qadriyatlarini bilan uyg'unlashgan holda shakllanadi va kommunikativ strategiyalarning o'ziga xos xususiyatlarini belgilaydi. O'zbek va italyan tillarida kommunikativ strategiyalarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, har ikkala madaniyatda muloqot jarayoni muayyan ijtimoiy meyorlar va konvensiyalarga asoslanadi. Ushbu qismda muloqotdagi hurmat ifodalari, harakatga undash taktikalari hamda rasmiy va norasmiy nutq o'rtasidagi farqlar keng yoritiladi.

O'zbek va italyan madaniyatida hurmat ifodalari turlicha namoyon bo'ladi. O'zbek tilida hurmat muhim kommunikativ elementlardan biri hisoblanadi va bu, asosan, kollektivistik jamiyatga xos bo'lgan ijtimoiy qadriyatlar bilan bog'liqdir [4]. O'zbek tilida murojaatlar keng tizimga ega bo'lib, "aka", "opa", "ustoz", "domla", "xonim", "janob" kabi atamalar insonlar orasidagi ijtimoiy masofani belgilovchi muhim vosita sanaladi. Masalan, universitetda talabalar professorlarga murojaat qilganda "Ustoz" yoki "Domla" so'zlarini ishlatish odatiy hol hisoblanadi. Bundan tashqari, keksalar yoki obro'li insonlarga murojaat qilishda "siz" shakli ishlatilishi majburiy bo'lib, bu insonlararo hurmat tamoyillarini aks ettiradi [8].

Boshqa tomondan, italyan tilida murojaat shakllari ham rasmiy va norasmiy nutq uslubiga qarab farqlanadi. Rasmiy muloqotda "signora" (janob) va "signora" (xonim) murojaat shakllari qo'llaniladi, ayniqsa, xizmat ko'rsatish sohasida yoki akademik muhitda. Misol uchun, universitetda professorlarga "Professore Rossi" yoki "Dottore Bianchi" deb murojaat qilish odatiy sanaladi. Biroq italyan norasmiy muloqotda murojaatlar ancha erkin bo'lib, yaqin tanishlar o'rtasida shaxsning ismi bevosita ishlatiladi [5]. Bu holat italyan jamiyatida individualizm va ochiq muloqot an'analari ustunligini ko'rsatadi.

Harakatga undash, ya'ni iltimos qilish, taklif bildirish yoki biror harakatga chorlov kommunikativ strategiyalarning muhim qismidir. O'zbek tilida harakatga undash odatda bilvosita shaklda ifodalaniib, ehtiyotkorlik va muloyimlik tamoyillariga asoslanadi. Masalan, "Iltimos, shu hujjatni ko'rib chiqib bera olasizmi?" yoki "Agar imkon bo'lsa, menga yordam bera olasizmi?" kabi iboralar yordamida yumshoq ifoda usuli tanlanadi

[7]. Ushbu muloqot shakli madaniy meyorlar bilan bog'liq bo'lib, kamtarlik va hurmat tamoyillariga asoslanadi.

Italyan tilida esa harakatga undash ko'proq bevosita shaklda amalga oshiriladi. Masalan, italyanlar "Mi puoi aiutare?" ("Menga yordam bera olasizmi?") yoki "Passami il sale" ("Tuzni uzat") kabi bevosita so'zlashuv shakllaridan foydalanadi. Ushbu holat italyan madaniyatining jonli va ochiq muloqotga asoslanganligini ko'rsatadi [3]. Biroq, rasmiy kontekstda italyan tilida ham iltifotli shakllar qo'llaniladi, masalan, "Potrebbe darmi una mano, per favore?" ("Iltimos, menga yordam bera olasizmi?"). Bu farqlar til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlikni yaqqol aks ettiradi. O'zbek muloqot madaniyatida harakatga undash ehtiyotkorlik bilan ifodalaniib, bevosita talab qilishdan qochiladi. Italyan tilida esa bevosita ifodalash odatiy hisoblanadi, chunki bu madaniyatda muloqot jonli va aniq bo'lishi talab qilinadi [5].

O'zbek va italyan tillaridagi rasmiy va norasmiy muloqot strategiyalarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, har ikkala til muloqotning ijtimoiy kontekstiga qarab turlicha shakllarga ega. O'zbek tilida rasmiy nutq odatda bilvosita va diplomatik tarzda ifodalaniadi. Masalan, rasmiy uchrashuvlarda "Hurmatli mehmonlar, sizlarni samimiy qutlaymiz" kabi iboralar ishlatiladi. Shu bilan birga, italyan tilida rasmiy nutq uslubi ham mavjud bo'lsa-da, u nisbatan tabiiy va bevosita shaklda bo'lishi mumkin, masalan, "Gentili ospite, vi diamo un caloroso benvenuto" ("Hurmatli mehmonlar, sizlarni iltiq kutib olamiz"). Norasmiy muloqotga kelganda, o'zbek tilida ko'proq bosiqlik va muloyimlik saqlanadi. Masalan, do'stlar orasida "Qalaysiz?" yoki "Bugun nima rejalaringiz bor?" kabi iboralar ishlatiladi. Boshqa tomondan, italyan norasmiy nutqida hissiyot va ekspressivlik kuchli bo'lib, "Come va?" ("Qanday ketyapti?") yoki "Che fai oggi?" ("Bugun nima qilasan?") kabi bevosita so'zlashuv shakllari keng qo'llaniladi [2]. O'zbek va italyan tillaridagi kommunikativ strategiyalar har ikki jamiyatning madaniy va ijtimoiy qadriyatlarini bilan bog'liq holda shakllangan. O'zbek tilida hurmat va ehtiyotkorlikka asoslangan muloqot strategiyalari keng qo'llaniladi, italyan tilida jonli va bevosita ifodalash uslublari ustunlik qiladi. Ushbu farqlar madaniy o'ziga xosliklarning til tizimiga qanday ta'sir qilishini yaqqol aks ettiradi. Shu bois, til o'rganish jarayonida faqat grammatik qoidalarni emas, balki muloqot strategiyalarini ham o'rganish muhim ahamiyatga ega.

**Xulosa.** Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'zbek va italyan tillarida kommunikativ strategiyalar har ikkala jamiyatning madaniy va ijtimoiy qadriyatlarini bilan bevosita bog'liq holda shakllangan. O'zbek tilida hurmat, ehtiyotkorlik va bilvosita ifodalash usullari ustunlik qilsa, italyan tilida ochiq, jonli va bevosita muloqot shakllari keng qo'llaniladi. Ushbu farqlar til tizimidagi muloqot meyorlari, ijtimoiy daraja va madaniy kontekstga bog'liq holda yuzaga keladi. Xususan, o'zbek tilida ijtimoiy masofani saqlash va murojaat shakllariga e'tibor kuchli bo'lib, rasmiy nutq uslubi ko'proq qo'llaniladi, italyan tilida esa norasmiy, yaqin muloqot shakllari tabiiy holat sanaladi. Shuningdek, harakatga undash taktikalari ham sezilarli darajada farq qiladi: o'zbek tilida iltimos va taklif qilish odatda yumshoq, bilvosita shaklda ifodalaniadi, italyan tilida esa ko'proq bevosita iboralar ishlatiladi. Bu natijalar kommunikativ strategiyalarni o'rganishda lingvistik va madaniy omillarning muhim rol o'ynashini yana bir bor tasdiqlaydi. Til o'rganish va tarjima jarayonida ushbu farqlarni hisobga olish zarur, chunki madaniy xususiyatlarni tushunmasdan to'g'ri muloqot yuritish qiyin kechishi mumkin. Shu bois, kelgusida ushbu mavzuni yanada chuqur o'rganish uchun eksperimental tadqiqotlar va aniq muloqot holatlarini asosida amaliy tahlillar o'tkazish maqsadga muvofiqdir. O'zbek va italyan tillaridagi kommunikativ strategiyalarni tushunish nafaqat tilshunoslik va tarjima sohalariga uchun, balki madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish uchun ham muhim ahamiyatga ega.

#### ADABIYOTLAR

1. Djalilova D. Kommunikativ nutqni rivojlantirishning amaliy asoslari. Academic Research in Educational Sciences [Internet]. 2021;2(6):84-91. <https://cyberleninka.ru>
2. Goffman E. Interaction Ritual: Essays on Face-to-Face Behavior. Garden City, NY: Anchor Books; 1967.
3. Grice P. Logic and Conversation. Harvard University Press; 1975.

4. Hofstede G. Cultures and Organizations: Software of the Mind. McGraw-Hill; 1991.
5. Levinson S. Politeness: Some Universals in Language Usage. Cambridge University Press; 1987.
6. Mamatov A. O'zbek tili frazeologizmlarining shakllanishi. Tashkent; 1997.
7. Mamatov A.E. Hozirgi zamon o'zbek adabiy tilida leksik va frazeologik norma muammolari. Tashkent; 1991.
8. Mo'minova O. O'zbek tilining kommunikativ xususiyatlari. Tashkent; 2010.
9. Raimjonov O.X. Frazeologik birliklarning lingvistik ta'minoti yaratilishining dolzarbligi. Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences [Internet]. 2024;4(6):29–37. Available from: [www.oriens.uz](http://www.oriens.uz)
10. Xudoybeganova Z.N. Kommunikativ tilshunoslik va til kompetensiyalari. Toshkent; 2018. p. 55.





UDC: 372.881.111.1

**Jamila DJUMABAEVA,**  
*O'zbekiston Milliy universiteti professori, filologiya fanlari doktori*  
E-mail: j.djumabayeva@nuuz.uz  
**Sohiba RO'ZMETOVA,**  
*Chirchiq davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti*  
E-mail: sohibatohirovna@gmail.com  
*O'zMU professori N.Sa'dullayeva taqrizi asosida*

### ASSESSMENT CRITERIA FOR READING AND WRITING SKILLS IN TEACHING EFL TO ECONOMICS STUDENTS: A COMPARATIVE PERSPECTIVE ON UZBEKISTAN AND INTERNATIONAL STANDARDS

Annotation

This paper investigates the assessment of English reading and writing skills among economics students in Uzbekistan in comparison with global standards. It examines key evaluation tools, pedagogical approaches, and assessment methods in both contexts. The findings reveal significant differences in evaluation techniques and their influence on students' academic and professional development. The study underscores the necessity for a more standardized evaluation approach to enhance students' language proficiency in an increasingly competitive global landscape.

**Key words:** teaching EFL, assessment methods, reading and writing proficiency, global benchmarks, CEFR, IELTS.

### КРИТЕРИИ ОЦЕНКИ НАВЫКОВ ЧТЕНИЯ И ПИСЬМА ПРИ ОБУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ КАК ИНОСТРАННОМУ СТУДЕНТОВ-ЭКОНОМИСТОВ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ СТАНДАРТОВ УЗБЕКИСТАНА И МЕЖДУНАРОДНЫХ НОРМ

Аннотация

В данной статье рассматривается оценка навыков чтения и письма на английском языке среди студентов-экономистов в Узбекистане в сравнении с мировыми стандартами. Анализируются ключевые инструменты оценки, педагогические подходы и методы тестирования в обоих контекстах. Результаты исследования выявляют значительные различия в методах оценки и их влияние на академическое и профессиональное развитие студентов. Исследование подчеркивает необходимость стандартизированного подхода к оценке для повышения языковой компетентности студентов в условиях растущей глобальной конкуренции.

**Ключевые слова:** Обучение английскому как иностранному, методы оценки, владение чтением и письмом, международные стандарты, CEFR, IELTS.

### IQTISODIYOT YO'NALISHI TALABALARIGA CHET TILI SIFATIDA INGLIZ TILINI O'QITISHDA O'QISH VA YOZISH KO'NIKMALARINI BAHOLASH MEZONLARI: O'ZBEKISTON VA XALQARO STANDARTLARNING QIYOSIY TAHLILI

Аннотация

Ushbu maqolada O'zbekistonning iqtisodiyot yo'nalishi talabalariga orasida ingliz tilida o'qish va yozish ko'nikmalarini baholash jarayoni xalqaro standartlar bilan taqqoslab tahlil qilinadi. Tadqiqotda asosiy baholash vositalari, pedagogik yondashuvlar hamda baholash usullari har ikki kontekstda ko'rib chiqiladi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, baholash texnikalari orasida sezilarli farqlar mavjud bo'lib, ular talabalarning akademik va professional rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, talabalar til kompetensiyasini oshirish uchun baholash jarayonini yanada standartlashtirish zarurati ortib bormoqda.

**Kalit so'zlar:** Chet tili sifatida ingliz tili o'qitish, baholash usullari, o'qish va yozish kompetensiyasi, xalqaro mezonlar, CEFR, IELTS.

**Introduction.** In today's interconnected academic and professional environment, proficiency in English reading and writing is crucial for economics students. Given English's dominance in economic literature, students must develop adequate skills to engage with scholarly materials and professional documents effectively. Despite notable improvements in English instruction in Uzbekistan, assessment methods still diverge significantly from international practices. This article explores these inequalities, comparing the evaluation of reading and writing skills in Uzbekistan with global standards.

**Literature Review.** Teaching EFL to non-philology students in improving reading and writing skills involves a wide range of innovative methods, approaches, and techniques in many developed countries, whereas, in developing countries the implementation of them confronts significant difficulties because of the limited teaching resources and technological tools. Some researchers' works and survey reports about the improvement of reading and writing skills of economics students around the world are discussed in this part of the article. Hyland (2016) posits that students with strong reading and writing abilities can engage more effectively with scholarly materials and construct well-reasoned arguments. The Common European Framework of Reference for Languages (CEFR) serves as an internationally accepted standard


for language assessment (Council of Europe, 2020). Furthermore, standardized exams such as IELTS and TOEFL are widely regarded as effective tools for evaluating English proficiency across disciplines (Brown & Abeywickrama, 2019). The Global Employability Survey (2021) reports that graduate with experience in writing business communication documents and research papers exhibit a 30% higher employability rate than those with purely theoretical knowledge. Case studies from European universities suggest that students exposed to practical writing tasks display enhanced adaptability and problem-solving skills in professional settings (European Commission Education Report, 2022). Additionally, the British Council (2019) indicates that students from countries without CEFR-aligned assessments face difficulties in gaining admission to international universities and securing employment in multinational corporations.

While European institutions implement CEFR-based assessments to ensure compatibility with global academic and business standards (Council of Europe, 2021), Uzbekistan has initiated educational reforms to align its English language instruction with international frameworks (Karimov et al., 2021). However, research indicates that Uzbekistan's evaluation methods still prioritize grammatical accuracy over practical application, thereby limiting students' ability to perform effectively in real-

world scenarios (Tursunova & Rahimov, 2022). Unlike global best practices, which emphasize analytical writing and contextual reading, Uzbekistan's education system tends to overlook these critical areas (Smith & Jones, 2021).

**Methodology.** This study employs a mixed-methods approach, integrating qualitative and quantitative research.

### Results.



Picture 1. Comparative Analysis of Reading and Writing Assessment

#### Criteria in Uzbekistan and European Countries

The assessment criteria for reading and writing skills among economics students vary significantly between Uzbekistan and European nations, specifically Germany, France, the Netherlands, and Sweden. The primary distinctions lie in assessment focus areas, with Uzbekistan emphasizing grammatical accuracy, while European countries prioritize analytical thinking, contextual comprehension, and real-world application.

1. Brinyov, I. K. (2020). Theoretical and applied aspects of forensic linguistic analysis. Moscow: Legal Linguistics Publishing.
2. Galyashina, E. I. (2018). Forensic speech studies: A new branch of linguistic expertise. *Journal of Forensic Linguistics*, 15(2), 112-134.
3. Golev, N. D. (2016). *Legal linguistics: Theoretical foundations and practical applications*. St. Petersburg: Russian Legal Studies.
4. Paluanova, X. D. (2022). *The role of linguistic expertise in legal discourse analysis*. Tashkent: Uzbek National University Press.
5. Smith, J., & Brown, L. (2019). *Forensic linguistics and legal interpretation: Bridging language and law*. Cambridge: Cambridge University Press.
6. Coulthard, M., & Johnson, A. (2007). *An introduction to forensic linguistics: Language in evidence*. London: Routledge.
7. Tiersma, P. M., & Solan, L. M. (2012). *The Oxford handbook of language and law*. Oxford: Oxford University Press.



UDK:811.512

**Rashid JUMATOV,**  
*Urganch davlat universiteti dotsenti v.b, PhD*  
E-mail: rashidjumatov 08@gmail.com

*Ma'mun universiteti dotsenti, PhD O'Norboyev taqrizi asosida*

## GENERAL AND SPECIAL ASPECTS OF ANTHROPOTOPONYMS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Annotation

The article analyzes the lexical and semantic features of toponyms based on personal names - "anthropotoponyms" - in English and Uzbek languages, as well as their specific similarities and differences. Despite the fact that the names belonging to this group constitute the majority in the toponymy of both nations, the reasons for their emergence, that is, the form-generating factors, in some cases are fundamentally different from each other, and in some cases are common, which is shown in the examples.

**Key words:** Anthropotoponym, agonym, microtoponym, neotoponym, macrotoponym.

## ОБЩИЕ И СПЕЦИАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ АНТРОПОТОПОНИМОВ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация

В статье анализируются лексико-семантические особенности топонимов, основанных на личных именах - «антропотопонимов» - в английском и узбекском языках, а также их специфические сходства и различия. Несмотря на то, что названия, относящиеся к этой группе, составляют большинство в топонимике обоих народов, причины их возникновения, то есть формообразующие факторы, в ряде случаев принципиально отличаются друг от друга, а в ряде случаев являются общими, что показано на примерах.

**Ключевые слова:** Антропотопоним, агоним, микротопоним, неотопоним, макротопоним.

## INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA ANTROPOTOPONIMLAR UMUMIY VA XUSUSIY JIHATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada kishi ismlari negizida vujudga kelgan joy nomlari –“antropotoponim”larning ingliz va o‘zbek tillaridagi leksik-semantik xususiyatlari, ularning o‘ziga xos o‘xshash va farqli jihatlari tahlil qilingan. Har ikkala xalq toponimiyasida ushbu guruhga mansub nomlar ko‘pchilikni tashkil qilishiga qaramay, ularning yuzaga kelish sabablari, ya‘ni shakllantiruvchi omillar ayrim hollarda bir-biridan tubdan farq qilishi va ayrim hollarda esa mushtarak ekanligi misollar bilan ko‘rsatib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Antropotoponim, agionim, mikrotoponim, neotoponim, makrotoponim.

**Kirish.** Antropotoponim – bu onomastikaning toponimiya ya‘ni joy nomlari bo‘limining bir qismi bo‘lib (antropo+ toponim) — bu odam nomi (shaxs nomi, familiya, laqab) asosida yuzaga kelgan geografik obyekt nomidir (joy nomi). Boshqacha qilib aytganda, antropotoponimlar odamlar ismlari, familiyalari yoki ular bilan bog‘liq laqablar asosida shakllangan joy nomlaridir. Bu atama yunoncha “anthrōpos” (“odam”) va “topos” (“joy”) so‘zlarining birikmasidan olingandir. Ingliz va O‘zbek toponimiyasida ushbu guruhga mansub nomlar ko‘pchilikni tashkil qilishiga qaramay, ularning yuzaga kelish sabablari, ya‘ni shakllantiruvchi omillar ayrim hollarda mushtarak bolsa ayrim hollarda bir-biridan tubdan farq qiladi. Bu, albatta, tarixiy sharoit, til sohiblarining obyekt va shaxs o‘rtasidagi bog‘liqligiga qanday baho berishi, millatning mental xosliklari kabi g‘oyat murakkab jihatlari bilan bog‘liqdir.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Antropotoponimlar ko‘p qirrali manbadir: ular til, tarix va madaniyatni o‘rganishda yordam beradi. Nomlarning talqini ehtiyotkorlikni talab qiladi, chunki ular siyosiy manipulyatsiya yoki xato ma‘nolar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Zamonaviy olimlar antropotoponimlarni interdisiplinar (fanlararo) yondashuvda tahlil qilishni afzal ko‘radi. Namunaviy tadqiqotlar sifatida George R. Stewartning “Names on the Globe” asari, UNESCOning “Joy nomlarini himoya qilish” dasturi kabilarni aytib o‘tish joiz.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ingliz antropotoponimlarining katta bir qismi buyuk geografik kashfiyotlar bilan bog‘liq. Antropotoponimlar insoniyatning geografik xotirasini anglatadi va ularni o‘rganish orqali jamiyatning o‘tmishi va hozirini tushunish mumkin.

O‘zbek xalqi tarixida bu jarayonning muqobili (analogi) bo‘lgan hodisa yo‘q. Shuning uchun unga muqobil nomlar topilmasligining o‘zi tabiiy. Masalan, Columbus, Hudson River, Humboldt River, Chirikof Island, Baranof Island, Kotzebue Sound, Cape Krusenstern, Wrangell Mountains, Buckingham

tipidagi nomlar o‘zbek topotizimida mavjud emas. Faqat makrotoponimlar tizimida Xuddinibag‘i, Reyimyorg‘an kabi nomlar mavjudki, ular quyida so‘z yuritilajak alohida tipga mansub.

Ingliz antropotoponimlarining yana bir qismi qirollar, lordlar ismlari bilan bog‘liq. Masalan, Georgia – Angliya qiroli Georg sharafiga, North and South Carolina – Karla I sharafiga, Maryland – Karl I ning xotini Genriyetti-Mari sharafiga, Charleston – Karla II sharafiga, New York – gersog York sharafiga, Baltimore – irland zodagoni lord Baltimor sharafiga va hokazo. O‘zbek toponimlari ichida katta jug‘rofiy ko‘lamdagi joylarning shohlar, xonlar, sulton yoki amirlar nomi bilan atalishi juda kam uchraydi. Shohruhiya tipidagi shahar nomlari sanoqli bo‘lib, ularning deyarli barchasi tarixiy toponimlarga aylangan. Lekin Amir Temur, Ulug‘bek, Abdullaxon, SHerg‘ozixon, SHerdor, Ko‘kaldosh, Muhammad Amin kabi juda ko‘plab hukmdorlar va yuqori mansab egalari nomlari bilan atalgan madrasa, xonaqoh, ziyoratgohlarni uchratamiz. O‘zbek topotizimi tarixiga nazar soladigan bo‘lsak, xalqimiz ruhiyatida hukmdorlar nomlarini abadiylashtirishda juda hassoslik bilan yondashganini kuzatamiz. Aniqroq qilib aytganda, joy nomlari antropotsentrik tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek xalqi hukmdor sinf nomlarini abadiylashtirish masalasida nisbatan qat‘iy va adolatli “talablar” qo‘ygan. Masalan, Shayx Jalil, Sulton Uvays, Nurota kabi tog‘larga ularga qadami yetgan yoki yetmagan avliyolar nomini bergan xalq biror toqqa biror hukmdor nomini bermadi. Agar ularning faoliyati shu tog‘larga bevosita bog‘liq bo‘lsa, o‘sha bog‘liq qisminigina “baxsh etdi”. Masalan, Amir Temur g‘ori, Bobur darasi kabi. O‘zbek topotimiyasida hukmdorlar tomonidan qurilgan Abdullaxon timi kabi kichik obyekt nomlari ma‘lum bir hukmdorlar nomi aniq ko‘rsatilsa, aksar hollarda ular Xonbandi, G‘azovot, Xonyop kabi umumiy tarzda nomlangan.

**Tahlil va natijalar.** O‘zbek toponimiyasida siyosiy jarayon bilan bog‘liq holda neotoponimlarning katta ko‘pchiligi

sho'ro siyosiy arboblarning nomlari juda keng tarqaldi. Ularning aksari o'zbek xalqi va O'zbekistonga hech qanday aloqadorligi yo'q edi. Lekin inson tabiatidagi shaxsni ulug'lash, ma'lum shaxs shuhratini o'z manfaatlariga moslash amaliyoti turli hudud va turli siyosiy tizimda yashayotgan xalqlar hayotida ham kuzatiladi. Shunga o'xshab, Amerika Qo'shma Shtatlarida 24 okrug Franklin – Franklin County nomi atalishini, ularning eng kattasi Ogayo shtatida joylashganini qayd etish lozim. Shuningdek, 21 ta aholi punkti Texas inqilobi sarkardasi Sidni Sherman sharafiga Sherman, shu miqdordagi joylar AQShning birinchi qishloq xo'jalik vaziri Norman Koulman sharafiga Coleman, Lake Pontchartrain ko'li esa fransuz siyosiy arbobi graf Poshart sharafiga shunday nomlangan. Amerika Qo'shma Shtatlarida prezidentlar nomi bilan bog'liq Washington, Adams, Jefferson, Madison, Monroe, Jackson, Van Buren, Harrison, Tyler, Polk, Taylor County, Fillmore, Mount Pierce, Buchanan, Lincoln, Grant, Hayes County, Garfield City, Cleveland County, Fort

Benjamin Harrison, Mount McKinley, Roosevelt, Taft, Woodrow Wilson Bridge, Mount Woodrow Wilson, Harding Township, Coolidge, Hoover Dam, Kennedy, Lyndon B. Johnson Runway, Gerald R. Ford Freeway, Jimmy Carter Regional Airport, Ronald Reagan Washington National Airport kabi juda ko'plab nomlarni uchratish mumkin. O'zbek toponimiyasida bu tamoyil o'z ibtidosida, deyish mumkin. Masalan, Islom Karimov nomidagi Toshkent xalqaro aeroporti.

Ingliz antropotopimlarining bir qismi ilm-fan, san'at va adabiyot borasida mashhur shaxslar nomlariga aloqadordir. Masalan, Mount Einstein – Albert Enshteyn, Picasso Park – Pablo Pikasso, Champlain ko'li uni 1609 yilda kashf qilgan fransuz sayohatchisi va geografi Samuel de Shampelen nomi bilan bog'liq. O'zbek toponimiyasida ham XX asrning birinchi yarmidan ushbu tamoyil asta-sekin kirib keldi va uni quyidagi jadvalda ko'rish mumkin:

O'zbek toponimiyasida XX asrda toponimlar kirib kelishi tamoyillari
a) bir tomondan milliy fenomenlar nomlari,
b) xalqlar do'stligini mustahkamlash uchun boshqa millat fenomen shaxslari nomlari,
d) siyosiy vaziyat sababli obyektga mohiyatan hech qanday aloqasi bo'lmagan shaxslar nomlari paydo bo'la boshladi: Navoiy viloyati, Sobir Rahimov tumani, Orjnikidze tumani, Shota Rustaveli ko'chasi kabi.

Shunday antropotopimlar mavjudki, ular ayni paytda haqli ravishda bir necha guruhga mansub sanaladi. Masalan, agionimlar [1] asosidagi toponimlar ayni paytda diniy toponimlar sirasida qayd etiladi. Ingliz toponimiyasida Bury St Edmunds, Saint Xavier, Saint Terese, Saint Pauls, Saint Matthews, Saint Michael, Saint Louis, Saint Francisville kabi ko'plab toponimlar. Agionimlar ingliz tilida the name of holy man [4] termini bilan berilsa ham, rus filologiyasida uning qamrov doirasi ancha keng [5]. O'zbek agionimlari hanuzgacha ma'lum bir tizimga solinmagan. Lekin ularning xalqimiz tarixi, ma'naviyati bilan bog'liq ravishda faqatgina ziyortagoh yoki qabristonlar emas, turli tip obyektlar nomlari sifatida uchrashi e'tiborli. Masalan, Buvayda [6], Shayhontahur tumanlari nomlari, Sulton Uvays, Shayx Jalil, Shohimardon kabi tog' nomlari, yana ko'plab madaniy obyektlar nomlari shular jumlasidandir. Aslida o'zbek agionimlarining har biri alohida e'tibor bilan o'rganilishi kerak. Bu borada G.S.Xaziyevaning Xizir-Ilyos agionimi borasida bajargan tadqiqoti namuna bo'la oladi [7]. Chunki bu kabi toponimlar xalq xotirasini uyg'otishda ham, ularning ibratli hayot tarzidan o'rnatish ma'nosida ma'naviy saboq sifatida ham katta ahamiyatga ega. Agionimlarning ba'zilar tarixiy shaxslarning xalq o'rtasida keng tarqalgan nomi bilan shuhrat tutganki, keyingi avlod ularning asl nomidan bexabar qolgan. Masalan, Urganch shahrida Doshqinjon bobo ziyortagohi mavjud. Maqbaraning tarixiy o'rnida qabriston bo'lib, VII – VIII asrlarda Movarounnahrda Islom dinini yetkazish uchun kelgan buyuk sahoba Sa'd ibn Abu Vaqqos roziallohu anhu nomi bilan bog'liq. (Hasorasp va Xo'jaylida ham shu nomdagi qabristonlar mavjud). Amudaryoning har yili ikki marta toshishi natijasida ayni shu qabristonga yetib kelgan suv pasayib qaytishini kuzatgan aholi uni karomatli avliyo Doshqinjon bobo deb ataganlar. 1646 – 1648 yillarda Abulg'oz Bahodirxon qabriston atrofini paxsa devor bilan o'rab maqbara qurdirgan. Maqbara 1648 yildan to 1826 yilgacha xaroba ahvolda bo'lgan. Xiva xoni Olloqulixon (1825 – 1843 yillar) Xuroson, Janubiy Turkmaniston o'lkalari qilgan muvaffaqiyatli yurishlaridan tushgan mablag' hisobiga Doshqinjon boboni obod etgan va hozirgi tarixiy maqbarani bino qildirgan [8].

Mazkur guruhning yana bir ichki guruhini mifologik qahramonlar nomlari bilan bog'liq Hercules, Achilles, Orpheus, Cadmus, Theseus Lake ko'li, Lake Atalanta suv ombori, Pegasus and Bellerophon Sculpture parki, Ariadne Island oroli kabi toponimlar tashkil qiladi. O'zbek joy nomlari ijodiyotida mifotoponimlar tizimi anchayin murakkab bo'lib, eng avvalo,

ularning maqbul tasnifini yaratish lozim. Sababi, ayrim adabiyotlarda tarixiy shaxslarni mifologik obrazlar sifatida qayd etish, "Qur'on"da zikri kelgan payg'ambar nomlarini mifologik nomlar sirasida sanash kabi g'ayri ilmiy talqinlar uchraydi. Hatto bu tizimda diniy, mifologik, xurofiy shaxslar nomlarini bir-biridan farqlamaslik hollari ham kuzatiladi. Shuning uchun bu tip nomlarni sof mifologik nomlar (masalan, Jamshid) hamda mifologik xarakter kasb etgan nomlar (masalan, Afrosiyob) tarzida farqlash ehtiyoji bor.

**Xulosa.** Ingliz toponimlarining bir qismi turli sabablardan bilan qo'yilgan oddiy kishilar nomlari bilan aloqador bo'lib chiqadi. Masalan, Amerikada ko'plab uchraydigan Johnson toponimi qator sabablarga ko'ra yuzaga kelgan. Misol uchun Johnson qishlog'i zamindor Djulius A.Jonson; Vermont shtatidagi shu nomli shahar mashhur amerika huquqshunos, davlat arbobi va pedagogi Uilyam Samuel Jonson; Indiana shtatidagi Johnson City esa temiryo'l xizmatchisi Jonson; Nyu-York shtatidagi Johnson City "Endicott Johnson" kompaniyasi rahbari Jorj F.Jonson; Nyu-York shtatidagi Fort Johnson qishlog'i hindular ishi bo'yicha Britaniya vakili Uilyam Jonson nomlari bilan bog'liq. Tadqiqotchilar britan geografi A.Mills tuzgan lug'atda [9] kishi nomlari asosli 3527 toponimlarning 500 tasi familiyalardan hosil qilinganini aniqlaganlar. Bu tip nomlar Buyuk Britaniya joy nomlarining 23,5% tashkil qilishi qayd etilgan. Shu tarzda Amerika joy nomlari lug'atida [10] 3144 antropotoponim (qamrab olingan nomlarning 22,3%i) berilgan bo'lib, shulardan 665 ta toponim familiyalardan hosil qilingan. E'tiborli jihat shundaki, A.D.Mills lug'atidagi antropotoponimlarning 95% i, G.Styuart lug'atidan joy olgan antropotoponimlarning 85% i erkak kishi nomlari asosida ekanligi qayd etiladi [11].

Shu faktning o'zi Buyuk Britaniya va Amerikadagi gender munosabatlar tarixiga haqqoniy mos kelib turibdi. Bizningcha, o'zbek antropotoponimlarida bu ko'rsatkich, ya'ni ayollar "ulush"i bundan ham oz nisbatga ega bo'lishi tabiiy. Chunki atqli otlar ham tildagi boshqa birliklar singari uning sohiblari hayotidagi har bir jabha xususida qaysidir darajada axborot taqdim qila oladi. Birgina agionimlar misolida ko'radigan bo'lsak, juda ko'p miqdordagi bu tip joy nomlari ichida Buvayda, Anbar ona, Bibi mushkulkushod, Bibi Hojar ona ayollar nomi bilan bog'liq sanoqli obyektlar chiqadi. Ayollar "ulush"i neotoponimlarda nisbatan ko'paygani seziladi: Xadicha Sulaymonova ko'chasi, Krupskaya ko'chasi kabi.

#### ADABIYOTLAR

1. Живов В.М. Святость. Краткий словарь агнографических терминов. – М.: Гнозис, 1994.- 110 с.;

2. Иванова Т.А. Лексические особенности жизнеописаний новопрославленных святых русской православной церкви. Дисс-ция ... кандидата филол. наук: 10.02.01 – М.: МПГУ, 2004. – 176 с.;
3. Подольская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии / Отв. ред. А.В. Суперанская. – М.: Наука, 1978. – 198 с.
4. Лебедев В.Ю., Прилуцкий А.М. Имя святого и его семиотическая специфика // Вестник ТвГУ. Серия “Философия”. 2017. № 2. – С. 107.
5. Бугаева И.В. Агионимы в ономастическом пространстве русского языка // <http://www.portal-slovo.ru>
6. Бувайда зиёратгохлари (“Биби Убайда ёхуд Сафед булон киссалари” асосида) – Тошкент: Янги аср авлоди, 2013. – Б.11.
7. Хазиева Г. С. Агионим Ҳызыр-Ильяс в локальных культурных традициях татар / Г.С.Хазиева // Вопросы ономастики. — 2020. Т. 17, № 3. – С. 316-324.
8. Абдуллаев Х., Собиров М. Воҳа тарихидан лавҳалар. –Тошкент: –Б. 50.
9. Mills A.D. Oxford Dictionary of British Place-Names. – Oxford, 2003. – 1184 p.
10. Stewart G.R. A Concise and Selective Dictionary for the Continental United States of America. – New York, Oxford: Oxford University Press, 1970. – 550 p.
11. Уразметова А.В. Английская топонимика как лексическая подсистема языка (на материале топонимической лексики Великобритании и США). – 2016. – С. 145.



UDK:811.512

Iroda JURAYEVA,

O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti, f.f.n

E-mail: irodajuraeva@gmail.com

UrDU dotsenti, PhD R.Abidova taqrizi asosida

### J.K.ROULINGNING "GARRI POTER" ASARIDAGI ANTRPONIMLARNING LINGVISTIK VA LINGOKULTUROLOGIK TAHLILI

Аннотация

Ushbu maqolada inson ismlarining tabiati, falsafiy, lingvistik, semantik, sinaktik, etimolik, lingvokulturologik tamoyillari, antik davrdan shu davrgacha rivojlanishi o'rganilgan. Ingiz yozuvchisi J.K.Roulingning "Garri Poter" asaridagi qahramonlarning ismlari lingvistik, semantik, sinaktik, etimolik va lingvokulturologik tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Lingvistik, falsafiy, etimologiya, semantik, sinaktik, lingvokulturologiya, ism, ismlar berilish, fantastik, arxetip.

### LINGUISTIC AND LINGUOCULTURAL ANALYSIS OF ANTHROPNOMS IN J.K. ROWLING'S "HARRY POTTER"

Annotation

This article explores the nature, philosophical, linguistic, semantic, syntactic, etymological, and linguoculturological principles of people's names, and their development from ancient times to the present. It provides a linguistic, semantic, syntactic, etymological, and linguoculturological analysis of the names of characters in the book "Harry Potter" by English author J.K. Rowling.

**Key words:** Linguistic, philosophical, etymology, semantic, syntactic, linguoculturology, name, naming, characteristics of naming, fantastic, archetype.

### ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ И ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ АНТРОПОНИМОВ В ПРОИЗВЕДЕНИИ ДЖ.К.РОУЛИНГ «ГАРРИ ПОТТЕР»

Аннотация

В данной статье изучается природа человеческих имен, их философские, лингвистические, семантические, синтаксические, этимологические, лингвокультурологические принципы, а также развитие с античных времен до наших дней. Проведен лингвистический, семантический, синтаксический, этимологический и лингвокультурологический анализ имен персонажей в произведении "Гарри Поттер" английской писательницы Дж.К. Роулинг.

**Ключевые слова:** Лингвистический, философский, этимология, семантический, синтаксический, лингвокультурология, имя, имянаращение, фантастический, архетип.

**Kirish.** Inson ismlarining tabiati haqidagi ilmiy qarashlar mantiq, falsafa va tilshunoslikda shakllangan va antik davrdan to hozirgi kungacha bo'lgan uzoq davrni o'z ichiga oladi. Qadimgi yunon falsafasi davridayoq ismning o'ziga xos xususiyatlari haqida bahs-munozalar bo'lgan. Bunday tortishuvlar natijasida ism sharhining ikki yo'nalishi paydo bo'ldi: ismning mazmuni, ifodalanyotgan predmet nomining tabiatiga mos keladi degan fikrni bildirgan (Geraklit, keyinchalik stoiklar, Pifagorchilar shunday deb ishonishgan), boshqa yo'nalish tarafdorlari esa boshqa pozitsiyani egallagan, aniqrog'i, shaxslarga nom berishning ongli nomlash g'oyasini ishlab chiqqan (Demokrit, Aristotel, Platon). Bugungi kunda Platonning nom va obyektning asl motivatsiyasi o'rtasidagi aloqaning yo'qolishi va buning natijasida ism-narsa munosabatlari nomlash an'analoriga asoslanishi haqidagi fikrlari juda qiziqarli va dolzarbdir.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Ismning asosiy xususiyatlarini ilmiy tadqiq etish, fanda ancha kech paydo bo'lgan bo'lsada, nomlash har doim faylasuflar, tilshunolar, ilohiyotshunolar va madaniyatshunolarning diqqat markazida bo'lib kelgan va natijada inson ismlari XX asr gumanitar fanlarining eng dolzarb muammosiga aylandi. Ushbu izlanishlar sohasida P.A.Florenskiyning asarlari alohida o'rin egallaydi, u tilning falsafiy muammolariga qiziqishi nomlarni shaxs bilan uzviy aloqada ko'rib chiqadi [1]. Ushbu faylasufning asarlari rus diniy falsafasini yoritishga bag'ishlangan bo'lib, unda shaxs va uning ismi o'rtasidagi munosabatlar, uning asosiy me'zoni sifatida ismning mohiyati va so'zning tabiati kabi muammolar o'rganiladi. Bundan tashqari, mashhur faylasuf Jon Styuart Millning ta'kidlashicha, shaxs nomlari bir narsani boshqasidan farqlash uchun qo'yilgan ma'nosiz belgilaridir deb ta'kidlaydi ammo, bu fikr ko'pincha nomlar semantik jihatdan ma'nosizlashtirilmagan, balki maksimal ma'noga ega degan nuqtai nazarlar bilan qarshi olingan [2]. Demak, ismlardagi ma'no o'quvchilarning

qahramonlar shaxsiyatini qanday idrok etishiga ta'sir qiladi. Ushbu maqolada esa, ism va familiyaning tarkibiy qismlari ularning ism sohiblarining lingvistik, etnik, ijtimoiy va madaniy guruhlariga mansublik jihatlari ko'rib, tahlil qilinadi.

"Antroponim (grekcha anthropos – odam va onyma – ism so'zlaridan olingan) inson ism, shariflarini o'rganadi. Antroponimika – bu onomastikaning bir bo'limi bo'lib, antroponimlarni – odamlarning ismlarini, patronimlarni (otasining ismi), familiyalarni: avlod nomlarini, laqablarni va taxalluslarni, kriptonimlarni (yashirilgan ismlarni) o'rganadi. Shuningdek, badiiy asarlardagi antroponimlar, folklor, afsonalar va ertaklardagi qahramonlarning ismlarini ham o'rganiladi. Antroponimika xalq va kanonik ("diniy qoidalarga mos", "cherkov tomonidan tasdiqlangan" ma'nosida ishlatilgan. Demak, kanonik shaxsiy ismlar deganda, diniy kitoblarda uchraydigan yoki cherkov tomonidan ma'qullangan ismlar nazarda tutiladi) shaxsiy ismlarni, shuningdek, bir ismning turli shakllarini: adabiy va dialektal, rasmiy va norasmiy shakllarini ajratib o'rganadi. Har bir etnos har bir davrda o'z antroponimikasiga – shaxsiy ismlar ro'yxatiga ega bo'lgan" [3].

Shunday qilib, inson ismi orqali jamiyatda boshqalardan ajralib turadi. Insonga berilgan ism uni o'ziligini anglatadi. Har bir insonning ismi o'sha insonni boshqa shaxlardan farqlaydi. Insonga qo'yilgan ism shu insonning jismi, taniga aylanadi, uning xatti xarakterini ifodalaydi [4]. Bundan tashqari, shaxsning ismi va unvoni, uning maqomi, siyosiy intilishlari yoki qahramonlarning munosabatlari rasmiylik/norasmiylik darajasi kabi jihatlarni aks ettirishi mumkin. O'quvchilarning munosabati nuqtai nazaridan, ismlar ichidagi ma'no qahramonlarning ijtimoiy va individual ravishda qanday idrok etilishiga bog'liqligini o'rganish mumkin. Mualliflar qahramonlariga simlarnin asar yozishdan ancha oldinroq tanlaydilar va o'z qahramonlarini tanlangan ismlar orqali xarakterini, uning ijobiy, salbiy

qahramonligini, uning kuch qudratini, nimalarga qodir ekanligini ochib beradi. Boshqacha qilib aytganda, o'quvchi asardagi qahramonlarning ismlarini o'qish orqali, ularning kim, qanday obraz ekanligi haqidagi birinchi ma'lumotlarga ega bo'ladi. Masalan, biz tahlil qilayotgan "Garri Poter" asaridagi qahramonlarning ismlari orqali ikki xil dunyo, sehrgarlar dunyosi va oddiy odamlar dunyosi o'rtasida ko'rinmas, ammo mavjud chegarani idrok etishni ko'rishimiz mumkin.

**Tadqiqot metodologiyasi.** O'quvchilar Garri Poter ismini eshitishi bilan ko'z oldilarida ko'zoynak taqqan, yosh sehrgarning qiyofasi gavdalanadi. Demak, ismlarning yashirin ma'nolari – pragmatikasi, ularning ichki hissiyotlari, kechinmalari, ijobiy yoki salbiy obrazi, xarakteri o'quvchi kitobni sahifalarini o'qigan sari ochilib boraveradi. Ismlar jamiyatga, shaxslarga va ism egasiga o'zlik haqida ma'lumot yetkazishi ushbu tadqiqotning maqsadi bilan chambarchas bog'liqdir. "Garri Poter" asari muallifi J.K.Rouling ham o'z kitobida arxetiplar, mashhur afsonalar, rivoyatlar va folklor qahramonlarning ismlaridan foydalangan. Bunday lingvokulturologik birliklar asar qahramonlari shaxsiyatini shakllantirishga yordam beradi.

Lingvokulturologiya til birliklarining madaniy ahamiyatiga ega bo'lgan jihatiga, xalqning madaniy dunyosiga til prizmasi orqali nigoz tashlashga, shuningdek til madaniyatni ro'yogba chiqaruvchi vosita ekanligiga asosiy e'tibor qaratadi.

Mifologiyalashirilgan til birliklari. Bular arxetiplar va mifologemalar, udumlar va rivoyatlar, taomillar va urf-odatlar sanaladi. Har bir aniq frazeologizm butun boshli bir mif emas, balki mifologema aks etadi. Mifologema – bu mifning "bosh qahramoni", uning muhim personaji yoki vaziyati bo'lishi va u mifdan mifga o'tishi mumkin. Mifning asosida odatda arxetip yotadi. Arxetip – individlar ongida paydo bo'ladigan va madaniyatda tarqaladigan turg'un obrazdir. Arxetip tushunchasi K.G.Yung tomonidan 1919 yilda e'lon qilingan "Instinkt i bessoznatelnoye" maqolasida muomalaga kiritilgan. K.G.Yungga ko'ra, barcha odamlarda tush, miflar, ertak va afsonalarda paydo bo'ladigan ayrim umumiy ramzlar – arxetiplarni g'ayriixtiyoriy shakllantiradigan tug'ma qobiliyat bo'ladi. Arxetiplarda shaxsiy tajriba oqibatida emas, balki ajdodlardan meros qilib olingan "kollektiv g'ayriixtiyoriylik"ni ifodalaydi [5]. K.Yung genetik nazariya doirasida arxetipning mifologiya bilan chambarchas bog'liqligini ta'kidlaydi. Binobarin, mifologiya arxetiplarning omboridir [6]. Garchan, N. Fraye ta'kidlaganidek, adabiyotda qahramonlar, tasvirlar va mavzular, ularning qayerda va qachon yashashidan qat'iy nazar, universal ma'nolarni va insoniyatning asosiy tajribalarini ramziy ravishda ifodalovchi arxetiplar hisoblanadi [7]. Arxetip adabiyotda tez-tez takrorlanadigan va inson tajribasining elementi sifatida tan olinadigan, turli xil usullar, ramzlar, afsonalar va janrlarning murakkab tasnifini yaratadigan ramz sifatida ta'riflanadi. Adabiy arxetiplarga sexrli hikoyalarda qahramonlari, yerga monand turli makon va zamonlarga tegishli parallel olamlarda kechadigan voqealarni tasvirlaydi [8].

Karl Yungning fikricha, "kollektiv g'ayriixtiyoriylik" chuqur o'rnatilgan bo'lib, o'tmishdagi vaziyatlar, voqealar va munosabatlarni, xotiralarini o'z ichiga oladi [9]. Bu "kollektiv g'ayriixtiyoriylik" har bir insonning ongidan yuqorida mavjud bo'lgan insoniyatga xos bo'lgan boshlang'ich xotiralar to'plamidir. Arxetipik tanqid shuni taxmin qiladiki, barcha odamlarda asosan bir xil javob uyg'otadigan ramzlar, tasvirlar, qahramonlar va motivlar to'plami mavjud. O'quvchilarning ongida mavjud bo'lgan arxetipik obrazlar individual matnning adabiyotning universal jilvalari bilan bog'lash orqali aniqlashga yordam beradi. Ya'ni so'zlariga ko'ra, arxetiplarning o'quvchilarning ma'lum reaksiyalarini qanday qo'zg'atishini kuzatish qiziqdir. Demak, o'quvchilar Garrini tushunishga qodir, chunki har birimiz oliy sinovlarni boshdan kechiramiz [10].

O'quvchilar J.K. Rouling asarlaridagi qahramonlar ismlari orqali o'zlarida ko'plab qahramonlarning ochilgan qirralarini bilish imkoniyatlariga ega bo'ladi. Muallif asarning ayrim sahifalarida qahramonlar xarakteridagi ba'zi jihatlarni e'tibordan chetda qoldirgan. Qahramonning ismi orqali kitobxon o'tkazib yuborilgan bunday xislatlarni tushuna oladi va matn bilan bog'lay oladi. Misol uchun, sehrgarlar maktabidagi farroshning ismi Argus, bu yunon mifologiyasidan kelib chiqqan

va orqasida ham "mingta ko'zi bor qorovuldir" bu tasodifiy tanlov bo'lmaganligi aniq (farrosh bo'lib, mingta ko'zi borligi, u uchun zarur qobiliyatdir). Yana bir misol - Garrining tog'asi. U itga aylana oladi va tasodifan uning ismi Sirius bo'lib, ko'pincha "It yulduzi" deb ataladi va bu yulduz turkumlaridagi "Katta it" yulduzini bildiradi. Sirius shu sifat bilan tanilgan [11].

J.K. Rouling arxetiplar, afsonalar va folkloridan foydalangani kabi, o'z qahramonlarining ismlari uchun turli tillardan o'zlashgan so'zlarni ham ishlatadi. Misol uchun, o'qituvchilardan birining ismi Severus bo'lib, u lotin tilidan kelib chiqqan va "qo'pol/qat'iy" degan ma'noni anglatadi. Bu oxirgi ikki atama uning shaxsiyatidagi xususiyatlardir; u bosh qahramon eng yomon ko'radigan o'qituvchidir.

Asardagi bosh qahramon Garri ikki xil dunyoni birga bog'lovchi obraz hisoblanadi. Garri "yetim" arxetipi orqali Injildagi Muso qahramonidan boshlab millionlab o'rta asrdagi va undan keyin yashab ijod qilgan Charlz Dikkensning "Oliver Tvist"igacha va undan ham oldingi davrlarni eslash mumkin. Masalan, bolalar adabiyoti "Toshdagi qilich" asaridagi qirol Artur yetimlar haqida hikoya qiladi. Unda Artur (Vort deb ataladi) kichkina, dag'al sochli yetim bola bo'lib, sehrgar Merlin bilan uchrashadi. Merlin uni qasrga olib boradi, ta'lim va tarbiya beradi (bu voqea Gogvartsda Garri Poter bilan sodir bo'ladigan voqealarga juda ham o'xshash, xuddi Dambldor Garriga ustozlik qilgan kabi). Roal Dalning "Matilda" asaridagi qahramonning hayoti ham Dursli oilasi bilan Garrining hayotiga o'xshaydi. Matilda ham yetim va Vormvudlar unga yomon munosabatda bo'lishadi [12].

**Tahlil va natijalar.** Asardagi bosh qahramon Garri ismini tahlil qilamiz. Etimologik jihatdan. Garri "Henry"ning o'rta ingliz tilidagi shaklidan kelib chiqqan, "Henry" nemis tilidagi "Heinrich" ismidan kelib chiqqan bo'lib, "heim" (uy, mulk) va "ric" (hokimiyat, hukmdor) qo'shimchalaridan tashkil topgan. "Garri" "uy hukmdori" yoki "qudratli mulk egasi" degan ma'noni bildiradi. Asarda Garri o'zining ba'zi xatti-harakatlarini to'g'ri deb hisoblasa ham, lekin uning atrofidagi ko'plab boshqa qahramonlar uni "potty" yani "telba, ahmoq" deb o'ylashadi. Asarda Garri Poter qonunbuzarlikka borishga tayyorligini ko'rsatadi. Sehrgarlar olamida ajdarni olib yurish qonun bilan ta'qiqlangan bo'lishiga qaramay, Garri do'sti ba boshqalarga yordam berish uchun bu qonun qoidani buzadi. Bu uning axloqiy tamoyillariga sodiqligini va do'stlariga bo'lgan sadoqatini namoyon qiladi. Boshqacha qilib aytganda, bu uning qanchalik botir, do'stparvar, sadoqatli ekanini ko'rsatadi, shuning uchun u qonunni ham chetlab o'tishga tayyor. Qonunbuzishining asosiy sababi do'sti va yordamga muhtoj odamlarga yordam berish edi.

Potter bu kasbga oid familiya bo'lib, kulolchilik bilan shug'ullanuvchi shaxs deganini bildiradi. Potter o'rta ingliz tilidagi "potter(e)" so'zidan olingan bo'lib, "ko'zalar yasovchi" yoki "sotuvchi" ma'nosini anglatadi. Bu oddiy, keng tarqalgan familiya bo'lib, amaliy hunarmandchilikdan kelib chiqqan familiyadir.

"Potty" (telba, ahmoq). Garrining harakatlari ba'zan atrofidagilar tomonidan bema'ni yoki telba deb hisoblanadi, ammo u ba'zan o'ziga maqbul bo'lgan ishlarni qiladi. Kitobxon o'zing dunyoqarashlari va ehtiyojlaridan kelib chiqib, qahramonning ko'rinishi xaqida turlicha fikrlaydi. O'quvchilar qahramonlarning ko'rinishlarini yodda saqlaydi va asarni o'qishi davomida bu obrazlarni kengaytiradi. Demak, bu jumladan Garrining ishlari ba'zan shubhali bo'lsa ham, o'quvchi qahramonni shaxsan o'zi qanday tasavvur qilgani muxim hisoblanadi. Garchan, Garrini ba'zida bema'ni ishlar qilishini bilishsada, bu uni o'quvchilar ongida yanada jonliroq gavdalandiradi, chunki har bir o'quvchi qahramonning kim ekanligini o'zicha tasavvur qiladi, tushunadi, har kimning dunyoqarashi turlichadir.

Sintaktik. Ism + Familiya - bu g'arbda qabul qilingan standart nomlash konvensiyasi. "Harry" inson ismi. "Potter" esa nasl-nasabni – familiyani bildiradi.

Semantik. "Harry"ning etimologik ildizlari "hukmdor" degan ma'no nazarda tutsada, zamonaviy ingliz tilida "Harry" bu ma'no unutilgan. Bu tanish, do'stona ism, kitobdagi kontekstga ko'ra Garri "Harri" ismi "qobiliyati yoki taqdiri baland" degan ma'nolarga ega. "Potter" so'zi "loy" bilan bog'langan,

“hunarmand, oddiy odamni” ifodalaydi. “Poter” ismi “Garri Poter”dagi bosh qahramon taqdiri shakllantiradi yani “Potter” nomi keyinchalik uning mashhurligi va sehrli qobiliyatlari bilan qiziqarli kontrastni yaratadi. Bu uning ismi taqdiri bilan ismi jismi bilan bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

Lingvokulturologik jihatdan. Garri “Harri” Buyuk Britaniyada keng tarqalgan inglizcha ism. Ushbu ism kitobxon ko'z o'ngida bir qarashdan oddiylik tuyg'usini uyg'otadi. “Potter” Britaniya va boshqa ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlarda keng tarqalgan familiyadir. Bu familiya shaxsning ishchi sinfi yoki o'rta sinfga mansubligini ko'rsatadi. J.K. Rouling o'zining intervyularida ushbu asarda ataylab shu soddada familayani tanlaganini aytgan. “Garri Poter” esa hammaga ma'lum ism va keng tarqalgan familiyaning kombinatsiyasi. Garri oddiy ijtimoiy sinfdan kelib chiqqan shaxs sifatida beriladi.

“Garri Poter” nomi sirdan qaraganda juda oddiy va kamtarona. Uni talaffuz qilish, eslab qolish va asotstasiya qilish juda oson. Biroq, uning kamtarligi, kelib chiqishi asarda keng ma'nolarni o'z ichiga oladi. Ushbu oddiylik Garri yashaydigan g'ayrioddiy dunyo va taqdiri bilan keskin farq qiladi. Bu nom o'quvchini Garri oddiy sharoitlardan aql bovar qilmas dunyoga tushib qolgan “boshqa bir qahramon”ni ko'rishga tayyorlaydi. Garri Poter ham dunyodagi qora kuchlarga qarshi kurashgan qahramonlar, ularning bosib o'tgan uzoq mashshaqqatli yo'llari va nihoyat g'olib arxitiplari timsolida gavdalanadi.

Shuningdek, asardagi qahramonlarga turli vaziyatlarda turlicha murojaat qilinadi. Masalan, Garrining o'rtoqlari unga “Garri” deb murojaat qiladilar. Maktab professorlari esa Garrini “Janob Garri” (Mr Garry) deb murojaat qiladi. Asardagi qahramonlarga murojaat qilish ularning kuchi, qudrati, mavqei, lavozimi, ilmi va salohiyati kabi sifatlaridan kelib chiqiladi.

Asardagi yana bitta qahramon “Voldemort” ismini tahlil qilamiz. Voldemort – “Garri Poter” seriyasidagi bosh antagonist, qora sehrger, o'lim yoyuvchilarning yetakchisi. U mugllarga (sehr qila olmaydigan odamlarga) nisbatan nafratga to'lib toshgan va sehrgerlar olamida ulkan hokimiyatga erishishga intiladi. Voldemort o'zining shafqatsizligi, qora sehrga moyilligi va o'limdan qo'rqishi bilan mashhur.

Etimologiya. “Voldemort” fransuz tilidan olingan bo'lib, “vole de mort” o'lim parvozi degan ma'noni anglatadi. Odatda “burgutning birinchi parvozi” degan ma'nosini ham anglatadi, ammo bu holda “vol”ni o'g'irlik deb tushunish mumkin. O'rta asrlarda Voldemort ismi “zulmat” “yovuzlik” sehrgeri bo'lgan. Boshqa tilda Voldemortist “yovuzlik hukmdori” yoki “Qorong'u Lordi”(Black Lord) degan ma'noni anglatadi. Afsonalarga ko'ra, Voldemortist Artur shoh bo'lishidan oldin Merlinni sehrlab, yaxshi odamlarni afsunlab, yovuzlarni yo'q qilishga uringan. Afsonalarda ta'kidlanishiga ko'ra, Merlin Voldemortistni oddiy falajlanish afsuni yordamida yo'q qilgan, uni ko'p boshli ko'l

hayvoniga yedirgan, sehrlangan odamlarni ozod qilgan va yovuz odamlarni yo'q qilgan.

Semantika. “Vol” lotincha “volo” (xohlash) so'zidan olingan bo'lib, o'lim istagi yoki “o'lim tilagi” degan ma'noni anglatadi. Shimoliy german tillar oilasiga kiruvchi daniya tilida “vold” zo'ravonlik degan ma'noni anglatadi. Bundan tashqari, daniya tilida “volde” “sabab” degan ma'noni ham anglatadi va “valde” so'zidan ya'ni “buyuk”, “ota”, “kuchli”, “qudratli” degan ma'nolarni anglatadi.

Sintaksis. Voldemort bu yerda “ot”. Professor MakGonagall ko'pincha Voldemortga quyidagicha murojaat qiladi: “u kimning-ismini-ayta-olmaymiz” (you-know-who). Bu eng ko'p ishlatiladigan murojaat shakli. U (he) ba'zida shunchaki “u” deb ham ishlatiladi. Bu ham “o'lim parvozi”, “o'limni o'g'irlash”, “o'lim istagi”, “o'lim tilagi” degan ma'nolarni anglatadi. Ko'pchilik Voldemortning ismi to'g'ridan-to'g'ri o'lim bilan bog'liq bo'lganligi, behosiyatligi va undan qo'rqishganligi sababli uni ismi bilan chaqirmaydi. Qora Lord (Dark Lord) bu uning o'lim yoyuvchilar orasidagi unvoni bo'ladi. Shu sababli, Voldemort nafaqat adabiy qahramon, balki madaniy arxetip sifatida ham yovuzlikning, o'lim qo'rquvining va hokimiyatga intilishning timsoliga aylanadi. Voldemortni o'z ismini anagramma orqali o'zgartirib, “I am Lord Voldemort” yani “Men lord Voldemortman” degan iborani ishlatadi. Bu bilan Voldemort o'zining shaxsiyatini yashirish va o'ziga xos qo'rquv uyg'otish uchun bu nomlardan foydalanadi. Uning o'zi ham o'limdan qo'rqadi va o'z nomini boshqalar tomonidan aytilishidan ham qo'rqadi, chunki uning ismi qanchalik chaqirilaversa uni shunchalik zaiflashtiradi deb hisoblaydi. Voldemortning ismi shunchalik qo'rqinchlik, sehrgerlar olamida uni tilga olishdan qo'rqishadi. Bu holat madaniyatda tabu tushunchasini aks ettiradi, ya'ni ba'zi narsalar shunchalik xavfli yoki hurmatsiz hisoblanadiki, ularni tilga olish ham mumkin emas. Voldemort lingvomadaniy birlik sifatida “o'lim”, “yovuzlik”, “qo'rquv”, tabu va abadiyot bilan bog'liq bo'lgan murakkab ma'nolarni o'z ichiga oladi. U nafaqat ism, balki madaniyatdagi ma'lum bir tushunchalar va his-tuyg'ularni ifodalovchi ramzdir.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, antroponimlar jamiyatda shaxsning o'zini anglashda, ismning mohiyati va ahamiyati kattadir. Ismlar qahramonlar hayotida muxim rol o'ynaydi. Ismlar qadim zamonlardan beri falsafiy va ilmiy munozaralarning markazida bo'lgan, ularning tabiatiga oid turli qarashlar mavjud. Ismlar semantik jihatdan ma'noga boydir. Ismlar o'quvchilarning qahramonlar shaxsiyatini idrok etishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ismlarning adabiyotda ramziy ma'nolarga ega. Ularning kelib chiqishi, mifologik voqea xodisalar qahramonlar shaxsiyatini chuqurroq anglashga yordam beradi. Arxetipik obrazlar va mifologik elementlar adabiy asarni boyitib, o'quvchilarga qahramonlar va voqealarni yanada yaxshiroq tushunish imkonini beradi.

#### ADABIYOTLAR

1. Флоренский П.А. История философии философия историческая литература. 2000. - С.270.
2. Keats-Rohan K. S. B. Prosopography approaches and applications a handbook. Prosopographical Research, Linacre College, University of Oxford. 2007. p. 156.
3. Лингвистический энциклопедический словарь. – М.: Большая Российская энциклопедия, 2008 (электронное издание). – с. 336.
4. Keats-Rohan K. S. B. Prosopography approaches and applications a handbook. Prosopographical Research, Linacre College, University of Oxford. 2007. p. 178.
5. Jung C. The Spirit in Man, Art, and Literature. London: Routledge. 1996. pp.84-85.
6. Маслова В. А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. –М.: Издательский центр «Академия», 2001. С. 37-38.
7. Frye N. The Archetypes of Literature in Sugg R. Jungian Literary Criticism. USA: Nothwestern University Press. 1957. - P.26.
8. Toshpulatova V. I. Fentezi janridagi romanlarning ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjimasida lingvopragmatik va lingvomadaniy aspektlar (J.Rouling romanlari misolida). Avtoref.filol.fan.dok...diss. – T., 2025. 12 b.
9. Jung C. The Spirit in Man, Art, and Literature. London: Routledge. 1996. P.84.
10. Keats-Rohan K. S. B. Prosopography approaches and applications a handbook. Prosopographical Research, Linacre College, University of Oxford. 2007. P. 266.
11. Colbert D. The Magical Worlds of Harry Potter. London: Penguin Group. 2001. p. 43.
12. Colbert D. The Magical Worlds of Harry Potter. London: Penguin Group. 2001. p. 49.
13. Jofre M.A., Blanco M. Para leer al lector. Una antología de la literatura post estructuralista. Santiago de Chile: Universidad Metropolitana de Ciencias de la Educación. 1978.
14. Juraeva I.A. Formation and development of anthroponymic dictionaries in English lexicography. American Journal of Philological Sciences. Vol. 4 No. 01 (2024): Volume 04 Issue 01. pp. 20-24.
15. Juraeva I.A. Lexical-semantic Features of Anthroponyms in English Language. Journal of Contemporary Issues in Business and Government. Vol. 27, No. 4, 2021. p.20-23. <https://cibg.org.au/>
16. Jurayeva I.A. Ingliz va o'zbek antroponimik lug'atlarida atoqli otlarning berilish usullari. Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti. 4/ 2024.80-86 b.
17. [www.harrypotterfans.net/potterica/index.html](http://www.harrypotterfans.net/potterica/index.html) - accessed September 2011.



**Javlon IBRAGIMOV,**  
*Axborot texnologiyalari va menejment universiteti dotsenti v.b., f.f.d*  
*E-mail: boburdusyorov@gmail.com*

*NavDU dotsenti, f.f.d F.Yuldashev taqrizi bilan*

### O'ZBEK TILINI AMALIY TADQIQ QILISH ZARURATI

Аннотация

Garchi tilshunoslik fani XIX asrda mustaqillikka erishib, davr talabiga o'z muammosi doirasida munosabatda bo'la boshlaganiga qaramay, boshqa fanlar tarkibida bo'lgan zamonda ham ijtimoiy buyurtma olar va uni ado etish bilan mashg'ul bo'lar edi. O'zbek tilshunosligi tarixida XX asrning birinchi yarmi hozirgi o'zbek adabiy tili meyorlarini ishlab chiqish va ommalashtirish davri hisoblanadi. O'z oldiga davr talablaridan kelib chiqib, muayyan maqsadlarni qo'ygan o'zbek tilshunosligi 50-60 yil mobaynida o'zbek adabiy tili meyorlarini ishlab chiqish va ommalashtirishdan iborat ulkan zarurat asosida ish ko'rdi.

**Kalit so'zlar:** Tilshunoslik, o'zbek tili, ijtimoiy taraqqiyot, iqtisodiy hayot, qarluq, lahja, lingvistik, etnografik, ilmiy adabiyotlar.

### НЕОБХОДИМОСТЬ ПРАКТИЧЕСКОГО ИЗУЧЕНИЯ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация

Несмотря на то, что наука языкознание обрела в XIX веке самостоятельность и стала отвечать потребностям времени в рамках своей собственной проблемы, она получила социальный заказ и была занята его выполнением даже в то время, когда входила в состав других наук. В истории узбекского языкознания первая половина XX века является периодом развития и популяризации норм современного узбекского литературного языка. Исходя из требований времени, узбекское языкознание, поставив перед собой конкретные задачи, работало исходя из большой необходимости разработки и популяризации норм узбекского литературного языка в течение 50-60 лет.

**Ключевые слова:** Языкознание, узбекский язык, общественное развитие, экономическая жизнь, каралук, диалект, лингвистическая, этнографическая, научная литература.

### THE NEED FOR PRACTICAL STUDYING THE UZBEK LANGUAGE

Annotation

Despite the fact that the science of linguistics gained independence in the 19th century and began to meet the needs of the time within the framework of its own problem, it received a social order and was busy fulfilling it even at a time when it was part of other sciences. In the history of Uzbek linguistics, the first half of the 20th century is a period of development and popularization of the norms of the modern Uzbek literary language. Based on the requirements of the time, Uzbek linguistics, having set specific tasks for itself, worked on the basis of the great need to develop and popularize the norms of the Uzbek literary language for 50-60 years.

**Key words:** Linguistics, Uzbek language, social development, economic life, Karaluk, dialect, linguistic, ethnographic, scientific literature.

**Kirish.** X-XI asrlar o'zbek xalqi tarixida taraqqiyot tendensiyalarining o'ziga xosligi bilan xarakterlanadi. X asrning birinchi yarmida Yettisuv va Koshg'ar hududida istiqomat qiluvchi qarluq, chigil va yag'mo qabilalari ijtimoiy va iqtisodiy hayotda taraqqiyotning yangi pillapoyasiga qadam qo'yd. Iqtisodiy hayotdagi siljish shunda ko'rinadiki, ko'chmanchilik o'troq hayotga aylandi, o'troq hayot dehqonchilikning kuchayishiga olib keldi, bu esa, o'z o'rnida, shaharlarning barpo bo'lishiga, savdo-sotiq ishlarining rivojlanishiga sabab bo'ldi. Ayniqsa, bu hududdan qadimiy savdo karvon yo'lining o'tganligi ishlab chiqarish va savdo-sotiqning yuksalishiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi.

Iqtisodiy o'zgarish ijtimoiy taraqqiyot bilan birga kechdi. O'troqlashish natijasida yuzaga kelgan dehqonchilikning yangi sifat bosqichiga qadam qo'yishi feodal yer egaligini ham har taraflama rivojlantirdi. Mulkiy va sinfiy tabaqalanish kuchaydi. Xullas, "murakkab ichki jarayonlar, feodal dehqonchilik dunyosi va karvon yo'lidagi boy savdo-hunarmandchilik shaharlarining bevosita ta'siri chorvador turk qabilalarining ijtimoiy hayotida ilk feodal munosabatlarning shakllanishida asosiy omil bo'ldi. Buning oqibatida bu hududlarda siyosiy vaziyat nihoyatda keskinlashib ketdi" [1].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Qoraxoniylar davlatining tashkil topishida qarluq va chigillar, ayniqsa, qarluqlar katta rol o'ynadi. Bu davrda madaniy rivojlanishda ham kichik "ellinizm"ni ko'rish mumkin. "Qoraxoniylar davlatiga madaniy jihatdan rivojlangan ikki xalq – Sharqda uyg'ur va G'arbda turk-eronlar birlashdi. Ular madaniyati birlashib, o'sha davr tiliga ham kuchli ta'sir qildi. Natijada Sharqda qarluq-chigil-uyg'ur

dialekti asosida sharqiy adabiy til rivojlandi" [2]. Bu dialekt tarkibida qarluqlar ustuvor bo'lgan. Mahmud Koshg'ariy til dalillari asosida qabilalarning o'zaro munosabati, lahjalarning bir-biriga ta'siri, ularga asos bo'lgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy omillar o'rni va rolini keng va atroflicha ochib beradi [3].

Turk xoqonligida urug' va qabilalarning xalq bo'lib shakllanishi uchun ijtimoiy-siyosiy imkoniyat vujudga keladi. "Bu vaqtda g'arbiy xoqonlikda qarluq, qang'li, turgesh, chigil, uyg'ur urug'lari birlashgan edi. Bular orasida qarluqlar katta o'rinni egallaydi (ajratish bizniki – J.I.). Bu urug'lar qadimda Oltoyning g'arbiy qismidan kelib, Farg'ona va Toshkent havzasiga joylashadi. Xalaj va qarluq urug'lari avvalo Yettisuvda, qang'lilar Qozog'iston va Qirg'iziston yerlarida, yag'molar Issiqko'lining janubi va Sharqiy Turkistonda, turgeshlar Balxash ko'lining janubida, chigil (chigli)lar esa Issiqko'l atrofida yashab, keyinroq O'zbekiston hududiga ham ko'chadi va mahalliy urug'lar bilan qo'shilib ketadi. Turkiy urug' va qabilalarning o'troqlashishi, katta shaharlarning paydo bo'lishi turk xalqi hamda umumturkiy xalq tilining shakllanishida katta rol o'ynadi. Bu vaqtda uch xil yozuv (xorazm, so'g'd, run yozuvlari) mavjud edi" [4].

Qabilalar orasida madaniy va ijtimoiy, iqtisodiy jihatdan yetakchilik qilayotgan qarluq qabilasi turkiy yag'mo, chigil, uyg'ur, qipchoq, noturkiy eroniy, arabiy xalqlarning tillari xususiyatlari bilan uyg'unlashib, struktur jihatdan o'ziga xos dialekt shakllana boshlaydi. Ayniqsa, X asr oxirlarida Yettisuv va Qashqarda qoraxoniylar davlatining vujudga kelishi va bu davlat qarluq va chigil urug'laridan tashkil topishi [5], bunda qarluqlarning ustunligi qarluq dialektining o'ziga xos shakl-u



shamoyildagi turkiy til darajasiga o'sishida katta omil bo'lib, lahja mustaqil til maqomi sari rivojlana boshlaydi. "Bu bosqichda o'zbek xalqi va uning umum tilining shakllanishiga zamin tayyorlana boshlaydi. Boshqa qardosh turkiy xalq va tillarning shakllanishi ham shu davrga to'g'ri keladi" [5].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Qoraxoniylar davlatidagi qarluq lahjasi turli manbada turlicha nom bilan yuritilgan. Zamonaviy fanda eski turkiy til atamasi bilan nomlanuvchi qarluq turkiysi turkiy, sharqiy turkiy, chig'atoy tili kabi nomlar bilan ham yuritilgan [6].

Manbalarda Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'otit turk" asariga lingvistik, ensiklopedik manba sifatida yondashilib, uning tarixiy va ilmiy ahamiyati haqida gap ketganda, "XI asrga kelib shahar va qishloqlardagi qabilalar o'rtasidagi munosabatlarning rivojlanishi natijasida tilda xilma-xil formalar qo'llandi. Bu esa tilda ma'lum normalar yaratishga ehtiyoj tug'dirdi. Shu ehtiyoj Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'otit turk" asarini yozishga da'vat etdi" tarzidagi e'tiroflar ko'p uqtiriladi [7].

Mahmud Koshg'ariy zimmasida aloqa va muomaladagi turkiy qavmlar tillarining meyorlarini yaratish istagi shakllanayotgan tilning umumturkiy tildan ajralib, mustaqil rivojlanish o'zaniga tushganligini, uning mustaqil til ekanligini ko'rsatuvchi fonetik, leksik-grammatik xususiyatlarini o'rganish va ilmiy asoslash ijtimoiy, ma'naviy ahamiyatga ega, qoraxoniylar davlatining mafkuraviy asoslarini mustahkamlashga xizmat qilar edi. Bu – davr talabi, ijtimoiy ehtiyoj, sotsial buyurtma edi. Shu boisdan Mahmud Koshg'ariyning mazkur va topilgan yana bir – "Javohir un-nahv" asarini yozishdan maqsadi va vazifalarini ijtimoiy ehtiyoj va davr talabi kontekstida quyidagicha baholash mumkin. Ijtimoiy nuqtai nazardan xoqonlikdagi xalqlarning jipsligini mustahkamlash, mafkuraviy jihatdan xoqonlikdagi yetakchi xalqning madaniy saviyasini yoritish, lingvistik jihatdan eski o'zbek tilining lingvistik bahosini berish kabi bir-birini mustahkamlovchi zarurat ijtimoiy ehtiyoj sifatida namoyon bo'lgan.

Ijtimoiy buyurtma o'sha davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-mafkuraviy yuksalish asosida shakllanganligi bilan bir qatorda fan va madaniyatning rivojlanish darajasi ham turkiylar tilining lingvistik xususiyatini o'rganishga turtki bo'lib xizmat qilgan edi.

Buxoro, Samarqand, Urganch, Marv, Balx, Nishopur kabi markaziy shaharlar gullab-yashnagan bu davrda kitobchilik va kitobfurushlik, o'z navbatida, kitobxonlik bemsil rivojlangan. Kitob rastalarida diniy va dunyoviy ilmlarning nodir namunalari bo'lgan kitoblar sotilgan. Ibn Sinoning Buxoro bozoridan Abu Nasr Forobiy qalamiga mansub "Arastu "Metafizika"siga sharhlar" kitobini uch dirhamga sotib olganligi haqida xotiralari asarlarida saqlanib qolgan.

Qoraxoniylar davrigacha bo'lgan somoniylar hukmronligi davridagi siyosiy barqarorlik va iqtisodiy yuksalish davrida fan va madaniyat gullab-yashnagan. Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abu Abdulloh Xorazmiy, Muhammad Narshaxiy kabi o'z zamonasining buyuk siymolari qoldirgan boy va nodir ilmiy yodgorliklar fanning keyingi sohalari rivojiga katta turtki bo'lganligi ayon.

Abu Nasr Forobiyning "Musiqqa kitobi", "Arastuning "Metafizika" asari maqsadlari haqida", "Baxt-saodatga erishuv haqida", "Tirik mavjudot a'zolari haqida", "Siyosat al-madoniya", Abu Ali Ibn Sinoning besh jildlik "Al-qonun fit-tib", "Kitob ush-shifo", "Donishnoma", "Salomon va Absol", "Risolat-at-tayr" asarlari ilmiy dunyoqarash rivojlanishida, fanning turli sohalari taraqqiyotiga kuchli ta'sir qilgan. Ayniqsa, yaratilgan ijtimoiy-siyosiy mavzudagi asarlar lingvistik qarashlarning rivojlanishiga kuchli ta'sir ko'rsatgan. Masalan, Abu Rayhon Beruniy tomonidan yaratilgan nodir asarlar tabiiy fanlar, ijtimoiy fanlar bo'yicha muhim manba bo'lib xizmat qilishi bilan birgalikda, o'tmishda yashab o'tgan xalq va qavmlarning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-mafkuraviy hayoti, turmush tarzi bo'yicha ham keng qamrovli ma'lumotlar berishi bilan ahamiyatli. Beruniy qalamiga mansub Markaziy Osiyoning o'sha davrdagi eng ilg'or ijtimoiy harakatlaridan biri bo'lgan qarmatiylarga bag'ishlagan "Kitob fi axborot il-mubayyot val-qaromita" ("Oq kiyimliklar va qarmatiylar xabarlar haqida kitob") asari, undan so'ng

yaratilgan "Yodgorliklar", "Hindiston", "Kitob ul-maqolot val-arz vad-diyonot" ("Maqolalar, e'tiqodlar va dinlar haqida kitob"), "Kitob fi axbori Xorazm" ("Xorazm xabarlar haqida kitob"), "Kitob tarixi ayyom as-Sulton Mahmud va axbori abih" ("Sulton Mahmud davri tarixining kitobi va otasi haqidagi xabarlar") kabi asarlari ma'naviy va diniy, ilmiy va ijtimoiy dunyoqarashning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etgan. Olimning "Yodgorliklar" ("Al-osor al-boqiya") deb nomlangan asari podshohlar va mashhur shaxslarning tarixini yorituvchi va o'sha davrning madaniyatini aks ettiruvchi tarixiy etnografik manba. Asar islomgacha bo'lgan (Xorazmda) butun bir davr haqida qimmatli ma'lumotlar olishga imkon beradi. Unda yunonlar, rimliklar, eroniylar, so'g'diylar, xorazmliklar, harroniy(yulduzga sig'inuvchi)lar, qibtiylar, xristianlar, yahudiylar, islomgacha bo'lgan arablarning yil hisoblari, bayram va mashhur kunlari batafsil yoritilgan, qator xalqlarning ijtimoiy va ma'naviy hayoti hamda tarixiga oid bebaho ma'lumot bor [8]. Bunday noyob manbalar ijtimoiy, ma'naviy-mafkuraviy taraqqiyotda til va uning roli ortib borishini ko'rsatadi. Bu esa, o'z-o'zidan, lingvistik qarashlarning shakllanishiga va yangi sifat bosqichiga ko'tarilishiga mustahkam zamin hozirlagan.

**Tahlil va natijalar.** Qolaversa, nomlari zikr etilgan buyuk mutafakkirlarning bevosita tilshunoslikka oid qarashlari, yaratgan asarlari ham Mahmud Koshg'ariy lingvistik dunyoqarashi shakllanishida, davr zimmasiga yuklayotgan ijtimoiy mas'uliyatni anglab yetishida katta ahamiyat kasb etgan. To'g'ri, ayrim asarlarida Forobiyning tilshunoslikka oid qarashlari boshqa sohalarga doir qarashlaridan mustaqil ifodalanmagan. Lekin bevosita til, uning nazariy va amaliy masalalariga doir maxsus fikrlari ham borki, ular Vatani tilshunosligi rivojiga ulkan hissa bo'lib qo'shilgan. Jumladan, "Sharh kitob-al-Xitoba li Aristotilos" ("Aristotelning "Ritorika" asariga yozilgan sharh kitobi"), "Kitob al-alfoz va al-huruf" ("So'zlar va harflar haqida kitob"), "Kalom lahu fi ma'no ism al-falsafa" ("Falsafa nomining ma'nosi haqida"), "Kitob fi al xitoba kabir, ishrun majalladan" ("Ritorika haqida yigirma jildlik katta kitob"), "Kitob fi sinoat al-kitoba" ("Yozuv san'ati haqida kitob"), "Kalom lahu fi ash-she'r va al qavofiy" ("She'r va qofiyalar to'g'risida so'z"), "Kitob fi al-lug'at" ("Lug'atlar haqida kitob") asarlari jahon til ilmidagi muhim voqea bo'lgan va Markaziy Osiyoda tilshunoslikning falsafiy va fahmiy bosqichlarini boshlab bergan. Koshg'ariy lingvistik dunyoqarashining shakllanishida muhim rol o'ynagan.

Ko'rinadiki, shakllangan ilmiy dunyoqarash, yaratilgan ilmiy adabiyotlar yangi davr fanining rivojiga olib kelgan, ijtimoiy zarurat va davr talabi o'zining yangi sifat bosqichida ijtimoiy fanlar taraqqiyotiga zamin hozirlagan.

Shunday qilib, Mahmud Koshg'ariy zimmasiga yuklatilgan ijtimoiy buyurtmaning vujudga kelishi ham ijtimoiy-siyosiy taraqqiyot, ham ma'naviy va mafkuraviy evrilishlar, ham ilmiy va madaniy yuksalish natijasi. Boshqa buyuk daholar "taqdiri"da bo'lgani kabi tarixiy davr va tarixiy siymo uyg'unligini Mahmud Koshg'ariy shaxsida ham yaqqol kuzatamiz. "Olim qoraxoniylar davlati xalqini turk (turklar) atamasi bilan qayd qildi, ularni va ularning tilini, avvalo, shu mintaqada yashayotgan o'g'uz, turkman va uyg'ur qavmlari hamda ularning tilidan farqladi. Davr talabi va tarixiy zaruratni anglab, qo'yilgan ijtimoiy buyurtmani mukammal darajada ado etdi"[9].

**Xulosa va takliflar.** Turkiy tilshunoslikning keyingi davrida ijtimoiy zaruratning xususiy masalalari ado etilganligini ko'rish mumkin. Boshqacha aytganda, Koshg'ariy tomonidan anglangan ijtimoiy zarurat va davr talabi asosida vujudga kelgan lingvistik amaliyot an'anasi davom ettirildi. Koshg'ariydan keyingi davr tilshunosligiga doir qarashlar tilshunoslik tarixiga doir asarlarda keng va atroflicha bayon etilgan. Biz ulardagi qarashlarni umumlashirgan holda aytishimiz mumkinki, "adabiy manbalarni tahlil qilish – so'z ma'nolariga, ularning qo'llanishiga e'tibor berish, izohlash, lisoniy, ma'rifiy qiymatini o'chish, asarlarning tarjimai kabi masalalar bilan shug'ullanish keyingi davr leksikografiyasining maqsad va vazifasi bo'ldi. Bunda Eron shohi Nodirshohning kitobi astrobodlik Nizomiddin Muhammad Hodi al-Husayni as-Safaviy (Mirzo Mehdixon) ning "Sangloh" (1760) lug'atini alohida ta'kidlash lozim. An'anadagidek, bu lug'atdan «Maboni ul-lug'at, ya'ni sarfi va nahvi lug'ati

chig'atoy» nomi bilan eski o'zbek tilining grammatikasiga oid ayrim tavsiflar ham o'rin olganligi e'tiborga molik. Lug'atda, asosan, she'riy matnlardagi, shuningdek, Lutfiy, Bobur asarlaridagi tushunilishi qiyin bo'lgan so'zlar izohiga, ularni fors tiliga tarjima qilish muammolariga diqqat qaratilgan" [9]. Bundan tashqari, Jamoliddin Muhammad Abdulloh Turkiyning XIV asrlarda yaratilgan "Kitobu-l-lug'at al-mushtoq fi lug'ati-t-turk va-l-qafchoq" ("Turk va qipchoq tillari mushtoqlarini

qiziqtiruvchi kitob"), Asiruddin Abu Hayyon al-Andalusiy (1256–1345) ning "Kitobu-l-idrok li-l-lisonil atrok", XIV–XV asrlarda yaratilgan va muallifi noma'lum bo'lgan "Attuhfatu-z-zakiyatu fi-l-lug'ati-t-turkiya" asarlari turkiy lug'atchilik an'analari asosida yuzaga kelgan. Yetilgan ijtimoiy zarurat davr sinovlaridan o'tib, an'ana tusini olgan. An'anaviylik esa yangi sifat ko'tarilishlarini keltirib chiqarishda poydevor vazifasini o'taydi.

#### ADABIYOTLAR

1. Мухаммаджонов А. Ўзбекистон тарихи: 6-синф тарихи ўқитувчилари учун қўлл. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994.
2. Турсунов У., Ўринбоев Б. Ўзбек адабий тили тарихи: Педагогика институтларининг филология факультетлари студентлари учун қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи, 1982.
3. Кошғарий М. Девони луғотит турк. I том. – Тошкент: ЎзССР Фанлар академияси нашриёти, 1960.
4. Абдурахмонов Ғ., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. Морфология ва синтаксис: университетларнинг филология факультетлари ҳамда педагогика институтларининг тил ва адабиёт факультетлари учун қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи, 1973.
5. Абдурахмонов Ғ., Шукуров Ш. Қўрсатилган асар.
6. Sayfullayeva R., Mengliyev B. Hozirgi o'zbek adabiy tili: Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2010.
7. Турсунов У., Ўринбоев Б. Ўзбек адабий тили тарихи: Педагогика институтларининг филология факультетлари студентлари учун қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи, 1982.
8. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 1 жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2000.
9. Mengliyev B. Til ilmi: zaruriyat va an'ana // "Ma'rifati" gazetasi, 2012-yil 28 aprel.



*Umida IRGASHEVA,*  
*O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti o‘qituvchisi*  
*E-mail: umida.0402@mail.ru*

*ToshDO‘TAU professori, f.f.d Z.Xolmanova taqrizi asosida*

### XITOIY FRAZEOLOGIZMLARIDA EMOTSIONAL BAHOLASH: LINGVISTIK VA MADANIY NUQTAI NAZAR

Аннотация

Ushbu maqola xitoy tilidagi frazeologik birliklar (asosan, 成语chengyu – to‘rt belgili iboralar) orqali emotsional baholarning ifodalanishini madaniy, tarixiy va falsafiy kontekstlarda tadqiq etadi. Tadqiqotda quvonch, g‘azab, qayg‘u va qo‘rquv kabi asosiy hisslarning lingvistik ifodalanishi konkret misollar bilan tahlil qilingan. Maqolada Konfutsiylik, Daoizm, Buddizm va xalq an‘analarning frazeologiyaga ta‘siri ko‘rib chiqilib, til va madaniyatning o‘zaro bog‘liqligi nazariyalari [Kövecses, 2000; Sharifian, 2017] asosida tahlil qilingan. Xitoy va o‘zbek frazeologiyasidagi umumiy motivlar qiyosiy tahlil qilinib, madaniyatlararo muloqotdagi ahamiyati ta‘kidlangan.

**Kalit so‘zlar:** Xitoy frazeologiyasi, emotsional baholash, chengyu (to‘rt belgili iboralar, madaniy lingvistika, metafora va metonimiya, Konfutsiylik va Daosizm, kognitiv semantika).

### ЭМОЦИОНАЛЬНАЯ ОЦЕНКА В КИТАЙСКИХ ФРАЗЕОЛОГИЗМАХ: ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ И КУЛЬТУРНАЯ ТОЧКА ЗРЕНИЯ

Аннотация

В этой статье исследуется выражение эмоциональных оценок через фразеологизмы китайского языка (в основном 成语chengyu – четырехсимвольные фразы) в культурном, историческом и философском контекстах. В исследовании на конкретных примерах анализировалось лингвистическое выражение основных чувств, таких как радость, гнев, печаль и страх. В статье рассматривается влияние конфуцианства, даосизма, буддизма и народных традиций на фразеологизм и анализируется взаимосвязь языка и культуры на основе теорий [Kövecses, 2000; Sharifian, 2017]. Проведен сравнительный анализ общих мотивов в китайской и узбекской фразеологии и подчеркнута их значимость в межкультурном общении.

**Ключевые слова:** Китайская фразеология, эмоциональная оценка, чэньюй (четырёхсимвольные фразы, культурная лингвистика, метафоры и метонимия, конфуцианство и даосизм, когнитивная семантика).

### EMOTIONAL ASSESSMENT IN CHINESE PHRASEOLOGICAL UNITS: A LINGUISTIC AND CULTURAL POINT OF VIEW

Annotation

This article examines the expression of emotional assessments through Chinese phraseological units (成语chengyu – four-character phrases) in cultural, historical and philosophical contexts. The study analyzed the linguistic expression of basic feelings such as joy, anger, sadness, and fear using specific examples. The article examines the influence of Confucianism, Taoism, Buddhism, and folk traditions on phraseology and analyzes the relationship between language and culture based on theories [Kövecses, 2000; Sharifian, 2017]. A comparative analysis of common motifs in Chinese and Uzbek phraseology is carried out and their importance in intercultural communication is emphasized.

**Key words:** Chinese phraseology, emotional assessment, chengyu (four-character phrases, cultural Linguistics, metaphors and metonymy, Confucianism and Taoism, cognitive semantics).

**Kirish.** Tilshunoslikda emotsional baholash – bu insonning hissiy holatlarni til vositalari orqali subyektiv baholashi jarayoni. Xitoy frazeologiyasi, ayniqsa, 成语chengyular, o‘zida tarixiy voqealar, falsafiy g‘oyalar va madaniy kodlarni saqlab, emotsional baholashning nozik namunalarni taqdim etadi. Masalan, 肝肠寸断 gānchángcùn duàn (“jigar va ichaklar bo‘lak-bo‘lak bo‘ladi”) iborasi nafaqat qayg‘uni, balki an‘anaviy tibbiyotdagi “organlar va hislar” o‘rtasidagi bog‘liqlik haqidagi tasavvurni ham aks ettiradi [Zhang, 2007, 248-bet]. Ushbu tadqiqotning maqsadi – Xitoy frazeologizmlaridagi emotsional baholarning lingvistik mexanizmlarini va ularning madaniy ildizlarini ochib berish, shuningdek, o‘zbek tilshunosligi bilan bog‘lagan holda qiyosiy nuqtai nazar taqdim etishdir.

**Nazariy asoslar.** 1. Emotsional baholash va metafora nazariyasi

Zoltán Kövecsesning fikricha, hissiyotlar ko‘pincha jismaniy tajribalar (masalan, olov, sovuq, og‘riq) orqali metaforik tarzda ifodalanadi. Xitoy tilida bu 火冒三丈 huǒmào sānzhàng (“olov uch zhang balandlikka ko‘tariladi”) kabi iboralarda o‘z aksini topadi [Kövecses, 2000, 45-bet].

2. Madaniy lingvistika va frazeologiya

Farzod Sharifian ta‘kidlashicha, frazeologik birliklar “madaniy sxemalar” orqali shakllanadi, ya‘ni ular ma‘lum bir

madaniyatning kognitiv tuzilmalarini aks ettiradi [Sharifian, 2017, 89-bet]. Masalan, Xitoyda 守株待兔 shǒuzhūdàitù (“daraxt tanasini ushlab, quyon kutmoq”) iborasi xalq ertaklariga asoslangan bo‘lib, bema‘ni umidlar haqidagi madaniy tasavvurni ifodalaydi.

3. Kognitiv semantika va prototip ta‘limot

Ning Yuning tadqiqotlariga ko‘ra, Xitoy frazeologiyasidagi hissiy ifodalar “tana qismlari” (yurak, jigar, o‘t pufagi) bilan bog‘liq prototipik tasavvurlarga tayanadi. Masalan, 撕心裂肺 sī xīn liè fèi – “yurakni yirtib, o‘pkani parchalash”) frazeologiyasi qayg‘uning ekstremal darajasini tasvirlaydi (Yu, 2009, 112-bet).

**Metodologiya.** Tadqiqotda quyidagi usullar qo‘llangan:

Semantik tahlil – frazeologizmlarning lug‘aviy va kontekstual ma‘nolarini aniqlash; madaniy-kontekstual tahlil – frazeologizmlarning tarixiy, falsafiy va folklor ildizlarini ochish; qiyosiy usul – xitoy va o‘zbek frazeologiyasidagi umumiy motivlarni aniqlash.

Masalan, 破釜沉舟 pòfǔchén zhōu (“qozonlarni sindirib, qayiqlarni cho‘ktirish”) frazeologizmi mil.avv. 207-yilda bo‘lib o‘tgan Julu jangidan olingan bo‘lib, qat‘iyatni anglatadi [Chen, 2015, 112-bet].

Xitoy frazeologizmlarida emotsional baholash quyidagicha namoyon bo'ladi:

#### 1. Quvonch

Xitoy madaniyatida quvonch tabiat va kosmik tartib bilan bog'liq.

心花怒放 (xīn huā nù fàng) – “yurakdagi gullar qattiq ochiladi”. Daosizmida “yurak” (心 xīn) insonning ruhiy markazi hisoblanadi [Yu, 2009, 76-bet].

喜上眉梢 (xǐ shàng méi shāo) – “quvonch qoshga yetadi”. Bu frazeologizm Xitoyning 面相学 (“yuz tahlili”) an'analariga asoslangan.

#### 2. G'azab

G'azab axloqiy adolatsizlikka reaksiya sifatida qabul qilinadi.

怒发冲冠 (nù fā chōng guān) – “g'azabdan sochlarning tojni teshib chiqishi”. Bu frazeologizm Konfutsiying “君子居则见下流” (“Dono odam pastlikni yomon ko'radi”) g'oyasini aks ettiradi (Lunyu, 13:23).

火冒三丈 (huǒ mào sān zhàng) – “olov uch zhang balandlikka ko'tariladi”. Xitoyning “besh element” nazariyasida olov g'azab ramzidir [Wang, 2010, 54-bet].

#### 3. Qayg'u

Qayg'u ko'pincha jismoniy og'riq yoki suv metaforalari bilan tasvirlanadi.

泪如雨下 (lèi rú yǔ xià) – “ko'z yoshlari yomg'irday yog'adi”. Tang davri she'riyatida bu tasvir Li Bayning “静夜思” she'rida qo'llangan [Li, 2018, 33-bet].

#### Xitoy va o'zbek frazeologiyasidagi qiyosiy motivlar

Xitoy frazeologizmlari	O'zbek frazeologizmlari	Umumiy ma'no
如鱼得水 rú yú dé shuǐ	Baliq suvga tushgandek	O'ziga mos muhit topish
一箭双雕 yī jiàn shuāng diāo	Bir o'q bilan ikki quyon	Bir harakat bilan ikki natija
画龙点睛 huà lóng diǎn jīng	Guldasta tuzgandek	Yakuniy tugallovchi harakat

#### Amaliy ahamiyat.

1. Madaniyatlararo muloqot: Xitoy frazeologizmlarini tushunish O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi diplomatik va madaniy aloqalarni yaxshilaydi. Masalan, 雪中送炭 (“qorda ko'mir yetkazish”) iborasi “zarur paytda yordam berish” ma'nosini anglatib, bu tushuncha o'zbek madaniyatida ham “qattiq qishda issiq kiyim” iborasi bilan yaqindir.

2. Til o'qitish: Xitoy tilini o'rganuvchilar uchun frazeologik birliklarning madaniy kontekstini tushunish muhim. Masalan, 半途而废 (“yarim yo'lda to'xtab qolish”) iborasini tushunish uchun Konfutsiylarning 毅力 (“bardoshlik”) g'oyasini bilish zarur.

3. Adabiy tarjima: Frazeologik birliklarni to'g'ri tarjima qilish uchun ularning madaniy ildizlarini bilish zarur. Masalan, 对牛弹琴 ni “sigir oldida tor chalmoq” deb to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilish o'rniga, “nodonga tushuntirish” deb izohlab berish maqsadga muvofiqdir.

**Xulosa.** Xitoy frazeologiyasi insoniyatning hissiy tajribalarini til orqali ifodalashning noyob namunasi hisoblanadi. Ushbu tadqiqot shuni ko'rsatdiki, har bir chengyu yoki maqol nafaqat so'zlarning majoziy birlashmasidan iborat emas, balki xalqning tarixiy xotirasi, falsafiy tafakkuri va madaniyatining lingvistik ko'zgidir. Masalan, 肝肠寸断 (“jigar va ichaklar bo'lak-bo'lak bo'ladi”) iborasi nafaqat qayg'uni tasvirlaydi, balki qadimgi Xitoy tibbiyotidagi “organlar va hislar” o'rtasidagi fiziologik bog'liqlik haqidagi tasavvurni ham saqlab qolgan (Zhang, 2007, 248-bet). Bu iboralarning har biri madaniyatning kognitiv sxemalarini (Sharifian, 2017) aks ettirib, til orqali hissiyotlarni tizimli baholash imkonini beradi.

#### ADABIYOTLAR

- Kövecses, Z. (2000). Metafora va Hiss-tuyg'u: Til, madaniyat va tana. Cambridge University Press. (45, 89-betlar).
- Sharifian, F. (2017). Madaniy Lingvistik: Tamoyillar va amaliyot – John Benjamins. (89, 134-betlar).
- Yu, N. (2009). Xitoy tilida tana va ma'no: Kognitiv semantika – John Benjamins. (76, 112-betlar).
- Zhang, Q. (2007). “Xitoy iboralari haqidagi hissiy ranglar”. – Osiyo-Tinch okeani muloqoti jurnali, 17-jild, 245–260. (248, 251-betlar).
- Chen, L. (2015). Xitoy frazeologiyasi: Tarix va madaniyat. Pekin universiteti nashriyoti. (112, 115-betlar).
- Lao Tzu. \_Dao De Tszin\_. 25-bob.
- Luo X. Chinese Idioms and Confucian Thought. – Beijing: Press, 2010. – 89 p.
- Xodjajev B.X. Pedagogik aksiologiya. O'quv qo'llanma. T. “Fan va texnologiya”, 2011.
- Wierzbicka, A. Emotions Across Languages and Cultures: Diversity and Universals. Cambridge University Press, 1999. – 120 p.
- Liu, Y. Chinese Folklore and Phraseology. Peking University Press, 2015. – 145 p.

痛不欲生 (tòng bù yù shēng) – “og'riqdan tirik qolishni xohlamaslik”. Bu ibora qadimgi tibbiyotdagi 气 (qi) tushunchasi bilan bog'liq [Zhang, 2007, 251-bet].

#### 4. Qo'rquv

Qo'rquv jismoniy zaiflik yoki xavf ostida qolishni anglatadi.

心惊胆战 (xīn jīng dǎn zhàn) – “yurak qaltiraydi, o't pufagi titraydi”. Xitoy tibbiyotida 胆 (dan) jasorat manbai, shuning uchun uning titrashi qo'rquvni bildiradi [Xu, 2016, 102-bet].

如临深渊 (rú lín shēn yuān) – “chuqur jar yonida turgan kabi”. Bu frazeologizm Daosizmning 自然 (“tabiiylik”) tamoyiliga zid holatlarni anglatadi.

Xitoy frazeologiyasining 60% dan ortig'i quyidagi manbalarga asoslangan:

– Tarixiy voqealar: 四面楚歌 (“to'rt tomondan Chu qo'shig'i”) – mil.avv. 202-yilda Xan sulolasi asoschisi Liu Bangning raqibi Syan Yuyni mag'lub etishi haqidagi hikoya (Chen, 2015, 115-bet).

– Falsafiy matnlar: 顺其自然 (“tabiatga ergash”) – Daosizmning asosiy tamoyili [Lao Tzu, Dao De Tszin, 25-bob].

3. Xalq og'zaki ijodi: 对牛弹琴 (“sigir oldida tor chalmoq”) – nodon odamga tushuntirishning befoydaligi haqidagi ertak.

Tadqiqotning asosiy natijalari shundan iboratki, Xitoy frazeologiyasidagi emotsional baholash quyidagi tamoyillar asosida shakllanadi:

1. Tabiat va kosmik tartib bilan uyg'unlik (masalan, 心花怒放 – “yurakdagi gullarning ochilishi”) Daosizmning tabiatga moslashuv tamoyilini aks ettiradi.

2. Axloqiy adolatning ustuvorligi (Konfutsiylar ta'siridagi 怒发冲冠 – “g'azabdan sochlarning tojni teshib chiqishi”) iborasi haqsizlikka qarshi kurashni ifodalaydi.

3. Tana va ruhning yagona tizimi (an'anaviy tibbiyotdagi organlar va hislar o'rtasidagi bog'liqlik, masalan, 胆战心惊 – “o't pufagi va yurakning titrashi”).

Kelajakdagi tadqiqotlar uchun quyidagi yo'nalishlar taklif etiladi:

1. Frazeologiyaning zamonaviy mediadagi evolyutsiyasi: Internet va ijtimoiy tarmoqlarda chengyularning qisqarishi yoki yangicha talqinlari.

2. Psixolingvistik eksperimentlar: Xitoy va o'zbek tillarida frazeologik birliklarning hissiy ta'sirini solishtirish.

3. Sun'iy intellektda madaniy kontekstni modellashtirish: Tarjima dasturlarida frazeologiyani aniq talqin qilish algoritmlarini ishlab chiqish.

Xulosa qilib aytganda, Xitoy frazeologiyasini o'rganish – bu Sharq madaniyatlarining ruhiy boyligini anglashga ochilgan derazadir. O'zbekiston kontekstida bunday tadqiqotlar nafaqat tilshunoslikni rivojlantirish, balki Xitoy bilan hamkorlikning madaniy, iqtisodiy va diplomatik yo'nalishlarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Chunki tillar orqali saqlanib qolgan madaniy kodlarni tushunish – xalqlar o'rtasidagi diqqat va hurmatning eng chuqur ifodasidir.



UDK: 811.512.133'27:070811.111'27:070

*Nilufar QIYOMIDINOVA,*  
*O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti mustaqil tadqiqotchisi*  
*E-mail: nqiyomidinova@gmail.com*

*O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi katta o‘qituvchisi, PhD M.Abdullayeva taqrizi asosida*

### INTERNET OAV MATNIDA TILNING TASVIRIY VOSITALARI

Annotatsiya

Ushbu maqola auditoriyani jalb qilish va xabar samaradorligini tahlil qilish orqali onlayn media matnlarida tasviriy vositalarning funksiyalarini ko‘rib chiqadi. Bir nechta janrlarni - yangiliklar, reklamalar, siyosiy nutqlar va ko‘ngilochar ommaviy axborot vositalarini o‘rganib chiqqan holda, tadqiqot metafora, giperbola, personifikatsiya, simvolizm va parallelizm raqamli ma‘lumotlarning ekspressiv qiymatini qanday yaxshilashini ko‘rsatadi. Tadqiqot korpus asosidagi tahlil va sifatli baholashdan foydalangan holda tasviriy-stilistik qurilmalar nafaqat o‘quvchining nuqtai nazariga ta‘sir qilishini, balki onlayn media suhbatini yanada ishonchli qilishga yordam berishini ko‘rsatadi. Raqamli aloqada tildan strategik foydalanish bo‘yicha jurnalistlar, kontent provayderlari va tilshunoslar uchun natijalar pragmatik tushunchalarni beradi.

**Kalit so‘zlar:** Tasviriy vositalar, internet media matnlari, metafora, giperbola, personifikatsiya, simvolizm, parallelizm, raqamli aloqa, auditoriyani jalb qilish, ishonitiruvchi til, onlayn nutq.

### STYLISTIC DEVICES OF LANGUAGE IN INTERNET MEDIA TEXTS

Annotation

The article investigates the function of stylistic devices in online media texts by means of audience involvement and message efficacy analysis. Examining several genres – news stories, ads, political speeches, and entertainment media—the study shows how metaphors, hyperbole, personification, symbolism, and parallelism improve the expressive value of digital information. The study shows using corpus-based analysis and qualitative evaluation that stylistic devices not only affect the reader's perspective but also help to make online media conversation more convincing. For journalists, content providers, and linguists on the strategic use of language in digital communication, the results provide pragmatic insights.

**Key words:** Stylistic devices, internet media texts, metaphors, hyperbole, personification, symbolism, parallelism, digital communication, audience engagement, persuasive language, online discourse.

### СТИЛИСТИЧЕСКИЕ ПРИЕМЫ ЯЗЫКА В ТЕКСТАХ ИНТЕРНЕТ-СМИ

Аннотация

В статье исследуется функция стилистических приемов в текстах интернет-медиа с помощью анализа вовлеченности аудитории и эффективности сообщений. Рассматривая несколько жанров — новостные сюжеты, рекламу, политические речи и развлекательные медиа — исследование показывает, как метафоры, гиперболы, персонификация, символизм и параллелизм улучшают выразительную ценность цифровой информации. Исследование показывает с помощью анализа на основе корпусов и качественной оценки, что стилистические приемы не только влияют на точку зрения читателя, но и помогают сделать разговор в интернет-медиа более убедительным. Для журналистов, поставщиков контента и лингвистов о стратегическом использовании языка в цифровой коммуникации результаты дают прагматические идеи.

**Ключевые слова:** Стилистические приемы, тексты интернет-медиа, метафоры, гиперболы, персонификация, символизм, параллелизм, цифровая коммуникация, вовлечение аудитории, убедительный язык, онлайн-дискурс.

**Kirish.** Bugungi kunda internet ommaviy axborot vositalari (OAV) axborot almashishning asosiy manbalaridan biriga aylangan. An‘anaviy OAV bilan solishtirganda, Internet matnlari tezkorlik, interaktivlik va erkinlik kabi jihatlar bilan farqlanadi. Internet matnlari tilining o‘ziga xos jihatlar bor bo‘lib, ularning eng yorqin xususiyatlaridan biri – tilning tasviriy vositalaridan keng foydalanishdir. Ushbu lingvistik vositalar turli maqsadlarga xizmat qiladi, jumladan, o‘qish qobiliyatini oshirish, auditoriya e‘tiborini jalb qilish va murakkab g‘oyalarni samarali yetkazishdan iborat.

Internet OAV matnlarida metafora, qiyoslash, epitet, kinoya, mubolag‘a va boshqa tasviriy vositalar tez-tez qo‘llaniladi. Ushbu vositalar orqali mualliflar matnga emotsionallik, ta‘sirchanlik baxsh etib, auditoriya e‘tiborini jalb qilishga intiladilar. Natijada auditoriya diqqatini tortib, ularning qiziqishlarini oshiradi.

Ushbu maqolada ko‘rib chiqiladigan tadqiqot muammosi internet-media matnlarida qo‘llaniladigan tasviriy qurilmalarni o‘rganish va ularning auditoriyani idrok etish va ma‘lumot tarqalishiga ta‘siridan iborat. Maqsad - onlayn muloqot samaradorligini va auditoriyani jalb qilishni kuchaytiruvchi asosiy tasviriy vositalarni aniqlash va tahlil qilishdir.

Ushbu mavzuning dolzarbligi asosiy yangiliklar manbalari sifatida raqamli platformalarga bo‘lgan ishonchning

ortib borayotganidan kelib chiqadi, bu esa kontent yaratuvchilardan turli xil va tez o‘tib borayotgan auditoriyani samarali jalb qilish zarurligini taqozo etadi. Prezident Shavkat Mirziyoyev o‘z ma‘ruzalarida zamonaviy kommunikatsiya texnologiyalari va raqamli savodxonlikni rivojlantirish muhimligini ta‘kidlab, ularning milliy taraqqiyot va xalq ma‘rifatidagi o‘rni muhimligini ta‘kidladi. Bu tushunchalar ushbu tadqiqot uchun muhim asos bo‘lib, internet jurnalistikasida til texnikasini o‘zlashtirishning ilmiy ahamiyati va amaliy ahamiyatini ko‘rsatib beradi. Ushbu jihatlaridan, ko‘zlangan maqsadlaridan kelib chiqib, tadqiqot raqamli mediada lingvistik samaradorlikni tushunishni kuchaytirishga hissa qo‘shadi, zamonaviy media amaliyotlari kontekstida jurnalistlar, o‘qituvchilar va kontent yaratuvchilar uchun amaliy ko‘rsatmalar beradi deb hisoblash mumkin.

**Adabiyotlar sharhi.** Tasviriy vositalarni tushunish uzoq vaqtdan beri akademik tadqiqotlar mavzusi bo‘lib kelgan, ayniqsa ularning tildan foydalanishdagi kognitiv va kommunikativ roli bilan bog‘liq. Lakoff va Jongsong ko‘ra, metaforalar markaziy stilistik vositalar sifatida inson tafakkuri va tilini sezilarli darajada shakllantiradi, bir konsepsiyani boshqasining shartlari orqali tuzadi[1]. Ular metaforalarni strukturaviy, orientatsion va ontologik turlarga ajratdilar, ayniqsa, personifikatsiyani raqamli

aloqada keng qo'llaniladigan yorqin ontologik metafora turi sifatida qayd etdilar.

Barbara Dansigiyer va Iv Svitser tasviriy tilning kognitiv mexanizmlari haqida batafsilroq ma'lumot berib, turkumlashtirish, ramkalanish va kognitiv bo'shliqlarning muhim jihatlarini ta'kidlaydilar[2]. Ularning tadqiqotlari shuni ta'kidlaydiki, tasviriy vositalar mulqotchilarga matn ma'nosini boyitish imkonini beradi, aniq tajribalar va mavhum tushunchalar o'rtasidagi tafovutni yo'qotadi va shu orqali mulqotning ravshanligi va chuqurligini oshiradi.

Bulavotik, Prosik-Santovak va Kaurin tomonidan olib borilgan tadqiqotlar metaforik til axborot texnologiyalari matnlariga qanday kirib borishini ko'rsatib, kompyuter - inson, internet - urush kabi metaforalarni ta'kidlaydi[3]. Ularning topilmalari metafora murakkab texnologik tushunchalarni qanday soddalashtirishi, ularni kengroq auditoriya uchun ochiq qilishini va turli tillar va madaniyatlarda izchillikni namoyish etishini ko'rsatadi.

Yana bir samarali tadqiqotlar, tilning tasviriy vositalarining matn tushunishga qanday ta'sir qilishini o'rganish, ayniqsa, onlayn mulqotda matnga e'tiborni jabl qilishga qaratilgan[4]. Ularning tadqiqotlari shuni ta'kidlaydiki, zamonaviy hisoblash modellari hanuzgacha pragmatik xulosalar va tasviriy til vositalari orqali yetkazilgan nozik ma'nolarni to'liq tushunish uchun kurash olib boradi va bu stilistik qurilmalarning onlayn nutqdagi murakkabligi va ahamiyatini ta'kidlaydi.

Internet-reklama shiorlarining so'nggi tahlillariga ko'ra, giperbola, o'xshatish, metafora va personifikatsiya kabi tasviriy vositalardan tez-tez foydalanish Internetda aloqaning ishonchli va esda qolarli kabi sifatini oshiradi [5]. Ushbu vositalar diqqatni jalb qilib, auditoriya bilan aloqa o'rnatadi va mavhum g'oyalarni o'zaro bog'liq va jonli tasvirlar orqali uzatishni osonlashtiradi, bu ularning onlayn kontentni shakllantirishdagi muhim rolini namoyish etadi.

Mavjud adabiyotlar internet-media matnlarining kommunikativ samaradorligini oshirishda tasviriy vositalarning markaziylikni tasdiqlaydi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu tadqiqotda sifat va miqdoriy usullarni birlashtirgan aralash metodik yondashuv qo'llaniladi. Lakoff va Jonsanning kontseptual metafora nazariyasiga[1] rioya qilgan holda tavsiflovchi va analitik usullarni birlashtirgan korpus asosidagi tahlil qo'llanildi va Dansigiyer va Svitser[2] tomonidan kiritilgan analitik asoslar bilan to'ldirildi.

Ushbu tadqiqot uchun qabul qilingan asosiy yondashuv induktiv bo'lib, internet media matnlarida stilistik qurilmalardan foydalanish bo'yicha keng qamrovli tushunchalarni ishlab chiqishga qaratilgan. Tahlil uchun ma'lumotlar ilmiy maqolalar, maxsus lingvistik tadqiqotlar va haqiqiy onlayn media matnlaridan to'plangan. Kontent tahlilidan foydalanib, ushbu manbalar stilistik qurilmalarni aniqlash va tasniflash va ularning chastotasi, qo'llanilishi va kommunikativ samaradorligini baholash uchun har tomonlama o'rganildi.

Korpusga asoslangan tahlil turli xil va vakillik namunasini ta'minlash uchun bir nechta internet manbalaridan tasviriy vositalarni o'rganishni o'z ichiga oldi. Stilistik qurilmalarni ularning chastotasi va kontekstual qo'llanilishiga qarab tasniflash uchun sifat va miqdoriy tahlillar qo'llanildi. Ishonchlilik va asoslilik korpusni sinchkovlik bilan tanlash, ma'lumotlar manbalarini o'zaro tekshirish va sohadagi nufuzli olimlar tomonidan o'rnatilgan tahliliy asoslarni izchil qo'llash orqali amalga oshirildi.

Ushbu keng qamrovli va uslubiy yondashuv tadqiqotchiga internet-media matnlarida qo'llaniladigan keng tarqalgan stilistik vositalarni aniqlash va tanqidiy baholash imkonini berdi, shu bilan belgilangan tadqiqot maqsadlarini to'g'ri va samarali bo'lishiga xizmat qildi.

**Tahlil va natijalar.** Internet jurnalistikasining o'ziga xos xususiyatlaridan biri - bu til vositalaridan foydalanishda norasmiylik va erkinlikdir. OAV matnlarida slang, jargon, qisqartmalar, emojilar kabi elementlar ham tez-tez uchraydi. Ushbu elementlar orqali matn yanada jonli va zamonaviy ko'rinishga ega bo'ladi. Bundan tashqari, vizual materiallar (fotosuratlar, videolar, grafikalar) bilan uyg'unlashtirilgan tasviriy

vositalar matnning ta'sirchanligini yanada kuchaytiradi. Tasviriy vositalar matnni jonlantiribgina qolmay, o'quvchi bilan samarali kommunikatsiyani ham ta'minlaydi

Tahlil qilish uchun yaqinda kata ahamiyatga ega bo'lgan siyosiy hodisaning yoritilishi ko'zlangan internet sayti matniga murojaat qildik. Tahlil mobaynida O'zbekiston-Fransiya munosabatlarini "strategik sheriklik" deb atash metaforasi mamlakatlar orasidagi murakkab siyosiy va iqtisodiy aloqalarni auditoriyaga tushunarli tarzda yetkazishga yordam beradi. Shu bilan birga, Fransiya prezidenti Emmanuel Makronning "Yashasin O'zbekiston, yashasin Fransiya!"[6] iborasini qo'llashi orqali o'zaro iliq munosabatlarni ta'kidlaydigan va esda qolarli bo'lgan kinoya va epitetlardan foydalanilgan.

"Do'stlik rishtalari"[ 7] iborasi ikki xalq o'rtasidagi diplomatik va madaniy aloqalarni, go'yo ularni bir-biriga bog'lovchi jismoniy iplardek ifodalovchi metaforadir. Bu ularning munosabatlarining hissiy va ramziy ma'nosini kuchaytiradi.

O'zbekiston Prezidentining Makron tomonidan berilgan Jizzaxning tarixiy suratiga "Bu mening vatanim"[ 7] kabi munosabati oddiy tasvirni milliy o'zlik va sog'inch timsoliga aylantiradi. Vatanning chuqur shaxsiy narsa sifatida timsoli tomoshabinlarda kuchli aks sado beradi.

Hissiy va bayramona tildan foydalanish "Yashasin Fransiya, yashasin O'zbekiston! Yashasin Fransiya-O'zbekiston do'stligi"[ 7] - bayonotning hissiy chuqurligini oshiradi. Bu nutqni esda qolariligi erish bilan birga milliy g'urur va diplomatik ishtiyoqni epitet yordamida kuchaytirishga erishilganini ko'rsatadi. Takroriy tuzilish va parallel iboralar esdalik va ishontirishni kuchaytiradigan ritorik effekt yaratadi. Takrorlash hissiy jozibadorlikni kuchaytiradi va nutqqa oratorik ritm beradi, bu ayniqsa siyosiy nutqda samarali hisoblanadi.

"...Russia will lose one of its main arguments for continuing this unjustified war."[8] "Rossiya bahsda mag'lub bo'ladi" iborasi milliy davlatga insoniy fazilatlarini (munozara, fikr yuritish) beradi. Bu urushni sof harbiy harakatlardan ko'ra diplomatik atamalar bilan ifodalaydi va Rossianing urushni oqlashi noto'g'ri va zaif degan fikrni kuchaytiradi. "Ukraine can get back the other part of its territory diplomatically." - Bu diplomatiyani yo'qolgan yerlarni qaytarib olishga qodir faol agent sifatida ifodalaydi. Bu siyosiy muzokaralar harbiy harakatlar kabi kuchli bo'lishi mumkin degan g'oyani nozik targ'ib qiladi.

"Tens of thousands of North Korean troops..." - Shimoliy Koreyaning Ukrainadagi ishtiroki ko'p jihatdan tasdiqlanmagan bo'lsa-da, "o'n minglab" kabi ko'p sonli raqamlardan foydalanish shoshilinch va xavotir uyg'otish uchun ritorik kuchaytirish vazifasini bajaradi. "...the use of Ukraine as a testing ground for new weapons." - Bu ibora Ukrainadagi xorijiy harbiy tajribalar hajmini umumlashiradi va kuchaytiradi. U qo'rquvni uyg'otadi va xalqaro aralashuvga chaqiradi, bu urush davri jurnalistikasida keng tarqalgan usul.

"To help South Africa navigate the EU's complex landscape of environmental rules."[9]- "navigatsiya" iborasi tartibga solish to'siqlari bilan shug'ullanish uchun evfimizmdir. Yevropa Ittifoqi qoidalarini yuk yoki to'siq sifatida ko'rsatish o'rniga, ularni strategik boshqaruvni talab qiladigan narsa sifatida belgilaydi.

Bu kabi misollarni keltirish va oldindan belgilangan tahliliy usullardan foydalangan holda to'plangan ma'lumotlarni tahlil qilish internet media matnlarida stilistik (tasviriy) vositalarning keng qo'llanilishini ko'rsatdi. Miqdoriy tahlil shuni ko'rsatdiki, metafora eng ko'p qo'llaniladigan tasviriy vosita bo'lib, metaforalarning kontseptual ravshanligi va ta'siri uchun keng qo'llanilganligini ta'kidlagan holda ko'zga tashlanadi.

O'xshatishlar va giperbolalar, ayniqsa, onlayn reklama va reklama vositalarida sezilarli chastotalarni ko'rsatdi. "Captures every fiery detail with exceptional clarity."[10] - "Har bir olovli tafsilot" iborasi iPhone 16 Pro kamerasi taqdim etadigan aniqlik va sifat darajasini bo'rttirishga xizmat qilmoqda. Bu ilg'or texnologiya va mukammallik tuyg'usini yaratadi, Apple kompaniyasining yuqori darajadagi brend imijini mustahkamlaydi. "One detective embraces the dramatic moment while the other breaks character by questioning the timing and flinching at the explosions." - Bu yumor va kinoya sekin harakatlanuvchi harakat sahnalarining tabiatini ta'kidlaydi.

To'rtinchi devorni buzib, tropikning bema'niligini tan olgan holda, Apple tomoshabinlarni hazil bilan jalb qiladi va mahsulot namoyishini yanada qiziqarli qiladi.

Matematik modellashtirish va korpusga asoslangan kontentni tahlil qilish usullari turli xil internet-media matnlari bo'yicha sezilarli farqlar va o'xshashliklarni ko'rsatdi, bu auditoriyani maqsadli yo'naltirish, tematik diqqat va aloqa strategiyalaridagi farqlarni aks ettirdi. Tahliliy ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, stilistik qurilmalar o'quvchilarning qiziqishiga sezilarli darajada ta'sir qiladi, tushunishni osonlashtiradi va raqamli media kontekstlarida hissiy rezonansni kuchaytiradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, internet media matnlari turli janrlarda turli xil uslubiy vositalarni faol qo'llaydi. Yangilik maqolalarida "strategik sheriklik" va "qaynoq bosqich" kabi metaforalar orqali murakkab jarayonlar soddalashtiriladi. Reklama matnlarida "Hollywood darajasidagi kinematografiya" [10]yoki "pica rico tajribasi"[11] kabi iboralar vositasida mahsulot iste'molchiga yaqinroq qilib tasvirlanadi. Siyosiy nutqlarda esa "aynan shu yo'lda orqaga qaytish imkonsiz" kabi iboralar yordamida auditoriyani ishortirish va yo'naltirish amalga oshiriladi. Ko'ngilochar media esa "portlovchi effektlar" va "issiqlikni quchoqlash" kabi metaforalar orqali tomoshabinning qiziqishini oshirishga xizmat qiladi.

**Xulosa.** Umuman olganda, internet OAV matnlarida tasviriy vositalarning o'rni beqiyos bo'lib, ular axborot ta'sirchanligini oshirish, auditoriyani jalb qilish va fikr yetkazish

jarayonida muhim qurilma sifatida namoyon bo'lmoqda. Tasviriy vositalarning turli janrlarda o'ziga xos tarzda qo'llanishi internet media matnlarining ta'sirchanligi va auditoriyaga yetkaziladigan xabarlarining kuchini oshirishga xizmat qiladi. Masalan, yangilik maqolalarida "strategik sheriklik" va "qaynoq bosqich" kabi metaforalar murakkab siyosiy jarayonlarni oddiy va tushunarli usulda ifodalashga yordam beradi, shu bilan birga reklama matnlarida "Hollywood darajasidagi kinematografiya" kabi tasviriy vositalar brend imidjini mustahkamlash va iste'molchilar bilan hissiy bog'lanishni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Siyosiy nutqlarda esa "orqaga yo'l yo'q" kabi iboralar orqali ritorik ta'sir kuchaytiriladi, shu bilan birga ko'ngilochar media kontekstida "portlovchi effektlar" va "issiqlikni quchoqlash" kabi tasviriy vositalar dramatik ta'sirni oshiradi. Ushbu tadqiqot natijalari media sohasi mutaxassislari, jurnalistlar, kontent yaratuvchilar va tilshunolar uchun amaliy tavsiyalar berishga asos bo'lib xizmat qiladi hamda kelgusida internet tilshunosligi va media stilistikasi bo'yicha tadqiqotlar uchun mustahkam poydevor yaratadi. Ayniqsa, raqamli platformalar rivojlanib borayotgan davrda tasviriy vositalarning samarali qo'llanilishi jurnalistika, marketing va siyosiy kommunikatsiya sohaslarida muhim strategik vosita bo'lib qolmoqda. Shu bois kelajakda internet-media matnlarining til xususiyatlarini chuqurroq o'rganish, ularning auditoriya e'tiboriga va ma'lumot tarqalishiga ta'sirini baholash dolzarb masalalardan biri bo'lib qolishi shubhasiz.

#### ADABIYOTLAR

1. Lakoff G., Johnson M. *Metaphors We Live By*. Chicago: University of Chicago Press, 1980.
2. Dancygier B., Sweetser E. *Figurative Language*. Cambridge: Cambridge University Press, 2014.
3. Bulatović, Prošić-Santovac & Kaurin. *Metaphorical Language in Digital Media Texts*. *Journal of Linguistic Studies*, 2022, Issue 5, pp. 45-67.
4. Chakrabarty et al. *The Role of Stylistic Devices in Online Communication*. *International Journal of Media and Language*, 2021, Vol. 14, No. 2, pp. 112-130.
5. Atmaja, A. *Persuasive Strategies in Internet Advertising*. *Journal of Digital Communication*, 2022, Vol. 19, Issue 3, pp. 78-94.
6. <https://kun.uz/kr/news/2025/03/15/parijdagi-kelishuvlar-800-millionlik-boj-va-taglik-tekshiruvi-hafta-dayjesti> . [Accessed: March 16, 2025].
7. <https://kun.uz/kr/news/2025/03/13/yashasin-fransiya-va-ozbekiston-dostligi-makron-qabul-marosimida> . [Accessed: March 16, 2025].
8. <https://www.euractiv.com/section/global-europe/news/in-tv-interview-zelensky-opens-the-door-to-ceasefire-with-russia/> . [Accessed: March 16, 2025].
9. <https://www.euractiv.com/section/eet/news/von-der-leyen-pitches-new-trade-pact-with-south-africa-to-bolster-clean-industry/> . [Accessed: March 16, 2025].
10. <https://www.adsoftheworld.com/campaigns/slo-mo> . [Accessed: March 16, 2025].
11. <https://www.adsoftheworld.com/campaigns/flamin-hot> . [Accessed: March 16, 2025].



*Раъно МАДЖИДОВА,*  
Доктор филологических наук DSc, профессор институт ISFT  
E-mail: r.urishevna@mail.ru

На основе отзыва профессора УзМУ И. Сиддиковой

### ПРОБЛЕМА АКСИОЛОГИЧЕСКОЙ ОКРАШЕННОСТИ ЯВЛЕНИЙ ДЕЙСТВИТЕЛЬНОСТИ В СОЗНАНИИ НОСИТЕЛЕЙ ЯЗЫКА

Аннотация

Статья посвящена проблеме аксиологического осмысления носителями языка явлений действительности, которое накладывает особый отпечаток на формирование языковой картины мира. Как свидетельствуют результаты анализа языковой картины мира, отраженной в антропоцентрических пословицах, аксиологическая маркированность социальных фактов в сознании носителей языка тесно связана с национальным менталитетом народа, ибо ценности и антиценности есть базовые единицы культуры.

**Ключевые слова:** Антропоцентрические пословицы, паремиологические единицы, аксиология, аксиологическая картина мира, прагматика, концепт, национальная специфика, культура народа, ценность, антиценность.

### THE PROBLEM OF AXIOLOGICAL COLORING OF REALITY PHENOMENA IN THE CONSCIOUSNESS OF NATIVE LANGUAGE SPEAKERS

Annotation

The article is devoted to the problem of axiological understanding of the phenomena of reality by native speakers, which leaves a special imprint on the formation of the linguistic picture of the world. As the results of the analysis of the linguistic picture of the world reflected in anthropocentric proverbs show, the axiological marking of social facts in the consciousness of native speakers is closely connected with the national mentality of the people, because values and anti-values are the basic units of culture.

**Key words:** Anthropocentric proverbs, paremiological units, axiology, axiological picture of the world, pragmatics, concept, national specificity, people's culture, value, anti-value.

### ONA TILIDA SO'ZLASHUVCHILAR ONGIDA REAL HODISALARNING AKSILOGIK NUQTAI NAZARIDAN BOYISHI MUAMMOSI

Annotatsiya

Maqola ona tilida so'zlashuvchilar tomonidan voqelik hodisalarini aksiologik tushunish muammosiga bag'ishlangan bo'lib, bu dunyoning lingvistik rasmini shakllantirishda alohida iz qoldiradi. Antropotsentrik maqollarda aks ettirilgan dunyoning lingvistik rasmini tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatadiki, ona tilida so'zlashuvchilar ongida ijtimoiy faktlarning aksiologik belgilanishi xalqning milliy mentaliteti bilan chambarchas bog'liq, chunki qadriyatlar va antiqadriyatlar madaniyatning asosiy birliklari hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** Antropotsentrik maqollar, paremiologik birliklar, aksiologiya, dunyoning aksiologik surati, pragmatika, konsepsiya, milliy o'ziga xoslik, xalq madaniyati, qadriyat, antiqadriyat.

**Введение.** Известно, что между значением и внутренней формой пословиц существует три основных типа отношений – совпадения, пересечения и параллельного существования, включая переходные случаи, которые, представляя собой дескриптивно-когнитивные уровни, образуют двойной фрейм – схему знаний двух ситуаций:

на уровне значения – знание о принятых в социуме стереотипах поведения;

на уровне внутренней формы – бытовые представления [5].

Важно подчеркнуть, что «когнитивные уровни пословиц взаимодействуют с прагматическими подуровнями оценки и эмотивности и прагматико-когнитивным подуровнем сценария. Сценарий, как правило, в большинстве случаев содержит имплицитную рекомендацию, как надо действовать исходя из ситуации – фрейма» [5]. Иначе говоря, пословицы в качестве фрейма суммируют опыт и подводят итог прошлому, а в качестве сценария выполняют моралистически-дидактическую функцию и тем самым обращены в будущее [5].

В современном языкознании в области изучения паремиологических единиц, в том числе и пословиц, выделяются такие актуальные темы их исследований, как выявление их национально-культурной специфики, сопоставление значения и смысла, анализ модальности и оценочности в них и др. [3].

В связи с этим при изучении антропоцентрических пословиц особую актуальность приобретают проблемы языковой картины мира, воздействия языка на поведение и

мышление человека, взаимоотношения языка и общества, взаимосвязи языка и духовной культуры народа и т.п. В последнее время бурно развивается аксиологическое направление в изучении пословиц, т.е. исследование пословиц в рамках аксиологии.

Аксиология как наука занимается исследованием ценностного мира, представленного системой ценностей и их социально-культурных взаимосвязей с реальностью в целом, обществом и личностью в частности.

Аксиологическая картина мира структурируется на базе ценностных ориентиров индивида и общества, которые детерминируются их пережитым жизненным опытом и приобретенными знаниями, умениями и навыками удовлетворения потребностей как духовного, так и материального планов.

Определяющими факторами «ценностной ориентации» человека являются способ удовлетворения потребностей и характер мотиваций к деятельности: «В векторе потребности ценность рассматривается с точки зрения способности человека осознать необходимость и целесообразность чего-либо, а также способов достижения данного необходимого и желаемого, определяющего интересы, целевые установки и средства их достижения. В связи с этим решается вопрос о функциональной структуре ценностного сознания: от потребности в соразмерной человеку картине мира – к чувственно-оценочному восприятию-переживанию в рамках глубинных мотиваций и к интеллектуальному конструированию образа-понятия (ценности). Интегральной человеческой потребностью,



ценностно обоснованной, признается потребность в соразмерном человеку образе мира как условию согласия с ним» [1].

Ценность – философская категория, выражающая выдвинутые в результате нравственного осмысления индивидом (социумом) предметно-феноменальной действительности сквозь призму ее долженствования и значимости фундаментальные нормы и достижения человечества.

Представленные в виде ценностей фундаментальные нормы и достижения человечества лежат в основе конструирования бытия, помогают индивиду интегрироваться с социумом, в котором он проживает. Такие нормы регламентируют поведение человека в обществе, побуждая его действовать в очерченных обществом рамках, делать социально одобряемые поступки.

Оценивая роль ценностей в жизни культуры и общества, Т.Г. Бочина и Сян Цюнь отмечают, что «ценность выступает основополагающим принципом культуры, а своеобразие систем ценностей определяет различия культур. Ценности формируются как продукты человеческой заинтересованности в преобразовании окружающей действительности, обладают функциями ориентиров, считаются смыслообразующими элементами человеческого бытия, задающими направленность жизни человека. Они составляют основу индивидуальных или коллективных суждений и поступков» [2].

Ценности могут отражать как своеобразие национального сознания того или иного народа в целом, так и установки отдельных личностей. Так, если к специфическим особенностям русского национального сознания и мироощущения относятся совесть, честь, достоинство, справедливость, человечность, правда, справедливость, воля, сострадательность и т.д., то ценностные установки общественного деятеля – мэра Екатеринбурга Евгения Ройзмана, как показывают результаты анализа авторского его блога А.А. Берсеновой, составляют «правда, социальная справедливость, необходимость помочь нуждающимся, благополучие людей» [3]. Таким образом, ценностные установки предопределяют поведение индивида во всех сферах его деятельности.

Ценности возникают в результате познавательной деятельности человека: «ценности связаны с человеком так, что ценностей вне человека и общества нет, вне отношения к человеку предметы сами по себе ценностной классификации не подлежат, ценности формулируются человеком в его продуктивной деятельности» [1].

По справедливому замечанию А.Н. Белобородко, в 21-м веке наблюдается трансформация традиционных ценностей и появление системы новых ценностных ориентаций, которая транслируется в массовой, в частности поп-культуре посредством «масштабной системы концептов, влияющей на сознание индивида и предписывающей ему определенные установки» [4].

Определенный интерес вызывает интерпретация традиционных ценностей современниками, в особенности студенческой молодежью. Ценностный концепт «Благополучие близких людей» в сознании современной молодежи представлен ядерным смыслом «здоровье и душевный покой близких людей» и на периферии – признаком «материальная обеспеченность близких людей», концепт «Дружба»: «душевная близость», «душевная привязанность» (ядро) – «откровенность» и «безопасность» (периферия), концепт «Счастье»: «любовь» (ядро) – «материальное благополучие и высокое общественное положение» (периферия), концепт «Семья»: «воспитание детей», «интересы семьи» (ядро) – «интересы семьи выше личных интересов» (периферия), концепт «Свобода»: «самореализация» (ядро) – «создать семью» (периферия), концепт «Любовь»: «создать семью» (ядро) – «дружеская привязанность» (периферия), концепт «Вера»: «вера в бога» (ядро) – «уверенность в своих силах» (периферия), концепт «Самореализация»: «получить широкую известность» (ядро) – «иметь интересную работу» (периферия) [5]. Анализ

отражения ценностных концептов в языковом сознании студенческой молодежи показывает, что на передний план выдвигаются более абстрактные, идеализированные, духовно-возвышенные смыслы, а все материальное, «приземленное», прагматическое находит свое отражение в периферии концептуального поля.

Классификация ценностей осуществляется по разным критериям. В зависимости от того, в какой области бытования человечества ценности были выведены (в области истинности, эстетики, этики (морали), гедонистической или прагматической областях), выделяют вещные, логические, эстетические, этические, ценности бытия, ценности потребления и т.п.

Как показывает анализ научной литературы по аксиологии, ценности классифицируются на:

- моральные ценности;
- правовые ценности;
- научные ценности;
- исторические ценности;
- социальные ценности;
- философские ценности и др.

Вне зависимости от того, к какой разновидности они относятся и какими экзистенциальными и качественными свойствами обладают, ценности дифференцируются по классической трихотомии: положительное, нейтральное или отрицательное их оценивание.

Как видно из наименований типов ценностей, аксиология является многокомпонентной наукой, в пределах которой выделяются частные ее составляющие. Анализ оценочности в языковых единицах привел к формированию и развитию такого направления в данной науке, как лингвистическая аксиология.

Общезвестно, что одним из аспектов отражения в языке взаимодействия действительности и человека является оценочный: оценка как ценностный аспект значения проявляется в самых разных языковых выражениях [6]. В то же время следует признать, что оценочность и ценностные характеристики хотя и осознаются в настоящее время как базовые характеристики универсума бытия человека и общества, тем не менее «остаются среди еще непознанных в своем единстве и одновременно в их вариативной представленности в языке человека» [1].

Лингвистическая аксиология направлена на «определение методологии и технологии в изучении содержания внутреннего мира языковой (дискурсивной) личности, ценностных ориентаций личности и общества по данному языку, точнее – человека говорящего, создающего дискурсивный мир в соотношении с Миром, Другими и самим собой в этом мире» [1]. Таким образом, объектом изучения лингвистической аксиологии является ценностный мир человека, отображенный в языке. Систему ценностей личности и общества, которая находит свое выражение в языке, в настоящем исследовании будем рассматривать как аксиологическую языковую картину мира.

Научные исследования, посвящённые творчеству Ирвина Шоу, подчеркивают его мастерство в передаче тонких психологических нюансов семейных отношений. В частности, в работах Карельского А. В. анализируется переход от традиционного героя к многослойному человеческому образу (Карельский, 1990). Хализев В. Е. рассматривает теоретические аспекты литературы, важные для понимания художественных приёмов Шоу (Хализев, 2002). Исследование Ферреры (Феррера, 1991) уделяет внимание личности самого писателя, что помогает глубже понять мотивы его произведений. Миллер К. (Миллер, 2003) рассматривает тему семьи в американской литературе в целом, тогда как Симон М. (Симон, 1998) детально изучает психологический аспект произведений Шоу. Работы Лоусона Р. (Лоусон, 1980) помогают увидеть более широкую культурную и историческую перспективу творчества писателя.

**Основная часть.** 1. Образ семьи в произведениях Ирвина Шоу

В произведениях Ирвина Шоу семья представляется как сложная и многослойная структура, в которой

переплетаются любовь, ненависть, разочарование и надежда. Семейные отношения в его романах далеки от идеализированного образа: герои часто сталкиваются с предательством, конфликтами поколений и внутренними кризисами. Во многих произведениях Ирвина Шоу семейный конфликт становится основным двигателем сюжета. Например, в рассказе «Ночь, когда мы похоронили Фатти» изображается противостояние между членами семьи на фоне похорон, где вскрываются старые обиды и нерешённые конфликты. Шоу мастерски использует диалог и внутренний монолог для передачи психологического напряжения между героями.

Семейный конфликт в романах Шоу часто имеет социальный подтекст. В «Молодых львах» (1948) через историю трёх главных персонажей, переживающих Вторую мировую войну, автор показывает разрушительное влияние глобальных событий на частную жизнь и семейные отношения. Персонажи сталкиваются с отчуждением, потерей и разрывом связей, что отражает более широкие культурные процессы.

Одним из наиболее значимых произведений, в котором рассматривается тема семьи, является диалог Шоу «Богач, бедняк» (1970) и «Нищий, вор» (1977). В ней Шоу показывает судьбу двух братьев — Руди и Тома Джордахов, чьи жизненные пути разошлись в силу различий в характере, жизненных принципах и обстоятельствах. В романе поднимаются вопросы родительского влияния, социальных ожиданий и личных амбиций, что делает его многоплановым исследованием семейной динамики.

В диалогии И. Шоу рисует психологию всей семьи Джордахов, Эбботов и других представителей американского и французского обществ. В доме Джордахов царит скрытый конфликт между членами семьи, атмосфера глубокого кризиса. По представлениям Мэри «она сама, ее муж, Томас и Гретхен не могли считаться полноценной семьей, и в таком виде она не могла ее воспринимать как семью, в которой хотелось бы жить» (Шоу, 1992). Джордахи живут под одной крышей, но ни у кого из них нет друзей. У всех членов семьи нарушена психология и происходит раздвоение личности.

В произведениях Шоу семья часто оказывается ареной для раскрытия внутренней жизни персонажей, а также для осмысления того, как социальные условия влияют на их психическое состояние. Семья Джордахов, в частности, становится символом разрушения традиционных ценностей и социальной изоляции. Несмотря на материальное благополучие, члены семьи находятся в состоянии внутреннего конфликта и отчуждения. По словам Мэри Джордах, «она воспринимала свою семью как разнородную группу людей, собравшихся вместе совершенно случайно» (Шоу, 1992). Эти слова подчёркивают, что семья не является для неё источником поддержки или эмоциональной связи, а скорее местом вынужденного сосуществования. Рудольф, один из центральных персонажей диалогии, также чувствует себя оторванным от окружающих. В его сознании существует два слоя: один, который он демонстрирует обществу, и другой — скрытый, который он не может раскрыть. Он ощущает себя "маской", которую не способен снять. Эта раздвоенность между внутренним и внешним «я» становится метафорой для отчуждения, охватывающего всю семью Джордахов (Шоу, 1992). Такой подход к изображению персонажей указывает на глубокий психологический кризис, в котором они находятся, и на невозможность найти гармонию в своих взаимоотношениях.

2. Социальный контекст и его влияние на семейные отношения

Шоу не ограничивается только изображением личных проблем своих героев, но и анализирует, как эти проблемы связаны с более широкими социальными изменениями. Семья, как и каждый отдельный человек, подвергается воздействию времени, в котором живёт. В диалогии «Богач, бедняк» и «Нищий, вор» Шоу акцентирует внимание на социальных процессах, происходящих в Америке в 50-60-е годы, таких как усиление маккартизма и растущий раскол между бедными и богатыми. Эти изменения влияют на

психику героев и приводят к разладу в семейных отношениях.

В диалоге между Рудольфом и Гретхен появляется ностальгия по «простым временам», когда семья и социальные отношения были более искренними. Однако в условиях социальной напряженности и политической нестабильности герои начинают искать ответы на свои вопросы о жизни, что приводит к переосмыслению ценностей и личных идеалов. В этом контексте семья становится не только местом внутреннего конфликта, но и ареной для борьбы с внешними силами, влияющими на её стабильность.

3. Психологические кризисы и переоценка ценностей  
Психологические кризисы, переживаемые персонажами, часто выражаются в их взаимоотношениях с семьёй. Каждый из них сталкивается с проблемой идентичности: как быть собой в мире, где ценятся социальные маски, а не настоящие чувства? Рудольф, например, с трудом воспринимает свою роль в семье, ощущая, что его подлинное «я» скрыто от всех, включая его родных. Это раздвоение личности, которое он переживает, является результатом давления общества, а также вины перед своей семьёй. Его внутренний конфликт усиливается из-за непонимания и отчуждения от тех, кто должен быть ему близким и родным.

Кроме того, Шоу акцентирует внимание на том, как эти внутренние конфликты приводят к внешним последствиям. Так, например, в произведении изображено, как Томас, выходец из бедного слоя, ворует деньги из гостиничных номеров, а представители более высоких социальных слоев совершают преступления по причинам, связанным с психическими расстройствами (Шоу, 1992). Это подчёркивает важность не только социальной, но и психологической составляющей в поведении героев.

4. Семья как источник социальных и моральных уроков

Шоу также использует семью как инструмент морального суждения. Его герои часто сталкиваются с последствиями своих действий, и несмотря на то, что некоторые из них могут казаться героями, их поведение редко бывает безупречным. Семья в произведениях Шоу служит не только местом конфликта и отчуждения, но и пространством для саморазмышлений, переосмысления и моральных уроков. К примеру, несмотря на все ошибки и внутренние противоречия, герои Шоу, такие как Рудольф и Гретхен, в конце концов приходят к некоторому осознанию своих недостатков и пытаются найти путь к изменению. Шоу изображает их борьбу как неизбежную часть человеческого существования, которая не всегда приводит к «хеппи-энду», но в то же время открывает перед ними возможность для саморазвития и личностного роста. Несмотря на жестокость и суровость, с которой Шоу описывает моральные ошибки своих героев, его произведения полны гуманизма и стремления к глубокому пониманию человеческой природы. Так, например, Шоу показывает, что мать Гретхен, Рудольфа и Томаса прощает их перед смертью, возможно, осознав, что и она не была идеальной.

**Заключение.** Тема семьи в произведениях Ирвина Шоу является неотъемлемой частью его социальной и психологической прозы. Шоу изображает семейные отношения как сложные, многогранные и противоречивые. Семья для Шоу — это не идеализированная ячейка общества, а пространство, где сталкиваются личные и общественные ценности, где происходит внутренний кризис героев, и где, наконец, каждый из них должен найти свой путь в условиях социальных изменений. Его персонажи часто переживают моральные и психологические испытания, но их поиски — это попытка осмыслить и принять себя и окружающий мир.

Произведения Шоу демонстрируют, что семья способна быть как источником поддержки, так и местом конфликта, в зависимости от обстоятельств и взаимоотношений внутри неё. Шоу показывает, что семейные конфликты часто являются отражением глубинных социальных процессов, таких как классовые различия, изменение культурных норм и политическая нестабильность.

Семья в его романах — это не просто фон для развития событий, а важный элемент, определяющий судьбы героев.

Кроме того, Шоу мастерски раскрывает психологические нюансы, показывая, как внутренние переживания и противоречия героев находят отражение в их отношениях с близкими. Его произведения подчеркивают, что поиск семейного счастья часто сопряжен с преодолением множества испытаний, и далеко не всегда этот путь приводит

к гармонии. Однако, несмотря на драматичность многих его сюжетов, в них всегда остаётся место для надежды и попыток героев найти общий язык, преодолеть разногласия и построить более крепкие отношения. Таким образом, семья в творчестве Ирвина Шоу выступает как важнейший элемент не только личных историй персонажей, но и более широкой картины американского общества XX века.

#### ЛИТЕРАТУРА

1. Карельский, А. В. От героя к человеку. Два века западноевропейской литературы. — М.: Наука, 1990.
2. Хализев, В. Е. Теория литературы. — М.: Высшая школа, 2002.
3. Феррера, Т. Ирвин Шоу: писатель и человек. — М.: Прогресс, 1991.
4. Миллер, К. Тема семейных отношений в американской литературе. — М.: Академический проект, 2003.
5. Симон, М. Психологические аспекты творчества Ирвина Шоу. — СПб.: Литературная наука, 1998.
6. Лоусон, Р. Ирвин Шоу: его мир и люди. — Нью-Йорк: Harper & Row, 1980.
7. Шоу, И. Богач, бедняк. Часть 1 и 2. — М.: Полигран, 1992.
8. Гибсон, У. Социальное неравенство в литературе XX века. — Чикаго: University of Chicago Press, 1995.
9. Готлиб, Р. Маккартизм и американская литература. — Нью-Йорк: Random House, 2001.
10. Ковалев, Г. Ф. Современный американский роман. — М.: Советский писатель, 1985.
11. Снайдер, Дж. Психологизм в американской литературе. — Лондон: Oxford University Press, 1992.
12. Чейз, Р. Американский роман: традиции и новаторство. — Бостон: Harvard University Press, 1987.



**Dildora NIYAZMETOVA,**  
PhD, Urganch innovatsion universiteti  
E-mail: dildora.n@urdu.uz

Dotsent Q.Olloyorov taqrizi asosida

### INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI FRAZEOLIGIZMLARNING AUDITORIYA HISSIYOTLARIGA TA’SIRI

Аннотация

Ushbu maqola ingliz va o‘zbek tillaridagi frazeologizmlarning auditoriya hissiyotlariga ta’sirini psixolingvistik nuqtai nazardan o‘rganadi. Tadqiqotda ikkala tilning frazeologizmlari tuzilishi, semantik xususiyatlari va hissiy ta’siri bo‘yicha taqqoslanadi hamda madaniy farqlarning psixologik rezonansga ta’siri tahlil qilinadi. Misollar asosida ingliz va o‘zbek tillaridagi frazeologizmlarning o‘xshashliklari va farqlari aniqlanib, ularning hissiy ifoda mexanizmlari ko‘rsatiladi. Tadqiqot natijalari til, madaniyat va hissiyotlar o‘rtasidagi chuqur aloqani namoyon etadi.

**Kalit so‘zlar:** Frazeologizmlar, psixolingvistika, hissiyotlar, ingliz tili, o‘zbek tili, taqqoslash tahlili, madaniyat, semantika, idrok, tilshunoslik.

### THE INFLUENCE OF PHRASEOLOGISMS IN ENGLISH AND UZBEKISTAN ON AUDIENCE EMOTIONS

Annotation

This article studies the impact of phraseologisms in English and Uzbek on audience emotions from a psycholinguistic perspective. The study compares phraseologisms in both languages in terms of structure, semantic features, and emotional impact, and analyzes the impact of cultural differences on psychological resonance. Based on examples, the similarities and differences of phraseologisms in English and Uzbek are identified, and their emotional expression mechanisms are shown. The results of the study demonstrate a deep connection between language, culture, and emotions.

**Key words:** Phraseologisms, psycholinguistics, emotions, English, Uzbek, comparative analysis, culture, semantics, perception, linguistics.

### ВЛИЯНИЕ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ АНГЛИЙСКОГО И УЗБЕКИСТАНСКОГО ЯЗЫКОВ НА ЭМОЦИИ АУДИТОРИИ

Аннотация

В данной статье изучается влияние фразеологизмов английского и узбекского языков на эмоции аудитории с психолингвистической точки зрения. В исследовании сравниваются структура, семантические свойства и эмоциональное воздействие фразеологизмов обоих языков, а также анализируется влияние культурных различий на психологический резонанс. На основе примеров выявляются сходства и различия фразеологизмов английского и узбекского языков, а также показываются их механизмы выражения эмоций. Результаты исследования выявляют глубокую связь между языком, культурой и эмоциями.

**Ключевые слова:** Фразеологизмы, психолингвистика, эмоции, английский язык, узбекский язык, сравнительный анализ, культура, семантика, восприятие, лингвистика.

**Kirish.** Frazeologizmlar tilning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, ular nafaqat lingvistik ifoda vositasi, balki xalqning madaniyati, tarixi va psixologik xususiyatlarini aks ettiruvchi ko‘zgu sifatida ham xizmat qiladi. Ingliz va o‘zbek tillari bu borada o‘ziga xos farqlarga ega: ingliz tili global va pragmatik xususiyatlarga ega bo‘lsa, o‘zbek tili milliy ruhiyat va jamoaviy qadriyatlar bilan boy. Tadqiqotning maqsadi ingliz va o‘zbek tillaridagi frazeologik birliklarning qurilishi, semantik xususiyatlari va hissiy ta’sirini solishtirish, shuningdek, madaniy o‘ziga xosliklarning psixologik aks-sado berishdagi o‘rnini ochib berishdan iborat. Frazeologizmlarning o‘ziga xosligi ularning tasviriy va metaforik ma’nolarida yotadi. Masalan, ingliz tilidagi “kick the bucket” (o‘lish) yoki o‘zbek tilidagi “joni uzildi” frazeologik iborasi semantik jihatdan odamning hayotdan ko‘z yumishi, ya’ni o‘limni ifodalaydi. Biroq, bu ibora oddiygina biologik o‘lim faktini emas, balki psixologik va hissiy jihatdan og‘ir, dramatik tuyg‘uni aks ettiradi. “Jon” so‘zi o‘zbek madaniyatida hayotning eng muhim va muqaddas mohiyati sifatida qaralganligi sababli, uning “uzilishi” nafaqat jismonan, balki ruhiy jihatdan ham katta yo‘qotish yoki fojia sifatida qabul qilinadi. Shunday qilib, “joni uzildi” iborasi o‘limni chuqur qayg‘u, iztirob va hayotning yakuniy nuqtasi bilan bog‘liq ma’no sifatida ishlatiladi va ushbu iboralar oddiy so‘zlardan farqli o‘laroq, madaniy va psixologik chuqurlikni ifodalaydi. Frazeologizmlar psixolingvistik nuqtai nazardan tilning kognitiv va emotsional jihatlarini aks ettiruvchi birliklar sifatida o‘rganiladi. Rus tilshunosi V.V. Vinogradov frazeologizmlarni tilning barqaror iboralari sifatida tasniflab, ularning xalqning tarixiy tajribasi va madaniyati bilan bog‘liqligini ta’kidlaydi.[2,

53] Amerikalik tilshunos R.W. Gibbs frazeologizmlarni kognitiv tushunchalar sifatida o‘rganib, ularning idrok va hissiyotlar bilan aloqasini ochib bergan.[5,117] O‘zbek tilshunosi Sh. Rakhmatullaev o‘zbek frazeologizmlarini xalqning ruhiy olami va hayotiy tajribasining ifodasi deb baholagan. [4, 16] Psixolingvistik jihatdan, frazeologizmlar miyada hissiy javobni kuchaytiradi, bu esa ularning madaniy kontekstga bog‘liqligini ko‘rsatadi. Ushbu tadqiqot yangiligi shundaki, u ingliz va o‘zbek tillaridagi frazeologizmlarni psixolingvistik nuqtai nazardan taqqoslaydi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolada kontrastiv tahlil usuli qo‘llaniladi. Ingliz va o‘zbek tillaridan tanlangan frazeologizmlar psixolingvistik nuqtai nazardan tahlil qilinib, ularning hissiy ta’siri tasniflanadi. Tadqiqotda V.V. Vinogradovning frazeologik tasnifi asos qilib olinadi.

Frazeologizmlar tilning tasviriy va hissiy imkoniyatlarini boyitadigan til birliklari bo‘lib, ularning ma’nosi so‘zma-so‘z tarjimadan kelib chiqmaydi. V.V. Vinogradov frazeologik birliklarni uch guruhga ajratadi:

1. Frazeologik birikmalar – ma’nosi to‘liq motivatsiz (masalan, inglizcha "kick the bucket" – o‘lish; o‘zbek tilida "ko‘ngli qolmoq" o‘zining literal ma’nosidan farq qiladi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri qaraganda, "ko‘ngil" va "qolmoq" so‘zlari faqat hissiy holat yoki ruhiy ahvolni anglatmaydi. Ammo frazeologik ma’noda, "ko‘ngli qolmoq" iborasi "xafa bo‘lish", "mijozdan yoki narsadan biror narsa kutib qolish va keyin hayajonli yoki qayg‘uli holatda bo‘lish" kabi ma’nolarni bildiradi. Masalan: "Uning ko‘ngli qolganidan keyin qo‘lini yuvib qo‘ltig‘iga artdi" — bu

yerda "ko'ngli qolmoq" FBsi, uning kutilgan natija yuz bermagani sababli qayg'u yoki xafa bo'lishini anglatadi.

2. Frazeologik birliklar – qisman motivatsiz (masalan, inglizcha "break a leg" – omda tilash; o'zbekcha "ko'zlaridan yulduzlar chaqnayadi" – juda xursand).

3. Frazeologik kombinatsiyalar – tuzilishi o'zgaras (masalan, inglizcha "to take place" – sodir bo'lmoq; "Qo'lidan kelmoq" – bu ibora "biror ishni amalga oshira olish" yoki "qobiliyatga ega bo'lish" ma'nosini anglatadi. Sh. Rakhmatullaevning fikricha, o'zbek tilidagi frazeologik birliklar ko'pincha xalq og'zaki ijodi va qadimiy an'analariga asoslanadi (Rakhmatullaev, 2007, 15-bet).

Psixolingvistika sohasida olimlar idiomalarning so'zma-so'z ifodalarga qaraganda miyada boshqa kognitiv yo'llarni faollashtirishi haqida fikr bildiradi. Jerome Bruner psixolingvistika va kognitiv psixologiyani muhim vakili sifatida, tilni faqat tashqi realiyani aks ettirish uchun emas, balki kognitiv jarayonlarni shakllantirish va fikrlarni tashkil qilishda ham rol o'ynashini ta'kidlagan. Unga ko'ra, idiomalar, odatda, so'zma-so'z tarjimadan ko'ra, butun bir obraz yoki kontseptni anglatadi, bu esa miyadagi boshqa kognitiv kanallarni faollashtiradi. Uning "Acts of Meaning" asarida, tilni faqat kommunikatsiya vositasi sifatida emas, balki insonlarning dunyoqarashini shakllantiruvchi vosita sifatida ko'rsatadi. Bruner, shuningdek, idiomalar va metaforalarning miyada boshqa kognitiv kanallarni faollashtirishini tushuntiradi, chunki ular so'zma-so'z ma'nodan ko'ra butun bir obraz yoki kontseptni ifodalaydi [1]. Vygotskiy Lev Semenovich til va fikrlash o'rtasidagi bog'liqlikni chuqur o'rganib, tilning kognitiv jarayonlarni shakllantirishdagi ahamiyatini ta'kidlagan.

Xursandchilik. "On Cloud Nine" va "Yettinchi Osmonda Uchib Yurmoq" frazeologizmlari: Psixolingvistik tahlili: "On cloud nine" frazeologizmi ingliz tilida baxt, xursandchilik yoki quvonchni ifodalashda ishlatiladi. Bu ifoda tasviriy tarzda "bulutlarda bo'lish" yoki "osmonning yuqori qismida" bo'lishni anglatib, yuqori darajadagi xursandchilikni ifodalaydi. Psixolingvistik nuqtai nazardan, idiomalar insonning ongida tasavvurlar va his-tuyg'ularni shakllantiradi. Ingliz tilidagi "on cloud nine" iborasi baxtni yuqori va yuksak holatda tasvirlaydi.

"qismi, baxtni yuqori darajada his qilishni, erkinlikni aks ettiradi.

Ingliz va o'zbek tilidagi frazeologizmlar bir-biriga o'xshash, ammo ularning tasavvurlari va madaniy konteksti turlicha. Ingliz tilida "cloud" (bulutlar) baxtni yengillik va erkinlik bilan bog'laydi, o'zbek tilidagi "yettinchi osmon" ko'proq ideal holat, yuksaklik va mukammallikni tasvirlaydi. Shunday qilib, bu frazeologizmlar psixolingvistik jihatdan ba'zi farqlarni ko'rsatadi: inglizcha ifodalar ko'proq oddiy baxtni, o'zbekcha ifoda ruhiy yuksalishni tasvirlaydi.

Shuningdek, "Ko'zlaridan yulduzlar chaqnaydi" frazeologizmi, ko'zlar orqali baxt, sevgi yoki quvonchni ifodalashga xizmat qiladi. Yulduzlar ko'pincha yuksaklik va mukammallikni ifodalaydi. Ingliz tilidagi "eyes sparkle with joy" va "eyes shine" iboralari ham o'zbek tilidagi "ko'zlaridan yulduzlar chaqnaydi" bilan o'xshash, ammo madaniy kontekstda ba'zi farqlar mavjud. O'zbek tilidagi "yulduzlar chaqnaydi" iborasi baxt va ideal holatni kuchliroq ifodalaydi, ingliz tilida bu baxtni oddiy va realistik tarzda tasvirlashga qaratilgan.

Shunday qilib, ikkala frazeologizm tilshunoslik va psixolingvistik jihatdan o'xshash bo'lsa-da, ularning madaniy va tasavvurlar asosida farqlari mavjud. O'zbek tilidagi frazeologizm ko'zlar haqidagi tasavvurlar insonning his-tuyg'ularini yanada shaxsiy va chuqur aks ettiradi. Ingliz tilidagi frazeologizmlar ko'proq umumiy baxtni tasvirlashga mo'ljallangan.

Qayg'u. Psixolingvistik jihatdan frazeologizmlar, ya'ni iboralar va so'z birikmalari tilshunoslik va psixologiya sohasini birlashtirgan tushunchalardir. Ular tildagi ma'naviy va psixologik xususiyatlarni o'zida aks ettiradi. Qayg'u, ya'ni noqulaylik, tashvish, azob-uqubatlarni ifodalovchi frazeologizmi ko'rib chiqamiz. Ingliz tilidagi frazeologizm: "to carry the weight of the world on one's shoulders" (dunyo og'irligini yelkasida olib yurish). Bu frazeologizm odamning juda katta tashvish yoki mas'uliyat bilan yashayotganini bildiradi. Tabiatan, bu ibora his-

tuyg'u va ruhiy holatni ifodalovchi bir obrazni o'zida mujassamlashtiradi: odamning yelkasida bir dunyo og'irligi, stress va qayg'u mavjud. Mumkin bo'lgan asosiy psixologik holatlar: Bu frazeologizm odamni ruhiy jihatdan siqilayotgan, o'z ustida juda ko'p mas'uliyatni his qilayotgan shaxs sifatida tasvirlaydi. Psixologik nuqtai nazardan, bu kabi iboralar odamning ortiqcha yukni o'ziga olib, ruhiy farovonligini buzayotgan holatni aks ettiradi. O'zbek tilidagi ekvivalenti "dunyoni yelkasida ko'tarish" bo'lishi mumkin. Ushbu ibora ko'pincha odamning haddan tashqari tashvishlari, stress yoki mas'uliyatni his qilishi bilan bog'liq. Psixolingvistika nuqtai nazardan, bu ibora odamning psixologik holatini ifodalaydi va aynan "dunyo" (yoki og'ir yuk) tasavvuri bilan bog'lanadi. Bu tasavvur shaxsning ichki kuchini sinovdan o'tkazadi va ko'pincha odamda qaror qabul qilish, boshqarish yoki muammolarni hal etish qobiliyatiga ta'sir ko'rsatadi. Demak, "dunyoni yelkasida ko'tarish" iborasi, psixologik stress yoki og'ir mas'uliyatni his qilishni anglatadi, va bu ibora o'zbek tilida ham kuchli tasavvur va emotsional reaksiyalarni keltirib chiqaradi.

G'azab tuyg'usi — bu odamning psixologik holatida kuchli salbiy hissiyotlardan biri bo'lib, ko'pincha jismoniy va ruhiy energiyani kuchli ifodalashi sifatida namoyon bo'ladi. Psixolingvistik nuqtai nazardan, g'azabni ifodalovchi frazeologizmlar tildagi simvolik ifodalar orqali odamning ruhiy holatini aks ettiradi. Ingliz tilida g'azab tuyg'usini ifodalovchi frazeologizmlar psixolingvistik nuqtai nazardan o'rganilganda, ular tildagi kuchli, hissiy ifodalar sifatida insonning ruhiy holatini va ichki kayfiyatini aks ettirishiga guvoh bo'lamiz. O'zbek tilida "Jahli chiqmoq" frazeologizmining ma'nosi odamning kuchli g'azabini ifodalovchi bir holatni tasvirlaydi. Bu ibora, shuningdek, o'zgaruvchan ichki dunyoni tashqi faoliyat bilan bog'lab, muloqotda odamning holatini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Sotsial va madaniy kontekstda "Jahli chiqmoq" iborasi o'zbek tilida keng tarqalgan bo'lib, madaniyat va tilda tez-tez ishlatiladigan bir ifoda hisoblanadi. G'azab, stress va kuchli emotsiyalarni tashqariga chiqarish, o'zaro muloqotda yoki jismoniy harakatda aks etishi mumkin. Bu ikkala ibora har ikkala tilda ham til egalari uchun doimiy ruhiy holatlarni ifodalashda qulay vosita bo'lib xizmat qiladi. "Jahli chiqmoq" va "to blow one's top" frazeologizmlari o'rtasida ma'no va tuzilish jihatidan o'xshashlik mavjud. Har ikkisi ham g'azabni ifodalash va odamning ichki stressini tashqi dunyoga chiqarish jarayoniga ishora qiladi. Shuning uchun, "jahli chiqmoq" frazeologizmi "to blow one's top" uchun yaxshi ekvivalent hisoblanadi.

Qo'rquv. Ingliz tilida "Shaking like a leaf" (yaproqdek titrash) – tashqi ko'rinishga urg'u beradi. Ushbu frazeologizm va uning o'zbek tilidagi ekvivalentini psixolingvistik jihatdan tahlil qilishda, biz ularning ma'nosi, emotsional izohini va madaniy kontekstini o'rganishimiz mumkin. Ingliz tilida qo'rquv yoki vahima tufayli titragan holatni ifodalovchi frazeologizmi bo'lib, qo'rquvdan yoki kuchli emotsional ta'sirdan siqilishni va titrashni tasvirlaydi. Yaproq o'zining nozikligi va shamolda titrash xususiyati tufayli bu ifoda ishlatiladi. Bu ibora asosan kuchli hissiy reaksiyalarni tasvirlashda qo'llaniladi. O'zbek tilida "yaproq kabi titramoq" kabi tarjima qilinadi. O'zbek tilida "Yuragi og'ziga kelmoq" frazeologizmi qo'rquvning jismoniy (yurak urishi) va ruhiy (vahima) ta'sirini obrazli tarzda yetkazadi. Bu frazeologizmlar bu holatni aks ettiradi va qo'rquv, xavotir yoki kuchli emotsional stressdan titrashni tasvirlaydi. Ingliz tilidagi "shaking like a leaf" va o'zbek tilidagi ekvivalenti psixolingvistik nuqtai nazardan bir-biriga o'xshash. Har ikkalasi ham odamning ichki hissiy holatini tashqi faoliyat (titrash) orqali ifodalaydi. Psixologik nuqtai nazardan, bu iboralar odamning stress, qo'rquv yoki xavotir kabi holatlarda ichki tizimdagi o'zgarishlarni tashqi ko'rinishga chiqarishini ko'rsatadi. Madaniy kontekstda Ingliz tilidagi "shaking like a leaf" iborasi, o'zbek tilidagi frazeologizmdan farq qiladi, chunki ingliz madaniyatida yaproq (leaf) va uning titragani bilan bog'liq tasvirlar ko'proq ishlatilgan. O

**Xulosa.** Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologizmlar hissiy ta'sirga ega bo'lsa-da, ularning qabul qilinishi madaniy va lingvistik farqlar tufayli o'zgaradi. O'zbek tilidagi iboralar jamoaviy qadriyatlar va ichki hissiyotlarga, ingliz tilidagi iboralar individual tajribaga

yo'naltirilgan. Kelajakda bu sohada ko'proq empirik tadqiqotlar o'tkazish tavsiya etiladi.

**ADABIYOTLAR**

1. Bruner, J. Acts of Meaning: Four Essays. Harvard University Press. 1990 y.
2. Vinogradov V.V, "Izbrannye trudi: Leksikologiya i leksikografiya", 1977 y.
3. Vygotskiy, L. S. Thought and Language. MIT Press. 1986
4. Rahmatullaev Sh. O'zbek tilining frazeologik lug'ati, Toshkent: 1992.
5. Raymond W. Gibbs. The Poetics of Mind: Figurative Thought, Language, and Understanding. First edition. 1994.



UDK: UO'K:81'374:746.1

**Madina RAVSHANOVA,**  
*O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti*  
E-mail: [ravshanovamadina090119942@gmail.com](mailto:ravshanovamadina090119942@gmail.com)

*O'zMU professori, f.f.d V.Vositov taqrizi asosida*

### HUNARMANDCHILIKKA OID LEKSIK BIRLIKLARING SHAKLANISH NAZARIY ASOSLARI

Аннотация

Mazkur maqolada hozirgi globallashuv jarayonlarida milliy an'analar va hunarmandchilikni asrab-avaylash masalasini yanada dolzarb bo'lmoqda. Shu bois, ingliz va o'zbek tillarida hunarmandchilikka oid leksik birliklarning shakllanish nazariy asoslarini o'rganish va ularning lingvistik xususiyatlarini tahlil qilish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so'zlar:** Leksik birliklar, so'z, prefiksatsiya, suffiksatsiya, infiksatsiya, akronimiya.

### ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОБРАЗОВАНИЯ ЛЕКСИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ, СВЯЗАННЫХ С РЕМЕСЛАМИ

Аннотация

В данной статье вопрос сохранения национальных традиций и ремесел становится все более актуальным в современных процессах глобализации. Поэтому изучение теоретических основ образования лексических единиц, связанных с ремеслами в английском и узбекском языках, и анализ их языковых особенностей имеют большое научное значение.

**Ключевые слова:** Лексические единицы, слово, префикс, суффиксация, инфиксация, аббревиатура.

### THEORETICAL FOUNDATIONS OF THE FORMATION OF LEXICAL UNITS RELATED TO CRAFTS

Annotation

This article discusses the issue of preserving national traditions and crafts in the current globalization processes. Therefore, it is of great scientific importance to study the theoretical foundations of the formation of lexical units related to crafts in English and Uzbek and to analyze their linguistic characteristics.

**Key words:** Lexical units, word, prefixes, suffixes, infixes, acronyms.

**Kirish.** Har bir xalqning madaniy merosi uning tili va hunarmandchilik an'analari bilan chambarchas bog'liqdir. Asrlar davomida hunarmandchilik xalqlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida muhim o'rin tutib, madaniy merosning ajralmas qismi sifatida shakllanib kelgan. Ingliz va o'zbek tillarida hunarmandchilikka oid leksik birliklar turli manbalar ta'sirida boyib, sermahsul shakllanish mexanizmlari orqali rivojlangan. Hozirgi globallashuv jarayonlari milliy an'analar va hunarmandchilikni asrab-avaylash masalasini yanada dolzarb qilmoqda. Shu bois, ingliz va o'zbek tillarida hunarmandchilikka oid leksik birliklarning shakllanish nazariy asoslarini o'rganish va ularning lingvistik xususiyatlarini tahlil qilish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Tadqiqot doirasida tilshunos olimlarning nazariy qarashlariga tayanilgan xolda, hunarmandchilik sohasiga oid leksik birliklarning shakllanish jarayoni turlicha tahlil qilib, jumladan, G. Yule (The Study of Language), o'zbek olimlaridan Sh.Rahmatullayev (Hozirgi adabiy o'zbek tili), A.Hojiyev (O'zbek tilida qo'shma, juft va takroriy so'zlar) va boshqalarning tadqiqot ishlaridan foydalanildi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot doirasida tilshunos olimlarning nazariy qarashlariga tayanilgan xolda, hunarmandchilik sohasiga oid leksik birliklarning shakllanish jarayoni turli lingvistik mexanizmlar va so'z yasash modellari asosida kechishi tahlil qilinadi. Ushbu birliklarning vujudga kelishida morfologik, semantik va so'z o'zlashtirish usullari muhim o'rin tutishi qayd etiladi. Shuningdek, ularning evolyutsiyasiga ijtimoiy-tarixiy omillar, madaniy aloqalar va globallashuv jarayonlari ta'sir ko'rsatishi mumkinligi ilmiy asoslangan holda tasdiqlanadi. Hunarmandchilikka oid leksik birliklarning rivojlanish dinamikasini o'rganish ularning tizimli o'zgarishlarini, terminologik xususiyatlarini va funksional imkoniyatlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Morfologik derivatsiya yoki affiksatsiya usuli va uning hunarmandchilik sohasidagi roli juda muhim, boisi yangi atamalar va leksik birliklarni shakllantirishda affiksatsiya, ya'ni qo'shimchalar yordamida so'z yasash juda ham produktiv hisoblanadi. G.Yule: "ushbu usul orqali yasalgan inglizcha

so'zlarning miqdoriy ko'rsatkichi benihoya katta..."[1], - deb ta'kidlaydi. Ma'lumki, qo'shimchalar yakka holda mustaqil ma'no bermaydi. Ammo asosga (o'zakka) qo'shilganda ularning ma'nosini o'zgartirib yuboradi. Bundan tashqari, so'zga qo'shimcha ma'no yuklaydi, sintaktik jihatdan so'zlarni bir-biriga ham bog'laydi. Ingliz tilida mazkur sohaga oid yangi leksik birliklarning paydo bo'lishida morfologik derivatsiya usulining uchta modeli sermahsul hisoblanadi. Jumladan: 1) prefixes - prefiksatsiya - so'zlarga old qo'shimchalar qo'shish orqali so'z yasash; 2) suffixes - suffiksatsiya - so'zlarga ort qo'shimchalarni qo'shish orqali so'z yasash; 3) infixes - infiksatsiya - so'z o'rtasiga so'z qo'shish orqali so'z yasash.

Prefiksatsiya - so'z yasashning samarali usullaridan biri bo'lib, u hunarmandchilik sohasida ham muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda old qo'shimchalar asosiy so'zga qo'shilishi natijasida yangi va mustaqil leksik-ma'noviy xususiyatga ega bo'lgan atamalar shakllanadi. Prefikslar so'zning ma'nosini o'zgartiradi yoki unga aniqlik kiritadi, shu bilan birga, uning morfologik va semantik tuzilmasini qayta shakllantiradi. Shunga qaramay bu faol usul tarkibidagi eng nafaol so'z yasashidir. Masalan, re - (qayta, takroriy amal): recraft - qayta ishlash, recarve - qayta o'ymakorlik qilish; over - (haddan tashqari, ortiqcha): overpolished - haddan tashqari sayqallangan; pre - (oldidan, avval): preformed - avvaldan shakl berilgan, precut - avvaldan kesilgan; un - (inkor, teskari harakat): unmolded - qolipga solinmagan, unded - bo'yalmagan (mato, ip) kabilar.

O'zbek tilida prefiksatsiya nisbatan passiv so'z yasash usuli hisoblanadi. Bu holat, asosan, tilning agglutinativ xususiyati bilan izohlanadi, ya'ni o'zbek tilida yangi so'zlar, asosan, suffiksatsiya orqali shakllanadi. Prefikslar esa mustaqil ravishda rivojlanmagan bo'lib, ular asosan boshqa tillardan o'zlashtirilgan so'zlar orqali kirib kelgan. hunarmandchilik sohasida ham prefikslar, asosan, arab, fors, rus va ingliz tillaridan o'zlashtirilgan atamalar tarkibida uchraydi va asosan, zamonaviy hunarmandchilik leksikasida uchraydi. Masalan: mini+gravura = minigravura (mini (ingliz tili)- prefiksi bilan: kichik o'ymakorlik san'ati).



Shu bois, o'zbek tilida prefiksatsiya hunarmandchilik sohasida faqat o'zlashma so'zlar negizida mavjud bo'lishi mumkin. YA'ni, yangi so'zlar yaratishda turkiy asosli so'zlarga prefiks qo'shilmaydi, balki chet tillardan kirgan so'zlar orqali shakllanadi. Bu esa tilshunoslik nuqtai nazaridan o'zbek tilida prefiksatsiyaning chegaralangan va passiv so'z yasash modeli ekanligini tasdiqlaydi.

Hunarmandchilik sohasida morfologik derivatsiya orqali yangi atamalar yaratishning uch asosiy modeli mavjud

Suffiksatsiya - suffixes, morfologik struktura doirasida so'z yaratish va o'zgartirish jarayoni bo'lib, tilshunoslikda so'z asosiga suffikslarni qo'shish orqali uning semantik va grammatik xususiyatlarini modifikatsiya qilish jarayoni sifatida e'tirof etiladi. Ingliz tilida ort qo'shimchalari ikki asosiy funksiyani bajaradi: a) grammatik (so'z o'zgartiruvchi) suffikslar - so'zning morfologik tuzilishini o'zgartirib, uning grammatik kategoriyalarga mansubligini belgilaydi; b) leksik (so'z yasovchi) suffikslar - yangi leksik birliklar yaratishda ishtirok etib, ularni yangi ma'nolar bilan boyitadi va boshqa so'z turkumiga aylantirish vazifasini bajaradi. Vazifamizga ko'ra, biz faqat b) leksik (so'z yasovchi) suffikslarni tahlilga tortdik. Boisi bunday suffikslar orqali yangi leksik birliklar hosil bo'lib, tilning dinamik rivojlanishiga hissa qo'shiladi. Misol uchun, Ot yasovchi qo'shimchalar: -ment: embossment - guloyma, barelyefli bezak yasash jarayoni, refinement - materialni qayta ishlash, nozik bezak berish; -ation: engravingation - o'ymakorlik jarayoni, polishment - sirtini pardoqlash jarayoni; -ant: adhesant - elim, yopishtirish uchun modda, fabricant - ishlab chiqaruvchi hunarmand; -ness: roughness - dag'al, harir emaslik (mato yoki yuza uchun), smoothness - yumshoqlik; -ist: constructionist - me'mor, qurilish yoki inshootlarni loyihalash va barpo etish bilan shug'ullanuvchi shaxs; -copyist - nusha ko'chiruvchi shaxs; -logy/-ology: Selenology - selenologiya (o'ying tuzilishi va geologiyasi), Iconology - ikonologiya (san'at asarlaridagi ramziy ma'nolarni o'rganish); -er: ironmonger - temir buyumlar savdogari (temir-taqa, mixlar, qulf va uy-ro'zg'or anjomlari), wireworker - sim bilan ishlovchi hunarmand; xylographer - yog'och o'yma san'atkori; -ity: diaphaneity - shaffoflik, dimity - engil paxta mato, dissolubility - eruvchanlik, deability - bo'yash qobiliyati, maturity - tayyor holat kelishi.

Sifat yasovchi qo'shimchalar: -ful: artful - san'atli, mohirona, skillful - mahoratli, powerful - kuchli; -able/-ible: flexible - moslashuvchan, reliable - ishonchli workable - ishlashga yaroqli, craftable - hunarmandchilikda yasash mumkin bo'lgan; -like: craftsmanlike - hunarmandga xos yoki hunarmandchilikcha xos, handmadelike - qo'l bilan yasalganga o'xshash, leatherlike - teriga o'xshash, vintage-like - eski uslubdagi, claylike - loysimon, wavelike - to'lqinsimon kabi soha leksik birliklari ingliz tiliga misol bo'la oladi.

O'zbek tilida so'z yasashning sermahsul morfologik usullaridan biri va bu lisoniy hodisa soha ko'lamida keng ommalashgan bo'lib, ular tilshunoslikda so'z asosiga qo'shilib, uning ma'no va grammatik xususiyatlarini o'zgartiruvchi morfologik birliklar hisoblanadi. Quyida ot so'z turkumiga oid leksik birliklarning yasashini kuzatishimiz mumkin: -dosh: guldosh (naqqoshlik), shakldosh (bir xil uslubda yaratilgan asar); -chi: temirchi, to'quvchi, quruvchi, taqachi, randachi, bo'yovchi, bezakchi; savatchi, chegachi (singan chinni, sopol idishlarni chegalovchi, chega qiluvchi), etikchi; -lik: loykashlik, naqqoshlik, nonvoychilik, oshpazlik, etikchilik, temirchilik; -gich (-g'ich, -qich, -kich, -kich): suzgich (oshpazlik), ochqich (temirchilik), buklagich (temirchilik), bog'ich (tikuvchilik); -v (-uv): aralashuv (ranglar aralashuvi); -m (-im, -um): chidam (bino korpusining chidamliligi);

O'zbek tilida so'z yasash jarayoni nafaqat mahalliy, balki fors-tojik va boshqa tillardan kirib kelgan affikslar ishtirokida ham amalga oshadi. Bunday qo'shimchalar tilning morfologik tuzilmasida muhim o'rin tutib, yangi leksik birliklarni shakllantirishda asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Tilshunoslik nuqtai nazaridan qaralganda, har qanday so'z yasaydigan affikslar - ularning kelib chiqishiga qaramasdan - o'zbek tilining lug'aviy boyligini oshirish, so'z yasash imkoniyatlarini kengaytirish va turli funksional sohalarda leksik birliklarni takomillashtirishda katta ahamiyatga ega. Masalan, -goh: dastgoh; -gar (-gor):

chilangar, zargar, duradgor; -dor: naqshdor, rangdor, guldor; -do'z: etikdo'z, maxsido'z; -kash: loykash, paxsakash; -kor: binokor; -simon: halqasimon, sharsimon, oynasimon; -chin: quloqchin; -paz: kabobpaz, oshpaz kabilar bunga yaqqol namunadir.

Yevropa tillaridan o'zlashgan hunarmandchilikka oid affikslar: -siya yoki -siya: dekoratsiya (bezaklash jarayoni), restavratsiya (eski buyumlarni tiklash); -tor: generator (elektr yoki havo bosimi generatsiya qiluvchi qurilma), regulyator (harorat yoki bosimni boshqaruvchi qurilma); -izm: modernizm (zamonaviy hunarmandchilik yo'nalishi), minimalizm (kam chizg'ili bezaklash uslubi); -er yoki -or: konverter (xom ashyoni ishlov berish qurilmasi), kompressor (havo bosimi bilan ishlaydigan qurilma) kabilar. O'zbek tili aglutinativ tillar oilasiga mansubligi bois mazkur usul faol so'z yasash usuli sanaladi va leksik qatlarning funksional imkoniyatlarini kengaytirishda muhim rol o'ynaydi.

Infiksalar (infixes) - so'zning asosiy morfemasi ichida joylashgan va uning semantik yoki emotsional tarkibini o'zgartirish vazifasini bajaradigan morfologik elementlar hisoblanadi. Ingliz tilida infiksatsiya so'z yasashning nafaol usuli sifatida qaraladi va asosan ekspressivlik, xis-hayajon, g'azab, hayrat kabi emotsional holatlarni ifoda etish maqsadida qo'llaniladi. Biroq ular samarali usul hisoblanmaydi. Jumladan, This carpet is abso-bloody-lutely stunning! (Absolutely stunning > abso-bloody-lutely stunning - gilamning hayratlanarli darajada go'zalligini ta'kidlash).

Infiksatsiya usuli hozirgi o'zbek adabiy tilida amaliy ravishda uchramaydi. Bu holat o'zbek tilining morfologik xususiyatlari bilan bog'liq bo'lib, uning so'z yasash tizimida infiksalar mavjud emas. Shu sababli, infiksatsiya ingliz va o'zbek tillarining morfologik kategoriyalari o'rtasidagi mikrokatégorial allomorfik farqlardan biri hisoblanadi.

Hunarmandchilik sohasida leksik birliklarni shakllantirishning samarali usullaridan biri akronimiya (acronyms) hisoblanadi. Mazkur usul ilk bor XX asrning 20-yillarida german tilshunoslari tomonidan morfologiya sohasida yangi bir tushuncha - "acronym" (qisqartma) sifatida shakllantirilgan. Keyinchalik, 1940-yildan boshlab, bu usul ingliz tilida acronyms deb nomlana boshladi. Bungacha esa ushbu jarayon tilshunoslikda blending (qorishtirish) usuli doirasida o'rganilgan. Hunarmandchilik sohasida akronimlardan foydalanish maxsus atamalarni soddalashtirish va mutaxassislar o'rtasida samarali muloqotni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hunarmandchilikdagi atamalarining talaffuz xususiyatlari muhim ahamiyatga ega. Odatda, ularning talaffuzi ikki xil shaklda uchraydi: har bir harfni alohida aytish (yakka holda talaffuz) yoki barcha harflarni uzviy ravishda, birgalikda talaffuz qilish (uzviy talaffuz). 1970 yilda Payls va Algeo mazkur turlarni tizimlashtirib, ularni fonetik jihatdan turli guruhlarga ajratgan. Ushbu yondashuv natijasida ayrim qisqartmalar uzviy ravishda, boshqalari esa harfma-harf talaffuz qilinishi aniqlangan[2]. Soha tarkibida ushbu birliklarning miqdori juda ko'plab topiladi. Masalan, CAD (Compyuter-Aided Design) - kompyuter yordamida dizayn yaratish; CNC (Compyuter Numerical Control) - raqamli boshqaruvli dastgohlar; DIY (Do It Yourself) - o'z qo'lingiz bilan yaratish; BIM (Building Information Modeling) - bino ma'lumotlarini modellashtirish; RPM (Revolutions Per Minute) - daqiqaga aylanishlar soni; HSS (High-Speed Steel) - kesish vositalarini yaratish uchun ishlatiladigan po'lat qotishma turi; DTC (Direct to Consumer) - iste'molchining o'ziga to'g'ridan-to'g'ri; OoAK (One of a Kind) - birdan-bir nusxa; MTO (Made to Order) - Buyurtma asosida ishlab chiqarilgan.

Hunarmandchilik sohasida ingliz tilida akronimiya usuli yuqori samaradorlikka ega bo'lib, yangi atamalarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Bu usul texnik atamalarni ixchamlashtirish va mutaxassislar o'rtasida tez va samarali muloqotni ta'minlash imkonini yaratadi.

Ingliz tilida blending (qorishtirish), clipping (qisqartirish), back-formation (bekformatsiya) va acronym (akronimiya) kabi so'z yasash usullari turli lingvistik va kommunikativ omillar ta'sirida shakllangan. O'zbek tilida esa mazkur usullar umumiy tarzda "qisqartma otlar" sifatida tasniflanadi. Qisqartma otlar

o'zbek tilida "qisqartma so'zlar" deb yuritilib, asosan murakkab nomlar (tashkilotlar, davlatlar va boshqa tuzilmalar)ni soddalashtirish va ixchamlashtirish maqsadida shakllanadi. Masalan, QHB - qo'l hunarmandchiligi buyumlari; HAS - hunarmandchilik asboblari savdosi; MTQ - maxsus texnika qo'llanmasi; TAJ - to'qimachilik asboblari jamlamasi kabilar.

O'zbek tilida akronimiya usuli, avvalo, nutqning kompressivligini oshirishga qaratilgan bo'lib, ko'p komponentli va uzun atamalarni qisqartirish orqali ularni sodda va tushunarli shaklda ifoda etishga xizmat qiladi. Mazkur usul hunarmandchilik sohasiga oid leksik birliklarni tizimlashtirish va unifikatsiyalash jarayonida muhim lingvistik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Akronimiya orqali shakllangan atamalar mutaxassislar o'rtasida

samarali muloqotni ta'minlash bilan birga, soxaviy terminologiyaning standartizatsiyasiga ham yordam beradi.

**Xulosalar.** Hunarmandchilik sohasida yuz berayotgan texnologik taraqqiyot va innovatsion o'zgarishlar mazkur sohadagi leksik birliklarning shakllanishi va rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Til taraqqiyoti nuqtai nazaridan tahlil qilinganda, yangi texnologiyalar, ixtirolar va modernizatsiya jarayonlari sohaviy atamalar hamda leksik birliklarning takomillashuvini tezlashtirishda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu jarayon mavjud leksik birliklarning semantik doirasini kengaytirish va qayta ma'nolanishi bilan cheklanib qolmay, balki yangi atamalarning yaratilishi hamda ularning til meyorlari asosida mustahkamlanishini ta'minlaydi.

#### ADABIYOTLAR

1. Yule G. The Study of Language. – Cambridge University Press. – 2010. –P. 340.
2. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. Ikkinchi nashr. –T, 2010.–61b.
3. Algeo J. Fifty Years Among the New Words. Dictionary of neologisms.– Cambridge University Press, 1991. . Fifty years among the new words. –P. 262.



*Miraziz RAUFOV,*  
*Toshkent davlat yuridik universiteti katta o'qituvchisi*  
*E-mail: m.raufov@tsul.uz*

*TDYU f.f.n., professor G. Gulyamova taqrizi asosida*

## SINXRON TARJIMADA MUQOBILSIZ BIRLIKLAR TARJIMASI: MUAMMO VA YECHIMLAR

Annotatsiya

Mazkur maqolada sinxron tarjimada muqobilsiz birliklarni tarjima qilishda uchraydigan asosiy muammolar va ularni hal qilish bo'yicha samarali strategiyalar tahlil qilinadi. Muqobilsiz birliklar bir tilning madaniy, tarixiy yoki lingvistik xususiyatlariga xos bo'lib, boshqa tilda to'g'ridan-to'g'ri ekvivalenti bo'lmagan so'zlar yoki iboralardir. Tadqiqot davomida kontekstual yondashuv, izohlash va ekvivalent yaratish kabi strategiyalar samaradorligi ko'rsatib beriladi.

**Kalit so'zlar:** Sinxron tarjima, muqobilsiz birliklar, tarjima strategiyalari, kontekstual yondashuv, izohlash, ekvivalent yaratish.

## ПЕРЕВОД БЕЗЭКВИВАЛЕНТНЫХ ЕДИНИЦ ПРИ СИНХРОННОМ ПЕРЕВОДЕ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

Аннотация

В данной статье анализируются основные проблемы перевода безэквивалентных единиц в синхронном переводе и предлагаются эффективные стратегии их решения. Безэквивалентные единицы — это слова или фразы, уникальные для культурных, исторических или лингвистических особенностей языка, не имеющие прямых эквивалентов в других языках. В исследовании подчеркивается эффективность таких стратегий, как контекстуальная адаптация, объяснение и создание эквивалентов.

**Ключевые слова:** Синхронный перевод, безэквивалентные единицы, стратегии перевода, контекстуальная адаптация, объяснение, создание эквивалентов.

## TRANSLATION OF NON-EQUIVALENT UNITS IN SIMULTANEOUS INTERPRETATION: CHALLENGES AND SOLUTIONS

Annotation

This article analyzes the main challenges of translating non-equivalent units in simultaneous interpretation and proposes effective strategies to address them. Non-equivalent units are words or phrases unique to a language's cultural, historical, or linguistic characteristics, lacking direct equivalents in other languages. The study highlights the effectiveness of strategies such as contextual adaptation, explanation, and creating equivalents.

**Key words:** Simultaneous interpretation, non-equivalent units, translation strategies, contextual adaptation, explanation, creating equivalents.

**Kirish.** Hozirgi globallashuv davrida turli tillarda so'zlashuvchi xalqlar o'rtasida samarali muloqotni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xalqaro konferensiyalar, siyosiy uchrashuvlar va madaniy tadbirlarda sinxron tarjima til to'siqlarini yengib o'tishning asosiy vositasi sifatida xizmat qiladi. Sinxron tarjimonlar nafaqat til bilimiga ega bo'lishlari, balki madaniy tafovutlarni chuqur anglashlari, tezkor fikrlash qobiliyatiga ega bo'lishlari va real vaqt rejimida murakkab ma'lumotlarni qayta ishlashlari talab etiladi. Ushbu jarayonning eng murakkab jihatlaridan biri bu muqobilsiz birliklarni tarjima qilishdir.

Muqobilsiz birliklar — bu bir tilning o'ziga xos madaniy, tarixiy yoki lingvistik xususiyatlarini aks ettiruvchi, boshqa tilda to'g'ridan-to'g'ri ekvivalenti bo'lmagan so'zlar yoki iboralardir. Masalan, o'zbek tilidagi "mahalla" so'zi yoki ingliz tilidagi "Thanksgiving" tushunchasi boshqa tillarda to'liq ekvivalentga ega emas. Bunday birliklarni tarjima qilishda tarjimonlar nafaqat lingvistik, balki madaniy tafovutlarni ham hisobga olishlari kerak. Bu esa tarjimonlardan ijodiy yondashuv va yuqori darajadagi moslashuvchanlikni talab qiladi.

Sinxron tarjimada muqobilsiz birliklarni tarjima qilishda uchraydigan asosiy qiyinchiliklar quyidagilardan iborat:

**Madaniy tafovutlar:** Har bir til o'ziga xos madaniy va tarixiy xususiyatlarga ega bo'lib, bu muqobilsiz birliklarni tarjima qilishni qiyinlashtiradi. Masalan, o'zbek tilidagi "to'y" tushunchasi nafaqat nikoh marosimini, balki kengroq ijtimoiy va madaniy hodisani ifodalaydi.

**Lingvistik tafovutlar:** Ba'zi tillar o'ziga xos grammatik va semantik xususiyatlarga ega bo'lib, bu tarjima jarayonida qo'shimcha qiyinchiliklar tug'diradi.

Vaqt cheklovlari: Sinxron tarjimada tarjimonlar real vaqt rejimida ishlashlari kerak, bu esa muqobilsiz birliklarni tarjima qilishni yanada murakkablashtiradi.

Sinxron tarjimoni xalqaro hamkorlikni rivojlantirishda til va madaniyatlararo muloqotning muhimligini ta'kidlab, tarjimonlarni bu jarayonning asosiy ko'prigi sifatida ko'rishimiz mumkin. Shu sababli sinxron tarjimonlarning muqobilsiz birliklarni tarjima qilishdagi qobiliyatlari xalqaro muloqotning samaradorligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu maqolada sinxron tarjimada muqobilsiz birliklarni tarjima qilishda duch kelinadigan muammolarni aniqlash va ularni hal qilish bo'yicha samarali strategiyalarni ishlab chiqish maqsad qilingan. Tadqiqot quyidagi usullar asosida amalga oshirildi:

**Adabiyotlarni tahlil qilish.** Tadqiqotning nazariy asoslarini shakllantirish uchun muqobilsiz birliklar va ularni tarjima qilish strategiyalari bo'yicha ilmiy manbalar o'rganildi. Xususan, tarjima nazariyasi va sinxron tarjima bo'yicha yetakchi olimlarning ishlari tahlil qilindi. Bu jarayonda Vinay va Darbelnet [1], Pöchhacker [2], va Moser-Mercer [3] kabi tadqiqotchilarning asarlari asosiy manba sifatida foydalanildi.

**Real misollarni tahlil qilish:** Sinxron tarjima jarayonida yuzaga kelgan muqobilsiz birliklar va ularning tarjimasi o'rganildi. Misollar xalqaro konferensiyalar va siyosiy nutqlardan, jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti yig'ilishlarida so'zlangan nutqlardan olingan. Ayniqsa, o'zbek va ingliz tillari o'rtasidagi tarjimalar tahlil qilinib, muqobilsiz birliklarni tarjima qilishda qo'llanilgan strategiyalar o'rganildi.

**Nazariy va amaliy yondashuvlarni solishtirish:** Muqobilsiz birliklarni tarjima qilishda qo'llaniladigan nazariy yondashuvlar va ularning amaliy qo'llanilishi tahlil qilindi. Bu

jarayonda nazariy yondashuvlarning real tarjima jarayonida qanchalik samarali ekanligi baholandi.

Ushbu metodologiya asosida sinxron tarjimada muqobilisiz birliklarni tarjima qilishda qo'llaniladigan samarali strategiyalar aniqlanib, ularning amaliy qo'llanilishi bo'yicha xulosalar chiqarildi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Sinxron tarjimada muqobilisiz birliklarni tarjima qilish masalasi tarjima nazariyasi va amaliyoti bo'yicha ko'plab tadqiqotlarda o'rganilgan. Ushbu bo'limda mavzuga oid asosiy ilmiy manbalar tahlil qilinadi va ularning tadqiqotga qo'shgan hissasi yoritiladi.

Muqobilisiz birliklar tarjima nazariyasida alohida o'rin tutadi. Vinay va Darbelnet [1] o'zlarining "Comparative Stylistics of French and English" asarida muqobilisiz birliklarni tarjima qilishda izohlash va ekvivalent yaratish kabi strategiyalarni taklif qilgan. Ularning fikricha, bunday birliklarni tarjima qilishda tarjimonlar madaniy va lingvistik tafovutlarni hisobga olishlari kerak. Ushbu yondashuv sinxron tarjima jarayonida ham dolzarb hisoblanadi.

Pöchhacker [2] o'zining "Introducing Interpreting Studies" asarida sinxron tarjimonlarning madaniy tafovutlarni yengib o'tishdagi rolini ta'kidlaydi. U madaniy jihatdan xos bo'lgan birliklarni tarjima qilishda kontekstual yondashuvning ahamiyatini alohida qayd etadi.

Moser-Mercer [3] sinxron tarjimonlarning stress ostida ishlash qobiliyatini o'rganib, muqobilisiz birliklarni tarjima qilishda vaqt cheklovlari muhim rol o'ynashini ko'rsatgan.

Cronin [4] o'zining "Translation and Globalization" asarida tarjimonlarni nafaqat lingvistik, balki madaniy ko'priksifatida ham ko'radi. U muqobilisiz birliklarni tarjima qilishda izohlash va madaniy moslashuvning ahamiyatini ta'kidlaydi. Masalan, "mahalla" yoki "sumalak" kabi o'zbek tiliga xos birliklarni tarjima qilishda ularning madaniy ma'nosini izohlash orqali tushuntirish zarurligini qayd etadi.

O'zbek tiliga xos bo'lgan "mahalla", "to'y", "do'ppi" kabi birliklar boshqa tillarda to'g'ridan-to'g'ri ekvivalentga ega emas. Ushbu birliklarni tarjima qilishda madaniy moslashuv va izohlash strategiyalari muhim ahamiyatga ega.

Yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, sinxron tarjimada muqobilisiz birliklarni tarjima qilish masalasi nafaqat lingvistik, balki madaniy va ijtimoiy jihatdan ham muhimdir. Ushbu tadqiqot mavjud nazariy yondashuvlarni amaliy misollar bilan boyitib, sinxron tarjimonlar uchun samarali strategiyalarni taklif etadi.

**Tahlil va natijalar.** Tadqiqot davomida sinxron tarjimada muqobilisiz birliklarni tarjima qilishda uchraydigan asosiy muammolar va ularni hal qilish uchun qo'llaniladigan strategiyalar tahlil qilindi.

1. Kontekstual yondashuv. Kontekstual yondashuv muqobilisiz birliklarni tarjima qilishda ularning ma'nosini kontekst orqali tushuntirishni nazarda tutadi. Bu usulda so'zning to'g'ridan-to'g'ri tarjimasi berilmaydi, balki uning ma'nosi kontekst orqali ochib beriladi. Masalan,

Manba tilida (o'zbekcha): "Mahalla bizning ijtimoiy hayotimizning markazidir."

Tarjima (inglizcha): "The mahalla is the center of our social life."

Bu yerda "mahalla" so'zi tarjima qilinmaydi, chunki ingliz tilida bu so'zning to'g'ridan-to'g'ri ekvivalenti yo'q. Buning o'rniga, uning ijtimoiy hayotdagi o'rnini kontekst orqali tushuntiriladi. Yana bir misol:

Manba tilida (o'zbekcha): "Navro'z bayrami xalqimizning qadimiy an'alarini aks ettiradi."

Tarjima (inglizcha): "Navruz is a traditional holiday that reflects the ancient customs of our people."

"Navro'z" so'zi tarjima qilinmaydi, lekin uning ma'nosi kontekstual izoh orqali ochib beriladi. Kontekstual yondashuv Pöchhacker [1] tomonidan sinxron tarjimada madaniy tafovutlarni yengib o'tishning samarali usuli sifatida ta'riflangan.

#### ADABIYOTLAR

1. Vinay, J.-P., and Darbelnet, J., *Comparative Stylistics of French and English: A Methodology for Translation*. Amsterdam, The Netherlands: John Benjamins, 1995.
2. Pöchhacker, F., *Introducing Interpreting Studies*. London, UK: Routledge, 2004.
3. Moser-Mercer, B., "Stress and Interpreting Performance: A Review," *Interpreting*, vol. 10, no. 2, pp. 201–223, 2008.

2. Izohlash. Izohlash strategiyasi muqobilisiz birliklarni tushuntirish orqali tarjima qilishni nazarda tutadi. Bu usulda so'zning ma'nosi batafsil izoh bilan ochib beriladi. Misol uchun:

Manba tilida (o'zbekcha): "Sumalak Navro'z bayramining ajralmas qismidir."

Tarjima (inglizcha): "Sumalak, a traditional Uzbek dish made from wheat sprouts, is an integral part of the Navruz celebration."

Bu yerda "sumalak" so'zi izoh bilan tushuntiriladi, chunki ingliz tilida bu so'zning ekvivalenti yo'q. Yana bir misol:

Manba tilida (o'zbekcha): "Do'ppi o'zbek milliy bosh kiyimidir."

Tarjima (inglizcha): "The doppi, a traditional Uzbek skullcap, is a national headwear."

"Do'ppi" so'zi izoh bilan tarjima qilinadi, bu esa o'quvchiga uning ma'nosini tushunishga yordam beradi. Cronin [2] izohlash strategiyasini madaniy jihatdan xos bo'lgan birliklarni tarjima qilishda muhim vosita sifatida ta'kidlaydi.

3. Ekvivalent yaratish. Ba'zi hollarda tarjimonlar muqobilisiz birliklar uchun yangi ekvivalent yaratadilar. Bu usulda so'zning ma'nosi boshqa tilda mavjud bo'lmagan bo'lsa, tarjimon o'ziga xos ibora yoki atama yaratadi. Misol uchun:

Manba tilida (o'zbekcha): "O'zbekcha osh dunyoga mashhur."

Tarjima (inglizcha): "Uzbek plov is famous worldwide."

Bu yerda "osh" so'zi "plov" deb tarjima qilinadi, chunki bu atama xalqaro miqyosda tanilgan va o'zbek oshxonasini ifodalaydi. Yana bir boshqa misol:

Manba tilida (o'zbekcha): "Askiya xalq og'zaki ijodining noyob namunasi hisoblanadi."

Tarjima (inglizcha): "Askiya, a unique form of Uzbek oral folk art, is a cultural treasure."

"Askiya" so'zi uchun yangi ekvivalent yaratiladi va uning ma'nosi izoh bilan tushuntiriladi. Vinay va Darbelnet [3] tomonidan taklif qilingan ekvivalent yaratish strategiyasi muqobilisiz birliklarni tarjima qilishda keng qo'llaniladi.

4. Modulyatsiya (ma'noni o'zgartirish). Modulyatsiya strategiyasi so'zning ma'nosini yoki nuqtai nazarini o'zgartirish orqali tarjima qilishni nazarda tutadi. Bu usulda so'zning asl ma'nosi saqlanadi, lekin u TL (target language) uchun qulayroq shaklda ifodalanadi. Misol uchun:

Manba tilida (o'zbekcha): "Bu masala juda murakkab."

Tarjima (inglizcha): "This issue is highly complex."

"Juda murakkab" iborasi "highly complex" deb modulyatsiya qilinadi, bu esa ingliz tilida tabiiyroq eshitiladi. Yana bir misol:

Manba tilida (o'zbekcha): "Uning yuragi tog'dek katta."

Tarjima (inglizcha): "He has a heart of gold."

Bu yerda "yuragi tog'dek katta" iborasi ingliz tilidagi ekvivalent metafora bilan modulyatsiya qilinadi. Vinay va Darbelnet [3] modulyatsiyani tarjima jarayonida ma'noni moslashtirishning samarali usuli sifatida ta'riflaydi.

**Xulosa.** Ushbu tadqiqot sinxron tarjimada muqobilisiz birliklarni tarjima qilishda duch kelinadigan muammolarni tahlil qilish va ularni hal qilish bo'yicha samarali strategiyalarni aniqlashga qaratildi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, muqobilisiz birliklarni tarjima qilishda asosiy qiyinchiliklar madaniy tafovutlar, lingvistik xususiyatlar va vaqt cheklovlari bilan bog'liq. Ushbu muammolarni yengib o'tish uchun kontekstual yondashuv, izohlash, ekvivalent yaratish va modulyatsiya kabi strategiyalar samarali hisoblanadi.

Ushbu strategiyalar xalqaro muloqotda til to'siqlarini yengib o'tishda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari sinxron tarjimonlar uchun amaliy qo'llanma bo'lib xizmat qilishi va tarjima jarayonining sifatini oshirishga yordam berishi mumkin. Kelgusida boshqa tillar o'rtasidagi muqobilisiz birliklarni o'rganish tadqiqot doirasini kengaytirishi mumkin.

4. Cronin, M., *Translation and Globalization*. London, UK: Routledge, 2002.
5. Gile, D., *Basic Concepts and Models for Interpreter and Translator Training*. Amsterdam, The Netherlands: John Benjamins, 1995.
6. Albl-Mikasa, M., "Cognitive Load in Simultaneous Interpreting," *Interpreting Studies*, vol. 12, no. 3, pp. 203–228, 2013.
7. Korpala, P., "Emotional Load in Simultaneous Interpreting," *International Journal of Bilingualism*, vol. 20, no. 3, pp. 257–273, 2016.
8. Lederer, M., *La Traduction Simultanée: Expérience et Théorie*. Paris, France: Minard Lettres Modernes, 1981.
9. Seleskovitch, D., *Interpreting for International Conferences: Problems of Language and Communication*. Washington, DC: Pen and Booth, 1978.
10. Gile, D., "The Effort Models in Interpreting Studies," *Interpreting Studies Reader*, vol. 1, pp. 159–176, 2004.



UDK: 8123:81.07

**Barno SAYDIVALIYEVA,**  
Associate professor, Foreign Language, Tashkent State Transport University  
E-mail: Saydivaliyevabarno@gmail.com.

Doctor of Philosophy in Philology Based on the criticism of U.Yoldoshev

### LEXICOGRAPHIC INTERPRETATION OF THE LEXEM "KHUSHMUAOMALALIK" IN ENGLISH AND UZBEKISTAN Annotation

This article provides a lexicographical interpretation of the lexeme "KHUSHMUAOMALALIK" in English and Uzbek, as well as information about the system of ideas, the specific features of the thinking of a particular people in the national language. In this case, the most useful material is proverbs and sayings, which are considered a kind of "treasure" of the people's everyday, social and intellectual experience and reflect the system of ideas of people about the world around them, their mutual relations and values. When working with Uzbek and English proverbs and sayings, it is taken into account that there are often no exact equivalents in the systems of different languages.

**Key words:** Politeness, intelligence, understanding, wisdom, mind, wit, intellect, mod, daily communication proc.

### ЛЕКСИКОГРАФИЧЕСКОЕ ТОЛКОВАНИЕ ЛЕКСЕМЫ «ХУШМУАОМАЛАЛИК» В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКИСТАНСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация

В данной статье дается лексикографическое толкование лексемы «ХУШМУАОМАЛАЛИК» в английском и узбекском языках, а также сведения о системе представлений, особенностях мышления конкретного народа в национальном языке. При этом наиболее полезным материалом являются пословицы и поговорки, которые считаются своеобразным «сокровищем» повседневного, социального и интеллектуального опыта народа и отражают систему представлений людей об окружающем мире, их взаимоотношениях и ценностях. При работе с узбекскими и английскими пословицами и поговорками учитывается, что зачастую в системах разных языков нет точных эквивалентов.

**Ключевые слова:** Вежливость, интеллект, понимание, мудрость, ум, остроумие, интеллект, мода, повседневное общение проц.

### INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA “XUSHMUOMALALIK” LEKSEMASINING LEKSIKOGRAFIK TALQINI

Annotatsiya

Ushbu maqola Ingliz va o‘zbek tillarida “xushmuomalalik” leksemasining leksikografik talqini hamda muayyan xalqning tasavvurlar tizimi, tafakkurining o‘ziga xos xususiyatlari haqidagi ma’lumotlar milliy tilda qayd yetilgan. Bu holatda yeng foydali material xalqning kundalik, ijtimoiy va intellektual tajribasining o‘ziga xos “xazinasini” hisoblangan va odamlarning atrofdagi dunyo, odamlarning o‘zaro munosabatlari va qadriyatlarini haqidagi tasavvurlar tizimini aks ettiruvchi maqol va matallardir. O‘zbek va ingliz maqollari va matallari bilan ishlashda turli tillar tizimida ko‘rincha aniq yekvivalentlar mavjud yemasligi hisobga olinadi.

**Kalit so‘zlar:** Xushmuomalalik, aql, fahm-idrok, zehn, donishmandlik, mind, wit, intellect, mod, kundalik muloqot jarayoni, men, “shaxsiy maydoni”ni hurmat qilish, mehribonlik, g‘amxo‘rlik, yaxshi xulq-atvor.

**Introduction.** In world linguistics, today the perception of the whole world picture is carried out mainly through the prism of its coverage in the media. The most effective of them are print media and the Internet. The print edition not only provides information about the events taking place in the world, but also interprets them. Based on this interpretation, a person forms his knowledge of the surrounding reality. The journalist selects the language means that are most appropriate for the assessment of the event that he wants to form with his readers. Phraseological units are also among the important expressive means of the newspaper text. One of the important features of communication between people is politeness. It should be noted that politeness is one of the most important and necessary elements in the process of everyday communication. The human personality and spirituality are sacred. Communication, in addition to giving people a good mood, moments of emotional relaxation, is a place where it is possible to touch the spirituality of a person and break its boundaries.

In modern society, politeness is a necessary character trait, showing respect and honor to those around him, in general, a polite person clearly demonstrates that he is a person of good manners. The nature of this virtue is communication within the framework of culture, respect for the “personal space” of other participants in the dialogue, kindness, care, good manners, etc. form the basis of politeness.

From the point of view of Western linguistics, politeness can be interpreted as a system of strategies used by speakers to

defuse a potentially conflicting situation and make a positive impression on the interlocutor.


**Analysis and results.** Politeness is not inherent in human nature, but is a quality that is “acquired” in the process of socialization of the individual. The principle of politeness is defined in linguistics as a set of indicators, a set of signs (clichés, stereotypical expressions). Politeness in language is a term traditionally used to describe the various means of expression, that is, the relationship between the speaker, the listener, and the person being discussed. The term “politeness” in English etymologically dates back to the 15th century, when the word is taken from the Latin “polite” and means “elegant”, “perfect” when applied to a person.

In linguistics, studies of politeness from the point of view of pragmatics were conducted in the early 1970s and date back to the works of R. Lakoff, P. Brown, S. Levinson, J. Leach, and others. In turn, the theories of the aforementioned scientists form the basis of Gray's doctrine. The definition of politeness through the maxims of speech communication is based, first of all, on P. Gray's now classic work “Logic and Speech Communication”. The assumption put forward by P. Gray that communication should be based on some principle that governs this process and is observed by all communicators served as the basis for his theory of the “cooperative principle” or “cooperation principle”. P. Gray's principle of cooperation implies joint efforts to achieve a common goal. P. Grays describes this principle as follows: “At a certain stage of communication, your communicative contribution should be as much as the jointly determined goal (direction) of this

conversation requires.” Nowadays, we can witness an even greater interest in the approaches of P. Grays and J. Searle, and as a result, a new direction has emerged: J. Leach refers to these directions in his work as neo-Graysian and neo-Searlian pragmatics.

**Research methodology.** In the interpretation of literature and theories created in English, we can see that one of the main units of the politeness category is the concept of “face”. Here, “face” refers to a person’s personality, reputation and identity in a group, while positive face is “reputation, attention” and negative face is “personal inviolability”. The combination “positive face” means a person’s desire to communicate with others and achieve respect and attention, while the combination “negative face” is defined as a person’s desire to ensure the inviolability of their basic rights and freedoms and their ability to act in their own interests. According to the founders of this theory, Penelope Brown and Stephen Levinson, “each participant in communication tries to protect themselves from any actions that threaten their identity (reputation) and violate their personal inviolability, or seeks to use strategies that reduce the level of threat.”

Robin Lakoff, emphasizing the need to take into account the rules of politeness when describing interpersonal relationships, presents his own rules: do not impose your opinion on others, give



“It is worth emphasizing that H. Haverkeit is the only scholar who decided to give a description to the category of politeness,” says the famous linguist Rozina Marquez.

M.B. Kholova, studying the linguocultural and sociopragmatic features of the category of politeness in English and Uzbek literary works, defines politeness in her work as follows: “politeness includes treating people with respect, which helps us to get along with each other, prevent conflicts, and create a positive social environment.”

Within the framework of the theory of linguistic politeness, representatives of Western linguistics have different approaches to various aspects of the category under study, but they all agree on defining politeness as a form of behavior aimed at ensuring social harmony. They do not consider “politeness” and “etiquette” to be different concepts.

According to B. Frazer's teachings, work on the principle of politeness can be divided into four: “social norm”, “conversational maxim”, “face saving” and Frazer's “contact”.

The theory of “social norm” expresses the historical understanding of politeness.

It is no exaggeration to say that the “communication maxim” partially covers Gray's theory. R. Lakoff, J. Leach, and W. Edmondson responded positively to this theory and consider it the basis of their theories.

The “face saving model” was introduced by P. Brown and Levinson and is one of the main models of scientific research in this field to this day.

**Analysis and results.** Although all the theories presented are supported by various ideas and assumptions, all the opinions and scientific hypotheses actually converge on the point that unites them, namely the politeness strategy aimed at preventing conflict in communication between members of society. The basis for them is the implicature theory of P. Grays and the face theory of I. Goffman. One of the scientists who made a great contribution to linguistics in the study of pragmatics was P. Grays and his “Cooperative principle” and “Maxim of conversation”, that is, he said that the main goal of any communication is the process of “successful exchange of information”. Although the cooperative

the interlocutor the right to choose, adapt the interlocutor to yourself, be friendly. Based on such rules, R. Lakoff created the law of politeness in 1975:

1. Formality: keep yourself at a distance.
2. Respect: give the interlocutor the opportunity to choose.
3. Friendship: show your feelings, express sympathy.

Although these rules are observed to some extent in any communication, their importance may vary in different cultures. According to R. Lakoff, politeness is “a system of interpersonal relations aimed at facilitating interaction in order to reduce or eliminate the risk of conflict situations and confrontations that may arise during communication between people.” Thus, one of the first scientists to study politeness from a purely pragmatic approach was Robin Lakoff.

Unlike P. Grays, J. Leach adds the maxims of thoughtfulness, generosity, approval, humility, consent, and sympathy to the principle of cooperation, which also includes the principle of politeness (this will be discussed separately in 1.2).

Politeness can be expressed through communicative and non-communicative actions. H. Haverkate studies the different forms of politeness and presents the following diagram:

principle he created did not directly lead to the emergence of the theory of politeness, it served as the basis for its emergence.

Shahriyor Safarov, in his book “Pragmalinguistics”, also conducts extensive research in the field of speech acts and speech etiquette. Noting that the two maxims proposed by linguist P. Grays are not enough to ensure the effectiveness of communication, he cites 16 principles of conversation and speech etiquette of Husayn Voiz Kashifi. In this, preacher Husayn Kashifi divides the rules of speech etiquette into age categories - adults and minors: “If those who have achieved a position ask what rules they should follow in a conversation, they should remember the following eight rules: first, they should speak appropriately according to the situation of each person. Second, they should speak with grace and gentleness, without being rude. Third, when speaking, they should smile and speak openly. Fourth, they should not raise their voice, they should speak in a way that does not tire the listeners. Fifth, they should speak meaningful words that will benefit people. Sixth, if the word is not valuable, do not mention it, because the words of the great are great by comparison. If the seed is rotten or rotten, no matter where you plant it, it will not sprout.”

**Conclusions and suggestions.** According to R. Lakoff, P. Gray's maxims require clarity in conversation, and in this respect they correspond to R. Lakoff's pragmatic approach. Then R. Lakoff emphasizes that “clarity” is the first basic rule of the pragmatic approach he is putting forward: he creates a rule in the sense of “do not force, that is, do not force the listener to talk, only then will you achieve a successful exchange of information.” Thus, taking into account that P. Gray's “communication maxim” is universal and that his speech and politeness rules are exactly the same, the scientist proposes to accept this rule of politeness as “universal”. Over time, during the formation of the theory, R. Lakoff repeatedly emphasized that it is impossible to create a single universal rule of politeness without studying how rudeness, sincerity, and politeness are reflected in a particular group of people or nation.

Thus, the theory of politeness is based on the theory of speech acts. Speech can express not only a proposal, but also an action.

## REFERENCES

1. Grice P. *Logic and Conversation* // Cole P. and J. Morgan (eds.) *Syntax and Semantics, 3: Speech Acts*. New York: Academic Press, 1975. – Pp. 41-58.
2. Lakoff R. T. *The logic of politeness: or, minding your P's and Q's* // *Papers from the Ninth Regional Meeting of the Chicago Linguistic Society* / C. Corum, T. C. Smith-Stark, A. Weiser (eds.). Chicago, Illinois: Chicago Linguistic Society, 1973. P. 292–305.
3. Lakoff R. T. *The logic of politeness: or, minding your P's and Q's* // *Papers from the Ninth Regional Meeting of the Chicago Linguistic Society* / C. Corum, T. C. Smith-Stark, A. Weiser (eds.). Chicago, Illinois: Chicago Linguistic Society, 1973. P. 292–305.
4. Сафаров Ш. *Прагмалингвистика. / Монография – Тошкент. 2008. 141-142 б*
5. Lakoff Robin “The logic of politeness; or minding your p's and q's”. *Papers from the 9th Regional Meeting of the Chicago Linguistic Society. 1973. – P. 292–305.*
6. Edmondson Willis. *Spoken Discourse*. London: Longman. 1981. – P. 21.





*Ijobat SAYMURATOVA,*  
*Guliston davlat universiteti dotsenti v.b., PhD*  
*E-mail: saymuratova.ijobat@mail.ru*

*TDO TAU professori, f.f.d., I.Yoqubov taqrizi ostida*

### ARTISTIC EXPRESSION OF HISTORICAL TRUTH

Annotation

This article explores the factors that have ensured the success of the writer Isajon Sultan's historical novel Alisher Navoi: internal creative event, poetic skill, literary influence, historical truth, and theoretical problems such as artistic interpretation.

**Key words:** Creative intention, historical memory, artistic expression, historical novel, plot, composition, style, creative event, poetic skill, literary influence, historical reality, artistic texture, literary environment.

### ХУДОЖЕСТВЕННОЕ ВЫРАЖЕНИЕ ИСТОРИЧЕСКОЙ ПРАВДЫ

Аннотация

В данной статье рассмотрены теоретические проблемы критериев обеспечения успеха исторического романа Исаджана Султана «Алишер Навои»: внутренняя творческая эволюция, поэтическое мастерство, литературное влияние, историческая правда и художественная интерпретация.

**Ключевые слова:** Творческий замысел, историческая память, художественное выражение, исторический роман, сюжет, композиция, стиль, творческая эволюция, поэтическое мастерство, литературное влияние, историческая правда, художественный вымысел, литературная среда.

### TARIXIY HAQIQATNING BADIY IFODASI

Annotatsiya

Mazkur maqolada yozuvchi Isajon Sultonning “Alisher Navoiy” tarixiy romani muvaffaqiyatini ta’minlagan omillar: ichki ijodiy tadrij, poetik mahorat, adabiy ta’sir, tarixiy haqiqat, badiiy talqin singari nazariy muammolar tadqiq etilgan.

**Kalit soʻzlar:** Ijodiy niyat, tarixiy xotira, badiiy ifoda, tarixiy roman, syujet, kompozitsiya, uslub, ijodiy tadrij, poetik mahorat, adabiy ta’sir, tarixiy haqiqat, badiiy to’qima, adabiy muhit.

**Kirish.** Adabiyot – inson ma’naviy olamini boyitib, ruhini yuksaltiribgina qolmay, didini ham ingichkalashtiruvchi behad qudratli va ayni choqda, g’oyat nafis xilqat. U alohida inson ijodiy niyatidan boshlanib, poetik soʻz sifatida moddiylashadi. Biroq pirovardida oʻz ijodkori mansub xalqning tarixiy xotirasi, azaliy qadriyatlarini, umuminsoniy mo’ljallari, odam va olamni yanada mukammalroq koʻrish bilan bogʻliq orzu-istaklarini, dard-iztiroblarini, turmush mashaqqatlarini oldidagi sobit irodasi bilan bogʻliq potensial imkoniyatlarini lirik, epik, dramatik yoʻsinlarda aks ettiradi. Shu ma’noda, adabiyot g’oyat keng va muhtasham maydondir.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** O‘zbekiston xalq yozuvchisi – Isajon Sulton shu maydonda oʻz soʻziga “libosi mavzun” kiydirib, kitobxonlarga taqdim etayotgan adiblarimizdan biri. Uning oʻnlab hikoyalari, “Onaizorim” qissasi, “Boqiy darbadar”, “Ozod”, “Genetik”, “Bilga hoqon” romanlari shakli, uslubi, ifodaviy oʻziga xosligi, mazmun qatlamlari teranligi bilan ilmiy-adabiy jamoatchilik diqqat-e’tiboriga tushganiga ancha boʻldi. Bu asarlar B.Nazarov, U.Normatov, Q.Yoʻldoshev, A.Rasulov, H.Umurov, D.Toʻrayev, I.Yoqubov, U.Hamd, Sh.Davronova, R.Rahmat, N.Tosheva va boshqa adabiyotshunoslar tadqiqotlari, monografiya va risolalari hamda ayrim maqolalarida tahlil va tadqiq etildi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Yozuvchi keyingi romanlarida tarixiy mavzuga katta e’tibor qaratmoqda. “Alisher Navoiy” romanining yuzaga kelishi ham shu yoʻsindagi salmoqli izlanishlardan biridir. Albatta, oʻzbek adabiyotida “Alisher Navoiy” (I.Sulton va Uygʻun), “Samarqand sayqali” (Iqbol Mirzo), “Navoiy va Boyqaro” (Muhammad Ali) dramalari, “Hayot boʻstoni” (L.Batʼ), “Astrobod” (M.Osim) qissalari, “Shukhli karvon”, “Notinch Xuroson”, “Sokin Xurson”, “Qonli Xuroson” dostonlari (B.Boyqobilov), “Navoiy” romani (Oybek), “Navoiy va rassom Abulxayr” dilogiyasi (O.Muxtor) kabi Navoiy siymosini yaratishga boʻlgan koʻplab intilishlar, salmoqli yutuqlar mavjud edi. Bir necha avlod shu kabi asarlar orqali Navoiy va uning davri bilan tanishdi, tasavvurlarini kengaytirdi. Binobarin,

yangi tarixiy-ma’rifiy roman ilgari mavjud asarlardan qaysi jihatlariga koʻra farqlanadi? – degan haqli savol tugʻilishi tabiiy.

Birinchidan, har bir avlod Navoiyni oʻzicha anglaydi. Chunki ijtimoiy davrning tanazzul yoxud taraqqiyot darajasiga koʻra adabiy imkonlar oʻzgarib turadi. Ikkinchidan, har bir adabiy tur va janrning oʻz talablari boʻlganidek, har bir qalam sohibining ham oʻziga xos iqtidor va salohiyati mavjud. Bu faktorlar ham yangi asarga ehtiyoj sezilishi va uning yuzaga kelishida muhim ahamiyat kasb etadi. Zotan, Isajon Sulton yuksak orzu-ideallari aksariyat asarlarida muayyan darajada Hazrat Navoiyga borib bogʻlanar, bu hol uning badiiy tafakkuri va tasavvurida yashayotgan Navoiy siymosi va hayratlarga toʻliq olami biror kun mukammal tarzda yuzaga chiqishi mumkinligidan darak berardi. Adabiyotshunos B.Karim toʻgʻri taʼkidlaganidek, Isajon Sulton: “... biz tasavvur qilib yurgan Alisher Navoiy obrazini oʻquvchilar hukmiga havola etdi” [1].

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Bizning tasavvurlar dunyomizda ideal shaxs va komil inson boʻlmish Navoiyning muhiti, davri, ilm-ma’rifatdagi kamoli va yuksalish yoʻli, ijod laboratoriyasi romandagichalik mukammal va teran emasdi. Bizningcha, roman muvaffaqiyatini ta’minlagan omillardan biri ham uning oʻz asarlariga murojaat qilangani boʻlgan. Jumladan, bu hol roman tarkibiy tuzilishining “Xazoyin ul-maoniyy” devonlaridagi kabi umr manzillariga qarab toʻrt qismga boʻlinganida ham namoyon boʻlgan. Ushbu qismlarning oʻziga xos muqaddima, hamd, na’t va hayratlar ekani ham e’tiborlidir: “Ey insonni yaratgan, uni mukarram qilgan va osmonlari yerdagi narsalarning ismlarini oʻrgatgan zot! ...Ey olamdagi barcha hodisalarning Murabbiysi! Bandalaring safarimizni xayri qilgin deb yalinib-yolvorurlar” [2].

Mohiyatan mumtoz adabiy an’ana borib bogʻlanuvchi munajatlar roman mazmun-mohiyatiga ilohiy ruh hamda tasavvufiy ohang olib kiradi: “Ey karami keng Parvardigor, marhamating oldida gunoh togʻi bir ukpar yoki somon parchasidek yelga uchgaydir... Men faqir bandangga hur ham kerak emas, jannat ham. Mening uchun Sen oʻzing boʻlsang,

shuning o'zi bas!" [2]. Ko'rinadiki, yuqoridagi singari tasvirlar o'zining lirik harorati, yuksak tuyg'ularga yo'g'rilgani, samimiyati bilan o'quvchiga o'zgacha zavq ulashadi. O'rni bilan bu kabi lirik harorat Navoiy devonlarida keluvchi g'azallar bilan davom qildiriladi. "Badoyi' ul-bidoya"dan iqtibos sifatida olingan tubandagi misralar fikrimizni dalillaydi:

Furqatingdan za'faron uzra to'karmen lolalar,  
Lolalar ermasksi, bag'rimdin erur pargolalar.  
Dur tishingdin donayi sabrim qolur bebar desam,  
Kulub ayturkim, ekinning ofatidur jolalar ... [2]

Yuqoridagi singari xush g'azallar orqali Navoiy temuriylar saltanati to'lg'onib, el-ulus aziyat chekayotgan Sulton Abusaid Mirzo zamonidayoq o'zining xalqona ash'orlari bilan Mavlono Kamol Turbatiy kabi fasohat ahli e'tibor va e'tirofiga sazovor bo'lishi ko'rsatiladi. Pahlavon Muhammadning "hiyla"si va Alisherning ishonuvchanligi ham "Har qayon boqsam ko'zimg'a ul quyoshdin nur erur, Har sori qilsam nazar ul oy manga manzur erur" matla'i bilan boshlanuvchi bir g'azal bahonasida beriladi. Asarning bunday zavqli o'rinlari tarixiy haqiqatga mos bo'lish barobarida, kitobxonning yosh shoir vujud xastaligini kulgu vositasida davolagan Pahlavon Muhammadga bo'lgan ixlosini ham orttiradi. Umuman, yozuvchi odam va olam muammolarini Navoiyning qalbi, ongi va amaliy faoliyati bilan chambarchas bog'laydi. Mumtoz she'riyat orqali o'sha davr adabiy muhitiga oshno etadi. Bu hol bir jihatdan didaktikani chuqurlashtirsa, ikkinchidan ibratli tarixiy voqe-hodisalar va tarixiy shaxslar taqdiri bilan bog'liq suujet voqealari mazmunidan ilohiyot va irfon nurlari ham yog'ilib turadi. Uchinchidan, bosh qahramon bosib o'tgan hayot yo'lining mufassal tasvirlari orqali kompozitsion yaxlitlik ham ta'minlanadi.

Darhaqiqat, romanda biz Alisher Navoiyning Mavlono Lutfiy, Abdurahmon Jomiy, Sharafiddin Ali Yazdiy, Pahlavon Muhammad, Kamol Turbatiy, Sayid Hasan Ardasher, Abu Abdulloh Kulohiy, Abu Abdulloh Junaydiy, Fazlulloh Abulays kabi ustozlari, do'stlari bilan tanishgan, diydorlashgan, ular ta'lim-tarbiyasini olgan, e'tiboriga tushgan ko'plab vaziyat-holatlarining ta'sirchan sahnalariga duch kelamiz. Bunday uchrashuvlar ichki va tashqi portret tasvirlari, xarakterlarning ma'naviy-ruhiy dunyosi ifodalari bilan uyg'un tarzda keladi. Natijada, personajlar milliy-mental qiyovalari va insoniy tabiati bilan yorqin tasvirlanadi. Isajon Sulton personajlarga bo'lgan o'z simpatiya va antipatiyasini yashirmay tasvirlaydi. Fikr tasdig'i uchun turli toifaga mansub qahramonlar tasviri bilan bog'liq uchta misol keltiramiz:

Birinchi tasvir: "Abulxayrxon o'rta bo'lyi, yelkalari keng, pishiq gavdali, qisiq ko'zli kishi bo'lib, kentlarda o'tirmoqni xush ko'rmas, aksar hollarda qo'shin bilan yotib turar, davlat ishlarini ham sayyor holda yuritardi" [2].

Ikkinchi tasvir: "Abu Abdulloh Junaydiy og'ir-bosiq, oq yuzli, dilbar kishi edi. Saltanat ishlariga xushi yo'q, "Olimning, yaxshisi, sultonlar huzuriga bormaganidir"- deyshini yoqtirardi" [2].

Uchinchi tasvir: "Vaziri a'zam – Majididdin bir oz qorin qo'yg'an, oqish xira yuzli, qoshlari tutash, quloqlari ichidan ham mo'y o'sgan qo'pol, mag'rur kishi bo'lib, har doim uzun to'n, bo'rk kiyib yurar, yoz mahallari ham ustidan zar choponini tashlamas, mag'rurligi mansabi va boyligi bois der edilar. Faqat o'z farog'atiniyu maishatini o'ylaydigan, bironvga qayishmaydigan bo'lib, har kimdan o'zsam-u, eng badavlat men bo'lsam deganday xayollari boriydi. Bu borada birovni yuzxotir qilib o'tirmasdi. Oliy rutbaga erishguniga qadar hammaga xushomad qilib yurgani ma'lum, biroq mansabga kelgach, birov u haqda gapirishga hayiqib qoldi, chunki o'chkorligi va tajovuzkorligi barchaga ayon edi" [2].

Xarakterlarning bunday portret tasvirlari kitobxonda Abulxayrxon, vazir a'zam Majididdin, mudarris Abu Abdulloh Junaydiy, Pahlavon Muhammad, Kamol Turbatiy, Shayxim Suhayliy, Alishoh Kirmoniy singari o'nlab qahramonlarga nisbatan muayyan emotsiya – ma'naviy-ruhiy munosabat: muhabbat yoki nafrat uyg'otib, romanning ishonitirish kuchini orttirishga xizmat qilgan.

Har qanday badiiy asarni o'qiyotganimizda yoki tahlil etayotganimizda badiiylikning muhim mezonlarini yodda saqlamog'imiz zarur va shart, qolaversa, badiiy obrazning estetik

ta'sirchanligini ham hisobga olishimiz kerak bo'ladi. Badiiy obraz kitobxonning estetik hissiyotini yuzaga chiqaradi. Hayotdagi xunuklikni aks ettirgan badiiy obraz nafrat uyg'otsa, go'zallikni o'zida tarannum etgan obraz chiroyli zavq beradi. Yozuvchi Isajon Sulton badiiy obraz orqali o'zining estetik idealini tasvirlar ekan, ijobiy obrazda bevosita, salbiy obrazda bilvosita aks ettiradi va har bir obraz mohiyatiga ehtiros bilan yondashib, ularga nisbatan faol munosabatda bo'ladi. Shunga ko'ra biz ham romandagi badiiy obrazlar bilan tanishish asnosida ularning faoliyatiga befarq qaray olmaymiz, ulardan yo zavqlanamiz yoki nafratlanamiz.

Roman tarixiy mavzuda bo'lganligi sabab, toju-taxt uchun kurash tafsilotlari bayonida yosh shahzodalarning o'limi bilan yoki ota-bolalar o'rtasida salbiy munosabatlar bilan bog'liq epizodlar uchraydiki, bular kitobxon qalbini larzaga keltiradi. Bunday epizodlardan biri Mo'min Mirzoning o'ldirilishi aks ettirilgan voqelik tafsiloti. Navoiy nafaqat Husayn Boyqaroning yaqin do'stigina bo'lib qolmay, balki saroy va xalq hayotini ma'lum bir darajada me'yorga keltirib, o'zaro munosabatlar va kelishuvlarni murosaga soluvchi tarozining har ikki pallasini ham tenglikda ushlab turadigan maslahatgo'yi ham edi. Oliy xulqli amir Alisher Navoiy Mashhadda ekanligi paytida Husayn Boyqaroning farmoniga binoan Mo'min Mirzoning o'limi bilan bog'liq mash'um voqea ro'y beradi, uch kun o'tib Hirotg'a qaytgan Navoiy ayanchli xabarni eshitib ko'z yoshi qilib, "Ey voh! Shayx Majididdin Bag'dodiyning o'limi voqeasiga monand ish bo'libdi! – deya xitob qiladi". Mash'um voqelik tasvirini yanada ta'sirchan ruhda kitobxon ongiga singdirish maqsadida yozuvchi Shayx Majididdin Bag'dodiyning (Fariduddin Attorning otasi) o'limi voqeasini qistirma epizod o'rnida qo'llagan. Sulton Husaynning mastlik chog'ida nevarasi Mo'min Mirzo o'limi haqidagi farmon imzolangandan so'ng saroy va uning atrofini o'rab olgan manzara holatini shunga monand tarzda tasvirlaydi: Shundan so'ng tun yanada quyuuqlashdi. Mastlik bulutlari zehn oyini tugal berkitdi.

Romanda badiiy konfliktning xarakterlararo va ichki turiga murojaat qilgan o'rinlar ko'plab uchraydi. Ayniqsa, bu holat Navoiy – Majididdin – Muzaffar barlos, Husayn Boyqaro hamda uning farzandlari Badiuzzamon va Abulmuhsin Mirzolar o'rtasidagi keskin ziddiyatli epizodlarda namoyon bo'ladi. Ziddiyatli holatlarni ma'lum bir me'yorga keltirishda hamda tarixiy haqiqatning badiiy ifodasi o'laroq yozuvchi maktub badiiy detalidan unumli foydalangan. Mazkur badiiy detal roman tarixiy voqeligini ochishda va ularning keskin rivojlanishida muhim vosita vazifasini o'tagan. Mo'min Mirzoning o'limidan so'ng Badiuzzamon va Sulton Husaynning o'rtasidagi ziddiyat kuchayib boradi. Ota va bola o'rtasidagi ziddiyat yanada keskin kuchayib ketmaslikning oldini olish maqsadida Navoiy Badiuzzamonga maktub yozadi va maktub mazmuniga quyidagi nasihatlar jo qiladi: "Payg'ambar sallallohi alayhi vassalam buyuribdilarki, "Rizo-ur-robbi fir-rizail validi va saxatul-arrobbi fi saxatul-validi", ya'ni Tanri taolo rizosi ota rizosiga vobastadir va Tangri taolo g'azabi ham ota g'azabiga vobasta. Bas, kishi ota roziligini olsa, Tangri taolo g'azabiga uchramish bo'lg'ay. Shunday bo'lg'ach, kishi qanday qilib otasi rozi bo'lmaydigan so'z so'zlagay yo qadam qo'ygay?" [2]. Maktub mazmuniga singdirilgan nasihatlar inson qalbida kechgan allanechuk his va g'alayonlarni tarbiyalaydi. Nomani tarixiy voqeliklar asosida namunalarni keltirish bilan bayon qiladiki (Ibrohim Xalilulloh va Yusuf alayhissalom qismati), natijada Badiuzzamon ruhiyatida otasiga nisbatan hosil bo'lgan ziddiyat susayib boradi. Bundan Navoiyning Husayn Boyqaro farzandlariga otalarcha munosabatda bo'lganligini ko'rish mumkin.

Epik tur uchun asosiy jihatlardan biri suujet masalasi bo'lib, ilmiy manbalarda suujetning o'ziga xos ko'rinishlari sifatida aksar hollarda xronikali va konsentrik kabi tiplari alohida ko'rsatilgan. Xronikali suujetda qahramon hayoti, uning shakllanishi va taraqqiyoti izchillikda tasvirlansa, konsentrik suujetda voqealar sabab va oqibat tartibida joylashtiriladi. Bulardan tashqari nazariy adabiyotlarda suujetning retrospektiv va assotsiativ kabi tiplari ham mavjudligi alohida qayd etilgan. Bunda albatta, personajning harakatlanishi asos vazifasini o'taydi.

Xronikali suujetda badiiy asarning "badiiy vaqt"i istalgancha kengaytiriladi, retrospektiviyali suujetda – badiiy asar

voqeiyli yoki asar markazida turgan bosh qahramon bilan bog'liq tafsilotlar ortga qaytariladi, xotirlanadi. Bu turdagi syujetlarda muallif mushohadalari, tafsilotlarning tabiiy kiritilishi, badiiy matnga singdirib yuborish kabi jihatlar mavjud bo'lganidan uni tarixiy asarlarda qo'llash qulay ekanligi Isajon Sultonning "Alisher Navoiy" romani misolida ham yorqin ko'zga tashlanadi. Romanning ikkinchi qismida Navoiyning asosan yigitlik davri qalamga olingan. To'rtinchi qismning "Olam ahli, bilingiz..." faslida uning yigitlik davri Samarqandda ko'rgan qo'rqinchli tushi xotirga kelib, "Xamsa"dagi "Layli va Majnun" dostonining bosh qahramonlari Layli va Majnun o'limini tasvirlash chog'ida doston tarkibiy qismiga joylanadi va natijada yosh Alisher ko'rgan qo'rqinch tush Majnun tushiga aylanib abadiyat sari parvoz etadi. Navoiyning Samarqandda kechirgan qora kunlarida, karvonsaroyning qaqshatqich sovuq'ida titrab Sayyid Hasan Ardasheriga yozgan iztirobli masnaviyasining qayta yodga kelishi, haj safari munosabati bilan Hiriydan Mashhadga tomon borar paytida bolalik yillarida ko'rilgan safar manzaralarining qayta jonlanishi, o'tgan umr xulosalaridan ma'ni izlash chog'ida tag'oyisi bilan o'tgan suhbatlarning yodga olinishi romandagi retrospektiv lavhalarining bosh qahramon kechinmalari orqali tavsiflanishiga asos vazifasini o'tagan.

Bundan ko'rinadiki, romanda syujetning retrospektiv tipi qo'llanilgan, ya'ni voqealar rivojini to'xtatib, bosh masala yoki qahramon hayoti tarixiga qaytish usulidan hamda kutilmaganda xayolga keladigan kechinmalar tasviridan unumli foydalanilgan. Adabiyotshunos A.Rahimov ushbu masalaga quyidagicha yondashib: "Syujet qurishning bunday orqaga qaytuvchi usuli voqeani asosiy syujet ichiga joylashtiruvchi qoliplovchi kompozitsiyaga yaqin turadi" [3], – deb ta'kidlaydi. Romanda yozuvchining aynan shu tipdagi syujet ko'rinishidan foydalanilganligi asarning muvaffaqiyatini ta'minlagan omillardan biridir. Ayniqsa, tarixiy romanlarda syujetning ushbu tipini qo'llash uning spetsifik xususiyatlariga to'la monand keladi.

Roman muvaffaqiyatini ta'minlagan hamda badiiy saviyasini oshirishga xizmat qilgan yana bir omil borki, bu intertekstuallikning asar mazmun-mohiyatiga chuqur singdirilganligi bilan baholanadi. Aslida intertekstuallik asar tarkibiy qismida boshqa adiblar qalamiga mansub asarlardan olingan parchalarning o'rin olishi bilan izohlanadi. Isajon Sulton roman matnida boshqa adiblarning ijod namunalari qo'llamay, aynan Navoiyning umri davomida bitgan turli nom va mavzulardagi asarlaridan didaktik ahamiyatga ega o'rinlarni keltirib asar mazmun-mohiyatiga o'zgacha zeb beradi. Shu yo'l orqali tarixiy haqiqatning badiiy ifodasini qaror toptiradi va Navoiy siymosidagi komillik belgilarini o'quvchiga tanitadi.

Yozuvchi badiiy tasvirlarida kitobxon uchun notanish, bugungi avlod unuta boshlagan tushunchalar, arabcha, forscha so'zlar, atamalar uchraydi, ular kitobxonni mumtoz davr haqidagi taassurotlarini kengaytirib, o'quvchini o'tmish bo'ylab sayohatga chorlaydi. Badiiy tasvirlarda yozuvchi lug'at boyligining o'ziga xos jihatlarini aniq ko'zga tashlanadi, bu esa asardagi shakl va mazmun birligidan, yozuvchining tarixiy roman yozish uchun astoydil puxta tayyorgarlik ko'rganidan dalolat beradi. Qolaversa, tarixiy asarlar tiliga xos bo'lgan asosiy talablar o'z o'rnida amalga oshirilib, tanlangan moziy davrga mos arxaiklashtirilgan badiiy tilda yozilgan. Shu bois yozuvchi tasvirlangan davrga doir so'z va iboralarni qo'llagan, xalqimizning o'sha davrga xos urf-odat va an'analari badiiy lavhalarda jonlantirgan. Shuning uchun ham muallif fakt va ma'lumotlarni, o'tmish voqea-hodisalarining tarixiy haqqoniyligiga, tasvirlanayotgan davr solnomasiga, o'zining ijodiy tajribasiga, ko'nglida tug'ilgan va ijodiy tasavvurida pishib yetilgan dunyoqarashiga tayangan holda talqin etgan.

**Xulosa va takliflar.** Shuni alohida ta'kidlash joizki, yozuvchining ushbu romani ko'p yillik zahmatli ilmiy-ijodiy izlanishlari mahsuli sifatida dunyoga kelgan. Asar mazmun-mohiyatidan muallifning ko'p sonli tarixiy manbalarni, ilmiy va badiiy adabiyotlarni, Navoiy qalamiga mansub asarlarni qunt bilan birma-bir o'rgangani, roman matnida ulardan oqilona va ustalik bilan foydalangani sezilib turadi. Romanda Alisher Navoiy taqdir taqozosiga ko'ra borgan va istiqomat qilgan shaharlari, u yerda ko'rgan-kechirganlari, ota-onasi, tug'ishganlari, Mavlono Lutfiy, Abdurahmon Jomiy, Sharafiddin Ali Yazdiy, Fazlulloh Abulays kabi ulug' salafarlari va boshqa yaqin do'stlari bilan bog'liq voqealar tasviri mutafakkir bobomiz hasbi holiga aynan muvofiq kelishi tarixiy haqiqatning badiiy haqiqatga aylantirilishida asosiy omil bo'lib xizmat qilgan. Husayn Boyqaro, Badiuzzamon va Abulmuhsin Mirzo kabi saroy ahli a'yonlari obrazlari, xalq bilan samimiy tillasha olishi, Alisher Navoiyning ular bilan o'zaro do'stona munosabatlari buyuk alloma siymosini mukammal va mufassal badiiy talqin etishga xizmat qilgan.

Muallif ulug' Navoiy siymosini yaratar ekan, uning barcha jihatlariga, ya'ni xalqparvarligi, millatparvarligi, odamiyligi, do'stparvarligi, mutafakkir va shoir sifatidagi ilmiy-ijodiy dunyosining yaratilish va yaralmish o'rinlariga alohida e'tibor bergan. Xulosa qilib aytganda, Isajon Sultonning yangi tarixiy-ma'rifiy romani ko'ngil qulflarini ochadigan, insoniyat aql-zakosi va tafakkurini boyitadigan mukammal asardir.

#### ADABIYOTLAR

1. Каримов Б. Хазрат Алишер Навоийга эхтиром ёхуд Инсоният кўёши таърифида битилган роман тўғрисида бир-икки оғиз сўз. <https://yuz.uz/news/>
2. Исажон Султон. Алишер Навоий. Роман. – Т.: "Adabiyot", 2021.
3. Раҳимов А. Ўзбек романи поэтикаси. Фил.фан.док... дисс. автореферати. – Т.: 1998. – Б.10.
4. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Т.: Akademnashr, 2018.
5. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Т.: Ўзбекистон, 2002.
6. Султон Иззат. Адабиёт назарияси. – Т.: Ўқитувчи, 2005.
7. Умурув Х. Адабиётшунослик назарияси. – Т.: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2002.



*Dilfuza SAPAYEVA,*

*Urganch Ranch texnologiya universiteti O'zbek va xorijiy tillar kafedrasida dotsenti*

*E-mail: dilfuzasapayeva83@gmail.com*

*Toshkent Oriental universiteti dotsenti, PhD N.Adambayeva taqrizi asosida*

## TIBBIYOT DISKURSIDA KONSEPTUAL METAFORA VA PROFESSIONAL JARGONNING QO'LLANILISHI

Annotatsiya

Maqolada zamonaviy ingliz tibbiyot diskursining eng muhim kognitiv-lingvistik xususiyatlari aniqlangan bo'lib, tibbiyot diskursida metaforalarning roli, ularning bemor va shifokor o'rtasidagi muloqotga ta'siri hamda tibbiy jargonning kommunikativ vazifalari tahlil qilinadi. Shuningdek, tibbiyot nutqining ifodali bo'lishi va metaforalar orqali tushuntirish usullari haqida fikr yuritiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, konseptual metaforalar tibbiy tushunchalarni sodda va obrazli ifodalashda muhim ahamiyat kasb etadi, professional jargon esa tibbiyot xodimlari o'rtasida tezkor va aniq muloqotni ta'minlashda qo'llaniladi.

**Kalit so'zlar:** Tibbiyot diskursi, konseptual metafora, professional jargon, tibbiy terminologiya, kommunikativ jarayon, muloqot strategiyalari, kognitiv-lingvistik xususiyat.

## THE USE OF CONCEPTUAL METAPHOR AND PROFESSIONAL JARGON IN MEDICAL DISCOURSE

Annotation

This article identifies the key cognitive-linguistic features of modern English medical discourse, analyzing the role of metaphors in medical communication, their impact on doctor-patient interaction, and the communicative functions of medical jargon. Additionally, it explores the expressiveness of medical language and the methods of explanation through metaphors. The research findings indicate that conceptual metaphors play a crucial role in simplifying and vividly expressing medical concepts, while professional jargon facilitates fast and precise communication among medical professionals.

**Key words:** Medical discourse, conceptual metaphor, professional jargon, medical terminology, communicative process, communication strategies, cognitive-linguistic features.

## ИСПОЛЬЗОВАНИЕ КОНЦЕПТУАЛЬНОЙ МЕТАФОРЫ И ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ЖАРГОНА В МЕДИЦИНСКОМ ДИСКУРСЕ

Аннотация

В данной статье определены наиболее важные когнитивно-лингвистические особенности современного английского медицинского дискурса. Анализируется роль метафор в медицинском дискурсе, их влияние на коммуникацию между пациентом и врачом, а также коммуникативные функции медицинского жаргона. Кроме того, рассматриваются выразительность медицинской речи и способы объяснения через метафоры. Результаты исследования показывают, что концептуальные метафоры играют важную роль в упрощении и наглядном выражении медицинских понятий, а профессиональный жаргон используется для быстрого и точного общения между медицинскими работниками.

**Ключевые слова:** Медицинский дискурс, концептуальная метафора, профессиональный жаргон, медицинская терминология, коммуникативный процесс, стратегии общения, когнитивно-лингвистические особенности.

**Kirish.** Tibbiyot sohasi inson hayoti va salomatligi bilan bevosita bog'liq bo'lgan murakkab va ko'p qirrali yo'nalishlardan biridir. Ushbu sohada kommunikatsiya jarayoni muhim ahamiyat kasb etib, unda metafora va professional jargonning roli beqiyosdir. Tibbiyot diskursida metaforalar faqatgina badiii ifoda vositasi bo'lib qolmay, balki murakkab tibbiy tushunchalarni oddiyroq va aniqroq yetkazishda muhim ahamiyatga ega [9]. Shu bilan birga, tibbiy jargon mutaxassislar o'rtasida tezkor va samarali muloqotni ta'minlash uchun qo'llaniladi. Mazkur maqolada tibbiy diskursda konseptual metaforalar va professional jargonning ahamiyati, ularning kommunikativ jarayondagi o'rnini va bemor-shifokor hamda mutaxassislar o'rtasidagi aloqaga ta'siri tahlil qilinadi.

Tibbiyot diskursi, boshqa sohalar kabi, o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, o'zining ajralib turuvchi belgilari tufayli alohida lingvistik yo'nalish sifatida ajralib turadi. Masalan, unda konseptual metaforalarning keng qo'llanilishi va professional jargonning mavjudligi kuzatiladi. Shu nuqtai nazardan, ushbu ikki xususiyat muhim kommunikativ va kognitiv-pragmatik funksiyalarni bajaradi hamda nutqda funksional darajada amalga oshiriladi [4].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Linguistik hodisalarni o'rganishda, umuman diskurs va xususan, institutsional diskurs tadqiqotlari doirasida kognitiv yondashuv zamonaviy olimlar tomonidan ilmiy tahlil usuli sifatida qo'llanilgan.

E.S.Kubryakovaning ta'kidlashicha, inson tashqi dunyodan qabul qilgan barcha ma'lumotlar til belgilari shaklida

obyektivlashtiriladi. Ushbu ma'lumotlar inson faoliyatining barcha turlarini belgilaydi va inson tajribasining umumlashtirilgan shaklda tilda aks etishini ta'minlaydi [5]. Olimning ta'kidlashicha, diskurs mohiyatan kognitiv hodisa bo'lib, u bilim uzatish, o'ziga xos bilimlarni qayta ishlash va, eng muhimi, professional sohalar uchun yangi bilimlar yaratish jarayoni bilan bog'liq [1].

Ushbu nazariy xulosalardan kelib chiqib, V. Zabolotkina zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda kognitiv-diskursiv yondashuv har bir til birliklari ham bilish, ham muloqot nuqtai nazaridan tahlil qilinishi kerakligi postulatiga asoslanishini ta'kidlaydi [3]. Umuman olganda, psixolingvistik, lingvistik va protsessual xususiyatlarga asoslangan nutqiy faoliyatni modellashtirishning tahliliy imkoniyatlarini hisobga olish zarurligi kognitiv tahlil nuqtai nazaridan ta'kidlanishi lozim [2].

Natijalar shuni ko'rsatadiki, nutqning mazmuniy yaxlitligini ta'minlovchi bog'langan tahlil jarayonlari doirasida diskursning maxsus kognitiv modelini ishlab chiqish zarurati paydo bo'lgan. Ushbu modelni rivojlantirish natijasida olimlar nutq faoliyati jarayonida turli bog'langan diskursiv aloqalarni shakllantirish mexanizmlarini tasvirlash va tushuntirish usulini taklif qilmoqdalar.

Shunday qilib, diskursning kognitiv tahlili nuqtai nazaridan shuni ta'kidlash kerakki, individ diskursiv faoliyat jarayonida bir vaqtning o'zida ham idrok etuvchi subyekt, ham diskurs shakllantiruvchi subyekt sifatida namoyon bo'ladi. YA'ni, uning ongini ikki turdagi ma'lumotlarni birdaniga qabul qilish va qayta ishlash maydoni sifatida tasavvur qilish mumkin.

Masalan, T.A. van Deykning fikriga ko'ra, diskurs ikki tomonlama tabiatga ega: bir tomondan, u muloqot jarayonida ro'y beruvchi murakkab kommunikativ hodisa bo'lib, muayyan vaqt, makon va ijtimoiy-kontekstual parametrlar bilan belgilanadi; ikkinchi tomondan esa, u ma'lum bir tasvirlash va rasmiylashtirish usuli (og'zaki yoki yozma) bilan chambarchas bog'liqdir [8].

Muallif, shuningdek, kommunikativ jarayon tahlilining multidissiplinar yondashuviga e'tibor qaratadi va unda uch asosiy o'lehov – diskurs, bilish va jamiyatni o'z ichiga olish zarurligini ta'kidlaydi [13].

Ushbu maqolada taqdim etilgan diskurs kontsepsiyasi va uning tahlili O.Aleksandrova va E.Kubryakova tomonidan berilgan ta'rifga asoslanadi [15]. Bu ta'rif lingvistik va ekstralingvistik omillar o'zaro aloqadorligini ko'rsatadi va diskurs tadqiqotlari nuqtai nazaridan, ayniqsa, uni kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirishning funksional jihatlarida qo'llash imkoniyatlarini tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydi.

T.A. van Deyk o'z ishlarida dialogik diskursni modellashtirish jarayonini tasvirlaydi, bunda har bir ishtirokchi bir vaqtning o'zida ham tinglovchi, ham gapiruvchi sifatida ishtirok etadi. Bu shuni anglatadiki, nutqni idrok etish va uni yaratish har bir muloqot ishtirokchisining ongida amalga oshiriladi. Bu, shubhasiz, semantik, pragmatik va interaktiv tahlil darajalarini o'z ichiga olgan mos kognitiv model yaratish g'oyasi bilan bog'liq. Ushbu model til ma'lumotlarini qayta ishlash mexanizmlari (til protsessori), axborot o'zaro ta'sirining muhim jihatlarini (o'zaro ta'sir protsessori), ijtimoiy bilimlar hamda insoniyatning umumiy bilim doirasini (ensiklopedik bilimlar) qamrab oladi [6].

Boshqacha qilib aytganda, muloqot ishtirokchilarining konseptual asoslari o'zaro ta'siri muvaffaqiyatli kommunikatsiya uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa, kommunikativ va pragmatik maqsadlarga to'liq erishish imkoniyatlarini ta'minlaydi. Keng ma'noda olganda, nutqiy muloqot jarayoniga kognitiv yondashuv semantik, pragmatik va interaktiv omillarning murakkab o'zaro aloqalarini tahlil qilishni talab etadi. Ushbu omillar esa ijtimoiy va madaniy sabablar, masalan, muloqot qatnashchilarining niyatlari, qarashlari, fikrlari, emotsional holati kabi ekstralingvistik shartlar bilan bog'liq. Shuningdek, muloqot ishtirokchilarining nutqiy xulq-atvori va individual xususiyatlari ham muhim omillardan hisoblanadi. Diskursning kognitiv qayta ishlash modeli nutqni yaratish, qabul qilish va tushunish jarayonlari bilan chambarchas bog'liqdir.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu tadqiqotda tibbiyot diskursida konseptual metafora va professional jargonning qo'llanilishini o'rganish uchun lingvistik va kognitiv tahlil metodlaridan foydalanildi. Diskursiv tahlil metodi yordamida tibbiyot diskursida konseptual metaforalarning kommunikativ vazifalari va ularning bemor tushunishiga ta'siri o'rganildi. Professional jargonning shifokorlar o'rtasidagi muloqotda qanday qo'llanilishi ham tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari tibbiyot sohasidagi lingvistik birliklarning tushunarli va samarali muloqotni shakllantirishdagi ahamiyatini ochib berishga xizmat qiladi.

**Natijalar va muhokama.** Shunday qilib, til va tafakkurning o'zaro yaqin va muvofiqlashgan aloqasiga asoslangan kognitiv lingvistik tahlil metaforizatsiya va diskurs kabi murakkab jarayonlarga chuqurroq kirib borishga yordam beradi. Ushbu jarayonlar til, intellektual faoliyat va tafakkur jarayoniga oid fanlararo tadqiqotlarning obyekt bo'lib xizmat qiladi. Inson faoliyatida tushunchalarning roli E.A. Vishnyakova, O.D. Vishnyakova va A.V. Kiselevaning tadqiqot maqolasida nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi [10].

Kasbiy axborot almashinuvi sohasida ma'lumotlar, bir tomondan, maxsus ilmiy tushunchalar bilan mantiqiy tuzilgan shaklda taqdim etilishi mumkin. Boshqa tomondan esa, ular bevosita so'zning asosiy ma'nosini ifodalovchi tushunchalar shaklida bo'lishi ham mumkin, chunki bunday tushunchalar turli konnotatsiyalar va assotsiatsiyalarga ega bo'lishi mumkin. Shu sababli, bu borada diskursiv xususiyatlar juda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ular lingvistik hamda ekstralingvistik omillar bilan belgilanadi [14].

Tahlil jarayonida biz lingvistik birliklarning ilmiy tushuncha sifatida ham, shu bilan birga, muayyan kontekstda

ekspressiv-emotsional baholovchi konnotatsiyalarni qo'lga kiritishga intiladigan umumiy tushuncha sifatida ham qabul qilinishi va taqdim etilishi mumkin bo'lgan holatlarga batafsil to'xtalamiz.

Tadqiqot davomida biz tibbiy tushunchalarning turli lug'at turlarida leksikografik taqdim etilishiga oid muayyan natijalarga erishdik. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, shuni aytish mumkinki, maxsus terminologik lug'atlar tibbiy atamalarni ilmiy matn taqdimotiga yaqin bo'lgan an'anaviy lingvistik vositalar yordamida ifodalaydi. Shu bilan birga, ba'zi holatlarda eng murakkab faktlar, hodisalar, jarayonlar va ularga mos lingvistik iboralarni tushuntirish maqsadida sharhlar ham keltiriladi [11].

Tibbiyotga oid tushunchalarni taqdim etish algoritmi ushbu sohaga oid fundamental tushunchalarning ontologik birligiga asoslanadi. Bunga kasalliklar bilan bog'liq tushunchalar, ya'ni simptomlar, sabablar, davolash usullari va profilaktika choralarini kiritish mumkin.

Lug'atlar tuzishda yangi tendensiya sifatida foydalanuvchilarga yo'naltirilgan preskriptiv yondashuv qaralmoqda. Ba'zi lug'at mualliflari (bizning holatda ensiklopedik xarakterga ega bo'lgan "The Black's Medical Dictionary" tahlil qilingan) ushbu yondashuvni qo'llaydi. Ushbu lug'at tibbiyot mutaxassislari bilan bir qatorda tibbiy sohaga aloqasi bo'lmagan umumiy foydalanuvchilar uchun ham mo'ljallangan bo'lib, unda tibbiy jarayonlar va hodisalar/ta'sirlar batafsil tasvirlangan.

Shu bilan birga, tibbiy lug'atlardagi leksikografik materialni taqdim etish uchun tanlangan misollar ilmiy va ilmiy-ommbop matnlar variantlariga o'xshashdir. Chunki axborot uzatish algoritmi tibbiy fan intizomini ifodalovchi ontologik tushunchalarning birligiga asoslangan: yuqorida aytilganidek, bular simptomlar, sabablar, davolash, profilaktika va oldini olish (ogohlantirish) jarayonlaridir. Shu munosabat bilan ta'kidlash lozimki, ushbu konseptual o'zaro ta'sir zonalarining barchasi tafsilotlarni kengaytirish va sifatini oshirish yo'nalishida ishga solinishi mumkin [13].

Ko'rib chiqilgan misollardan ko'rinib turibdiki, ba'zi tibbiy tushunchalarning umumiy til lug'atlarida taqdim etilish usuli terminologik va ensiklopedik lug'atlardagi taqdimotga o'xshaydi. Shu bilan birga, bu har doim ham shunday emasligini qayd etish lozim.

Tilning dinamik xususiyati nafaqat terminologik birliklar darajasida, balki umumiy til meyor doirasida qo'llaniladigan so'z yoki so'z birikmalari darajasida ham aks etadi. Shu sababli, tibbiy diskursda ifodalangan ba'zi kognitiv lingvistik shakllanishlarning omonimiya hodisasi ularning konseptual maqomini aniqlash jarayonida ichki murakkab jarayonlar bilan bog'liq bo'lib, ushbu birliklar bir tomondan ilmiy tushunchalar, boshqa tomondan esa umumiy tushunchalar sifatida namoyon bo'ladi.

Funksional yondashuv ushbu tushunchalarning mazkur doiradagi nihoyatda muhim xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi. Shu bilan birga, tadqiqot jarayonida diskursiv omillar hal qiluvchi rol o'ynashini ham ta'kidlash lozim.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, tibbiy diskursning eng muhim xususiyatlaridan biri – bu nominatsiyalar sohasi bo'lib, unda deyarli barcha lingvistik birliklar, tibbiy fenomenni ifodalovchi terminlar, lotin yoki yunon tilida analoglarga ega. Bundan tashqari, ba'zilar oddiy nutqda yoki metaforik lingvistik ifodalarda ishlatiladigan sinonimlarga ham ega (masalan, "Qora o'lim", "suvchechak/chechak" va h.k.).

Tibbiy tilda kognitiv metaforalardan foydalanish bir qancha funksiyalar bilan tavsiflanadi. Ular turli fan sohalarida yangi bilim va ko'nikmalarni yaratish va to'plash, shuningdek, ba'zi murakkab hodisalarni izohlash uchun xizmat qiladi. Shuningdek, ular inson hayoti va salomatligiga bog'liq bo'lgan tibbiyot sohalarida yangi yondashuvlarni rivojlantirishga ham xizmat qilishi mumkin.

Tibbiy diskursda metaforalar bemorning holatini tasvirlash uchun ishlatiladi, ayniqsa, sindromlar murakkab va boshqa yo'l bilan tushuntirish qiyin bo'lgan holatlarda. Bu, ayniqsa, shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish jarayonida, tezkor choralar ko'rilishi kerak bo'lgan vaziyatlarda muhim ahamiyatga ega.

Kognitiv metaforalar tibbiy diskursda kommunikativ va pragmatik maqsadlar, jumladan, kommunikatsiyaning axloqiy jihatlar uchun ham qo'llanilishi mumkin. Shu bilan birga, ba'zi vaziyatlarda metaforalardan foydalanish bemorlarga ijobiy ta'sir ko'rsatmasligi, balki tibbiy muloqot jarayonida o'zaro tushunishning buzilishiga olib kelishi mumkin.

Yuqorida qayd etilganidek, juda ko'p narsa diskurs omillariga bog'liq. Bularga lingvistik xususiyatlar, kommunikatsiya holatining o'ziga xos jihatlar, hamda suhbatdoshlarning dunyoqarashi o'rtasidagi konseptual va lingvistik bog'liqlik kiradi.

Metaforalar muayyan lingvistik vositalar yordamida qaror qabul qilish jarayonida muhim rol o'ynaydi, bu ayniqsa tibbiy kommunikatsiya nuqtayi nazaridan juda ahamiyatlidir.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa sifatida shuni ta'kidlash kerakki, funksional lingvistik yondashuv tilning kognitiv va konseptual tahlili bilan chambarchas bog'liq, chunki oxirgi yondashuv til va tafakkur o'rtasidagi yaqin o'zaro aloqani nazarda tutadi hamda til va tafakkur sohasidagi tadqiqot jarayoniga antropotsentrik yondashuvni aks ettiradi.

Kontseptuallashtirishning roli, jumladan, tibbiy diskursda tushunchaviy metaforik tasvirlash, kognitiv-pragmatik nuqtayi nazardan nihoyatda muhim hisoblanadi. Kognitiv metaforalardan foydalanish inson o'zaro ta'sirining ushbu jihatlarida muayyan kommunikativ maqsadlarga erishishga yordam beradi, shuningdek, dunyoqarashning shakllanishini modellashtirishga imkon yaratadi. Bu jarayon axborotni o'zlashtirish va qayta ishlashga, shuningdek, yangi bilim va ko'nikmalarni egallash hamda yaratishga yo'naltirilgan bo'lib, shaxslar va jamiyatning umumiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Tibbiy tushunchalarning bilvosita ifodalanishi maxsus xususiyatlarga ega bo'lgan diskurs bilan belgilanadigan alohida turdagi ma'lumotlarni yetkazish funksiyalarini o'z ichiga oladi.

Antropotsentrik yondashuv funksional kognitiv tahlilning ajralmas qismi bo'lib, u individuallarning anglash jarayonidagi faol rolini hamda insonning bilish jarayonida ishtirok etishi va bilim hamda ko'nikmalarni tabiiy inson tili va sun'iy intellekt tizimlari orqali uzatishiga asoslangan og'zaki taqdimotini hisobga olgan holda turli nozik jihatlarini e'tiborga oladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Babajanov, K., & Sapaeva, D. (2022). Medical discourse and its communicative specificity. *Science and innovation*, 1(B7), 1394-1396.
2. Sapayeva, D. N. (2023). Compounding in Various Types of Discourses. *Nexus: Journal of Innovative Studies of Engineering Science*, 2(9), 9-12.
3. Narbaevna, S. D. (2022). Scientific medical text in the medical paradigm linguistics.
4. Sapaeva, D., Babajanov, K., Shomuratova, B., Sadullaeva, N., & Sayfullaeva, R. (2020). Features of abbreviations used in medical terminology. *Journal of critical reviews*, 7(5), 808-811.
5. Сапаева, Д. Н. (2021). Инглиз ва ўзбек тилларида дерматовенерологик атамаларни шакллантиришнинг морфологик хусусиятлари. *modern scientific challenges and trends*, 68.
6. Сапаева, Д. Н. (2021). Инглиз ва ўзбек тили дерматовенерологик терминологиясида метафорик кўчим. in *культурология, искусствоведение и филология: современные взгляды и научные исследования* (pp. 41-45).
7. Sadullaeva, N., & Sapaeva, D. (2021). Analysis of Eponyms in the Terminology of Dermatovenerology. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 25(2), 452-459.
8. Mamatanazarovna, B. N., & Narbaevna, S. D. (2024). Slang in English Culture and Language. *International Journal of Scientific Trends*, 3(12), 396-400.
9. Sapaeva, D. N. (2005). Linguistic peculiarities of medical terminology. *школа*, 12-17.
10. Rajabovich, B. K. (2022). Clinical and epidemiological features of herpes zoster in khorazm.
11. Aleksandrova O. Convergence of languages and cultures // *Language, literature and culture as domains of intercultural communication. International scientific seminar, October 26, 2014 – November 2, 2014, Prague, Czech Republic, Pilsen: University of West Bohemia in Pilsen, 2015. Pp. 17-21.*
12. Beaugrande R. de. Text linguistics in discourse studies // *Handbook of discourse analysis / Ed. by T.A. van Dijk. 1985. Vol. 1. Disciplines of discourse. Pp. 40-70.*
13. Dijk T.A. van. *Principles of critical discourse analysis. 1993. Vol. 4. Issue 2. University of Amsterdam.*
14. Dijk T.A. van. *Discourse, knowledge and ideology: reformulating old questions and proposing some new solutions // Communicating ideologies. Multidisciplinary perspectives on language. Discourse and social practice. Frankfurt am Mein: Peter Lang, 1998. Pp. 5-38.*
15. Ponomarenko E.V. Functional properties of English discourse in terms of linguosynergetics // *3rd International multidisciplinary scientific conference on social sciences and arts. SGEM 2016. www. sgemsocial.org, SGEM2016 Conference Proceedings. 2016. Book 1. Vol. 3. Pp. 355-362.*



**Kibriyo SULTONOVA,**

*Navoiy davlat universiteti tayanch doktoranti*

*E-mail: kibriyosulton@mail.ru*

*Navoiy davlat universiteti dotsenti, filologiya fanlari doktori F.Yuldashev taqrizi asosida*

### BOTANIK TERMINLARNING O‘TIL DA GURUHLARGA AJRATILISHI

Annotatsiya

Ushbu maqolada botanik terminlarning umumiy va maxsus lug‘atlarda berilishini mukammallashtirish masalasi hamda uni “O‘zbek tilining izohli lug‘at”idagi mazkur terminlarning ma‘noviy guruhlanishiga oid masalalar yuzasidan fikr-mulohazalar yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Lug‘at, termin, izohli lug‘atlar, abstrakt, leksik birliklar, illyustrativ misol, ma‘no kengayishi va torayishi, maxsus pometa.

### КЛАССИФИКАЦИЯ БОТАНИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ ПО ГРУППАМ В ЯЗЫКЕ

Аннотация

В данной статье рассматривается вопрос совершенствования представления ботанических терминов в общих и специализированных словарях, а также вопросы, связанные с семантической группировкой этих терминов в «Толковом словаре узбекского языка».

**Ключевые слова:** Словарь, термин, толковые словари, аннотация, лексические единицы, иллюстративный пример, расширение и сужение значения, специальное значение.

### CLASSIFICATION OF BOTANICAL TERMS INTO GROUPS IN THE LANGUAGE

Annotation

This article discusses the issue of improving the presentation of botanical terms in general and specialized dictionaries, as well as issues related to the semantic grouping of these terms in the "Explanatory Dictionary of the Uzbek Language".

**Key words:** Dictionary, term, explanatory dictionaries, abstract, lexical units, illustrative example, expansion and narrowing of meaning, special meaning.

Turli sohalarida ilmiy bilish jarayonining jadallashishi tilshunoslikda terminologiyaning alohida yo‘nalish sifatida shakllanishi va rivojlanishi uchun asos bo‘ldi. Bu esa, o‘z navbatida, lug‘atlarning yaratilishi, milliy terminologiya, terminografiyani rivojlantirish masalalari bilan bog‘liq tadqiqotlar ko‘lamining kengayishiga sabab bo‘ldi. Zamonaviy dunyoda terminlar va ularni o‘rganuvchi soha ilmiy muloqot jarayonida axborot uzatishning asosiy vositasi, turli ixtisosliklarni o‘rganish va bu orqali ilmiy taraqqiyotni jadallashtirish vositasidir, deyishimiz mumkin. Bularning hammasi sohaga doir terminlarning tartibga solinishi, ularning umumiy va maxsus lug‘atlarda berilishini mukammallashtirish masalasini kun tartibiga qo‘yadi. “Dunyo tilshunosligida terminologiya har bir fan tarmog‘ining qon tomiri sifatida jadal rivojlandi. Terminosistemaning tizimli shakllanishida terminografik tadqiqotlar katta ahamiyat kasb etishini davr ko‘rsatmoqda”. Bunda sohaga doir maxsus lug‘atlardan tashqari muayyan tilning lug‘at boyligini o‘zida aks ettiradigan izohli lug‘atlarning ahamiyati katta.

O‘zbek tilshunosligida terminologiya, terminlarni tizimlashtirish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilgan. Bu tadqiqotlarning bir qismi muayyan sohaga oid terminlarni jamlash, tizimlashtirishga qaratilgan bo‘lsa, boshqa bir qismi terminologiyaning ikki tildagi qiyosiga qaratilgan. S.Mustafayeva, S.Muhamedova, D.Kadirbekova, P.Nishonov, N.Mamatov, R.Daniyarov, S.Akobirov, S.Usmonov, I.Pardayeva, O.Po‘latova, Z.Mirahmedova, X.Jabborov, T.Valiyev kabi olimlarning tadqiqotlari shular jumlasidandir. So‘nggi yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlar muayyan soha terminlarining o‘zbek tilidagi izohli lug‘atlarda berilishi, leksikografik talqindagi muammolar va ularning yechimlariga qaratilgan. Aslida umumiy izohli lug‘atlar tilshunoslikning leksikografiyaga doir eng muhim yutuqlarini o‘zida jamlaydi. Chunki izohli lug‘atlardan barcha uslublarga, semantik guruhlariga xos leksik birliklar o‘rin oladi. Hayotimizning barcha sohalaridagi o‘zgarishlar, turli davlatlar bilan bo‘layotgan aloqalar natijalari, avvalo, izohli lug‘atlarda o‘z aksini topadi. Shu ma‘noda izohli lug‘atlar terminologiya, terminografiya taraqqiyotida muhim o‘rin tutadigan asosiy

leksikografik manbadir, deyish mumkin. Zero, har qanday sohaga doir maxsus lug‘at yaratilar ekan, u sohaga oid adabiyotlardan keyin izohli lug‘atlarga tayaniladi.

80 mingdan ortiq leksik birlikni qamrab olgan “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da yuzlab sohalariga oid terminlar mavjud. OTILga kiritilgan botanikaga doir atamalarni terminologik ma‘nosining darajasiga ko‘ra to‘rt guruhga ajratish mumkin bo‘ladi:

asosan botanikada, qisman boshqa sohalarida ham qo‘llanuvchi terminlar;

asosan boshqa sohada, qisman botanikada qo‘llanuvchi terminlar;

asosan umumiste‘mol so‘zi, qisman botanikada qo‘llanuvchi terminlar;

faqat botanik termin vazifasida qo‘llanadi.

Albatta, bu kabi guruhlariga ajratishda ularning turli sohalariga va nutq vaziyatlariga xos bo‘lgan matnlarda qo‘llanish chastotasi, maxsus lug‘atlarga kiritilganligi kabi xususiyatlarga tayanildi. Masalan, bir leksik birlikning bir nechta soha uchun termin vazifasida qo‘llanishi til sistemasi nuqtayi nazaridan ham bor bo‘lgan tushunchadir. Har qanday sistema, u moddiy bo‘ladimi, abstrakt (tafakkur sistemasi) bo‘ladimi, muayyan tartibga, uni hosil qiluvchi unsurlarning munosabatlari asosida yashaydi. Unsurlar orasidagi o‘zaro va umumsistemaga bo‘lgan munosabatlar asosidagi tartib sistemaning strukturasi tashkil etadi. Sistemada muayyan element butun sistema faoliyatiga ta‘sir qiladi. Elementlar orasidagi o‘zaro bog‘liqlik butun sistema faoliyatini ta‘minlaydigan omildir. Boshqacha aytganda, bir unsur bir vaqtning o‘zida turli sistemalarning birligi bo‘la olar ekan, bu bir leksemaning o‘z mohiyatiga ko‘ra turli sohalar termini vazifasini bajarishi ham tabiiy hol sifatida qaralishi lozim. Shu nuqtayi nazardan izohli lug‘atga kiritilgan botanikaga doir terminlarni yuqoridagi kabi to‘rt guruhga ajratish mumkin bo‘ladi.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”ga kiritilgan amfibiyalar, baytqo‘rg‘oni, baliqko‘z, banan, bangidevona, bargizub, baxtiyori, baqajo‘xori, baqasalla, baqato‘n, baqayaproq, bezkodi, beshbarg, beshbarg, behi, behisht, binafsha, gunafsha, boboyi, bodom, bodomcha, boltiriq, bo‘rigul, gulband, gulkosa, dastorbosh,

landish, limon, lishaynik, lola, lux, majnuntol, maymunjon, mita, navro'zgul, naycha, olqor, nektar, onalik, otalik, pashmak, payvandust, partak, pista, g'o'za kabi botanikaga doir terminlarda yuqoridagi to'rt guruh belgilarini ko'rishimiz mumkin. Sanalgar terminlardan amfibiyalar termini ham botanika, ham zoologiya sohasida qo'llanadi. G'o'za, daraxt kabi terminlar asosan botanikada, qisman qishloq xo'jaligida qo'llanadi. Onalik, otalik kabi terminlar esa asosan huquqshunoslikda, qisman botanikada qo'llanadi. Shuningdek, behi, majnuntol, maymunjon, olma, anor kabi terminlar asosan umumiste'mol so'zlar hisoblanadi. Bu so'zlar o'rni bilan ular botanikaga oid termin sifatida qo'llanishi ham tabiiy holdir. Bargizob, baqasalla, payvandust, partak kabi leksik birliklar esa faqat botanik termin ma'nosida qo'llanadi. Ta'kidlanganidek, bu kabi guruhlarni shakllantirishda leksik birliklar ko'proq uchraydigan matnlar tahlili asos vazifasini bajaradi. Keltirilgan lisoniy birliklarning aksariyati maxsus pometa (bot.) vositasida lug'atga kiritilgan. Bu lug'atdan foydalanuvchilarning imkoniyatlarini oshirganligi shubhasiz.

Terminlarning o'zbek tilidagi izohli lug'atlarda qo'llanishi masalasida so'z borar ekan, ularga lug'at maqolasining turli o'rinlarida murojaat qilinganligini ta'kidlab o'tish lozim bo'ladi. YA'ni terminlar O'TILga kiritilgan lug'at maqolalarining bosh so'z, bosh so'z izohi va illyustrativ misol qismlarida faol qo'llangan. "Ko'pchilik qo'llaydigan va tushunadigan, darslik, ilmiy-ommabop asar va davriy matbuotda ko'p qo'llanadigan terminlar" chegaralangan leksika birliklardan bosh so'z sifatida ajratilishi izohli lug'atdan foydalanish yo'riqnomasida bayon qilingan. Yuqorida sanalgar terminlardan tashqari pupanak, rayhom, raps, sada, salbiya, salib, sallagul, sallaqovoq, salomalaykum, sambit, sambitgul, sano, sanobar, sarv, saritol, sariqqamish, sarsabil, sasir, sebarta, takasoqol, tanacha kabilar bosh so'z maqomida va maxsus pometa vositasida izohli lug'atga kiritilgan. Aslida, sanalgar terminlarning ba'zilariga umumiste'molda ham keng qo'llanishi tufayli ularga botanika sohasiga tegishli ekanligini bildiruvchi leksikografik belgi (pometa) qo'yilmagan. Bosh so'z vazifasida kelgan so'zning izohli lug'atlarda qanday jihatlarni qamrab olishi haqida quyidagi fikrlarni keltirish o'rinli: "Izohli lug'atlarda denotat tavsiflanar ekan, agar denotat narsa/predmet bo'lsa, izohda, avvalo, uning vazifasi, keyin asosiy belgilari, so'ngra qurilishi, tuzilish xususiyatlarini ifodalovchi semalar va oxirida qaysi turga mansublik semasi berilgan". Fikrlarni O'TILda bosh so'z maqomida kelgan leksik birliklar va ularning izohi vositasida dalillaymiz. Masalan, o'simlik nomini ifodalovchi, demakki, botanik termin ma'nosini ifodalovchi "zanjabil" so'zi quyidagicha izohlangan:

"ZANJABIL [a. – ziravor o'simlik nomi] Zanjabdoshlar oilasiga mansub, yo'g'on ildizpoyali, gul va mevasiz, naysimon o't o'simlik (dorivor, ziravor modda sifatida ishlatiladi)".

Lug'at maqolasi denotatning vazifasini ifodalovchi sema, asosiy belgilarini ifodalovchi, uning qurilish, tuzilish xususiyatlarini ifodalovchi, mansublikni ifodalovchi semalarni qamrab olgan. Bunda denotatning mansubligini bildiruvchi sema sifatida "zanjabildoshlar oilasiga mansub" semasini; tuzilish, qurilish semasi sifatida "yo'g'on ildizpoyali, gul va mevasiz, naysimon" semasini; denotat o'rnida qo'llanuvchi sema sifatida "o't o'simlik" semasini ajratish mumkin. Denotatning "qo'llanish sohasi" semasi qavs ichida, qo'shimcha ma'lumot sifatida

keltirilgan: (dorivor, ziravor modda sifatida ishlatiladi). Mazkur so'z o'zbek tilidagi matnlarda juda ko'p o'rinlarda qo'llansa ham, uning izohini dalillash uchun illyustrativ misol keltirishga ehtiyoq yo'q deb hisoblangan. Umuman olganda, mazkur leksikografik talqinda leksemaning terminologik ma'nosiga ko'proq e'tibor qaratilganligini ta'kidlash lozim.

O'TILda keltirilgan botanik terminlarning izohida maxsus pometa qo'yilgan leksik birliklar tahlili shuni ko'rsatadiki, bunday leksemalar ko'proq terminologik ma'nosi bilan nutqqa olib kiritiladi. Shu sababli ularning lug'atdagi izohida botanika sohasiga doir ekanligini ko'rsatuvchi pometa qo'llanadi. Masalan, tog'beqa leksemasi o'zbekcha matnlarda asosan botanik termin ma'nosida qo'llanadi. Uning izohi uchun quyidagi lug'at maqolasi keltirilgan:

"TOG'BEKA bot. Yo'g'on ildizli, ko'pyillik o't o'simlik. Qo'qon tog'bekasi – ajoyib manzarali o'simlik".

Izohni dalillash uchun illyustrativ misol ham keltirilgan bo'lib, unda ham leksemaning terminologik ma'nosiga e'tibor qaratilgan. Botanik terminlarning maxsus pometa bilan berilishi polisemantik so'zlarda o'ziga xosdir. Chunki polisemantik so'zning muayyan ma'no(lar) sigina terminologik xususiyatga ega bo'lishi mumkin. Shunday o'rinlarda leksemaning terminologik ma'nosi maxsus pometa bilan beriladi. Masalan, tomir leksemasining ham anatomik, ham biologik, ham botanik ma'nolari izohli lug'atda sharhlangan bo'lib, uning botanik termin ma'nosi "ildiz" so'zi vositasida berilgan. Muayyan soha terminlarining boshqa sohalar terminologik tizimlariga o'tishi transterminlashuv deb nomlanadi. Transterminlashuv jarayoni obyektiv sabablar, turli lingvistik va ijtimoiy omillar, usullar asosida kechadi. Jumladan, tadqiqotchi X.Hashimova terminlarning hosil bo'lish usullari sifatida uslubiy xoslanish, juft so'z tarkibida so'z ma'nosining kuchsizlanishi, jonli so'zlashuvda so'zning tor ma'noda qo'llanishi, sohaviy qo'llanish, ma'nodagi hissiy-ta'siriy bo'yoqning yo'qolishi kabi o'nlab usullarini sanaydi. Albatta, bu kabi usullar botanik terminlarning hosil bo'lishiga ham taalluqli. Tomir leksemasining botanik termin sifatida qaraladigan ma'nosidan "tomir o'tmoq" iborasi kelib chiqqan va u ham lug'at maqolasiga kiritilgan. Mazkur ibora o'simlikda kuzatiladigan biologik jarayon bo'lib, "ildizini har tarafga yo'naltirmoq, ildizi rivojlanmoq" ma'nosida o'zbekcha matnlarda qo'llanadi. Keyinchalik bundan "asosli tarzda biror joyda o'rinishmoq" hosila ma'nosi yuzaga chiqqanligini ko'rishimiz mumkin. Leksema ma'nosining kengayishi va torayishi ularda yuz beradigan asosiy o'zgarishlar sifatida qayd etilar ekan, bunda ma'no kengayishi terminlarga ham taalluqli bo'lishi shubhasiz. "Jamiyat taraqqiy etishi bilan nutqiy hosila ma'no vaqtincha ifodalagan tushunchasi bilan doimiy aloqadorlik kasb etib, bora-bora ijtimoiylashib, qo'llanishi barqaror tus olib boradi va hosila nutqiy ma'no lisoniylashadi". Keltirilgan iqtibos ko'p sememali leksemaning hosil bo'lishi haqidagi fikrlarni qamrab olgan. Terminologik ma'no aksariyat hollarda ko'p sememali leksemalarning asosiy (bosh) ma'no maqomida bo'ladi. Ammo, yuqorida keltirilgani kabi, ba'zi o'rinlarda terminologik ma'no leksemaning hosila ma'nosi bo'ladigan holatlar ham leksik birliklar orasida kuzatiladi. Umuman, birikma shaklidagi terminlarning izohli lug'atlarga kiritilishi lug'at uchun belgilangan meyorlarga ko'ra belgilanadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Сабирова Э. "Ўзбек тилининг изоҳли луғати"да ҳуқуқий терминларнинг берилиши: Филол. фанл. б. фалс. докт. дисс. – Тошкент, 2022. – Б.4. – 183 б.
2. Mustafayeva S. Xitoycha-o'zbekcha tilshunoslik terminlari. – Toshkent: Fan va texnologiyalar Markazi, 2014. – 111 b.;
3. Muhamedova S. va boshq. Bank-moliya terminlarining o'zbek tilidagi izohli lug'ati. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020. – 157 b.;
4. Кадирбекова Д.Х. Инглиз ва ўзбек тилларида ахборот технологиялари терминологиясининг лингвистик хусусиятлари. – Тошкент: Фан ва технология, 2016. – 128 б.;
5. Нишонов П. Француз ва ўзбек тиллари юридик терминологиясининг қиёсий-типологик тадқиқи: Филол. фанлари номз. ... дисс. автореф. – Тошкент: 2009. – 26 б.
6. Маматов Н. Ўзбек пахтачилик терминлари луғатини тузиш юзасидан баъзи мулоҳазалар. // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1963. №3. – Б.51-55.;
7. Данияров Р. Техническая терминология узбекского языка на современном этапе: Дисс. ... д-ра филол. наук. – Тошкент, 1988. – 336 б.;
8. Ақобиров С. Тил ва терминология. – Тошкент: Ўзбекистон КП МКнинг бирлашган нашриёти, 1968. – 39 б.;
9. Ақобиров С. Терминология ишининг мазмуни ва вазибалари хақида // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1964, №3. – Б.31-39.;



10. Усмонов С. Гиппологическая терминология современного узбекского языка. – Тошкент: Адолат, 1993. – 141 б.;
11. Пардаева И.Х. Ўзбек тилининг заргарлик терминологияси: Филол. фанлари номз. дисс. ... автореф. – Тошкент, 1994. – 27 б.;
12. Пулатова О.М. Истоки формирования и дальнейшего развития терминологии танцевального искусства узбекского языка: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1992. – 23с.;
13. Мирахмедова З. Ўзбек тилининг анатомик терминологияси: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 1986. – 27 б.;
14. Жабборов Х. Ўзбек тилининг деҳқончилик лексикас: Филол. фанл. д-ри дисс. – Тошкент, 2017. – 255 б.;
15. Валиев Т. Ўзбек тили йўлсозлик терминларининг структур-семантик хусусиятлари ва лексикографик талқини: Филол. фанл. б. фалс. докт. дисс. – Самарқанд, 2017. – 134.
16. Сабирова Э. “Ўзбек тилининг изоҳли лугати”да ҳуқуқий терминларнинг берилиши: Филол. фанл. б. фалс. докт. дисс. – Тошкент, 2022. – 183 б.
17. Тюхтин В.С. Отражение и информация // Вопросы философии. 1967. №3. – С.43.
18. O'zbek tilining izohli lug'ati: 6 jildlik, 1-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2022. – B.13-14. – 964 b.
19. Валиев Т. Ўзбек тили йўлсозлик терминларининг структур-семантик хусусиятлари ва лексикографик талқини: Филол. фанл. б. фалс. докт. дисс. – Самарқанд, 2017. – Б.105. – 134.
20. Hashimova X. Izohli lug'atlarda terminlarning tizimlararo ko'chishining berilishi // Academic research in modern science. Vol.2. №13. 2023. – P.88-93
21. Mengliyev B. Hozirgi o'zbek tili. – Toshkent: Tafakkur bo'stoni, 2018. – B.154. – 199 b



**Matluba TUROBOVA,**  
DTPI O'zbek tili ixtisosligi tayanch doktoranti  
E-mail: [turobovamatlubaxon@gmail.com](mailto:turobovamatlubaxon@gmail.com)

*Filologiya fanlari nomzodi G. Keldiyorova taqrizi asosida*

## SUNI'Y INTELLEKT VA TIL KORPUSLARI ASOSIDA ELEKTRON LUG'ATLARNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Аннотация

Ushbu tadqiqot elektron lug'atchilik sohasining rivojlanish tendensiyalarini, xususan, sun'iy intellekt va til korpuslari asosida shakllangan lug'atlarning o'rni tahlil qiladi. Zamonaviy lingvistik texnologiyalar va tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) usullari lug'atlarning funktsionalligini kengaytirib, ularni foydalanuvchi ehtiyojlariga moslashuvchan va interaktiv platformalarga aylantirmoqda. Sun'iy neyron tarmoqlar va mashina o'rganish algoritmlaridan foydalanish leksikografik tadqiqotlarning samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Ushbu maqolada elektron lug'atlarning ta'lim, tarjima jarayonlari va ilmiy tadqiqotlardagi ahamiyati, shuningdek, multimodal imkoniyatlar va onlayn resurslar bilan integratsiyasi yoritiladi. Tadqiqot natijalari elektron lug'atchilikning zamonaviy yo'nalishlari va istiqbollarini ilmiy-nazariy asosda baholashga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** Elektron lug'atchilik, sun'iy intellekt, til korpuslari, tabiiy tilni qayta ishlash (NLP), leksikografiya, multimodal lug'atlar, onlayn lug'atlar.

## DEVELOPMENT TRENDS OF ELECTRONIC DICTIONARIES BASED ON ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND LANGUAGE CORPORA

Annotation

This study analyzes the development trends in the field of electronic lexicography, with a particular focus on dictionaries based on artificial intelligence and language corpora. Modern linguistic technologies and natural language processing (NLP) methods are expanding the functionality of dictionaries, transforming them into interactive platforms that adapt to user needs. The application of artificial neural networks and machine learning algorithms enhances the efficiency of lexicographic research. This paper explores the significance of electronic dictionaries in education, translation processes, and scientific research, as well as their integration with multimodal capabilities and online resources. The findings of this study contribute to the scientific and theoretical assessment of modern trends and prospects in electronic lexicography.

**Key words:** Electronic lexicography, artificial intelligence, language corpora, natural language processing (NLP), lexicography, multimodal dictionaries, online resources.

## ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ ЭЛЕКТРОННЫХ СЛОВАРЕЙ НА ОСНОВЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА И ЯЗЫКОВЫХ КОРПУСОВ

Аннотация

В данном исследовании анализируются тенденции развития в области электронной лексикографии, в частности роль словарей, основанных на искусственном интеллекте и языковых корпусах. Современные лингвистические технологии и методы обработки естественного языка (NLP) расширяют функциональные возможности словарей, превращая их в интерактивные платформы, адаптируемые под потребности пользователей. Применение искусственных нейронных сетей и алгоритмов машинного обучения способствует повышению эффективности лексикографических исследований. В статье рассматривается значение электронных словарей в образовании, переводческом процессе и научных исследованиях, а также их интеграция с мультимодальными возможностями и онлайн-ресурсами. Результаты исследования способствуют научно-теоретической оценке современных направлений и перспектив электронной лексикографии.

**Ключевые слова:** Электронная лексикография, искусственный интеллект, языковые корпуса, обработка естественного языка (NLP), лексикография, мультимодальные словари, онлайн-ресурсы.

**Kirish.** Elektron lug'atchilik zamonaviy tilshunoslikning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, texnologik taraqqiyot bilan chambarchas bog'liq holda rivojlanmoqda. An'anaviy bosma lug'atlar bilan solishtirganda, elektron lug'atlar tezkorlik, interaktivlik va moslashuvchanlik kabi afzalliklarga ega. So'nggi yillarda sun'iy intellekt va til korpuslari asosida yaratilayotgan lug'atlar foydalanuvchilarga yanada aniq va kontekstga mos ma'lumotlarni taqdim etish imkonini bermoqda. Ushbu tadqiqot elektron lug'atlarning rivojlanish tendensiyalarini o'rganishga qaratilgan bo'lib, sun'iy intellekt, tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) texnologiyalari va til korpuslari asosida yaratilgan yangi lug'at tizimlarining o'rni tahlil qiladi[1]. Shuningdek, zamonaviy lug'atchilik texnologiyalarining ta'lim, tarjima va ilmiy tadqiqotlarda qo'llanilishi, multimodal imkoniyatlari va global tajribasi yoritiladi. Tadqiqot natijalari elektron lug'atchilikning nazariy asoslarini mustahkamlash va amaliy qo'llanish doirasini kengaytirishga xizmat qiladi. Bu esa lingvistik tadqiqotlar va ta'lim jarayonlarida elektron lug'atlarning samaradorligini oshirishga yordam beradi[3].

**Mavzuga oid**

**adabiyotlar tahlili.** Elektron lug'atchilik zamonaviy tilshunoslikning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, uning rivojlanishi sun'iy intellekt va til korpuslari bilan chambarchas bog'liq. Ushbu bo'limda O'zbekistonda va xalqaro miqyosda olib borilgan tadqiqotlar tahlil qilinadi. O'zbek tilshunosligida elektron lug'atchilik. O'zbek leksikografiyasida elektron lug'atchilik sohasida qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Mahmudov N. va Nurmonov A. kabi olimlar o'zbek tilining leksik tizimi va uni avtomatlashtirish masalalariga e'tibor qaratgan. Bo'riyev Sh. (2020) esa o'z tadqiqotida o'zbek tilidagi onlayn lug'atlar va mobil ilovalar samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan ishlanmalarni taklif qilgan. Xudoyberganova D. (2019) o'zbek til korpuslarini yaratish va ularni elektron lug'atchilikda qo'llash imkoniyatlarini tahlil qilgan. O'zbek leksikografiyasining eng yirik loyihalaridan biri "O'zbek tilining izohli lug'ati" (2020) bo'lib, uning elektron shakli ustida ham ishlar olib borilmoqda.

Xalqaro miqyosda elektron lug'atchilik. Jahon miqyosida elektron lug'atlar bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda korpus lingvistikasi, sun'iy intellekt va tabiiy tilni qayta ishlash (NLP)

texnologiyalarining o'zni muhim ahamiyat kasb etmoqda. Kilgariff A. (2017) o'zining "Corpus-based Lexicography" tadqiqotida korpus lingvistikasi va elektron lug'atlar o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilgan. Hanks P. (2012) "The Corpus Revolution in Lexicography" asarida leksikografiya kompyuter lingvistikasi va statistik tahlillarning rolini o'rganadi. Atkins B. T. & Rundell M. (2008) "The Oxford Guide to Practical Lexicography" kitobida zamonaviy lug'atchilik tamoyillari va lug'atlar yaratish jarayonining texnologik imkoniyatlarini yoritgan. De Schryver G. (2003) elektron lug'atlar tuzish bo'yicha texnik va metodologik jihatlarni tahlil qilib, leksikografiya va korpus lingvistikasining integratsiyasiga e'tibor qaratgan.

Sun'iy intellekt va til korpuslari asosida elektron lug'atlar. So'nggi yillarda sun'iy intellekt yordamida elektron lug'atlar yaratish tendensiyasi kuchaymoqda. Manning C. D. va Schütze H. (1999) "Foundations of Statistical Natural Language Processing" kitobida sun'iy intellekt va til korpuslari asosida avtomatik tarjima va leksikografiya masalalarini o'rganadi. Vaswani A. va boshqalar (2017) esa Transformer neyron tarmog'i asosida tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) texnologiyalarining rivojlanishi bo'yicha tadqiqotlar olib borgan.

**Xulosa.** O'zbek tilshunosligida elektron lug'atchilik sohasida muhim tadqiqotlar olib borilgan bo'lsa-da, xalqaro tajribani o'rganish va yangi texnologiyalarni joriy etish zarurati mavjud. Sun'iy intellekt, mashina o'rganish va korpus lingvistikasi asosida zamonaviy elektron lug'atlar yaratish jarayoni davom etmoqda. Ushbu tadqiqot natijalari elektron lug'atchilikning istiqbolli yo'nalishlarini aniqlashda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu tadqiqotda sun'iy intellekt va til korpuslari asosida yaratilgan elektron lug'atlarning rivojlanish tendensiyalarini o'rganish maqsad qilingan. Tadqiqot metodologiyasi sifat va miqdoriy yondashuvlarni o'z ichiga olgan holda olib borildi. Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlar qo'llanildi:

1. Teoretik tahlil – elektron lug'atchilik bo'yicha ilmiy maqolalar va monografiyalardan o'rganildi.

2. Empirik tadqiqot – foydalanuvchilar o'rtasida so'rovnomalar o'tkazildi.

3. Statistik tahlil – olingan ma'lumotlar diagrammalar orqali vizualizatsiya qilindi.

Tadqiqot ishtirokchilari va ma'lumot yig'ish jarayoni. Tadqiqot doirasida 50 nafar respondent ishtirok etdi. So'rovnomada tilshunoslar, tarjimonlar, talabalar va tadqiqotchilar qatnashdi. So'rovnomada Google Forms platformasi orqali tarqatildi va natijalar avtomatik tarzda yig'ildi.

Tadqiqotda quyidagi asosiy savollar qo'yildi:

1. Siz qaysi elektron lug'atlardan eng ko'p foydalanasiz?

2. Elektron lug'atlaringizdan foydalanishning asosiy maqsadi nima?

3. Elektron lug'atlarning eng muhim funksiyalari qaysilar?

4. Sun'iy intellekt asosida ishlaydigan lug'atlarga ishonch darajangiz qanday? So'rovnomada natijalarining statistik tahlili

1. Eng ommabop elektron lug'atlar. So'rovnomada natijalariga ko'ra, foydalanuvchilar quyidagi lug'atlardan eng ko'p foydalanishadi:


Google Translate – 40%

Oxford Dictionary – 20%

Cambridge Dictionary – 15% Glosbe – 10%

Milliy lug'atlar – 15%

Diagramma 1. Elektron lug'atlardan foydalanish darajasi



2. Elektron lug'atlardan foydalanishning asosiy maqsadi. Respondentlarning javoblariga ko'ra, elektron lug'atlar quyidagi maqsadlar uchun ishlatiladi:

Tarjima qilish – 50% Til o'rganish – 30%

Ilmiy tadqiqotlar – 20%

3. Elektron lug'atlarning eng muhim funksiyalari. Respondentlarning fikricha, elektron lug'atlardagi eng foydali funksiyalar quyidagilardan iborat:

Kontekstual tarjima – 45% Ovozli talaffuz – 25%

Misollar va izohlar – 20% Interfeys qulayligi – 10%

4. Sun'iy intellekt asosida yaratilgan lug'atlarga ishonch darajasi. So'rovnomada ishtirokchilarining sun'iy intellektga asoslangan lug'atlarga bo'lgan munosabati quyidagicha taqsimlandi:

To'liq ishonaman – 30% Qisman ishonaman – 50%

Ishonmayman – 20%

**Xulosa.** Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, foydalanuvchilar asosan Google Translate kabi

avtomatlashtirilgan tarjima tizimlaridan foydalanishadi, biroq ilmiy va akademik kontekstda Oxford va Cambridge lug'atlari ham muhim o'rin tutadi. Eng ko'p ishlatiladigan lug'at funksiyalari – kontekstual tarjima, ovozli talaffuz va misollar bilan izohlash. Sun'iy intellekt asosida yaratilgan lug'atlarga ishonch darajasi o'rtacha bo'lib, foydalanuvchilarning 50% qismida qisman ishonch mavjud. Bu esa kelajakda yanada takomillashtirilgan sun'iy intellektli lug'atlar ishlab chiqish zaruratini ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari elektron lug'atchilikning zamonaviy yo'nalishlarini belgilash, foydalanuvchilar ehtiyojlarini aniqlash va innovatsion yondashuvlarni taklif qilish uchun muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

**Tahlil va natijalar.** Elektron lug'atlar zamonaviy tilshunoslik va tarjima sohasida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Tadqiqot davomida turli elektron lug'atlar va ularning foydalanuvchilar orasida mashhurligi tahlil qilindi. Quyidagi jadval elektron lug'atlarning afzalliklari va kamchiliklarini ko'rsatadi:

★Jadval 1. Elektron lug'atlarning taqqoslanishi:

Lug'at nomi	Ommabopik darajasi (1-10)	Aniqlik darajasi (1-10)	Foytalanish qulayligi (1-10)	O'zbek tilidagi imkoniyatlari (1-1)
Google Translate	9	7	9	6
Oxford Dictionary	8	9	7	7
Cambridge Dictionary	7	9	8	6
Milliy elektron lug'at	6	7	6	8

Yuqoridagi tahlil shuni ko'rsatadiki, Google Translate foydalanuvchilar orasida eng ommabop vosita bo'lsa-da, u ba'zan kontekstni noto'g'ri tushunish muammosiga ega. Ilmiy asoslangan lug'atlar, masalan, Oxford Dictionary va Cambridge Dictionary, aniq izoh va talaffuz namunalari bilan ajralib turadi. Shuningdek,

✦ Jadval 2. Sun'iy intellekt asosidagi lug'atlar tahlili

Lug'at nomi	Sifatli tarjima	Ko'p tillilik	Kontekstga moslashuv
DeepL	9	6	8
Google Translate	7	10	9

Tahlil shuni ko'rsatadiki, DeepL foydalanuvchilar tomonidan eng yuqori baholangan tarjima vositasi hisoblanadi. U sifatli tarjimalar bilan ajralib turadi, biroq tillar soni cheklangan. Google Translate (AI versiyasi) esa kontekstga moslashuvchan bo'lib, ko'p tillilik jihatidan yetakchi o'rinda turadi.

**Xulosa va takliflar.** Ushbu tadqiqot zamonaviy tilshunoslikda, ayniqsa tarjima va til o'rganishda elektron lug'atlarining o'rni hamda samaradorligini tahlil qildi. Turli raqamli lug'at platformalarining qiyosiy tahlili ularning kuchli va zaif jihatlarini aniqlash imkonini berdi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt asosida ishlovchi tarjima vositalari, masalan, Google Translate va DeepL, keng foydalanilayotgan bo'lsa-da, kontekst va til juftliklariga qarab aniqlik darajasi farq qiladi. Bundan tashqari, Oxford va Cambridge kabi ilmiy lug'atlar

milliy elektron lug'atlar o'zbek tilida aniq izohlarni taqdim etsada, bazaning cheklanganligi[5] sezilarli kamchilik hisoblanadi. Sun'iy intellekt asosidagi lug'atlar tahlili So'nggi yillarda sun'iy intellekt asosidagi tarjima vositalari sezilarli rivojlandi. Quyidagi jadval bunday lug'atlarining samaradorligini aks ettiradi:

til o'rganish va chuqur lingvistik tahlil uchun ishonchli manba sifatida yuqori baholandi. Biroq, sifatli o'zbek elektron lug'atlarining yetishmovchiligi hamon dolzarb muammo bo'lib qolmoqda.

Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellekt texnologiyalarining elektron lug'atlarga integratsiyalashuvi leksikografiya sohasini o'zgartirmoqda. Shu bilan birga, ma'lumotlar sifatini oshirish, lingvistik aniqlikni ta'minlash va ko'p tilli qo'llab-quvvatlash imkoniyatlarini kengaytirish kelajakda ushbu texnologiyalarining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi[10]. Kelgusi tadqiqotlar o'zbek tilining keng qamrovli sun'iy intellekt asosidagi elektron lug'atlarini ishlab chiqishga yo'naltirilishi lozim.

## ADABIYOTLAR

1. Abdurahmonova N. (2021). Kompyuter lingvistikasi. Toshkent: Nodirabegim.
2. Бархударов С. Г., & Новиков, Л. А. (2001). Каким должен быть учебный словарь? Русский язык за рубежом, 3, 46–50.
3. Маник С. А. (2015). Новый словарь общественно-политической терминологии и его место в современной лексикографии. Вестник МГОУ. Серия Лингвистика, 5, 33–34.
4. Oxford University Press. (2019). Oxford English Dictionary (3rd ed.). Oxford University Press.
5. Holmquist J. P. (2020). Artificial intelligence in lexicography: Trends and challenges. Journal of Computational Linguistics, 46(2), 200–215. <https://doi.org/xxxxxx>
6. Cambridge University Press. (2020). Cambridge Advanced Learner's Dictionary (5th ed.). Cambridge University Press.
7. Xolmanova, Z. (2019). Kompyuter lingvistikasi. Toshkent: Nodirabegim.
8. DeepL Translator. (n.d.). AI-powered translation tool. Retrieved from <https://www.deepl.com/translator>
9. Google Translate. (n.d.). Multilingual AI translation. Retrieved from <https://translate.google.com>
10. Rahmonov O. (2022). Natural language processing for Uzbek lexicography. Uzbek Journal of Applied Linguistics, 5(1), 45–60.



UDK:821.512.133.0-3:159.923.2

*Shafoat TO'XLIYEVA.*

*Shahrisabz davlat pedagogika institute magistranti*

*E-mail: shafoattuxliyeva@gmail.com*

*Shahrisabz DPI dotsenti, PhD M.Namazova taqrizi asosida*

### BOBURNING "BOBURNOMA" ASARIDA SHAXS XULQ-ATVORINING AKS ETISHI

Annotatsiya

Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarida muallif shaxsiyatining xulq-atvori, axloqiy fazilatlarini va ruhiy kechinmalari qanday aks etgani tahlil qilinadi. Asarda Boburning halolligi, sabr-bardoshi, do'stlikka sadoqati, san'at va adabiyotga bo'lgan munosabati asosida uning insoniy fazilatlarini ochib beriladi. Maqola Bobur shaxsiyati misolida shaxs xulq-atvorining tarixiy-biografik manbada ifodalanishini yoritishga qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** Boburnoma, Bobur shaxsiyati, xulq-atvor, axloqiy fazilatlar, tarixiy-biografik asar.

### ОТРАЖЕНИЕ ЛИЧНОСТИ И ПОВЕДЕНЧЕСКИХ ОСОБЕННОСТЕЙ В ПРОИЗВЕДЕНИИ ЗАХИРИДДИНА МУХАММАДА БАБУРА «БОБУР-НАМЕ»

Аннотация

В данной статье анализируется отражение личных качеств, нравственных черт и внутреннего мира Захириддина Мухаммада Бабура в его произведении «Бабур-наме». Особое внимание уделяется честности, терпению, преданности дружбе, а также любви к искусству и литературе. Цель статьи — раскрытие морально-психологических аспектов личности Бабура на основе историко-биографического источника.

**Ключевые слова:** Бабуринаме, личность Бабура, поведение, нравственные качества, историко-биографическое произведение.

### REFLECTION OF PERSONAL CHARACTER TRAITS AND BEHAVIOR IN ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BABUR'S "BABURNAMA"

Annotation

This article analyzes the reflection of personal traits, moral values, and emotional experiences of Zahiriddin Muhammad Babur in his work "Baburnama." The study highlights his honesty, patience, loyalty to friendship, and appreciation for art and literature. The main focus is to explore how Babur's character and behavior are portrayed in a historical-biographical context.

**Key words:** Baburnama, Babur's personality, behavior, moral values, historical-biographical work.

**Kirish.** Bugungi kunda yurtimizda milliy merosni chuqur o'rganish, buyuk ajdodlarimizning ilmiy, adabiy va madaniy faoliyatini har tomonlama tadqiq etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 19-maydagi "Buyuk allomalar va mutafakkirlarimizning ilmiy merosini chuqur o'rganish hamda targ'ib qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2965-son qarori [1], shuningdek, 2020-yil 29-dekabrda "Ilm-fan va ilmiy faoliyatni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6108-son farmoni mazkur sohadagi izlanishlarning ilmiy-uslubiy asoslarini mustahkamlab berdi [2].

Ana shunday ilmiy meros vakillaridan biri – Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining "Boburnoma" asari orqali nafaqat tarixiy voqealarni hujjatlashtirgan, balki o'zining shaxsiy kechinmalari, axloqiy qarashlari, ijtimoiy munosabatlari, xulq-atvori bilan o'z davrining mukammal shaxs namunasi sifatida namoyon bo'lgan. "Boburnoma" asari bugungi kunda tarix, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, psixologiya va madaniyatshunoslik fanlari chorrahasida tahlil etilayotgan ko'p qirrali manba bo'lib, unda muallif shaxsiyatining o'ziga xos jihatlari chuqur ifodalangan.

Ushbu maqolada "Boburnoma" asarida shaxs xulq-atvorining aks etishi, muallifning insoniy fazilatlarini, ichki kechinmalari, do'stlik, sadoqat, halollik, bardosh kabi axloqiy fazilatlarini qanday ifodalaganini tahlil nazariy asosda ko'rib chiqiladi. Mazkur tadqiqot orqali adabiy merosimizdagi shaxs obrazining talqini orqali bugungi yosh avlodga ibrat bo'luvchi jihatlari yoritib beriladi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Bobur ijodiga oid tadqiqotlarda asosan uning tarixchi, shoir va sarkarda sifatidagi faoliyati yoritiladi. Ammo so'nggi yillarda "Boburnoma"da shaxs psixologiyasining ifodalanishi, Boburning axloqiy fazilatlarini, ijtimoiy munosabatlarga bo'lgan munosabati, o'z-o'zini tahlil qilish holatlari, xulqiy o'zgarishlari va hayotiy qarorlaridagi ichki

ziddiyatlar kabi jihatlar ham alohida ilmiy qiziqish uyg'otmoqda. Xususan, asarda Boburning o'z yaqinlariga, oddiy xalq vakillariga, dushmanlariga nisbatan bildirgan fikr-mulohazalari orqali uning fe'l-atvori, insoniy fazilatlarini, muruvvatli, kechirimli, ammo qat'iyatli shaxs ekani namoyon bo'ladi.

O'zbekistonlik adabiyotshunos olimlar – H. Sulaymon, G. G'ulom, U. Normatov, Sh. Shomuhamedov, M. Vohidov kabi tadqiqotchilar Bobur merosini o'rganishda salmoqli ishlar qilganlar. Ularning tadqiqotlarida "Boburnoma"dagi badiiy tafakkur, til va uslub, tarixiy faktlarning aks ettirilishi bilan birga, Bobur shaxsining murakkab psixologik portreti ham alohida o'rganilgan.

Shuningdek, xorijiy tadqiqotchilar, xususan, Beveridj, A.S. Beveridj va Annette Beveridj tarjimalari orqali G'arb ilmiy doiralari ham Bobur shaxsiga chuqur qiziqish bildirgan. Ushbu tarjimalar orqali "Boburnoma"dagi shaxsiy xotiralar, hayotiy kuzatishlar, ichki kechinmalar G'arb psixologik adabiyotlarida ham muhim manba sifatida e'tirof etilgan.

Umuman olganda, adabiy-tarixiy manba sifatida "Boburnoma" shaxs xulq-atvorining badiiy aks etishini ko'rsatib beruvchi noyob asar bo'lib, undagi voqealar ketma-ketligi, hodisalarga berilgan baholar, hayotiy tanlovlar orqali Bobur shaxsining ko'p qirrali fe'l-atvori chuqur ochib berilgan. Shu nuqtai nazardan, asar zamonaviy ilmiy tadqiqotlar uchun dolzarb manba bo'lib qolmoqda.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotda tavsifiy, tahliliy va qiyosiy metodlardan foydalanildi. Asosiy manba sifatida Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asari tanlab olindi. Asardagi shaxsiy xotiralar, axloqiy mulohazalar va badiiy ifodalar lingvopoetik tahlil asosida o'rganildi. Shuningdek, ilgari chop etilgan ilmiy maqola va monografiyalar qiyosiy o'rganilib, muallif shaxsiyatiga doir qarashlar umumlashtirildi. Tarixiy-biografik yondashuv orqali Bobur xulq-atvorining ijtimoiy-madaniy omillar bilan bog'liqligi ochib berildi.

**Tahlil va natijalar.** Tadqiqot natijalari quyidagilarni ko'rsatdi: "Boburnoma" asarida muallif shaxsiyatining xulqiy va axloqiy fazilatlarini ochiq va tabiiy tarzda ifoda etilgan. Boburning halolligi, sabr-toqati, do'stlikka sadoqati, san'at va adabiyotga bo'lgan hurmati uning har bir xotirasida, tilga olgan insonlar va voqealarga munosabatida yaqqol ko'zga tashlanadi. Shuningdek, asarda shaxsiy kechinmalar, g'am-tashvishlar va orzu-umidlar realistik tarzda aks ettirilgani Boburni tarixiy shaxs bo'lish bilan birga, murakkab ichki dunyoga ega ijodkor sifatida ko'rsatadi. Tadqiqot shuni tasdiqladiki, "Boburnoma" nafaqat tarixiy manba, balki shaxs psixologiyasini o'rganish uchun muhim adabiy-biografik asardir.

Zahiriddin Muhammad Bobur — nafaqat yirik sarkarda va davlat arbobi, balki o'z davrining mohir adibi, nafis tuyg'ular egasi bo'lgan inson edi. Uning "Boburnoma" asari bevosita tarixiy manba sifatida qadrlanishi bilan birga, unda muallif shaxsining ichki dunyosi, axloqiy fazilatlarini, ruhiy kechinmalari ham o'z ifodasini topgan. Asar muallifning o'z qalbini ochiq-oydin tasvirlagani, o'ziga nisbatan ham tanqidiy, ham xolisona munosabat bildirgani bilan alohida e'tiborga loyiqdir.

Boburnoshunoslik sohasi, xususan, "Boburnoma" asarida shaxs xulq-atvorining aks etishini o'rganishga doir tadqiqotlar dastlab XIX asr oxiri va XX asr boshlarida boshlangan. Dastlabki izlanishlar Sharqshunos olimlar va rus tadqiqotchilari tomonidan olib borilgan. Jumladan, N.I. Veselovskiy, V.V. Bartold kabi mashhur sharqshunoslar "Boburnoma"ning tarixiy manba sifatidagi ahamiyatiga to'xtalib, undagi shaxsiy tafakkur va xulq-atvor unsurlariga ham e'tibor berganlar [1-4].

Keyinchalik, o'zbek adabiyotshunosligida "Boburnoma"ni shaxs psixologiyasi va axloqiy fazilatlar nuqtai nazaridan o'rganish XX asr o'rtalaridan boshlab chuqurlashgan. O'zbekistonda bu borada akademik Vohid Abdullaev, Habibulla Sulaymon, G'afur G'ulom, Ozod Sharafiddinov kabi olimlarning ishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, Ozod Sharafiddinov Bobur asarlaridagi badiiy tafakkur, shaxsiy kechinmalar, ichki monologlar orqali shaxs obrazining ochilishini tahlil qilgan [5].

So'nggi yillarda zamonaviy adabiyotshunoslikda Boburning shaxsiyati va "Boburnoma"dagi axloqiy-psixologik tahlillarni lingvopoeitik, kulturologik va psixologik yondashuvlar asosida o'rganuvchi tadqiqotlar paydo bo'ldi. Bu yo'nalishda ayniqsa filologiya fanlari doktori Gulchehra Karimova, Qahramon Rajabov, Saodat Muhitdinovalar "Boburnoma"da inson shaxsining psixologiyasi, qadriyatlariga munosabati, axloqiy yuksakliklarining ifodasini o'rganishga e'tibor qaratgan.

Jahon miqyosida esa "Baburnama"ni ingliz, frantsuz, nemis, hind, urdu va boshqa tillarga tarjima qilgan tadqiqotchilar, jumladan Annette Beveridge (Angliya), Stephen Dale (AQSH), Audrey Truschke (AQSH) kabi olimlar Bobur shaxsini nafaqat tarixiy arbob, balki shaxsiyati murakkab, madaniy-estetik tafakkur sohibi sifatida o'rganib chiqqanlar. Stephen Dale o'zining "The Garden of the Eight Paradises" asarida Boburning siyosiy faoliyatini shaxs psixologiyasi bilan uyg'un holda tahlil qilgan.

Shuningdek, Hindistonda Muhammad Habib, Irfan Habib, R.C. Majumdar kabi tarixchilar ham Boburning shaxsiyati va uning yozma merosini o'rganib, "Baburnama"dagi xotiralarni psixologik va madaniy tahlil jihatidan baholaganlar.

Yuqoridagi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Bobur shaxsining xulq-atvori, axloqiy va ruhiy fazilatlarini nafaqat tarixiy nuqtai nazardan, balki madaniy, psixologik va adabiy aspektida ham chuqur o'rganib kelinmoqda. Shu bois "Boburnoma" bugungi kunda ko'p qirrali ilmiy tahlil imkonini beruvchi muhim manba bo'lib qolmoqda.

Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma» asari o'zining ilmiy va sarguzasht yondashuvi bilan mumtoz adabiyotimizning eng yuksak namunalariidan biridir. Asar hayotni haqqoniy va chuqur aks ettirishda o'ziga xos uslubga ega bo'lib, Navoiyning nasriy asarlaridan keyin turkiy tilda yaratilgan badiiy, ilmiy nasrning eng nodir namunalariidan biri sifatida tarixda alohida o'rin tutadi. «Boburnoma»ning XVI asrda ilmiy doiralarda, adabiyotshunoslar va tarixchilar tomonidan katta qiziqish bilan o'rganilganini aytish mumkin.

Ushbu asar bugungi kunda dunyoning yuzlab yirik tillariga tarjima qilingan bo'lib, fors, golland, ingliz, frantsuz, nemis, ispan, xitoy, hind, yapon, turk, rus va qozoq tillariga ham

tarjima qilingan. Bu asar o'zining ko'plab tarjimalari bilan jahon adabiyotiga katta hissa qo'shgan va o'zbek adabiyotida dastlabki nasriy memuar va tarixiy-ilmiy asar sifatida yuksak baholangan.

«Boburnoma» boshqa nomlar bilan ham tanilgan, jumladan, «Boburiya», «Voqeoti Bobur», «Voqeanoma», «Tuzuki Boburiy», «Tabaqoti Boburiy», «Tavorixi Boburiy» kabi nomlar bilan ataladi. Bobur o'zining asarida voqealarni «Vaqoye» yoki «Tarix» deb atagan. Asarda o'z hayoti va siyosiy faoliyatiga oid voqealar batafsil bayon etilgan va bu voqealar Osiyo, Afg'oniston va Hindistondagi siyosiy-siyosiy voqealar bilan chambarchas bog'liq.

«Boburnoma» uch qismga bo'linadi: birinchi qismda Boburning Movaraunnahr (1494-1504), ikkinchi qismda Afg'onistondagi (1504-1526) va uchinchi qismda Hindistondagi (1526-1529) hukmronlik davri bayon etiladi. Birinchi qismda Bobur temuriylar davlatining Farg'ona hokimi Umarshayx Mirzo haqida, Boburning taxtga o'tirishi, undan mahrum bo'lishi, Samarqand uchun Shayboniyxon bilan bo'lgan kurash va Hisor orqali Afg'onistonga ko'chishi haqida so'z yuritadi. Ikkinchi qismda Bobur Kobulni zabt etishi, mustaqil davlat tuzishi, Eron shohi Ismoil Safaviyning yordami bilan Samarqandni qaytarishi va keyinchalik Hindistonni zabt etishga tayyorlanishi haqida hikoya qilinadi. Uchinchi qismda Bobur Dehli sultoni Ibrohim Lo'diyya qarshi jangda g'alaba qozonib, shimoliy Hindistonda Boburiylar davlatini barpo etadi.

«Boburnoma»da Farg'ona, Toshkent, Samarqand, Hisor, Chag'oniyon va shimoliy Afg'onistondagi siyosiy ahvolning batafsil tasvirlanishi o'zining boshqa manbalardan farq qiladi. Asarda Boburning o'zaro dushmanlari, temuriylar xususan Umarshayx, Sulton Ahmad, Sulton Mahmud, Boysung'ur Mirzo va Sulton Husayn kabi shaxslarning xulq-atvori, tabiati haqidagi fikr-mulohazalar ham alohida e'tiborga loyiqdir.

Asarda ijtimoiy va tabiiy fanlarga, tarix, falsafa, fiqh, din ta'limoti, tilshunoslik, geografiya, tabiatshunoslik, bog'dorchilik kabi turli sohalarga oid aniq va ilmiy ahamiyatga ega ma'lumotlar keltirilgan. Ushbu asarda Boburning o'zi boshchiligidagi bir nechta katta va kichik janglarning tavsifi mahorat bilan berilgan. Jang usullari, qo'shin tuzilishi, urushlar olib borish metodlari, qamal qilish, qurol-yarog' turlari va qo'rg'onida ishlatilgan qurilmalarning detallariga oid qimmatli ma'lumotlar mavjud. Bundan tashqari, asarda temuriylar davrida qo'shin tuzilishi va harbiy san'atga oid noyob bilimlar ham o'z o'rnini topgan.

Shuningdek, «Boburnoma»da Movaraunnahr, Afg'oniston, Xuroson va Hindistonning o'tmishi, hozirgi holati, xalqlari, qabilalari, madaniyati, urf-odatlarini va an'anaviy marosimlari haqida batafsil bayon etilgan. Asarda Farg'ona, Andijon, Samarqand, Kobul, Hiron, Agra kabi yirik shaharlar va viloyatlarning geografik va ma'muriy tuzilishi, madaniy hayoti, tumanlari, aholisi, qishloq xo'jaligi, daryo va suv havzalari, tabiiy boyliklari haqida keng ma'lumotlar taqdim etilgan.

Xususan, XV-XVI asrlarda Turkiston viloyatlarida yashagan qora qo'ylik qabilasining va Movaraunnahrda turkmo'g'ul qabilalarining urf-odatlarini va harbiy mahorati haqida keltirilgan ma'lumotlar ilmiy nuqtai nazardan juda katta qiymatga ega. Bu ma'lumotlar o'zbek, qozoq, qirg'iz va boshqa turkiyzabon xalqlarning etnik tarixini o'rganishda muhim manba hisoblanadi.

Bobur o'z xatti-harakatlari, qaror va fikrlari orqali inson shaxsining shakllanish jarayonini, uning axloqiy-ruhiy kamolotini yoritib bergan. U o'zini boshqalar bilan qiyoslab, ba'zan o'zida ko'rgan kamchiliklarni tan olgan, ba'zan esa ezgu fazilatlarini qadrlagan. Bu jihatlar "Boburnoma"ni shunchaki tarixiy xotiralar kitobi emas, balki psixologik va axloqiy tahlil ruhida asar sifatida ham ko'rishga imkon beradi.

Boburning shaxsiy xulq-atvori, eng avvalo, uning halolligi va samimiyatida ko'zga tashlanadi. Masalan, u Samarqand uchun olib borilgan kurashlar haqida yozarkan, o'zining siyosiy tajribasizligini tan oladi va bu omil sababli yo'l qo'yilgan xatolarni ochiq tilga oladi. U yozadi: "Necha yerlar ixtiyorimda bor edi, lekin tutib turolmadim." Bu e'tirof Boburning o'zini ideallashtirishdan yiroq turganini, aksincha, hayotiy haqiqatni ro'yi-rost bayon qilganini ko'rsatadi [6].

Asarda shaxs xulq-atvorining yana bir muhim jihati sifatida Boburning sabr-toqat va bardosh fazilatlarini namoyon bo'ladi. U turli janglarda, quvg'in va musibatlarda, hatto yaqin

kishilarining xiyonatlarida ham ruhiy bardoshini yo'qotmagan, irodasini yo'qotmay, har doim harakatda bo'lgan. Masalan, Farg'onodan quvilgach, u kurashishdan to'xtamaydi, balki yangi imkoniyatlarni izlaydi: "Umidni qo'ymadim, yurt olish yo'lida harakatda bo'ldim." Bunday qarashlar shaxsning kuchli irodasini, hayotga faol munosabatini aks ettiradi.

"Boburnoma"da do'stlik va sadoqat tushunchalari ham inson xulqining muhim ko'rinishlari sifatida yoritilgan. Bobur o'z do'stlari, maslahatchilari, hatto xizmatkorlariga nisbatan samimiy munosabatda bo'lganini qayd etadi. U o'z atrofidagi insonlar xususida yozarkan, ularning fazilatlarini qadrlagan, kamchiliklarini esa muloyimlik bilan bildirgan. Bu jihatlar Boburning mehribon, insonparvar tabiatga ega bo'lganligini ko'rsatadi.

Shuningdek, Boburning estetik didi, san'at va adabiyotga bo'lgan mehrida ham uning ichki dunyosi, shaxs sifatida yetukligi namoyon bo'ladi. U o'z she'riyatga bo'lgan qiziqishi, tabiatga muhabbati, musiqiy zehni haqida alohida to'xtaladi. Bu holatlar Bobur shaxsining ko'p qirrali, nafis tuyg'ular egasi bo'lganini ko'rsatadi.

Boburning shaxsiyati, asarda aks etgan axloqiy sifatleri bugungi kunda ham ibrat manbai bo'la oladi. U halollik, qat'iyat, sabr, do'stlik va ma'naviy yuksaklik kabi fazilatlarini o'z hayoti orqali namoyon qilgan. Bu jihatlar "Boburnoma"ni nafaqat tarixiy hujjat, balki shaxs tarbiyasi, axloqiy kamolotga oid noyob manba sifatida qadrlashga asos bo'ladi.

**Xulosa.** «Boburnoma»da Farg'ona, Samarqand shaharlari va viloyatlari, Ohangaron vodiysi, O'ratepa, Mascho, Hisor, Chag'oniyon, Badaxshon, Kobul viloyati kabi joylar geografik jihatdan aniq va qiziqarli tasvirlangan. Muallif o'zining sayohatlari va tashrif buyurgan shaharlar hamda qishloqlarni batafsil yoritgan. Asarda Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Shayxim Suhayliy, Husayn Ali Tufayliy, Muhammad Solih, Xo'ja Ubaydullo Marvari, Behzod, Shoh Muzaffar kabi bir qator yirik san'atkorlar va olimlarning faoliyatlari haqida ma'lumotlar berilgan. Alisher Navoiy haqida esa shunday deyilgan: «Alisherbek naziri yo'q kishi erdi. Turkiy bila to she'r aytib turlar, - hech kim oncha ko'p va xo'b aytqon emas.»

Asar XV asrdan boshlab keng o'rganila boshladi va XVI asrda dunyoning bir qancha tillariga tarjima qilindi.

#### ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. Buyuk allomalar va mutafakkirlarimizning ilmiy merosini chuqur o'rganish hamda targ'ib qilish chora-tadbirlari to'g'risida [Internet]. PQ-2965-son qaror. 2017 May 19 [cited 2025 Apr 4]. Available from: <https://lex.uz/ru/docs/3203260>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. Ilm-fan va ilmiy faoliyatni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida [Internet]. PF-6108-son farmon. 2020 Dec 29 [cited 2025 Apr 4]. Available from: <https://lex.uz/ru/docs/5199614>
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi. Ta'lim to'g'risida [Internet]. Qonun №ZRU-637. 2020 Sep 23 [cited 2025 Apr 4]. Available from: <https://lex.uz/docs/5013005>
4. Bartold V.V. Turkestan v epokhu mongolskogo nashestviya. Moskva: Nauka; 1963. 383 p.
5. Beveridge A. Babur-Nama: Memoirs of Babur, Prince and Emperor. London: Luzac & Co.; 1922. 2 vols.
6. Bobur Zahiriddin Muhammad. Boburnoma. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti; 2010. 512 p.
7. Dale S.F. The Garden of the Eight Paradises: Babur and the Culture of Empire in Central Asia, Afghanistan and India (1483–1530). Leiden: Brill; 2004. 430 p.
8. Habib M, Habib I. A Short History of India. New Delhi: Publications Division, Ministry of Information and Broadcasting; 1974. 412 p.
9. Karimova G. Bobur ijodi va badiiy tafakkur. Toshkent: Akademnashr; 2015. 276 p.
10. Majumdar RC. The Delhi Sultanate. Bombay: Bharatiya Vidya Bhavan; 1960. 456 p.
11. Rajabov Q. Boburnoma — tarix va adabiyot uyg'unligi. Toshkent: Fan; 2020. 189 p.
12. Sharafiddinov O. Ijodkor va davr. Toshkent: Fan; 1971. 240 p.
13. Sulaymon H. Bobur — shoir va tarixchi. Toshkent: Yozuvchi; 1985. 200 p.

Mustaqillikdan so'ng, «Boburnoma»ga bo'lgan qiziqish yanada ortdi. Toshkentdagi «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasida uning yangi nashri 11 mustaqillik yilligiga bag'ishlangan holda chop etildi. Yangi nashr filologiya fanlari doktori Saidbek Xasanov tomonidan tayyorlandi, olimlar Porso Shamsiyev, Sodiq Mirzayev va Eyki Mano hamda Andijonlik olimlar Zokirjon Mashrabov, Sayfiddin Jalilov va Fathiddin Isxoqov tomonidan yordamlashildi.

«Boburnoma»ning jahonga mashhur bo'lishida ingliz sharqshunoslarining alohida o'rmi bor. J.Leyden va V.Erskin 1826-yilda asarni to'liq nashr etdi. A.Beverij 1921-yilda asarni qayta tarjima qilib, uning ingliz tilidagi nashrlarini yangiladi. Keyinchalik, AQShda V.Takston va Yaponiyada ikki jildli ilmiy-tanqidiy nashr chop etildi.

Tarjimonlar orasida Afg'oniston, Pokiston, Hindiston, Turkiya va boshqa mamlakatlar olimlari ham faoliyat ko'rsatdi. Rus sharqshunoslari ham asarni o'rganib, uning ayrim qismlarini tarjima qilishdi. N.I.Ilminkiy esa «Boburnoma»ni Qozonda nashr ettirdi.

«Boburnoma»ning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishda so'nggi yillarda o'zbek, hind, afg'on olimlari, shuningdek, yevropalik va yapon tadqiqotchilari chuqur ilmiy izlanishlar olib bordilar. Masalan, XX asrning 90-yillarining ikkinchi yarmida Yaponiyada «Boburnoma»ning ilmiy-tanqidiy matni, izohlar va Eyje Mano tomonidan ifodalangan qarashlar bilan nashr etilgan ilmiy tadqiqot bu boradagi yirik yutuqdir. Shuningdek, ingliz tilidagi nashrlar ham Bobur ijodiga bo'lgan katta qiziqish va hurmatni aks ettiradi. Xulosa qilib aytganda, «Boburnoma» asari o'zbek xalqining ulug'vor merosidir.

Xulosa qilib aytganda, «Boburnoma» — bu Boburning shaxsiy fazilatleri, axloqiy qarashlari, ruhiy kechinmalarini aks ettirgan noyob asardir. Unda tarix va biografik tafsilotlar ortida inson shaxsi, uning kamolotga intilishi, ijtimoiy va axloqiy qadriyatlariga munosabati chuqur tahlil qilingan. Bu asar orqali biz nafaqat o'tmish voqealari, balki bir buyuk shaxsning ichki dunyosi bilan tanishamiz. Shu bois, «Boburnoma»ni o'rganish, ayniqsa yoshlar uchun, axloqiy va ma'naviy tarbiya nuqtai nazaridan nihoyatda muhimdir.



*Dilshoda XUDOYBERDIYEVA,*

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti tayanch doktoranti*

*E-mail: dilshidahudoyberdiyeva@gmail.com*

*TerDu dotsenti, PhD A.Xudayqulov taqrizi asosida*

#### MAISHIY TEXNIKA SOHASIGA OID O‘ZLASHMA LEKSIKANIY MAVZUVIY GURUHLANISHI

Annotatsiya

Fan va texnikaning rivojlanishi natijasida tilning terminologik qatlami rivojlanib bormadi. Jumladan, o‘zbek tilining ilmiy-texnikaviy atamaları qatorida maishiy texnika sohasiga oid leksik birliklar safi kundan kunga ortib bormoqda. Maishiy texnika sohasiga mansub terminologiyani o‘rganib borish, leksikologiyaning dolzarb muammolaridan sanaladi. Zero, atamalarning nominativ xususiyatlari, etimologiyasi va dinamikasi, semantikasi hamda boshqa lingvistik xususiyatlari alohida tadqiqot yo‘nalishlaridir. Mazkur tadqiqot ish o‘zbek tiliga o‘zga tillardan kirgan maishiy texnika sohasi atamalarini leksik-mavzuviy guruhlariga ajratib o‘rganishga bag‘ishlangan.

**Kalit so‘zlar:** Maishiy leksema, tematik guruhlash, elektron pechka, dazmol, diktofon, grammafona, mikser.

#### THEMATIC GROUPING OF BORROWED VOCABULARY RELATING TO THE FIELD OF HOUSEHOLD APPLIANCES

Annotation

As a result of the development of science and technology, the terminological layer of the language has not developed. In particular, the number of lexical units related to the field of household appliances, along with the scientific and technical terms of the Uzbek language, is increasing day by day. The study of terminology related to the field of household appliances is one of the current problems of lexicology. After all, the nominative properties, etymology and dynamics, semantics and other linguistic properties of terms are separate areas of research. This research work is devoted to the study of the terms of the field of household appliances that entered the Uzbek language from other languages, dividing them into lexical and thematic groups.

**Key words:** Household lexeme, thematic grouping, electronic stove, iron, dictaphone, gramophone, mixer.

#### ТЕМАТИЧЕСКАЯ ГРУППИРОВАНИЕ СПЕЦИАЛЬНОЙ ЛЕКСИКИ В ОБЛАСТИ БЫТОВОЙ ТЕХНИКИ

Аннотация

Терминологический пласт языка не развивался в результате развития науки и техники. В частности, среди научно-технических терминов узбекского языка с каждым днем увеличивается количество лексических единиц, относящихся к сфере бытовой техники. Изучение терминологии, связанной с бытовой техникой, является одной из актуальных проблем лексикологии. Ведь номинативные свойства, этимология и динамика, семантика и другие языковые свойства терминов — это отдельные области исследований. Данная исследовательская работа посвящена изучению терминов в сфере бытовой техники, вошедших в узбекский язык из других языков, разделению их на лексические и тематические группы.

**Ключевые слова:** Бытовая лексема, тематическая группировка, электронная плита, утюг, диктофон, граммофон, миксер.

**Kirish.** Bugungi kundagi hayotimizni maishiy texnika vositalarisiz tasavvur qila olmaymiz. Fan va texnikaning rivojlanishi hisobiga maishiy texnikalar turlari ham ortib bormoqda, natijada mazkur tabiiy hodisa soha leksikasining boyishida muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. O‘zbek tili leksik qatlamida boshqa sohalarda bo‘lgani kabi maishiy texnika sohasiga doir atamalar va terminlar soni ortib bormoqda. Bu borada turli tillardan o‘zlashgan leksik birliklar soni katta qismni tashkil qiladi. Ularni muntazam ravishda o‘rganib borish leksikologiya fanining dolzarb masalalaridan sanaladi.

Maishiy texnika vositalari nomlarini tematik guruhlab o‘rganish orqali bu vositalarning ishlatilish o‘rinlari va funksiyalari haqida to‘liq ma‘lumotga ega bo‘lamiz.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Maishiy texnika sohasiga oid leksemalarning mavzuviy guruhlanishi haqida so‘z yuritar ekanmiz, avvalo, leksema termini haqida ma‘lumot berib o‘tsak. Leksema (gr. Lexis - so‘z, ifoda) terminini qo‘llash 1918-yilda rus tilshunosi A.M. Peshkovskiy tomonidan taklif qilingan. Leksema termini so‘zlarni grammatik xususiyatlardan xoli idrok etish uchun tanlangan. Shu boisdan kitob, kitobni, kitobga birliklari grammatik shakllangan uchta so‘z, lekin ular zamirida bitta leksema yotadi. Tilshunoslikda bu talqinga V.V.Vinogradov, A.I.Smirtskiy, A.A.Zaloznyak kabi atoqli olimlar katta hissa qo‘shishgan [1].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maishiy texnika sohasiga oid o‘zlashma leksemalarni leksik-mavzuviy guruhlab, bu atamalarning etimologiyasi va semantikasi qiyosiy tahlil metodi orqali o‘rganilib, yoritib berildi. Bugungi kunda texnika sohasiga oid terminologiyani o‘rganish bu leksemalar o‘zlashgan qatlamga

ega yoki ega emasligini o‘rganish ham tilshunolar uchun muhim masala hisoblanadi.

**Tahlil va natijalar.** Maishiy texnika sohasiga oid o‘zlashma leksemalarni tematik guruhlash maishiy texnikaning rivojlanishi va turli aspektlarda ushbu texnikaga oid terminlarni to‘g‘ri qo‘llash, sohaga oid matnlarni to‘g‘ri tarjima qilish imkonini beradi. Garchi soha leksemalarining ko‘pchiligi terminologik xarakterda bo‘lsada, ularning polisemantik xususiyatlari ko‘zga tashlanadi. Masalan, mikser (Ingl. mix so‘zidan – aralastirmoq) so‘zi: 1. Biror narsani aralastirish qurilmasi; 2. Domna pechlarida eritilgan cho‘yanni harorati va ximiyaviy tarkibini mo‘tadillastirish maqsadida saqlash uchun ishlatiladigan idish. [2]. Mazkur atama qurilish texnikasi nomini ham anglatadi va bugungi kunda shu ma‘noda tez-tez ishlatiladi: “UrbanAvto.group Sizga keng turdagi qurilish va tashish ishlarida foydalaniladigan maxsus texnikalar (samosval, freza, g‘ildirakli va zanjirli ekskavatorlar, yuk yuklagichlar, buldozer, vibrokotok, avtogreyder, 90 tonnagacha bo‘lgan yuklarni tashuvchi maxsus treylerlar, inert va temir mahsulotlarni tashuvchi avtotexnikalar, avtobetonasos, 10 va 16 m3 hajmli qattiq va suyuq beton qorishmalarni tashuvchi HOWO rusumli mikserlar) xizmatini muddatli to‘lov asosida to‘lash shartlari bilan taklif etadi” [3].

Har ikkala misolda mikser mexanik aralastirish, bir xil massa hosil qilish va turli tarkibdagi suyuq va quyma moddalarni vaqtincha ushlab turish uchun mo‘ljallangan qurilma ma‘nolarini anglatsada, ular boshqa-boshqa texnika vositalarini atash uchun ishlatilmoqda. Ayrim hollarda ushbu atamalarning farqini ko‘rsatish uchun aniqlovchi bilan ishlatilishini ham kuzatishimiz mumkin: “...Beton-mikser (Carmix) sotiladi” [4]. Ko‘rinadiki,



beton-mikser atamasini tavsiflash uchun yana bir o'zlashma "carmix" so'zini ishlatishga zarurat tug'ilgan.

Rus va o'zbek tillarida o'zlashmalarni o'rganan tadqiqotchi A.E.Xudayqulovning fikricha har qanday o'zlashma so'z oluvchi tilga semantik jihatdan moslashadi [5].

O'zlashma atamalarining semantikasini farqlashda ularning etimologiyasi va dinamikasini o'rganish muhim rol o'ynaydi. Masalan, mikser so'zining birinchi ma'nosi boshqa so'zlar kabi tasodifan tug'ilgan". 1908 yilda amerikalik muhandis Gerbert Jonston non xamirini qo'lda qoriyatgan novvoyi ko'rdi. Novvoyning ishi naqadar og'ir va mashaqqatli ekanligi unda chuqur taassurot qoldirdi va shu kundan boshlab u novvoylarning ishini osonlashtiradigan qurilma yaratish g'oyasiga berilib ketdi. Jonston har bir xaridor uchun mavjud bo'lgan qulay va ishonchli mikserni yaratmoqchi bo'ldi va hatto unga berilgan mos nom - Kitchen Aid mikserlari, ya'ni "oshxonada yordamchisi" degan ma'noni anglatadi. Albatta, birinchi mikser mukammal emas edi, lekin 11 yillik mashaqqatli mehnatdan so'ng Jonstonning mikseri bir vaqtning o'zida 75 kg xamirni aralashtirishga qodir bo'ldi. Bu kabi mikserlar Amerika dengiz floti kemalarining galereyalariga o'rnatilgan. Bundan tashqari, oddiy oshxonaga joylashtirilishi mumkin bo'lgan mikserning kichik modeli yaratildi. 1919 yilda sayyoralarini aralashtirish texnologiyasi uchun patent olindi. 1936 yilda Kitchen Aid mikserini taniqli dizayner va muhandis Egmont Arens ko'rdi va u o'zining oxirgi ko'rinishini berdi. Shu ko'rinishdagi jihoz nomi, keyinchalik boshqa shunga o'xshash jihozlarni ham ishlatishda qo'llanila boshladi. Hozirgi o'zbektilida mikser so'zi bilan yasalgan qator birikmalar ham uchraydi: stendli mikser, mikser-ko'pirtirgich, qo'l mikseri va boshqalar.

Ilmiy-texnikaviy matnlar tarjimasi sohasida ham tematik guruhlashning ahamiyati juda katta bo'lib, so'zni to'g'ri tushunish, matnni talqin qilish va uning samaradorligini oshirishda ham yordam beradi. Texnika nomlarini o'rganar ekanmiz ularni mavzuviy guruhlab o'rganish ularning funksiyalari va ishlatish o'rinlarini muayyan tilgan tarjima qilish jarayonida turli xil tarjima usullari va metodlarini bitta asosiy omil atrofida birlashtirish imkonini beradi.

Maishiy texnikaga oid o'zlashma leksemalarini tadqiq qilar ekanmiz, ularning turlari va ishlatilish funksiyasiga ko'ra quyidagi asosiy guruhlarga ajratishni lozim topdik.

Birinchi tematik guruhga oshxonada asbob va uskunalarni kiritdik. Oshxonada jihozlari, ehtimol, ovqat tayyorlash, pishirish va oziq-ovqat mahsulotlarini saqlashni osonlashtirish uchun mo'ljallangan keng turdagi asboblarni o'z ichiga olgan eng xilma-xil toifadir. Umumiy tematik kichik guruhlarga quyidagilar kiradi:

Pishirish asboblari: Mikroto'lqinli pech, plitalar, induksiya pechka, gaz plitasi, elektr plita, elektr grill, konveksiya pechi va hokazolar.

Ushbu leksik birliklarning ayrimlari birikmalar bo'lib, ma'nolari farqlanadi. Masalan, Konveksiya pechi bu so'z o'zbek tiliga lotincha "convectio" so'zidan o'zlashgan bo'lib, issiqlikning havo yoki suyuqlik orqali tarqalish jarayonini ifodalaydi. Pech so'zi esa rus tilidan o'zlashgan so'z hisoblanadi.

Elektr grill bu so'z o'zbek tiliga fransuz tilidan o'zlashgan bo'lib, dastlab bu so'z XVI asr o'rtalarida eski fransuz tilida "graille" va keyinchalik "grill" holida maishiy texnika sohasidagi leksema tarzida qo'llanila boshlagan [6], toster pechi bu maishiy texnika nomi esa ingliz tilidan o'zlashgan bo'lib, asli "toaster" so'zidan kelib chiqqan va shu kabilarni kiritishimiz mumkin.

Keyingi oshxonada jihozlari turkumini ichiga kiruvchi asboblarga ovqat tayyorlash uchun ishlatiladigan asboblari: oziq-ovqat protsessori, blender va shu kabilari kiradi.

b) Audio jihozlari. Ushbu guruhga kiruvchi o'zlashma so'zlarni ham birma-bir tahlil qilib o'tamiz. 1878-yilda microphone "mikrofon" va record player "grammofon, magnitafon" so'zining paydo bo'lishi bilan "audio jihozlari" tematik guruhi rivojlana boshladi. Bu so'zlarning ikkalasi ham rus tilidan o'zlashgan so'zlar hisoblanadi. Bu guruhga quyidagi o'zlashma leksemalarni kiradi: kassetali magnitafon, CD pleyer (bu so'z ham o'zbek tiliga yangi kirib kelgan ingliz tilidan o'zlashgan so'z hisoblanadi), pleyer, karaoke pleyer, stereo tizimi, diktafon so'zi rus tiliga lotin tilidan kirib kelgan bo'lib (lotincha: dicto - "takrorlayman", grekcha: phone - "ovoz") qamroviga ega

bo'lib, og'zaki nutqni magnit lentalariga yozish va qayta ijro etish uchun mo'ljallangan apparatni bildiradi. "Diktofon"ga oid har qanday narsalar "diktofoniya" deb ataladi [7].

c) Isitish va sovutish jihozlari. Ushbu guruhdagi jihozlarni isitish, sovutish va havo sifati toifalariga guruhlash mumkin:

- Isitish moslamalariga quyidagi o'zlashma leksemani kiritamiz moy bilan to'ldirilgan radiator. Bu so'z o'zbek tiliga rus tilidan o'zlashgan so'z hisoblanadi-da, asli rus tiliga ham bu leksema lotin tilidan kirib kelgan. So'zning lotincha ildizi "radio" (nurlanaman, nur tarqataman) bo'lib, rus tilida "radiator" shaklida o'zlashtirilgan [8].

- Havoni sovutish moslamalariga esa konditsionerlar: markaziy konditsioner, deraza konditsioneri, portativ konditsioner va boshqalar. Bu maishiy texnika nomi lotincha so'z hisoblanadi va nemis tili orqali rus tiliga o'tgan ma'nosi esa havo haroratini va namligini boshqarish uchun mo'ljallangan qurilma. O'zbek tiliga konditsioner so'zi rus tilidan o'zlashgan so'z hisoblanadi.

Ventilyator so'zi o'zbek tilining izohli lug'atida berilishiga ko'ra lotin tilidan o'zlashgan leksema hisoblanib, bu so'zga quyidagicha izoh berilgan (lot. ventilator - yelpig'ich; sovutuvchi, shamollatuvchi) yopiq binodagi havoni yangilaydigan, havoni tozalab turadigan, mashina qismlarini sovitatadigan shamolparrakli mexanizm [1]. Elektr ventilyator va quti ventilyator kabi turlarini ham ushbu tematik guruhga kiritishimiz mumkin. Ushbu maishiy texnika nomini o'zbek tiliga tarjima qilingan "Musaffo osmon" qissasida ham uchratishimiz mumkin. "Bu huvillagan xonada faqat bir stol bilan to'rtta stul, yana burchakda Elzaning g'aribgina yuki turardi. Shiftga o'rnatilgan kattakon ventilyator erinibgina aylanardi"[9].

Havo sifati asboblari: ionizator, portativ namlagich kabi asboblarni o'z ichiga oladi.

d) Shaxsiy parvarishlash asboblari. Bugungi kunda, eng katta maishiy texnika asboblari bo'lgan talab ham aynan shu guruhga kiruvchi dazmol, fen, piling cho'tkasi va boshqa shu kabi asboblarni o'z ichiga oladi. Ularning ayrimlari allaqachon o'zbek tiliga o'zlashtirib ulguragan. Masalan, Dazmol (forscha - darz, teshik-tirqish, chokni tekislovchi) kiyim-kechak, gazlama va sh.k.ni qizdirib tekislash, silliqlash, g'ijimni yozish uchun mo'ljallangan asbob [2].

Fen so'zi lotin tilidagi "vannus" yelpichin, shamol so'zidan olingan bo'lsa-da o'zbek tiliga ingliz tilidagi "fan" so'zi orqali kirib kelgan. Bu leksema XIV asrda havoni agitatsiya qiluvchi (harakatga keltiruvchi) asbob ma'nosida qo'llanila boshlangan [10].

Keyingi shaxsiy parvarishlash asboblari kiruvchi asboblari terini parvarish qilish uchun mo'ljallangan texnik vositalardir. Bu turga terini parvarish qilish uchun asboblari: piling cho'tkasi rus tili orqali o'zlashgan so'z rus tiliga esa ingliz tili orqali kirib kelgan peeling < to peel - teri ustidagi qatlamlarni qirish yoki olib tashlash jarayoni. Kosmetologiyada: yuz terisidagi chuqur ajinlarni yo'qotish uchun yuqori qatlamlarni olib tashlash [7]. Ushbu piling turlari haqida ilmiy maqola ham chop etilgan bo'lib, unda piling turlari va foydalari haqida ma'lumotlar berib o'tilgan, jumladan, o'rta kimyoviy piling 20% dan 50% gacha konsentratsiyada trixlorosirka kislotasi (TCA) yordamida amalga oshiriladi. Ushbu piling terini yoshartirish, intensivlikni kamaytirish yoki pigmentatsiyadan xalos bo'lish (yoshga bog'liq, yallig'lanishdan keyin, quyosh nurlanishi), chandiqlar va izlarni silliqlash, mayda ajinlardan xalos bo'lish uchun ishlatiladi [11].

**Xulosa va takliflar.** Maishiy texnika nomlarining tematik guruhlanishi nafaqat ushbu qurilmalarni funktsionalligiga qarab tartibga solishga yordam beradi, balki ularning hayotimizdagi rolini tushunishimizga yordam beradi. Bu asboblari asosan rivojlangan mamalakatlar texnika taraqqiy etgan millat vakillari tomonidan ishlab chiqarilayotgani bois bu texnika asboblarni ishlatish va foydalanish yo'riqnomalarini o'z tilimizga tarjima qilib, o'quvchilarga sodda va aniq tilda yetkazib berish uchun tarjimonlar bu sohani chuqur o'rganishi talab etiladi. Bu maishiy texnika nomlarini qaysi tildan o'zlashgan ekanligini va etimologiyasini bilish va o'sha tilni mukammal o'rganish bu texnikalarning yo'riqnomalarini to'g'ri tarjima qilishga va tarjima jarayonidagi ayrim kamchiliklarni bartaraf etishga yordam beradi.

## ADABIYOTLAR

1. Mengliyev B. Hozirgi o'zbek tili (kirish, fonetik sath, leksik-semantik sath) / darslik. – Toshkent: “Excellent Polygraphy”, 2020. – 117b.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati (O'TIL). 1-5 jildlar. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.
3. <https://kun.uz/kr/02457237?q=%2Fuz%2F02457237>
4. <https://uzbekleasing.uz/uz/about/equipment/special/5462/>
5. Худайкулов, А.Э. (2011). Семантическая адаптация некоторых английских заимствованных слов в русских письменных памятниках XVII-XIX веков. Вестник Челябинского государственного университета, (28), 134-137.
6. <https://etymonline.com>
7. Крысин Л.П. Толковый словарь иноязычных слов. – М.: Эксмо, 2006. – 964 с.
8. <https://uz.m.wiktionary.org>
9. Krishan Chandar “Musaffo Osmon” qissa, “Jahon adabiyoti” jurnali. 2008.
10. Onions C.T. THE OXFORD DICTIONARY OF ENGLISH ETYMOLOGY (1966), Oxford University Press, 2021.
11. Islombekova, Sh.D. (2023). Kimyoviy pilinglar. Research Focus International Scientific Journal, Uzbekistan. 8-11.



*Hosiyat XUJANAZAROVA,*  
*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tayanch doktranti*  
*E-mail: khujanazarovak@gmail.com.*

*TerDPI, "Ingliz tili" kafedrasini mudiri, PhD N.Madalov taqrizi asosida*

## LINGUOCULTURAL FEATURES OF RELIGIOUS-RELATED ENANTIOSEMY (ON THE EXAMPLE OF ENGLISH AND UZBEK)

Annotation

This article examines whether religious notions contribute to the emergence of enantiosemy from a linguocultural perspective, focusing on English and Uzbek. Through the investigation of findings in English and Uzbek, it can be stated that language is deeply influenced by religion, which shapes vocabulary, syntax, pronunciation, and even results in the emergence of distinct language varieties. Religious concepts and terminology frequently develop contradictory meanings due to cultural transformations, diverse perspectives, and historical changes. Through an analysis of several examples in both languages, we try to illustrate how religious-related topics of enantiosemy manifests.

**Key words:** Contradiction, linguocultural perspective, religious-relatedness, enantiosemy, comparative analysis.

## ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ РЕЛИГИОЗНОЙ ЭНАНТИОСЕМИИ (НА ПРИМЕРЕ АНГЛИЙСКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ)

Аннотация

В данной статье рассматривается на примере английского и узбекского языков рассматривается вопрос о том, способствуют ли религиозные представления возникновению энантиосемии с лингвокультурной точки зрения. Исследуя результаты, полученные в английском и узбекском языках, можно утверждать, что язык находится под глубоким влиянием религии, которая формирует лексику, синтаксис, произношение и даже приводит к возникновению отдельных языковых разновидностей. Религиозные понятия и терминология часто приобретают противоречивые значения в связи с культурными трансформациями, различными взглядами и историческими изменениями. На примере нескольких примеров из обоих языков мы попытаемся проиллюстрировать, как проявляется энантиосемия в религиозной тематике.

**Ключевые слова:** Противоречие, лингвокультурный аспект, религиозная обусловленность, энантиосемия, сравнительный анализ.

## DINIY MAVZUGA OID ENANTIOSEMIYALARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA)

Аннотация

Ushbu maqolada diniy tushunchalarning lingvomadaniy nuqtai nazardan enantiosemiya paydo bo'lishiga qo'shgan hissasini o'rganildi va asosiy e'tiborni ingliz hamda o'zbek tillariga qaratiladi. Ingliz va o'zbek tillaridagi misollarni o'rganish orqali shu narsa ayon bo'ladiki, din ham tilga chuqur ta'sir ko'rsatib, lug'at boyligini, sintaksisini, talaffuzni shakllantiribgina qolmay, balki o'ziga xos til ko'rinishlarining vujudga kelishiga ham sabab bo'lishi mumkin. Diniy tushunchalar va atamalar ko'pincha madaniy o'zgarishlar, turli xil dunyoqarashlar va tarixiy jarayonlar tufayli qarama-qarshi ma'nolarni kasb etadi. Har ikki tildagi bir qator misollarni tahlil qilish orqali diniy mavzuga oid enantiosemiylarning qanday namoyon bo'lishini yoritishga harakat qilamiz.

**Kalit so'zlar:** Ziddiyat, lingvomadaniy yondashuv, diniy bog'liqlik, enantiosemiya, qiyosiy tahlil.

**Introduction.** The development of new trends in linguistics requires that many traditional notions and assumptions, should be revised and reconsidered in a new light. In this respect special attention is attached to the problem of contradictions, namely, the phenomenon of enantiosemy. Traditionally, enantiosemy has been studied from the different point of view according to their structural and semantic organization. Different approaches were singled out regarding the linguistic status of enantiosemy. According to some linguists (A.N. Novikov; V.N. Prokhorova, V.V. Vinogradov; Y.V. Terentyeva; N.M. Shanski) enantiosemy is considered to be a case of homonymy and the latter is first and foremost accounted for by the fact that polar meanings of enantiosemic words are identical in sound form and spelling by virtue of convergent evolution of words. Meanwhile, some linguists (F.S. Batsevich; L.Ye. Bessonova; N.K. Salikhova; O.I. Smirnova, V.Yu. Kravtsova; A. Klegr; A.D. Shmelev) regard enantiosemy as a case of polysemy in which one sense is in some respect the opposite of another. The phenomenon was first described in 1883 by Professor Scherzl V. I., who introduced the term "enantiosemy". This concept was later explored in the works of Novikov L.A., Panova M.V., and Khodakova Y.P. In our country, research on this topic was conducted by Odilov Y.R. and Salikhova N.K. Today, enantiosemy is a widely recognized

linguistic phenomenon observed in many languages, characterized by ambiguity in speech interpretation.

**Literature Review.** This phenomenon, first identified in 1883 by professor Scherzl V. I., has been further investigated by numerous researchers, revealing its prevalence across various languages and its significant impact on speech interpretation. The evolving landscape of linguistics necessitates a continuous re-evaluation of established concepts, with particular emphasis on linguistic contradictions such as enantiosemy, which has traditionally been examined through structural and semantic frameworks. Enantiosemy, the phenomenon where a single word carries contradictory meanings, has been categorized by some linguists as a form of antonymy and special type of polysemy due to the opposition of polar meanings that arise from convergent evolution (R.A.Budagov, 1953; A.D.Shmelev, 1977; L.A.Novikov,2001) [1]. Conversely, other scholars consider enantiosemy as a form of homonymy according to the identical spelling and polar meanings in the word stem (N.M.Shanskiy, 1975; V.A.Ivanova, 1982) [2]. Moreover, some scholars view enantiosemy as a type of polysemy in recent years, where one sense stands in opposition to another, highlighting the inherent ambiguity and complexity within language (Ales Klegr, 2013[3]; Y.V.Romanchuk, 2020[4]; Y.R. Odilov,2015; and others).

**Research methodology.** This study undertakes a comparative analysis of religious-related enantiosemes in English and Uzbek languages to reveal the intricate interplay between language, culture, and religious beliefs. The research employs a mixed-methods approach, integrating both qualitative and quantitative techniques to provide a comprehensive understanding of the phenomenon. The study will begin with a detailed examination of existing literature on enantiosemes, and cross-cultural semantics, providing a theoretical framework for the subsequent empirical analysis. Qualitative data will be gathered through a meticulous review of religious texts, dictionaries, and linguistic corpora in both English and Uzbek, focusing on identifying instances of enantiosemes in religious terms, further exploring the historical evolution of these terms and their diverse interpretations across different religious and cultural contexts. The analysis will particularly emphasize the semantic shifts and cultural factors that have contributed to the development of contradictory meanings within single lexical items related to religion.

**Analysis and results.** Religion profoundly influences language use in various ways, shaping vocabulary, syntax, pronunciation, and even the development of distinct language varieties. Many religious terms have developed contradictory meanings due to cultural shifts, different perspectives, and historical changes. Therefore, we are interested in either the impact of religious notion on enantiosemes exists or not. Here are some familiar examples in English and Uzbek languages which we analyze from linguocultural outlook:

English language:

“Bible-Basher” — A dysphemism for evangelical Christians who believe in

the inerrancy of the Bible, particularly those from Baptist, Methodist and Pentecostal denominations. It is also a slang term for an evangelising Christian. Commonly used universally against Christians who are perceived to go out of their way to energetically preach their faith to others [5].

“That pastor is a real Bible-basher—he quotes scripture all the time!”

“The comedian was called a Bible-basher for mocking religion.”

Meaning A: A passionate Christian who frequently preaches.

Meaning B: A person who criticizes or attacks Christianity.

“Rice Christian”— Someone who has formally declared themselves

a Christian for material benefits rather than for religious reasons. However, in India, the term has been extended to refer to any Christian convert [6].

“He’s just a Rice Christian—he only converted for free food.”

“Missionaries provided food, and many became Rice Christians to survive.”

Meaning A: a fake Christian who converts only for material gain (not true faith).

Meaning B: the people who convert Christianity because of necessity. e.g., extreme poverty. (true faith). Both meanings suggest conversion for material reasons and do not have direct opposition to each other. But this phrase has opposing connotations based on interpretation. As the moral conclusion shows two contradictory meanings, we can consider “Rice Christian” as asymmetrical enantiosemes.

“Sanction” — a threatened penalty for disobeying a law or rule; official

permission or approval for an action.

“The church sanctioned the new religious practice.”

“The government sanctioned the church for violating laws.”

Meaning A: To officially allow or bless something. (Approval)

Meaning B: To restrict or penalize. (Punishment)

“Blessed”— made holy, consecrated; used in mild expressions

of annoyance or exasperation (informal)

“She is blessed with good health.” — (Fortunate and Holy)

“Throw that blessed vase away!” — (Cursed/Ironic Use)

“God-Awful”— God awful originally meant “filled with awe for God”. Now

it is used to mean only something horrible or terrible, and sometimes it’s used humorously [7].

“The storm was God-awful, like divine wrath.” — (So powerful it’s divine)

“Some traditions get old. Like that god-awful thing you used to make do on your birthday.” — (Extremely bad)

Uzbek language:

“Avliyo” — a saint, and a wise person who can prophesy; a highly appreciated and perceptive person (ironical used for a stubborn person who does not care about other’s wish)

“Kitob tumanidagi Niyoztepa tepaligida avliyo va donishmand Hazrati Bashirning qabri joylashgan” [8]. (The grave of the saint and sage Hazrati Bashir is located on the Niyoztepa hill in the Kitob district).

“Nima, zvezno bo’lib avliyo bo’ptimi?”. (Sh.Rashidov. “Bo’rondan kuchli”). (What, He is a saint after advancing his position?).

Meaning A: A Saint, holy, sacred, or revered person closes to Allah.

Meaning B: sarcasm for an arrogant person.

“Kinna (solmoq, kirmoq)” — According to a superstitious belief, an illness

or pain that supposedly “enters” due to an envious or intense gaze, torturing hurt; to cure a disease by reciting spells, stroking, or massaging.

“Ko’zga yaqinman-da. Darrov kinna kiradi, jigar.”(U.Ismoilov. “Saylanma”) (I am sensitive to the evil eye. I easily get affected, my dear).

“Unsin kelgandan buyon, kasallarga kinna solish, tuqqan xotinlarga doya bo’lish uchun kampir bemalolroq yura boshladi”. (Oybek. “Qutlug’ qon”) (Since Unsin arrived, the grandma has been able to visit more freely to perform healing rituals for the sick and assist women in childbirth as a midwife).

Meaning A: To become ill regularly because of evil things.

Meaning B: To treat and heal people.

“Ma’raka” — A party or the collective assemblies organized in connection

with mourning or wedding ceremonies.

“Sobir Odil buvaning ma’rakalariga o’zi bosh bo’ldi.”(Rahmat Fayziy. “Cho’lga bahor keldi”). (Sobir took charge of Odil buva’s memorial gatherings himself).

“Shu-shu bo’ldi-yu, Norbuvining martabasi oshib, har bir ma’raka uning maslahatisiz bo’lmaydigan bo’lib qoldi.” (From that moment on, Norbuvi’s status rose and, every gathering could not take place without her advice) [9].

Meaning A: Gatherings related to mourning

Meaning B: Gatherings related to wedding or meeting organized on the eve of some tradition.

“Oqlik” — A white or light-colored fabric, scarf, or clothing given to

matchmakers as a sign of consent for a wedding; Shroud, burial cloth.

“Qo’ynidagi bir kiyim chitni Surxonboyning oldiga qo’ydi-da, gap boshladi: — Mana bu xamir uchidan patir, hojim. Oqliq. Quda bo’lmoqchimiz.” (I.Rahim. “Taqqir”). (He placed a piece of calico fabric in front of Surkhanboy and began to speak: —This is a small token, hojim. Oqliq. We wish to become in-laws).

“Abdurahmon-boy Olimjonni boyligiga sohib qilib, o’zi ikki gazlikkina oqlikka ega bo’lib, hovli-joylarini tashlab, bir bo’ygina chuqurgacha kirib, bedomu darak ketdi.” (Hamza, “Tanlangan asarlar”). (Abdurahmonboy left all his wealth to Olimjon, while he himself ended up with nothing but a two-meter shroud, abandoning his home and property, and disappeared into a lonely grave).

Meaning A: A sign of wedding

Meaning B: Shroud

“Oq kiyimoq” — To wear mourning attire; in some places, conversely, to

replace black clothing with white after the mourning period ends, to discard mourning attire.

“Ro‘zimurodning onasi aza ochdi. Qarindoshlar oq kiyib, ovoz chiqardilar.” (Sh.Ashurova. “Yanga”). (Ruzimurod’s mother began mourning. Relatives wore white and wailed).

“Kampir bolasiga aza ocholmay na oq kiyishini, na qora kiyishini biladi.” (Said Ahmad. “Jimjitlik”) (The old woman cannot properly know her child’s death: she does not either to wear black or white).

Meaning A: To wear mourning attire;

Meaning B: To discard mourning attire;

“Qori” — A person who has memorized the Quran, recites it with proper intonation, and is able to see; A blind person: used as a respectful form of address.

“Nosir qori chor-atrofdagi qishloqlarda har marosimga bosh-qosh, soch-soqoliga oq oralagan arzanda qariya bo‘lib qoldi.”(Abdulhamid Ismoil. “Ankabut”). (Nosir qori has become revered elder with gray beard and hair leading every ceremony in the surrounding villages).

“Tayoq yo‘l ko‘rsatar a‘mo qoriga. Ul ham ko‘ngan qismatida boriga.” (“Erali va Sherali”) [10]. (The stick guides the blind on his path. He is also accepted his fate as it is).

Meaning A: A revered elder person (who is able to see);

Meaning B: A blind person;

**Conclusion.** In both English and Uzbek, religious terms often acquire contradictory meanings due to cultural evolution, differing perspectives, and historical shifts. However, we can highlight some key similarities and differences between these languages in the following table.

Similarities and Differences between English and Uzbek religious-related enantiosemym

№	Aspect	Similarities English & Uzbek	English (Differences)	Uzbek (Differences)
1	Cultural & Historical Influence	Both languages develop religious enantiosemym due to historical shifts, societal changes, and evolving religious perspectives.	Influenced by Christian and secular traditions, leading to shifts in meaning over time.	Deeply rooted in Islamic customs and folklore, preserving traditional associations.
2	Linguistic Origins	Enantiosemym in both languages adapts to new contexts over time.	Contradictory meanings arise from etymological layering and language evolution (e.g., “sanction” meaning both penalty and approval).	Emerges from cultural traditions and symbolic meanings rather than linguistic shifts (e.g., “ma‘raka” for both mourning and weddings).
3	Nature of Contradictions	Context determines whether a word carries opposite meanings.	Contradictions are often explicit, with direct semantic opposition (e.g., “cleave” meaning both to split and to cling).	Contradictions are more implicit, relying on cultural interpretation rather than direct opposition.
	Religious & Social Influence	Both languages incorporate religious and societal influences into vocabulary.	Meaning shifts are often driven by modern socio-religious discourse (e.g., “God-awful” evolving from reverence to negativity).	Enantiosemym is deeply tied to Islamic traditions, folklore, and everyday expressions.

This contrast highlights how language evolves in response to historical and societal changes, with English focusing

on semantic shifts and Uzbek maintaining deeper ties to traditional meanings.

## REFERENCES

1. Odilov Y.R. O'zbek tilida leksik va frazeologik enantiosemya//Monografiya.: Tafakkur. —T.,2015.
2. Odilov Y. R. Enantiosemym in Uzbek Language, available at: <http://scientificjournal.ru/images/PDF/2017/VNO-34/enantiosemya.pdf>
3. Klegr A. The Limits of Polysemy: Enantiosemym, LINGUISTICA PRAGENSIA 2/2013 7-23.pdf
4. Романчук Ю.В. Enantiosemym in the English Language. RUSSIAN LINGUISTIC BULLETIN 3 (23) 2020.
5. [https://en.wikipedia.org/wiki/List\\_of\\_religious\\_slurs#cite\\_ref-Oxford-University-Press-US-2009\\_1](https://en.wikipedia.org/wiki/List_of_religious_slurs#cite_ref-Oxford-University-Press-US-2009_1)
6. [https://en.wikipedia.org/wiki/Rice\\_Christian](https://en.wikipedia.org/wiki/Rice_Christian)
7. <https://www.quora.com/What-exactly-is-the-meaning-reason-for-the-phrase-God-awful>
8. <https://meros.uz/object/hazrati-bashir-ziyoratgohi>
9. <https://uz.wiktionary.org/wiki/ma'raka>
10. [https://n.ziyouz.com/kutubxona/category/38-o'zbek\\_xalq\\_og'zaki\\_ijodi](https://n.ziyouz.com/kutubxona/category/38-o'zbek_xalq_og'zaki_ijodi)
11. Badiiy adabiyotlar:
12. Hamza. Tanlangan asarlar.: O‘zbekiston davlat badiiy adabiyoti, —T.,2012.
13. Ismoilov U. Saylanma.: Cho‘lpon, —T.,2003.
14. Ibrohim Rahim. Taqdir.: Cho‘lpon, —T.,2001.
15. Oybek. Qutlug‘ qon.: Yangi Poligraph Servis, —T.,2019.
16. Rashidov Sh. Asarlar 5 jildlik. 2-jild. Bo‘rondan kuchli.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, —T.,1981.
17. Rahmat Fayziy. Cho‘lga bahor keldi.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, —T.,1979.
18. Said Ahmad. Jimjitlik.: O‘zbekiston, —T.,2008.



УДК: 803.0318

Гулистон ШАМУРАТОВА,

Международная школа финансовых технологий и науки Института Преподаватель филологии

E-mail: [guliston.shamuratova@bk.ru](mailto:guliston.shamuratova@bk.ru)

На основе отзыва рецензента Ч. Абдуллаевой, доктора филологических наук

### XX ASR NEMIS ADABIYOTIDA G.BYOLL ASARLARIDA AYOLLAR OBRAZI

Аннотация

Mazkur maqola XX asr nemis adabiyotida ayol obrazi tahliliga bag'ishlangan bo'lib, mavzu Nobel mukofoti laureati Genrix Byoll ijodi orqali ochib berilgan. Tadqiqot uchun muallifning ikki asari "Xonim bilan guruh portreti" novellasida va "Masxaraboz nigohida" romani qahramonlari tanlangan.

**Kalit so'zlar:** Nemis adabiyoti, Genrix Byoll, XX asr jahon adabiyoti, proza, ayol obrazi, davr qahramoni.

### ОБРАЗ ЖЕНЩИНЫ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ Г.БЁЛЛЯ В НЕМЕЦКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ XX ВЕКА

Аннотация

Данная статья посвящена анализу образа женщины в немецкой литературе двадцатого века на примере произведений нобелевского лауреата Генриха Бёлля. Для исследования были выбраны персонажи двух произведений автора - новеллы "Групповой портрет с дамой" и романа "Глазами клоуна".

**Ключевые слова:** Немецкая литература, Генрих Бёлль, мировая литература XX века, проза, женский образ, герой современности.

### THE IMAGE OF WOMEN IN THE WORKS OF G.BYOLL IN THE GERMAN LITERATURE OF THE 20TH CENTURY

Annotation

This article is devoted to the analysis of the image of a woman in German literature of the twentieth century, through the works of the Nobel laureate Heinrich Böll. For the study, the characters of two novels of the author were selected - the short story "A Group Portrait with a Lady" and the novel "Through the Eyes of a Clown".

**Key words:** German literature, Heinrich Böll, world literature of the twentieth century, prose, female image, modern hero.

**Введение.** Не будет преувеличением сказать, что мировая литература XX века была в основном сосредоточена на раскрытии двух важнейших событий в международных отношениях — двух мировых войн и их последствий. В творческих кругах Германии, которая была одним из главных участников мировых войн, многие мастера прозы и поэзии пытались в своих произведениях подчеркнуть негативные последствия войны и ее разрушительное воздействие на человеческие судьбы, усиление недоверия и взаимной подозрительности в обществе, высокий уровень враждебности, увеличение числа невинных грешников. Именно художник Генрих Бёлль искусно использовал женские образы для высмеивания человеческой жизни во время войны и после нее. Наследие Дж. Белла огромно. Он писал романы, рассказы, пьесы, радиопостановки, сатиры, поэмы, занимался переводами, работал публицистом, литературным критиком и комментатором. Но именно романы принесли ему всемирную известность, определили его особое место среди величайших писателей XX века, и именно в них его писательский талант проявился с наибольшей силой. Г. Бёлль считал своим долгом высказаться о несправедливой войне, подробно и точно рассказать о пережитых им событиях. Обращаясь к теме войны, писатель не только описывал смерть и разрушения, бессмысленность разрушений и убийств, но и обращался к проблеме ответственности за трагедию военного прошлого, осознания вины и возможности искупления.

Here is the Russian translation of the text: Один из крупных представителей немецкой литературы XX века, лауреат Нобелевской премии по литературе (1972 год) Г. Бёлль (1917-1985) в своих произведениях исследует вопросы, связанные с женскими образами: их особенности, различия и сходства, сравнительный анализ, типология женского образа современности и их пересечение в произведениях одного автора, а также экзистенциальная трансформация женской личности. Эти вопросы до сих пор остаются малоизученными не только в национальных научных кругах, но и в

международной романистике и литературоведении. В существующих зарубежных исследованиях женские образы часто рассматриваются с общей точки зрения, однако вопрос женских образов как отдельной, специализированной и целостной исследовательской темы был поднят лишь в редких случаях. Таким образом, основная цель данной статьи заключается в анализе концепта «загадочной женщины» в произведениях Г. Бёлля и раскрытии образа женщины нового времени через концепт «загадочной женщины». В 1946 году писатель завершил написание своего второго романа «Судьба без любви», который он отправил на специальный конкурс.

В это время также начинают выходить его первые рассказы в журналах. Эти произведения можно отнести к течению «литература послевоенного времени» и «литература о войне, упадке и возвращении на Родину». Роман «Групповой портрет с дамой» был опубликован через год после присуждения Бёллю Нобелевской премии в 1972 году. В это время он также вмешивается в внутренний политический конфликт, критикуя действия террористки Ульрики Майнхоф в своей статье для журнала «Шпигель» под названием «Как возникает насилие и к чему оно может привести?» и жестко критикует журнал «Шпрингер». Бёлль также поддерживает массовые мирные движения, направленные против гонки вооружений НАТО.

**Анализ и результаты.** Стоит отметить, что почти все женские образы в произведениях Бёлля - это женщины его времени. Они являются героями, пытающимися найти свое место в жизни в условиях тяжелейших социально-политических и экономических кризисов. Эти произведения можно отнести к течению «литература послевоенного времени» и «литература о войне, упадке и возвращении на родину». В них центральное место занимают проблемы послевоенной жизни в Германии, уроки войны и проблемы социального развития в будущем. Война и ее последствия являются основными испытаниями для всех героев Бёлля, включая женские образы. Концепция героя времени в произведениях Бёлля служит для того, чтобы раскрыть

индивидуальное воздействие универсального явления (войны) на судьбы людей. Читая произведения Г. Бёлля, мы постепенно проникаем в мир внутреннего состояния героев, с каждым предложением писатель мастерски выбирает слова и строит такие яркие и четкие фразы, что каждый внутренний порыв, чувство и боль персонажей переходят к нам. Благодаря искусному использованию слов, он умело поднимает самые актуальные, вечные темы, ценности и проблемы, привлекая внимание общественности именно к этим вопросам. В последние годы Бёлль больше занят политическими проблемами своей родной Польши и бывших республик СССР, активно участвует в критических дебатах. Например, он участвует в решении внутренних проблем с делегацией женщин Боливии.

Образ женского персонажа в произведениях Бёлля можно разделить на следующие группы: загадочная женщина, вдохновительница и коварная женщина, жертва послевоенного времени и женщина-мать. Концепт «загадочной женщины» является одной из центральных тем в большинстве его произведений. Писатель особенно использует концепт загадочной женщины в своих двух известных произведениях — «Групповой портрет с дамой» и «Глазами клоуна». Первое произведение начинается с событий накануне Второй мировой войны и заканчивается в середине 1970-х годов. В центре произведения — разбитые судьбы людей. Все персонажи романа — это люди, протестующие против несправедливости и лжи. Главная героиня романа, казалось бы, простая и обаятельная 48-летняя немецкая женщина Лени Файфер. Она вдова, ее единственный сын, 25-летний мальчик, находится в тюрьме. Роман повествует о третьем лице, и через каждую страницу мы видим, как гармонично сочетаются прошлое и настоящее Лени. Автор называет Лени «странной женщиной» и собирает информацию о ней через ее близких, друзей и врагов.

**Методология исследования.** В процессе повествования мы видим, что Лени является загадочной женщиной, она сама часто не понимает себя. Ее внутренний мир полон противоречий, и она не готова примириться с реальностью послевоенной Германии и после войны. Ее вся жизнь, особенно любовь к русскому офицеру и военнопленному Борису Котловскому, является своего рода протестом против окружающей ее жестокой реальности. Однако ее внутренний мир полон противоречий, и неспособность достичь гармонии превращает Лени в женщину, которая с каждым годом становится более замкнутой, молчаливой и непонятной как для окружающих, так и для самой себя. Лени — это героиня, которая боролась против нацистского преследования, женщина-герой, но одновременно она также интроверт, недоверяющая окружающим, и в некоторые моменты не доверяющая даже себе, настоящая загадочная женщина. В конце романа автор оставляет Лени с ее загадочностью, не давая окончательной точки развития событий.

Образ Марии в романе «Глазами клоуна» является, возможно, отражением экзистенциальных взглядов писателя. Ее загадочность, как и у Лени, проявляется в том, что она не является рассказчиком в романе и даже не главным героем. Мария — это возлюбленная знаменитого шута Ганса Шнира, который путешествует по всей Европе. Однако в начале романа Мария покидает Ганса, что становится поворотным моментом в ее жизни. Как и в «Групповом портрете с дамой», о Марии мы узнаем не от нее самой, а через рассказ Ганса Шнира. А ее внутренние переживания, отношение к событиям остаются темными для читателя. На первый взгляд, Мария представляется холодной и расчетливой женщиной, которая никогда не любила Ганса. Особенно, когда Мария выходит замуж за знакомого Ганса — Сюдфнера, она выглядит как предательница. Однако мастерство Бёлля заключается в том, что через Ганса мы начинаем понимать, что, возможно, Мария была неплохим человеком, и его чувства к ней были скорее искренними. Во второй половине произведения Мария начинает восприниматься в более положительном свете. Ганс начинает вспоминать о ее доброте и заботливости, надеясь, что она снова примет его, и начинает осознавать свою беспомощность перед ней.

Рассудительная и холодная Мария в глазах читателя начинает утрачивать свою твердость. Мария — это женщина своего времени, которая, несмотря на неясность будущего, принимает решения. Только после того, как отношения между Шниром и Марией заканчиваются, мы осознаем, что она была для него светом в ужасной реальности жизни. Возможно, Ганс, будучи требовательным и жестоким, не любил Марию, а только позднее понял, что он любил ее, после того как они разошлись. Возможно, многие из утверждений о Марии — это вымысел Шнира, его личные заблуждения или ложные воспоминания. Г. Бёлль оставляет эти вопросы открытыми, а отношение Марии к событиям также остается неясным.

Творчество Г. Бёлля и его женские образы уникальны. Женские образы в его произведениях существенно отличаются от традиционных образов жертв, слабых женщин или коварных «фемм-фаталь», скрывающих свои цели. Женщины Бёлля, на первый взгляд, весьма обычны и жизненны. Они далеки от злых намерений или заговоров. В своих произведениях Бёлль представляет женский образ через два основных подхода:

Через повествование, где Лени и Мария не выражают напрямую свои мысли о жизни. В первом случае загадочность Лени проявляется через внешнюю информацию и ее отличия от других, а Мария раскрывается лишь через точку зрения Ганса Шнира. Также женские персонажи в начале произведений описываются одной характеристикой, а в конце имеют другие черты.

Через неполную объективность информации о героинях. О жизни Лени мы узнаем только через ее друзей или врагов, а образ Марии раскрывается только через рассказ Ганса Шнира. Эти неопределенности открывают загадочность этих персонажей.

## ЛИТЕРАТУРА

1. Bell G. Gruppovoy portret s damoy. AST.- M.: 2011.
2. Бёлль Г. Глазами клоуна. Изд. Азбука классика. - М.: 2012.
3. Ansichten eines Clowns. Roman. Kiepenheuer & Witsch, Köln 1963. Neueste Ausgabe: dtv, München 2009.
4. Gruppenbild mit Dame. Roman. Kiepenheuer & Witsch, Köln 1971.
5. Bell G. Glazami klouna. Izd. Azbuka klassika. - M.: 2012.
6. Кожевников М.В., Авраменко Ю.И. Лирический контекст военных романов Г. Бёлля // жур. Проблемы истории, филологии, культуры. - 2012, №3. С.232-239.
7. Фрадкин И. Генрих Бёлль - писатель, и больше чем писатель // Генрих Бёлль. Собрание сочинений. - М.: «Художественная литература», 1989. - Т. I. - С. 5-28.
8. Остудина Т. А. 1969: О стиле Г. Бёлля // Вестник Ленингр. ун-та: История, язык, литература. 8, 99-108. 5. Рудницкий М. Л. 1980: Генрих Бёлль // История литературы ФРГ / И. М. Фрадкин (ред.). М., 295-325.
9. Кожевников М.В., Авраменко Ю.И. Лирический контекст военных романов Г. Бёлля // жур. Проблемы истории, филологии, культуры. - 2012, №3. С.232-239.



UDK:81-13(81-139)

**Gulshod SHARIPOVA,**

*Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti tayanch doktoranti*

*E-mail: sharipovagulshod123@gmail.com*

*Renessans ta'lim universiteti professori, f.f.d L.Raupova taqrizi asosida*

### IMPORTANCE OF INTERACTIVE METHODS IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES

Annotation

This article talks about the importance of language learning today and the role and importance of advanced technologies and modern methods in teaching foreign languages.

**Key words:** Foreign languages, modern technologies, teaching methods, communicative method, flipped classroom, individual education, TV5 monde, Duolingo.

### ВАЖНОСТЬ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ

Аннотация

В этой статье говорится о важности изучения языка сегодня, а также о роли и значении передовых технологий и современных методов в обучении иностранным языкам.

**Ключевые слова:** Иностранные языки, современные технологии, методы обучения, коммуникативный метод, перевернутый класс, совместное обучение, TV5 monde, Duolingo.

### XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARNING AHAMIYATI

Аннотация

Ushbu maqolada bugungi kunda til o'rganishning naqadar dolzabligi va xorijiy tillarni o'qitishda ilg'or texnologiyalar va zamovaviy metodlarning o'rni va ahamiyati to'g'risida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Xorijiy tillar, zamonaviy texnologiyalar, o'qitish metodlari, kommunikativ metod, flipped classroom, individual ta'lim, TV5 monde, Duolingo.

**Kirish.** Xorijiy tillarni o'qitish ta'limi bugungi kunda jahon miqyosida katta ahamiyatga ega, chunki global munosabatlar va xalqaro hamkorlik kuchaygan sharoitda chet tillarini bilish zaruriyati ortib bormoqda. Ushbu soha doimiy ravishda rivojlanib boradi va yangi metodlar, texnologiyalar va yondashuvlar bilan boyib bormoqda. Buning yorqin misoli sifatida O'zbekiston-Fransiya hamkorligi: yangi imkoniyatlar eshigi ochilganligidir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Fransiya amalga oshirgan rasmiy tashrifi yurtimiz tarixida muhim voqealardan biri bo'ldi. Ushbu tashrif O'zbekiston va Fransiya o'rtasidagi do'stlik aloqalarini yanada mustahkamlashga, madaniy, ilmiy va iqtisodiy hamkorlikni kengaytirishga xizmat qiladi va xorijiy tillarni o'qitish sifatini oshiradi.

Prezidentimizning Parijda yuksak darajadagi uchrashuvlar o'tkazishi, O'zbekiston va Fransiya o'rtasida ilm-fan hamda ta'lim sohasida yangi loyihalarning yo'lga qo'yilishi biz, yosh avlod uchun keng imkoniyatlar eshigini ochadi. Ayniqsa, Fransiya universitetlari va ilmiy markazlari bilan hamkorlik loyihalari kelajakda bilim va malaka oshirishda muhim rol o'ynaydi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Xorijiy tillarni o'qitish ta'limi (xorijiy tillarni o'qitish metodikasi) - bu chet tillarini o'qitishning nazariyasi va amaliyoti bilan shug'ullanadigan pedagogik fan. Ushbu fan orqali o'qituvchilar chet tillarini samarali o'qitishning eng yaxshi usullari, metodlari va texnologiyalari bilan tanishadilar. Shu o'rinda, chet til o'qitish metodikasi, prof. Mixail Vasilyevich Lyaxovitskiy ta'riflashicha, ta'limning maqsadlari, mazmuni, vositalari, shuningdek, chet til yordamida ta'lim-tarbiya berish usullarini tadqiq etuvchi fan deya ta'rif bergan. Xorijiy tillarni o'qitish ta'limi quyidagi asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

1. Nazariy asoslar: Xorijiy tillarni o'qitishning pedagogik, psixologik va lingvistik asoslari. Bu soha tillarni o'rganish jarayonini tushunish va uni qanday qilib samarali tashkil etish kerakligi haqida bilim beradi.

2. O'qitish metodlari: Turli metodlarni qo'llash orqali o'quvchilarga chet tilni o'rgatish. Masalan, kommunikativ metod, grammatik-tarjima usuli, audio-lingval metod va boshqalar

3. Didaktik materiallar: Darsliklar, qo'llanmalar, audio va video materiallar, interaktiv dasturlar kabi resurslardan foydalanish.

4. Zamonaviy texnologiyalar: Xorijiy tillarni o'qitishda zamonaviy texnologiyalardan (masalan, kompyuter dasturlari, onlayn platformalar, mobil ilovalar) foydalanish juda ommalashib bormoqda. Haqiqatdan ham, uning ko'plab afzalliklari bor. Masalan, talabalar tilni o'z vaqtlariga qarab va istalagan joyda o'rganishlari mumkin, ortiqcha sarmoya talab qilmaydi, ko'p bepul yoki arzonroq dasturlar mavjud. Bularga misol tariqasida: "Apprendre le français avec TV5 monde", "Radio France", "NRG.fr", "Duolingo", "Tandem", "Babbel", "Memrise", "Ibrat farzandlari" kabi ilovalar orqali til o'rganishni qiziqarli va interfaol qilish mumkin. Sun'iy intellekt (AI): Chatbotlar yordamida til o'rganish, masalan, ChatGPT yoki til o'rganish uchun mo'ljallangan AI yordamchilari ham til o'rganuvchilar uchun katta imkoniyatlar ochmoqda.

5. O'quvchilarning individual xususiyatlari: Har bir o'quvchining o'rganish uslubi, qobiliyatlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda individual yondashuvni qo'llash. Individual ta'lim trayektoriyalariga asoslangan, talabalarda kreativ fikrlash, amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan o'quv rejalar ishlab chiqish orqali talabalar qiziqishlari hamda kadrlar buyurtmachilari ehtiyojlariga muvofiq ta'lim dasturlarini shakllantirish nazarda tutiladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Xorijiy tillarni o'qitishda zamonaviy metodlar talabalarning qiziqishini uyg'otish, o'qitish jarayonini samarali va qiziqarli qilish, shuningdek, til o'rganish jarayonini tezlashtirish maqsadida qo'llaniladi. Ulardan biri-kommunikativ metod (méthode communicative) — bu xorijiy tillarni o'qitishda eng keng qo'llaniladigan zamonaviy usullardan biri. Ushbu metodning asosiy maqsadi talabalarni real hayotda tilni samarali va moslashuvchan qo'llashga tayyorlashdir. Ushbu metod XX asrning 70-yillarida Angliyada vujudga keldi va til o'qitish tizimiga o'ziga xos yangilik bo'lib kirib keldi. Bunga sabab, endi o'quvchilar til o'rganish jarayonida nafaqat grammatika, balki so'zlashuv imkoniyatiga ega bo'lishadi va bu metod bir tilda o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini



rivojlantirishga qaratilgan . Kommunikativ metodning asosiy xususiyatlari:

1. Muloqotga yo'naltirilganlik. Darslar davomida talabalar bir-birlari bilan muloqot qilish, fikr almashish va munozaralarda qatnashish orqali tilni o'rganadilar. Grammatika va lug'at bilimlari muloqot jarayonida o'z-o'zidan o'zlashtiriladi.

2. Real hayotiy vaziyatlar .Muloqot davomida talabalar real hayotda duch keladigan vaziyatlarni (masalan, ko'chada tanishini uchratib qolishi, magazinda savdo qilish, restoranda buyurtma berish, sayohat qilish, ish suhbatida qatnashish) o'rganadilar. Rolli o'yinlar ( jeu de rôle) va simulatsiyalar keng qo'llaniladi. Bu metod orqali talabalar tilni amaliyotda qo'llashni o'rganadilar.

Un Français en voyage au Canada entre dans un café et, voulant être poli, il dit au serveur :

— Bonjour ! Je voudrais un café, s'il vous plaît.

Le serveur, un peu surpris, lui répond avec un grand sourire :

— Ben là, t'sais, tu l'as déjà, ton café !

Le Français regarde autour de lui, confus :

— Euh... Non, je ne l'ai pas encore...

Le serveur éclate de rire et lui explique :

— Ahhh, ici, "je voudrais" ça fait un peu comme si t'avais déjà ton café et que tu voulais autre chose. Dis plutôt "j'aimerais" !

3. Xatolarga nisbatan moslashuvchan munosabat. Kommunikativ metodda talabalar xato qilishdan qo'rqmasliklari kerak. Asosiy e'tibor nutqiy muloqotning oqibatiga qaratiladi, grammatik xatolarga unchalik e'tibor berilmaydi. Xatolar til o'rganishning tabiiy qismi sifatida qabul qilinadi. Bilamizki, til o'rganuvchilarda "Xato gapirsamchi" degan fikrlar bo'ladi. Har bir xatodan bir tajriba olamiz, shu xatoni qayta takrorlamaslikni o'rganamiz.

4. O'quvchilarning faolligi. Darslar davomida o'qituvchi emas, balki talabalar asosiy rol o'ynaydi. Ular mavzularni muhokama qilish, loyihalar tayyorlash va guruh ishlarida qatnashish orqali tilni o'zlashtiradilar.

5. Materiallarning amaliyligi. Darsliklar, audio va video materiallar, interaktiv mashqlar real hayotga yaqin bo'ladi. Masalan, e'lonlar, yangiliklar, reklamalar, filmlar, qo'shiqlar kabi materiallardan foydalaniladi.

6. Madaniyatni o'rganish: - Kommunikativ metodda tilni o'rganish bilan birga madaniyatni ham o'rganish muhim hisoblanadi. Talabalar o'rganayotgan til madaniyatining xususiyatlarini tushinishlari kerak.

Exemple: Investissez dans votre avenir avec notre école! Vous rêvez d'une carrière brillante? Rejoignez notre établissement et découvrez un enseignement de qualité, des professeurs expérimentés et une ambiance stimulante. Nos atouts :

- Cours personnalisés adaptés à vos besoins

- Accès à des ressources modernes et innovantes

- Stages professionnels garantis pour une expérience concrète


Inscrivez-vous dès aujourd'hui et ouvrez les portes de votre avenir! Pour plus d'informations, visitez notre site web ou contactez-nous.

Votre succès commence ici!

**Tahlil va natijalar.** Kommunikativ metodning afzal tomonlari deganda, talabalar tilni amaliyotda qo'llashni tezroq o'rganishini, nutqiy muloqot qobiliyati tez rivojlanishini, talabalar tilni o'rganishda qiziqish va ishtiyoq bilan qatnashishini, grammatika va lug'at bilimlari muloqot jarayonida tabiiy ravishda o'zlashtirilishini ko'rishimiz mumkin. Kommunikativ metodda talabalar muayyan rollarni (masalan, doktor va bemor, sotuvchi va xaridor) o'ynab, muloqot qilishadi, guruh bo'lib muayyan mavzular bo'yicha fikr almashishadi, muayyan mavzular bo'yicha loyihalar tayyorlash orqali tilni o'rganadilar, guruh bo'lib birgalikda vazifalarni bajarishadi.

Xorijiy tillarni o'qitish murakkab jarayon hisoblanadi, chunki sun'iy muhitda o'rganiladi. Asosan, chet tilida muloqot darsda o'qituvchi bilan kechadi. Shuning uchun pedagoglardan, doimo yangi va samarali til o'rgatish metodlarini bilishni taqazo etadi. Bugungi kunda flipped classroom metodi ham zamonaviy yondashuv hisoblanadi. Flipped Classroom (Classe inverse-Teskari Sinf)- bu talabalar darsdan oldin video darsliklar, maqolalar yoki boshqa materiallarni o'rganadilar, sinfda esa bu bilimlarni amaliy mashqlar va muhokamalar orqali mustahkamlaydilar. Bu metod talabalarning mustaqil o'rganish qobiliyatini oshiradi. Bu metodni 2007-yil Jonatan Bergmann va Aaron Sams o'z darslarini yozib olib, dars qoldirgan o'quvchilarga yordam berish uchun ularni Internetga joylashtirgandan so'ng o'rta maktabda teskari dars berishni boshladilar.

Inversiya darslari (Classe inversée) metodi bo'yicha ko'plab fransuz olimlari va pedagoglar tadqiqotlar olib borgan. Ular orasida Filip Merie — fransuz pedagog va ta'lim nazariyotchisi bo'lib, u ta'lim jarayonining innovatsion usullari, o'qitish metodlari va o'quvchilarning o'z-o'zini anglashiga qaratilgan yondashuvlari bilan tanilgan. Uning asarlari, pedagogik tajribalar va nazariyalar ta'lim sohasida muhim ahamiyatga ega. Uning fikricha, ta'lim jarayoni faqat bilim berish emas, balki shaxsiy rivojlanish va ijtimoiy integratsiya jarayoni hamdir. Uning pedagogik yondashuvi ko'p hollarda ochiq fikrlilik, ijodkorlik va talabalarning faol ishtirokini rag'batlantirishga asoslangan. Shuningdek, u zamonaviy texnologiyalarni ta'lim jarayoniga kiritish tarafdori bo'lgan.



Les classes inversées: intégration d'idées. <http://lebrunremy.be/WordPress/?p=868>

"Teskari sinf" Alen Taurisson (fransuz, ta'lim fanlari doktori) va Kler Herviu (fransuz olimi) tajribalari ko'ra juda istiqbolli ko'rinadi. Biz bilamizki, bu ta'lim modeli raqamli texnologiyalar asrida ayniqsa jozibador bo'lib, o'qituvchining roli juda katta, bunda bilimlarni o'zlashtirishga o'zini to'liq bag'ishlagan holda, undan kuchli bilim, o'qitishga yangicha va qiziqarli yondashuv talab qilinadi. Shunday qilib, Filip Merie fikricha, teskari sinfni haqiqiy "muqobil pedagogika" ga

aylantirish, hammaning talabani ham, o'qituvchining ham muvaffaqiyatiga xizmat qiladi va o'qitishning quvonchini qayta kashf qilish uchun muqobil yechimdir, deb hisoblaydi.

**Xulosa va takliflar.** Jamiyat taraqqiyotiga nazar tashlansa, uning rivoji bevosita ta'lim, ilm-fan bilan bog'liq ekani ko'rinadi. Bularsiz hech bir soha rivojlanmagan, kashfiyotlar qilinmagan, zamonlar yangilanmagan bo'lardi. Hozir ham dunyoning umumiy qiyofasi ilm-fan asosida takomillashib, o'z

shaklini belgilamoqda. Hatto, davlatlarning rivojlanganlik darajasi ulardagi ta'lim taraqqiyoti bilan baholanyapti. Shunga mos tarzda, jahonda ta'lim, ilm-fan sohalarida shiddat bilan rivojlanishda davom etmoqda. Global rivojlanish esa sohada yangicha yondashuvlar, zamonaviy tendensiyalar, ilg'or o'qitish tizimlarini joriy etishga keng yo'l ochmoqda. Zamonaviy metodlar talabalarning til

o'rganish jarayonini qiziqarli, samarali va amaliy qilishga yordam beradi. Ko'rinib turibdiki, o'rganish usullari xilma-xildir. Har bir metodni talabalarning ehtiyojlari va o'qitish sharoitlariga moslashtirish muhimdir. "Ish quroling soz bo'lsa, mashaqqating oz bo'lur,-" deydi dono xalqimiz, shuningdek til o'rganishda to'g'ri tanlangan metod, muvaffaqiyat kalitidir.

#### ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida PF-5847-son 08.10.2019 <https://lex.uz>
2. Yangi O'zbekiston "Individual ta'lim trayektoriyasimustaqil fikrli yoshlar safini kengaytiradi" 23.12.2023yil, 276-son
3. Alen Taurisson, Kler Herviu "Pédagogie de l'activité : pour une nouvelle classe inverse" 2015, fevriy
4. Les différentes méthodes d'apprentissages, Feb 1, 2023
5. Sadullayeva G.I. "Til o'rganishda immersive metodlar: tezroq va samaraliroq o'rganish uchun tilga sho'ng'ishning afzalliklari" Spanish international scientific online conference.
6. Altemueller, L., & Lindquist, C. (2017). Flipped classroom instruction for inclusive learning. *British Journal of Special Education*, 44(3), 341-358.
7. Jalolov J.. Chet tili o'qitish metodikasi. Toshkent -2012.
8. <https://la-conjugaison.nouvelobs.com/regles/grammaire/>
9. <https://lex.uz>
10. <https://www.protegeraltersecourir.fr>
11. <https://www.journauxfrançais.net/>
12. <https://tandem.net/fr>
13. <https://www.nrg.fr/podcasts/manu>
14. <https://quizlet.com/fr>



**Zilola ESHANOVA,**  
*Andijon davlat universiteti doktranti, PhD, dotsent*  
*E-mail: zeshanova79@gmail.com*

*ADU professori, f.f.d. B.Rahmonov taqrizi asosida*

### ISTIQLOL DAVRI O‘ZBEK SHE‘RIYATIDA AN‘ANALAR SATHIDAGI SINTEZ

Аннотация

Maqolada istiqloq davri o‘zbek she‘riyatida an‘analar sathidagi sintezning o‘ziga xos xususiyatlarini ochiqlash, milliylikni, xalqchillikni ta‘minlashdagi, davr muammolarini yoritishdagi ahamiyatini ko‘rsatish maqsad qilingan. Shu maqsaddan kelib chiqib maqolada etnofolkloristik, germeneytik, struktural tahlil metodlaridan foydalanilgan holda istiqloq davrida yaratilgan she‘rlar tahlil qilindi va an‘analar sathidagi sintezning namoyon bo‘lish usullari yoritildi, etnografik folklorizmlar etnomadaniy kontekstni yoritish vositasi ekanligi asoslandi.

**Kalit so‘zlar:** Badiiy sintez, an‘ana, folklor, folklor sintezi, folklorizmlar, sintezlashgan folklorizmlar, etnografik folklorizm, an‘anaviy obrazlar, she‘r.

### СИНТЕЗ НА УРОВНЕ ТРАДИЦИЙ В УЗБЕКСКОЙ ПОЭЗИИ ПЕРИОДА НЕЗАВИСИМОСТИ

Аннотация

Целью статьи является раскрытие особенностей синтеза на уровне традиций в узбекской поэзии периода независимости, а также показать значение в обеспечении национальности, народности и освещении проблем времени. Исходя из этой цели, в статье проанализированы стихи, созданные в период независимости и были освещены методы проявления синтеза на уровне традиций, обосновано, что этнографические фольклоризмы являются средством освещения этнокультурного контекста.

**Ключевые слова:** Художественный синтез, традиция, фольклор, фольклорный синтез, фольклоризмы, синтезированные фольклоризмы, этнографический фольклоризм, традиционные образы, стихотворение.

### SYNTHESIS AT THE LEVEL OF TRADITIONS IN UZBEK POETRY OF THE INDEPENDENCE PERIOD

Annotation

The purpose of this article is to reveal the characteristics of synthesis at the level of traditions in Uzbek poetry the period of Independence, the goal is to demonstrate its significance in ensuring illuminating national identity, ethnic character and the problems of the time. Based on this goal, the article analyzes the poems created during the period of Independence and the methods of synthesis manifestation at the level of traditions were highlighted, substantiated that ethnographic folklorism is a means of illuminating the ethnocultural context.

**Key words:** Artistic synthesis, tradition, folklore, folklore synthesis, folklorisms, synthesized folklorisms, ethnographic folklorisms, traditional images, poetry.

**Kirish.** Istiqloq davri o‘zbek she‘riyatida folklor sintezining turli ko‘rinishlari, xususan, an‘analar sathidagi badiiy sintez asosida lirik kechinma tasvirini berish kuzatilmoqda. Davr she‘riyatida namoyon bo‘layotgan folklor sintezi hamda an‘analar sathidagi sintez bevosita folklorizmlar, xususan, stilizatsion, sintezlashgan, etnografik folklorizmlar asosida yuzaga chiqmoqda.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Folklor sintezi muammosi o‘zbek adabiyotida B.Sarimsoqov, S.Mirzayeva, I.Yormatov, L.Sharipova, G.Imomova, Sh.Davronova, Z.Eshanova, D.Xoliqova, N.Tursunova, S.Xamdama, N.Alisultonovalarining ishlarida yoritilgan. Ularning ishlarida folklor an‘analari va folklorizmlar tipologiyasining o‘zbek adabiyotining turli davrlarida namoyon bo‘lishi masalasida qimmatli fikrlar bildirilgan. Xususan, folklor sintezini o‘zbek hikoyachiligi misolida tekshirgan G.Imomova folklor sintezining sintezlashgan va stilizatsion folklorizmlar asosida yuzaga chiqishini ta‘kidlaydi, shuningdek, an‘analar sathidagi sintez “badiiy asar konfliktining yechimi yoki syujet voqealarining tuguni, rivoji kabilarni amalga oshirishda ijodkorning xalq turmushi hamda hayotiy tajribalarida shakllangan rasm-rusum, urf-odat va marosimlarga murojaat qilish” [4] asosida yuzaga chiqishini aytadi. Bizningcha, an‘analar sathidagi sintez keng hodisa bo‘lib, u badiiy adabiyotdagi an‘ana va vorisiylik asosida yuzaga chiquvchi barcha jarayonlarni qamrab oladi, shuningdek, folklor va yozma adabiyotga xos an‘anaviy obrazlarga individual yondashgan holda badiiy g‘oyani ifodalash hamda badiiy asarda xalq turmush tarzi, an‘analari, marosimlariga xos tasvirlarga murojaat qilishni o‘z ichiga oladi. An‘analar sathidagi sintez xalq turmush tarzi, urf-odat va marosimlariga murojaat qilish orqali

namoyon bo‘lar ekan, o‘z-o‘zidan bu xalqning etnomadaniy kontekstini yoritish orqali amalga oshiriladi. Shunday ekan xalq turmush tarziga xos jihatlar yozma adabiyotda etnografik folklorizmlar orqali beriladi. Etnografik folklorizmlar turli adabiyotlarda adabiy etnografizmlar, etnopoetik folklorizmlar, etnografizmlar kabi nomlar bilan beriladi. S.Xamdama “Yozma adabiyot asarlarining matnida qo‘llanilgan xalq turmush tarzi, marosim va an‘analari, rasm-rusumlari, an‘anaviy qarashlari va e‘tiqodiy ishonchlariga oid talqinlarni adabiy etnografizmlar” [14] desa, N.Tursunova “Istiqloq davri o‘zbek dramaturgiyasining badiiy matnida faol qo‘llanilgan milliy urf-odat, marosim, rasm-rusum, qadimiy ritual va ishonch-e‘tiqodlarga aloqador etnografik detallar ... o‘zining mohiyatiga ko‘ra etnopoetik folklorizmlar” [13] ekanligini aytadi. N.Alisultonova esa urf-odatlar, marosimu irim-sirimlar, diniy-e‘tiqodiy qarashlarga asoslangan tasvirlar etnografik folklorizmlar orqali yuzaga chiqishini, bunday etnografizmlar ijtimoiy turmush voqeliklarini real aks ettirishga xizmat qilishini [1] ta‘kidlaydi. Adabiyotlar tahlilidan ko‘rinadiki, o‘zbek adabiyotshunosligida folklor sintezi va an‘analar sathidagi sintez muammosini istiqloq davri o‘zbek she‘riyati misolida tekshirish tadqiqotlar uchun obyekt bo‘lgan emas.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Bizga ma‘lumki, folklor asarlaridan, ularga xos syujet, obraz va motivlardan yozma adabiyotning barcha davrlarida ijodiy foydalanib kelingan. An‘anaga aylangan bu adabiy hodisa vorisiylik asosida hozirgi kunda ham davom etib kelmoqda. Istiqloq davri o‘zbek she‘riyatida ham folklor sintezining janrlar, obrazlar, an‘analar sathidagi turlari birdek namoyon bo‘lmoqda. An‘analar sathidagi sintez sintezlashgan va etnografik folklorizmlar (qisman stilizatsion folklorizmlar) asosida yuzaga chiqadi. Shu o‘rinda bu

hodisa she'riyatda qanday namoyon bo'ladi degan haqli savol tug'iladi. Ayni shu masalalar maqolada etnofolkloristik, germeneytik, struktural tahlil metodlaridan foydalanilgan holda yoritildi.

**Tahlillar va natijalar.** Barchamiz bilamizki, etnografik folklorizmlar sintezlashgan folklorizmlarning bir turi bo'lib, epik va dramatik asarlarda keng qo'llanadi, ularga xos keng planli epik voqelik xalq turmush tarziga xos jihatlarni etnografik detallar orqali tasvirlashda va etnomadaniy kontekstni yaratishda cheksiz imkoniyatlarga ega. Biroq she'riyatda etnografik folklorizmlarning namoyon bo'lishi o'ziga xos va boshqa adabiy turlarda namoyon bo'lishiga ko'ra farq qiladi. Sababi she'riyatda keng epik planli voqelik bayoni emas, balki voqelik ta'sirida yuzaga kelgan kechinma tasvirini berish yetakchilik qiladi. SHE'riyat o'z mohiyatiga ko'ra qisqaligi, siqiligi bilan boshqa adabiy turlardan ajralib turadi. Voqeband she'r'larda ham voqelikning ayrim parchalari asosida kechinmaga turtki bo'lgan voqelik assotsiativlik asosida tiklanadi. Ana shunday xususiyatlarga ega bo'lgan she'r janrida etnografik folklorizmlar xalq turmushi, an'analari, urf odatlari va marosimlarining ayrim qismlarini siqiq holda tasvirlash, etnomadaniy kontekstning ayrim jihatlarni yoritish orqali namoyon bo'ladi. Bunda xalqning e'tiqodiy va mifologik qarashlari mifologizm, mifologema, mifologik obrazlar orqali she'r matniga sintezlanadi. Etnografik folklorizmlar badiiy asar strukturasi bilan bir butun holga kelib, lirik kechinma rivojiga xizmat qilsagina shoir g'oyaviy maqsadiga erishadi.

Turob To'laning "Sovrin" she'riyning ramka unsuri bo'lgan sarlavha va uning ostidagi izohda "Ko'pkarida" so'zining berilishidan uning lirik syujeti xalqimizning ko'pkari marosimi bilan bog'liq voqelik ta'sirida yuzaga kelgan kechinma tasviriga qurilganligidan xabar beradi. Bizga ma'lumki, ko'pkari Navro'z marosimi va to'ylarda o'tkaziladi, unda sovrin uchun jonliq qo'yiladi. Ushbu she'rda Navro'z sayli va unda o'tkaziluvchi ko'pkari o'yini o'zbek xalqiga xos etnomadaniy kontekstni ko'rsatishga xizmat qilgan. Ko'pkarida qatnashgan o'g'lon uchun ko'pkariga qo'yilgan sovrin emas, dilbar otgan dastro'mol muhim. Voqeband bo'lgan ushbu she'rda o'zbek qizlariga xos milliy kolorit o'sma detali orqali, yigitlarga xos xususiyatlar esa chavandozga xos kiyimlar tasviri orqali beriladi:

Osmon ko'm-ko'k navro'z bo'yoqlaridan,  
O'smalardan tarang ko'm-ko'k qalamqosh.  
O'ynoqlab keladi uloqchi oti,  
Egarda burgutday uloqchi o'g'lon [12].

Shoir Navro'z va unda o'tkaziluvchi ko'pkari marosimi bilan bog'liq mifologik qarashlarni she'rga sintezlaydi, Navro'z marosimi va bu saylda o'tkaziluvchi ko'pkari marosimi kartinasini yaratadi. SHE'rda shoir xalq qo'shiqlariga xos ramzlardan, xususan, ro'molcha (dastro'mol) o'zak ramzidan ijodiy foydalangan. Ro'molcha, dastro'mol, ro'mol kabi an'anaviy ramz-obrazlar xalq qo'shiqlarida yor tanlash, oila ramzi sanaladi va shoir lirik qahramonning qizga bo'lgan muhabbati va kechinmalarini ayni shu detal orqali tasvirlaydi:

O'g'lon yalt etdi-yu, ilg'adi shu dam  
O'rtadan otilgan oppoq ro'molchani,  
Uchdi. Ilib oldi. U edi ajab! [12]

Istiqlol davrida ijod qilayotgan yosh shoirlar ijodida ham bu an'ana davom ettirilmoqda. Mansur Jumayevning "Bahor kulgisi", "Navro'znoma" kabi she'r'larda ham xalqimizning Navro'z bayramini nishonlash bilan bog'liq an'anasi tasviri va bu an'ana bilan bog'liq mifologik qarashlar sintezi asosida she'rdagi lirik kechinma rivojlantirilgan. Biz bilamizki, Navro'z xalqimizning mifologik qarashlarida dualistik kuchlar kurashida ezigulikning tantana qilishi sifatida kelgan va ayni shu ezigulik g'alabasi, tabiatning uyg'onishi, tirilishi kabi mifologik qarashlar turli ritual-marosimlarning o'tkazilishiga zamin yaratgan. Bu haqda Sh.Turdimov qish va yoz (ikki qutb)ning o'zaro kurashuvi, qish tomonning yengilib, chekinishi natijasida kirib keladi, degan dualistik qarash ushbu marosimda eng tayanah tasavvur[SH.Turdimov,69] hisoblanishini ta'kidlaydi. SHE'rda qish va yozning kurashi, ezigulik kuchlarining g'alabasi haqidagi mifologik qarashlar hamda ushbu marosim transformatsiyasi etnomadaniy kontekstni shakllantirgan. Bunday mifologik kodlar animistik qarashlar asosida shakllangan tashxis, husni ta'lil kabi

tasvir vositasi orqali ("bahor kulgusini sochgan quyosh", "jilg'alarni cho'qqilarning hadyasini olib kelishi", "jilg'alarning raqs tushishi", "chuchmomaga chang solgan izz'irin xatarning bitishi", "tabiatning gul bargiga turli xil xatlar bitishi", "tog'larning kokillariga, bog'ning gulga o'ranishi" kabi) berilgan tasvirlar mohiyatida yotadi. Shoir to'rt misrali besh banddan iborat ushbu she'rning har bandi so'nggida "Xush kelibsan, Navro'zim, ... O'zbekistonga" refrenini beradi va ona, qadim, dilbar, uyg'oq, yangi kabi sifatlashlari, boychechak ramzi, "eski ko'ngil" kabi istioralar orqali qadim ona vatanning Navro'zda dilbarlashgani, xalqning uyg'ongani va yangi O'zbekistonda yangi g'oyalar bilan yangi yilni boshlaganidan lirik qahramonning tuygan farahli kechinmalarini beradi:

Ruhim ulg'aydi, jismim go'dakday atak chechak,  
Pildirab adirlarga izlab ketdi boychechak,  
Ipakday nur yog'ildi eski ko'ngil tomonga,  
Xush kelibsan, Navro'zim, yangi O'zbekistonga! [7]

SHE'rda Navro'z bayramining qanday nishonlashi batafsil yoritilmaydi, aksincha, etnografik folklorizmning ayrim parchalarini berish, "millat bayt-u navosi to'kilgan dasturxonga" kabi takrorlanmas tasvirlar yaratish orqali etnomadaniy kontekst yoritiladi. Shoirning "Navro'znoma" she'rida esa "Navro'ziy nasimlar"ning kelishi lirik qahramon ko'nglining havolanishiga, natijada ko'kni, ko'klamni, yerni navolaydigan qo'shiqlar to'qishiga, baxt isining yoyilishiga, davolaydigan sumalak pishirilishi, sovgan ko'ngilni davolaydigan mujdalarga to'lishiga sabab bo'lishi tasvirlanadi.

Rauf Subhonning "Navro'z" she'rida "Azizam, boychechak nishona asli./ Muhabbat tug'ilgan kun va tundir bu [11] kabi tasvirlarda, Iqbol Mirzoning "Navro'zguli" she'ridagi "Omonliksan, to'tiyosan ko'zlariga,Sevgi maktubidan ma'sum qizlarga [5] kabi tavsiflarda, Zamira Ro'ziyevaning "Navro'z vasi" she'ridagi "Rizq oyatin tilovat aylamish farishtalar./ Sumalak toti yanglig' sevgan dil rozi Navro'Z [16]. kabi satrlarida Navro'z, boychechak, sumalak pishirish kabi marosimlarning ayrim chizgilarini tasvirlash, bu marosimlar haqidagi xalqning mifologik qarashlarini sintezlash, etnografik kontekstni transformatsiyalash orqali xalqning milliy qadriyatlarining o'ziga qaytarilgani natijasida lirik qahramon qalbida kechgan sururli kechinmalar, milliylik, milliy g'urur tuyg'ulari tasviri beriladi.

Bizga ma'lumki, boychechak bahor elchisi, ezgu kuchlarning yovuz kuchlar ustidan g'alabasining ramzi hisoblanadi. Boychechak marosimida ilk boychechakni topgan bolalar uni olib, uyma-uy yurgan. Yoshi katta insonlar "omonlik-somonlik" deya uni olib, ko'ziga surishgan va bahorga eson-omon chiqishganiga shukrona keltirganlar. Ayni shu an'anaviy badiiy tasviri N.Narzullayevning, "O'zbekiston bahori" she'rida beriladi:

Boychechakni ko'rganlar surtgaylar ko'zlariga,  
Omon omon tilashar yaxshilar o'zlariga [9].

Folklorshunos olim J.Eshonqul ta'kidlaganidek, "bugungi kunda unutilgan juda ko'p marosim elementlari, udumlari, tabu, irimlarning badiiy ifodalari folklor asarlarida saqlanib qolgan"[Jabbor Eshonqul. 6:86]. Folklor asarlarida saqlangan ana shu marosim rudimentlaridan ijodkorlar o'z g'oyaviy maqsadini ifodalashda, asarlari xalqchilligini ta'minlashda, milliy xarakterlarni yaratishda ijodiy foydalanmoqdalar. Xususan, Farida Afro'zning "Iltijo", Yor Muhammadning "Xolambibining yo'qlovi" kabi she'r'lari xalq og'zaki ijodidagi yig'i-yo'qlov janri xususiyatlarini she'r bilan sintezlash asosida yaratilgan. Yo'qlov motam marosimi folklori janri bo'lib, yig'i janridan farqli o'laroq dafn marosimidan keyin o'tkaziluvchi "9, 20, 40, yil sindi marosimlarida ... marhumning xotirasini eslab, yod etib, ba'zan yig'lab, ba'zan faqat nola qilib yoki sog'inch va armon ohanglarida yo'qlov qo'shiqlari kuyiladi. Yo'qlov matnlarida, asosan, vafot etgan kishining qiyofasi, tiriklik paytida xalq uchun amalga oshirgan xayrli ishlarining tafsilotlari, xarakter-xususiyatlarini motam tutuvchining ichki ruhiy kechinmalari fonida xotirahash ko'rinishida bayon etiladi." [10]

"Iltijo" she'rida "Yoritosh" ertagidagi qo'shiq yo'qlov janri ritmi bilan sintezlanadi va vafot etgan otasi sog'inchida iztirob chekayotgan qiz kechinmalarini berishga xizmat qiladi. Shoir she'rda "Yorilgin, tosh, yorilgin" analitik folklorizmidan refren sifatida foydalanadi, biroq ertakdagi mohiyatni o'zgartirib, unga paradoksal yondashgan holda beradi.

Yor Muhammadning “Xolambibining yo‘qlovi” she‘rida ham yo‘qlovlariga xos xususiyatlar sintezlangan va qatag‘onga uchrab, Sibir o‘lkalarida vafot etgan millat vakillari, ularning ayanchli taqdiri, qatag‘on siyosatining millatimiz boshiga solgan qonli kunlari Xolambibining kechinmalari fonida yoritiladi. Shoir Usmon Nosirning onasi Xolambibi tilidan aytilgan yig‘i-yo‘qlov orqali g‘oyaviy maqsadini beradi. She‘rning lirik subyekti Xolambibi, Usmon Nosirning onasi. Shoirning ayanchli taqdiri, shuningdek, millat oydinlari bo‘lgan jadid bobolarimiz taqdiri ham barchamizga ayon. Shoir tarixiy voqealik ta‘sirida yuzaga kelgan kechinma tasvirini yo‘qlovlarga xos marhummi (Usmon Nosirni) yod etish, uning sog‘inchidagi ona iztiroblarini bayon etish kabi xususiyatlar sintezini intensiya qilish orqali beradi:

Yo‘lingga ko‘z tikib teshildi ko‘zim,  
Bo‘g‘zimda bo‘g‘ilib eshildi so‘zim,  
Dog‘ingni ellik yil ko‘tardim o‘zim,  
Usmonim qaydasan, qaydasan, qayda? [15]

She‘rda Xolambibi tilidan berilgan ritorik so‘roqning har bir bayt so‘nggida refren sifatida takrorlanishi “do‘stlarining uni sotib jon saqlagani”, uning millat oydini sifatida qatag‘on qurboni bo‘lgani, “behis to‘nkalarining esa hamon yashab kelayotgani”, “minbarlarda hamon o‘sha zog‘larning nutqi yangrayotgani” haqidagi armonlari ifodasiga xizmat qilgan va shoir she‘rda milliy poetik tafakkurdagi millatning o‘tmishi va kelajagi haqidagi dardini bera olgan.

Iqbol Mirzoning “Ramazon” she‘rida esa ramazon oyidagi “Ramazon” qo‘shig‘idan olingan misrani “Ramazon aytib borsin bir kuni eshigingga [5] shaklida o‘zgartirilgan holda qo‘llanadi. She‘r matnidagi beshikka ko‘ztumor osish, ramazon aytish va farzand tilash kabi udumlar tasviri she‘r lirik qahramoni

bo‘lgan befarzand Yoqub polvon kechinmalari ifodasiga xizmat qilgan.

Farida Afro‘zning “O‘g‘lim Narimonjonga” she‘rida “Mushkulkushod” marosimi, undagi belbog‘ning qatiga novvot tugmoq odati, shirmon, mayiz kabi detallar orqali o‘z farzandiga uzoq umr tilagan onaning qalb kechinmalari, orzu-istaklari beriladi. Shoiraning “Nikoh yoxud ayolning yaratilishi haqida rivoyat” she‘ri voqeaband she‘r bo‘lib, nikoh to‘yi marosimining paydo bo‘lishi haqidagi rivoyatni (payg‘ambarimizning qizlari Fotima to‘g‘risidagi rivoyat, rivoyat ichida esa Odam Ato va Momo Havo haqidagi rivoyat) she‘r matniga sintezlash va qoliplash asosida yaratilgan. She‘rda nikoh to‘yi marosimiga xos ayrim parchalarni, unga xos ayrim xususiyatlarni tasvirlash orqali milliy xarakterlar yaratiladi, xalqimizning mehmondo‘stligi, bolajonligi, mehr-oqibatligi kabi fazilatlarini savol-u javob usuli orqali yoritiladi.

**Xulosa va takliflar.** Istiqloq davri o‘zbek she‘riyatida turli marosim, urf odat va an‘analarning poetik transformatsiyasi etnografik folklorizmlar orqali amalga oshirilmoqda. An‘analari sathidagi folklor sintezidan ijodkorlar davr bilan bog‘liq muammolarni yoritishda, kechinma tasvirini ta‘sirchan ifodalashda, davr manzaralarining milliy kartinasini yaratishda ijodiy foydalanmoqdalar. Mazkur davrda ijod qilgan shoirlar she‘rlarida etnografik folklorizmlar xalqning turmush tarzi va ijtimoiy-madaniy hayotiga xos badiiy lavhalarni, milliy xarakterlarni yaratish, kechinma tasvirini berish, etnomadaniy kontekstni yoritish kabi poetik vazifalarni bajarmoqda. An‘analari sathidagi sintez etnomadaniy kontekstni yoritishga va badiiy asar xalqchilligini ta‘minlashga xizmat qilmoqda.

#### ADABIYOTLAR

1. Alisultonova N. Chingiz Aytmayev asarlarida folklorizmlar tipologiyasi. Filol. fan. bo‘yicha falsafa (PhD) ... diss. – Andijon, 2021.
2. Eshanova Z. Folklor sintezi ilmiy-nazariy muammo sifatida. // O‘zMU xabarlar, 2024. Tom. № 1.5.2. B.346-350.
3. Imomova G. O‘zbek hikoyalari badiiy sintez shakllari va ijodkorning poetik kontseptsiyasi. Filol. fanlari doktori (DSc) ... diss. – Toshkent, 2021.
4. Iqbol Mirzo. Sizni kuylayman. – Toshkent.: Sharq, 2007.
5. Jabbor Eshonqul. O‘zbek folklorida tush va uning badiiy talqini. –Toshkent: Fan, 2011.
6. Jumayev Mansur. Biz kutgan fasl. She‘rlar. –Toshkent: Akademnashr, 2024.
7. Mirzayeva S. O‘zbek realistik adabiyotida folklor an‘analari. – Andijon, 2005.
8. Narzullayev N. Alyor. Saylanma. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005.
9. O‘rayeva D. Motam marosimlarining ijro bosqichlari // O‘zbek tili va adabiyoti, 2003-yil, 5-son. – B.61.
10. Rauf Subhon. Inonch. –Toshkent: O‘zbekiston, 2015.
11. Turdimov Sh. O‘zbek folklori. O‘UM. – Toshkent, 2016.
12. Turob To‘la. Yana yo‘lingdaman. She‘rlar. – Toshkent: Adabiyot, 2021.
13. Tursunova N. Hozirgi o‘zbek dramaturgiyasida folklor stilizatsiyasi. Filol. fan. bo‘yicha falsafa (PhD) ... diss. avtoref. – T., 2020.
14. Xamdamova S.X. Folklor an‘analari va badiiy talqin: ta‘ssir hamda aks ta‘sir masalalari (XVIII-XIX asr she‘riyati misolida) Filol. Fanlari nomzodi ... diss. avtoref. – Toshkent, 2012.
15. Yor Muhammad. Xolambibining yo‘qlovi // Sharq yulduzi, 2025 yil, 1-son.
16. Zamira Ro‘ziyeva. Hayratning suvrati. Tanlangan she‘rlar va dostonlar. – Toshkent: Sharq, 2016.



Aziz YULDASHEV,  
ToshDO‘TAU o‘qituvchisi  
E-Mail: yuldashveziz@navoiy-uni.uz

ToshDO‘TAU professori, f.f.d Sh.Hamroyeva taqriza asosida

### LINGVISTIK VA EKSTRALINGVISTIK TEGGLASH XUSUSIDA

Аннотация

Ushbu maqolada lingvistik va ekstralingvistik teglash, uning til korpusi qidiruv tizimini ishlab chiqishdagi ahamiyati xususida fikr yuritilgan. Lingvistik teglash matn tahlili, modellarni o‘qitish, lingvistik tadqiqotlarni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Lingvistik teglash (izohlash) – bu matnga ma’lum bir lingvistik ma’lumot (izoh) qo‘shish jarayonidir. Bu ma’lumot(izoh)lar so‘z turkumi haqidagi izohdan tortib murakkab sintaktik qurilmalargacha bo‘lishi mumkin. Korpus interfeysida lingvistik teglashni aks ettirish tadqiqotchining ish qulayligi va samaradorligini belgilovchi muhim jihatdir.

**Kalir so‘zlar:** Til korpusi, lingvistik teglash, ekstralingvistik teglash, qidiruv tizimi, til korpusi qidiruv tizimi.

### О ЛИНГВИСТИЧЕСКОЙ И ЭКСТРАЛИНГВИСТИЧЕСКОЙ МАРКИРОВКЕ

Аннотация

В данной статье обсуждается лингвистическое и экстралингвистическое тегирование, его значение при разработке поисковой системы языкового корпуса. Лингвистическое тегирование играет важную роль в анализе текста, обучении моделей и проведении лингвистических исследований. Лингвистическое тегирование (аннотирование) — это процесс добавления определенной лингвистической информации (аннотации) к тексту. Эта информация (аннотация) может варьироваться от аннотации о части речи до сложных синтаксических конструкций. Отображение лингвистического тегирования в интерфейсе корпуса является важным аспектом, определяющим удобство и эффективность работы исследователя.

**Ключевые слова:** Языковой корпус, лингвистическое тегирование, экстралингвистическое тегирование, поисковая система, поисковая система языкового корпуса.

### ON LINGUISTIC AND EXTRALINGUISTIC LABELING

Annotation

This article discusses linguistic and extralinguistic tagging, and its significance in the development of a search engine for a language corpus. Linguistic tagging plays a crucial role in text analysis, model training, and conducting linguistic research. Linguistic tagging (annotation) is the process of adding specific linguistic information (annotations) to text. This information (annotation) can range from part-of-speech annotations to complex syntactic structures. The display of linguistic tagging within the corpus interface is a critical aspect that determines the convenience and efficiency of a researcher's work.

**Key words:** Language corpus, linguistic tagging, extralinguistic tagging, search engine, language corpus search engine.

Lingvistik teglash (izohlash) – bu matnga ma’lum bir lingvistik ma’lumot (izoh) qo‘shish jarayonidir. Bu ma’lumot(izoh)lar so‘z turkumi haqidagi izohdan tortib murakkab sintaktik qurilmalargacha bo‘lishi mumkin. Lingvistik teglashning ahamiyati quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

**Matn tahlili.** Lingvistik teglash kompyuter/dastur(lar)ga matnning tuzilishi va ma’nosini tushunish imkonini beradi, bu esa tabiiy tillarni qayta ishlash (NLP) bo‘yicha ko‘plab vazifalarda ahamiyatli.

**Modellarni o‘qitish.** Lingvistik teglangan ma’lumotlar NLPning turli xil vazifalarini bajara oladigan mashina o‘rganish modellarini o‘qitish uchun ishlatiladi. Masalan, mashina tarjimai, sentiment(kayfiyat) tahlili va nomlangan obyektlar(NER)ni aniqlash.

**Lingvistik tadqiqotlar.** Lingvistik teglash tilshunosga tilni o‘rganish, qonuniyatlarni aniqlash va gipotezalarni tekshirishga yordam beradi[1].

Tabiiy tilni qayta ishlash sohasida lingvistik teglashning quyidagi turlari farqlanadi. Morfologik teglash so‘z turkumlari, egalik, kelishik, shaxs/son, zamon, mayl, nisbat va boshqa morfologik belgilarni aniqlashni anglatadi. Sintaktik teglashda gapdagi so‘zlar o‘rtasidagi sintaktik munosabatlar – ega, kesim va to‘ldiruvchi kabi bo‘laklarni aniqlash tushuniladi. Semantik teglash so‘z ma’nolari va ular orasidagi munosabatlarni (sinonim, antonim va giperonim) aniqlashdir. Diskurs teglash diskurs darajasidagi matn tuzilishini aniqlash jarayonidir. Masalan, mavzular, argumentlar va gaplar o‘rtasidagi aloqalarni ajratish shunga misol bo‘ladi. Anaforik teglashda matndagi koreferent aloqalar aniqlanadi. Masalan, olmoshlarning qaysi birlikka ishora etayotganligi belgilanadi. Prosodik teglashda birlik (so‘z va gap

Linguocultural analysis of music terms shows the following: Cultural Influence: In Uzbek, music terms are closely associated with national instruments and traditional styles such as "shashmaqom," "doira," and "nay." In English, terms related to modern technology are more common, such as "remix" and "auto-tune." Performance and Education: The "master-disciple" tradition plays a significant role in Uzbek music, while in English-speaking contexts, the concept of "mentorship" is more broadly applied. Imagery: In English, metaphors like "blue note" are often associated with jazz, while in Uzbek, terms like "ingroq" and "cho'ziq" reflect the national traditions. Impact of Globalization: Uzbek music terms have evolved under the influence of Russian, Persian, Arabic, and English languages, while English has absorbed many music terms from French and Italian.

Translation and Adaptation: The translation and adaptation of music terms, especially in the cultural context, is an area worth further exploration. For example, how terms from English are adapted into Uzbek and how their meaning might change or lose nuance during the translation process. The challenges and strategies in translating music terminology can offer valuable insights into linguistic adaptation. Linguistic and Cultural Identification: Music terms not only serve as linguistic units but also as markers of cultural identity. For instance, in Uzbek, music terminology is often tied to national sentiment and traditions, reflecting a distinct cultural identity, whereas English-language terms may be more neutral or associated with global, modernistic trends. Linguistic and Musical Conflicts: Some

musical terms might carry opposite meanings in different languages. For instance, the term "forte" in English implies strength and intensity, while in some contexts in Uzbek, it might convey a softer or more subtle expression, especially in traditional music. These linguistic nuances can provide rich material for cross-linguistic and cross-cultural studies. Changes in Musical Genres: The evolution of music genres and styles in both languages could be analyzed further. For example, how global genres like "jazz," "classical," and "pop" are represented and perceived differently in English-speaking and Uzbek-speaking communities, and how these genres adapt to local cultures over time. Linguistics and Music Pedagogy: The role of music terminology in education and therapy could also be discussed. For instance, how musical terms are taught in schools and used in therapeutic settings, and how linguistic tools are employed in music pedagogy to improve learning and expression.

**Conclusion.** The linguistic features of music terms in Uzbek and English show distinctive differences, influenced by historical development, cultural traditions, and linguistic structure. This research provides interesting insights into the origins and development of music terminology and highlights linguistic aspects that need to be considered during translation. Further studies on the linguistic adaptation of music terms, the cultural implications of these terms, and the pedagogical impact of music terminology would contribute greatly to our understanding of music as both a linguistic and cultural phenomenon.

#### ADABIYOTLAR

1. Crystal, D. (2008). *A Dictionary of Linguistics and Phonetics*. Blackwell Publishing. – Musiqiy terminlarning lingvistik xususiyatlari bo'yicha.
2. Yule, G. (2020). *The Study of Language*. Cambridge University Press. – Ingliz tilidagi so'z yasalishi va semantik tahlillar.
3. Oxford English Dictionary. (2023). *Musical Terminology*. Oxford University Press. – Musiqiy atamalar va ularning lug'aviy izohlari.
4. Boboev, T. (2015). *O'zbek tilshunosligi asoslari*. Toshkent: Fan nashriyoti. – O'zbek tilidagi musiqiy terminlarning shakllanishi.
5. Karimov, U. (2017). *Lingvokulturologik tadqiqotlar va tarjima muammolari*. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. – Musiqiy terminlarning tarjima va moslashuvi.
6. Roquero, A. (2019). *Musical Semantics: A Comparative Study of Terminology in English and Other Languages*. *Journal of Musicology*, 28(1), 99-120. – Ingliz va boshqa tillarda musiqiy terminlarning semantik tahlili.
7. Safarov, Sh. (2021). *O'zbek va ingliz tilida musiqiy atamalarni taqqoslash*. *Til va madaniyat jurnal*, 5(2), 33-47. – O'zbek va ingliz musiqiy terminologiyasining qiyosiy tahlili.





UDK:413.211:8.03(045)

**Mushtariy YUSUPOVA,**  
Karshi State University Doctorate PhD student  
E-mail: mushtariyusupova1999@gmail.com

Qarshi davlat universiteti professori, f.f.d N.Yuldosheva taqrizi asosida

## INGLIZ VA O'ZBEK TILLARINING LINGVOKULTURAL XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqola ingliz va o'zbek tillarining lingvokultural xususiyatlarini o'rganadi, jamiyat qadriyatlarini, an'analari va dunyoqarashlarining lingvistik tuzilmalarda va leksikonda qanday ifodalanishini tahlil qiladi. Taqqoslash sifat metodologiyasidan foydalangan holda, tadqiqot ta'lim lug'atlaridan va haqiqiy matnlardan olingan 100 etnolingvistik birlikni tahlil qiladi, bu birliklar murojaat shakllari, xushmuomalalik strategiyalari, madaniy realiyalar va idiomatik ifodalarga oid bo'ladi. Tadqiqot natijalari kommunikatsiya uslublarida asosiy farqlarni ko'rsatdi: o'zbek tili kollektivistik, yuqori kontekstli madaniyat xususiyatlarini bilvosita, hurmatga sazovor so'zlar va madaniy yukli ifodalar orqali aks ettirsa, ingliz tili individualistik, past kontekstli madaniyatga xos bo'lib, aniqroq nutq va sintaktik xushmuomalalik belgilari bilan ajralib turadi. Bilingval lug'atlarda madaniy atamalarni leksikografik yondashuvning yetarli emasligi, ko'pincha zarur madaniy izohlarning etishmasligi, bu esa til o'rganuvchilarining madaniy tushuncha shakllanishiga to'sqinlik qilishi mumkinligi aniqlangan.

**Kalit so'zlar:** Madaniyaro muloqot, ta'lim lug'atlari, xushmuomalalik strategiyalari, madaniy realiyalar, bilvosita ifodalar, kollektivizm, madaniyatlararo kompetensiya.

## ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ АНГЛИЙСКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ

Аннотация

В данной статье исследуются лингвокультурные особенности английского и узбекского языков, анализируется, как ценности, традиции и мировоззрения общества выражаются в лингвистических структурах и лексике. Используя методологию сравнительного качества, в исследовании будут проанализированы 100 этнолингвистических единиц, взятых из образовательных словарей и реальных текстов, которые будут относиться к формам обращения, стратегиям вежливости, культурным реалиям и идиоматическим выражениям. Результаты исследования показали основные различия в стилях коммуникации: в то время как узбекский язык отражает характеристики коллективистской культуры с высоким контекстом косвенно, через уважительные слова и выражения с культурной нагрузкой, английский язык более индивидуалистичен для культуры с низким контекстом и более конкретен в речевой и синтаксической характеристике признаками вежливости. Установлено, что в двуязычных словарях отсутствует лексикографический подход к культурным терминам, часто отсутствуют необходимые культурные объяснения, что может препятствовать формированию культурного понимания изучающими язык.

**Ключевые слова:** Межкультурная коммуникация, образовательная лексика, стратегии вежливости, культурные реалии, косвенные выражения, коллективизм, межкультурная компетентность.

## LINGUOCULTURAL PECULIARITIES OF ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Annotation

This article explores the linguocultural peculiarities of the English and Uzbek languages, focusing on how social values, traditions, and worldviews are encoded in linguistic structures and lexicons. Employing a comparative qualitative methodology, the research analyzes 100 ethnocultural units drawn from educational dictionaries and authentic texts, covering areas such as address forms, politeness strategies, cultural realia, and idiomatic expressions. The findings reveal fundamental differences in communication styles, with Uzbek reflecting collectivist, high-context cultural traits through indirectness, honorifics, and culturally loaded expressions, while English exhibits characteristics of an individualistic, low-context culture with more direct speech and syntactic politeness markers. The lexicographical treatment of cultural terms in bilingual dictionaries was found to be insufficient, often lacking necessary cultural annotations, which may hinder language learners' cultural understanding.

**Key words:** Linguoculture, Uzbek language, English language, cross-cultural communication, educational dictionaries, politeness strategies, cultural realia, indirectness, collectivism, intercultural competence.

**Introduction.** The study of linguocultural peculiarities in world languages has become increasingly significant in the modern era of globalization, where intercultural communication plays a central role in diplomacy, education, and international business. Languages are not merely tools for communication but are also key carriers of cultural knowledge, values, and worldviews. The English and Uzbek languages, originating from distinct linguistic families and historical backgrounds, provide an excellent platform for exploring the relationship between language and culture. English, a member of the Germanic branch of the Indo-European family, has developed through centuries of socio-political and cultural changes, including the Norman Conquest, the Renaissance, the British Empire, and modern globalization, all of which have contributed to a lexicon that is rich, hybrid, and heavily influenced by borrowing. As of 2024, English is the most widely studied second language globally, with around 1.5 billion speakers, including native, second-language,

and foreign-language speakers (Ethnologue, 2024). Its status as a lingua franca in international contexts has led to the simplification of some traditional features, while also promoting the global spread of Anglo-American cultural values. In contrast, Uzbek, which belongs to the Turkic group within the Altaic language family, is the most widely spoken language in Central Asia, with over 35 million native speakers mainly concentrated in Uzbekistan and diaspora communities in neighboring countries.

Uzbek language is characterized by a long history of cultural interaction with Persian, Arabic, Russian, and more recently English, which has shaped its vocabulary, idiomatic expressions, and communicative norms. While English reflects the values of predominantly individualistic, low-context cultures such as those in the United Kingdom and the United States, Uzbek is a product of collectivist, high-context societies, where traditions, communal identity, and social hierarchy strongly influence language use. Given these differences, the study of

linguocultural peculiarities between English and Uzbek is not merely a linguistic exercise but also a necessary step in understanding how each culture encodes its worldview into language. In educational settings, particularly in lexicography and language teaching, recognizing and appropriately addressing these differences is crucial for effective bilingual dictionary compilation and for fostering intercultural competence among learners. Misinterpretations or underrepresentation of ethnocultural features in dictionaries can lead to cultural misunderstandings and communication breakdowns. Therefore, this study aims to identify and analyze the distinctive linguistic and cultural markers embedded in English and Uzbek, with a particular focus on how they are reflected in everyday communication, address forms, cultural realia, and educational materials. The comparative approach taken in this paper seeks to contribute to a deeper understanding of cross-cultural communication, while also providing recommendations for the more culturally sensitive design of educational dictionaries and language-learning resources.

**Methods.** This article employs a comparative qualitative method to analyze the linguocultural peculiarities of English and Uzbek languages, focusing specifically on how cultural values and traditions are encoded in language and reflected through address forms, politeness strategies, and cultural realia. The research adopts a descriptive-analytical approach supported by cross-cultural pragmatics and linguocultural theory. The core of the methodology is based on comparing authentic language data drawn from monolingual and bilingual educational dictionaries, as well as naturally occurring language samples (e.g., recorded dialogues, textbooks, and public discourse materials such as media and folk literature). By examining dictionary entries and communicative patterns in both languages, the study highlights how culture-specific values manifest through lexical choices and pragmatic usage.

The first stage of the methodology involved the selection of two major corpora:

A corpus of English educational materials and dictionaries (e.g., Oxford Advanced Learner's Dictionary, Cambridge English Dictionary, and sample dialogues from English-language teaching materials used in ESL contexts).

A corpus of Uzbek educational dictionaries and cultural texts (e.g., O'zbek tiling izohli lug'ati, O'zbek tiling orfoqrafik lug'ati, as well as Uzbek-language textbooks and authentic communicative texts such as proverbs, idioms, and ceremonial speeches).

To ensure representativeness, the study selected 50 ethnocultural units from each language. These included common address forms, culturally loaded idiomatic expressions, proverbs, and lexical items associated with traditional customs, social etiquette, and holidays. For example, in English, expressions such as "Would you mind...?", "pub", and "Thanksgiving" were analyzed, while in Uzbek, expressions like "Siz/sen", "Navruz", and "duo qiling" (give a blessing) were investigated.

The comparative framework was based on several key analytical dimensions:

Politeness strategies and address forms, analyzing both formal and informal registers;

Cultural realia, focusing on terms with no direct equivalents or requiring cultural background knowledge for interpretation;

Pragmatic functions, such as how speech acts like requests, apologies, or blessings are performed differently in each language due to cultural norms.

Additionally, the research incorporated insights from cross-cultural pragmatics, specifically leveraging models such as Hofstede's cultural dimensions theory to understand the cultural underpinnings of linguistic behavior (e.g., collectivism vs. individualism, power distance). The study also employed linguocultural analysis to investigate how metaphorical and symbolic meanings are transmitted through culturally specific lexemes.

Data analysis was conducted through content analysis, where each selected ethnocultural unit was examined in terms of:

Its linguistic form (word, phrase, idiom);

The type of dictionary definition provided (direct equivalent, paraphrase, cultural annotation);

Its communicative function and cultural connotation in the source language.

Finally, supplementary interviews and surveys were conducted with 20 Uzbek EFL learners and 10 English-speaking learners of Uzbek to assess the clarity and perceived adequacy of ethnocultural units as explained in existing educational dictionaries. This user-centered aspect of the methodology helped evaluate how dictionary users interpret these culture-bound units and where gaps or misunderstandings commonly occur.

Overall, this multi-method approach allowed for a systematic and culturally informed comparison between the two languages, offering both descriptive and interpretative insights into their linguocultural particularities.

**Results.** The comparative analysis of English and Uzbek languages revealed several significant linguocultural differences, particularly in the domains of address forms, politeness strategies, and culturally bound lexical items. The study of 50 ethnocultural units from each language, extracted from educational dictionaries and authentic communicative texts, uncovered patterns that reflect the divergent worldviews and cultural norms underlying English and Uzbek. One of the most prominent findings relates to the system of address and politeness. The Uzbek language demonstrates a highly stratified system of social deixis, where the choice between *Siz* (formal "you") and *sen* (informal "you") is dependent on factors such as social hierarchy, age difference, and degree of familiarity. Over 85% of the Uzbek entries analyzed (Uzbek Corpus, 2023) consistently marked this distinction, and the data showed that Uzbek speakers frequently accompany direct address with culturally specific phrases such as "hurmatli" (respected) or "aziz" (dear). In contrast, English dictionaries, such as the Oxford Advanced Learner's Dictionary, revealed that politeness in English tends to be expressed through syntactic constructions (e.g., modal verbs like *could*, *would*, or *may* I) and through tone modulation, rather than morphological address forms. The survey of Uzbek EFL learners indicated that 70% of respondents found English politeness strategies "less explicit" compared to Uzbek, often requiring contextual understanding rather than direct lexical cues.

**Analysis and Discussion.** The results also show significant disparities in how cultural realia are represented and explained in educational dictionaries. In the English corpus, culturally significant items such as "pub", "tea time", or "Guy Fawkes Night" were commonly provided with brief definitions, occasionally supplemented by cultural notes. However, in 40% of cases, explanations lacked sufficient depth for non-native speakers unfamiliar with British or American culture. In contrast, Uzbek dictionaries often presented culturally loaded terms like "Navruz" (Persian New Year) or "doira" (traditional percussion instrument) with limited or no explanatory notes when translated into English. For instance, the entry for "Navruz" was frequently translated as "Spring Holiday" without a comprehensive description of its historical, spiritual, or ritual significance.

Additionally, the results show that proverbs and idioms in Uzbek are more deeply intertwined with communal values and social morality. The study documented over 5,000 proverbs (maqollar) within the Uzbek National Corpus, many of which are regularly used in daily speech, media, and education. These proverbs often reinforce collectivist values such as respect for elders, patience, and cooperation (e.g., "Katta bosh – katta g'am" meaning "A big head carries big worries," referring to leadership responsibility). In comparison, English proverbs from major dictionaries (e.g., Oxford Dictionary of Proverbs) numbered around 2,000 and tended to emphasize individual actions, personal responsibility, and self-reliance (e.g., "A stitch in time saves nine" or "Every man for himself"). The interviews with learners also revealed that 65% of Uzbek students struggled with interpreting English proverbs when no culturally adaptive explanation was provided.

Finally, another notable result concerns the treatment of indirectness. The analysis showed that Uzbek speakers rely more heavily on indirect speech acts to maintain group harmony and to avoid confrontation. Expressions such as "balki mumkin"

(perhaps it is possible) or “xo‘p bo‘ladi” (it will be okay) were common ways of softening refusals or disagreements. On the other hand, English speech patterns are comparatively more direct, even when politeness strategies are used, often prioritizing clarity over relational considerations. This difference in pragmatic orientation was reflected in dictionary example sentences: Uzbek dictionaries contained 30% more indirect or mitigated sample sentences compared to their English counterparts, which preferred clearer and more direct formulations.

**Conclusion.** The comparative analysis of the English and Uzbek languages clearly illustrates that linguistic structures are deeply intertwined with cultural values and societal norms. Uzbek, as a reflection of a collectivist and high-context society, prioritizes indirectness, social hierarchy, and relational harmony, as seen in its rich honorific system and pragmatic speech patterns.

In contrast, English aligns with the principles of individualism and low-context communication, marked by directness, syntactic politeness devices, and a relatively neutral system of address. The disparities found in the representation of cultural realia and ethnocultural expressions in educational dictionaries point to an urgent need for lexicographers and educators to incorporate more comprehensive cultural explanations and pragmatic usage examples. Bridging these linguocultural gaps is essential for supporting learners' ability to navigate cross-cultural interactions effectively. The study suggests that further research could expand this analysis to include other Turkic and Indo-European languages, as well as investigate how digital dictionary platforms can enhance cultural learning through interactive and multimodal tools.

#### REFERENCES

1. Brown, P., & Levinson, S. C. (1987). *Politeness: Some universals in language usage*. Cambridge University Press.
2. Ethnologue. (2024). English language profile. SIL International. Retrieved from <https://www.ethnologue.com/language/eng>
3. Hofstede, G. (2001). *Culture's consequences: Comparing values, behaviors, institutions and organizations across nations* (2nd ed.). Sage Publications.
4. Karimov, A. (2023). *Lexical borrowing in modern Uzbek: Trends and sociolinguistic perspectives*. Tashkent State University Press.
5. Oxford University Press. (2024). *Oxford Advanced Learner's Dictionary* (11th ed.). Oxford University Press.
6. Oxford University Press. (2024). *Oxford Dictionary of Proverbs* (7th ed.). Oxford University Press.
7. Uzbek Academy of Sciences. (2022). *Survey on foreign lexical influence in Uzbek educational materials*. Tashkent.
8. Uzbek National Corpus. (2023). *Proverbial and idiomatic expressions in Uzbek*. Retrieved from <https://corpus.uzbekcorpus.uz>



**Zebo YAXSHIYEVA,**  
*Turon universiteti professori v.b., filologiya fanlari doktori*  
E-mail: zebona.sevinch@gmail.com,

*Professor D.Turayev taqrizi asosida*

### TEMURIYLAR SILSILASI TADQIQOTLARIDA ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR

Annotatsiya

Ushbu maqolada Amir Temur sulolasining munosib izdosh shahzodasi sanalmish, katta bir sulola asoschisi Z.M.Bobur haqida olib borilgan ilmiy izlanishlardan chiqarilgan tarixiy haqiqat haqidagi xulosalar beriladi. Ayniqsa, u haqida katta mahorat bilan bitilgan asarlarga singdirilgan badiiy ruh va qahramon psixikasi, adiblarning o'z asarlarini tarixiy haqiqatga mos ravishda bitilishining sabab va omillari haqida tahliliy-qiyosiy tahlillar beriladi. Turli davrlarda yaratilgan tarixiy va badiiy asarlarning o'xshash va farqli jihatlari, bo'rtirma va xolis yondashuvlari ilmiy asoslanadi. Tarixiy siymoning hayot yo'llari mobaynida chiqargan xulosalari va qalb iztiroblarining adabiyot namunalari inkishof etilish masallari tahlil etiladi. Shuningdek, temuriy shaxzodlar haqida bitilgan zamonaviy temurshunoslarning ilmiy va publitsistik asarlari ilmiy tadqiq etiladi.

**Kalit so'zlar:** Temuriyodlar, tarixiylik, zamonaviylik, psixik birlik, prototip, poetik tahlil, muhit va taqdir, publitsistika.

### ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BABUR: IN STUDIES OF THE TIMURIDS RANGE

Annotation

In this article written about some conclusions given about the historical fact, which deduced from the scientific research on Z. Babur who was the founder of a large dynasty, considered a worthy follower prince of the Amir Temur dynasty. In particular, an analytical and comparative analysis of the artistic mood and the spirit of the hero, instilled in works about him with great skill, about the reasons and factors of the fact that the writers finished their works in accordance with historical reality. Similar and different aspects, exaggeration and impartial relationships of historical and artistic works created at different times scientifically substantiated. The conclusions of the historical figure during the life cycle and the parables of the development of heartache in literary samples analyzed. As such, scientific and publicistic works of modern timurid studies, which are finished about timurian princes.

**Key words:** Timurids, historicism, modernity, psychic unity, prototype, poetic analysis, environment and destiny, publicistics.

### ЗАХИРИДДИН МУХАММАД БАБУР: В РАМКАХ ИССЛЕДОВАНИЙ ТИМУРИДОВ

Аннотация

В данной статье изложены некоторые выводы, сделанные по поводу исторического факта, который вытекает из научных исследований о Бабуре, который был основателем крупной династии, считавшимся достойным продолжателем династии Амира Темура. В частности, аналитический и сравнительный анализ художественного настроения и духа героя, с большим мастерством воплощенного в произведениях о нем, о причинах и факторах того, что писатели завершали свои произведения в соответствии с исторической действительностью. Научно обоснованы сходные и различные аспекты, преувеличения и беспристрастные соотношения исторических и художественных произведений, созданных в разное время. Проанализированы выводы исторического деятеля на протяжении жизненного цикла и притчи о развитии душевной боли в литературных образцах. В качестве таковых рассматриваются научные и публицистические произведения современных тимуридоведов, которые посвящены тимуридским принципам.

**Ключевые слова:** Тимуридизм, историзм, современность, психическое единство, прототип, поэтический анализ, окружение и судьба, публицистика.

**Kirish.** Bugungi globallashuvning salbiy oqibatlari millatlarni o'zaro milliy o'zini anglash g'oyalari salbiy ta'sirini namoyon etayotgan bugungi tahlil pallada o'tmishimizda yashab o'tgan tarixiy shaxslar bilan faxrlanibgina qolmasdan, ularga munosib avlod bo'lish sari ildamlash, ularga munosiblik darajasida jahon miqyosida e'tirof etilish, bu orqali shogirdlarni ham shu vatanga xizmat qilish sari ruhlantirish barcha jabha fidoyilari kabi ilm ahlining ham qalban bajaruvchi vazifasi hisoblanadi. Shu yurt o'tmishida tarixiy burilish yasay olgan shaxslar orasida Amir Temur kabi buyuk yetakchilar, Zahiriddin Bobur kabi ikkinchi bir sulola asoschilari, Mirzo Ulug'bek kabi ilmiy taxtda nomdor olimlar mirzolar hayot faoliyatini chuqur o'rganish orqali har bir yosh avlod hodim qalbidagi "o'z qahramoni"ni tarbiyalash masalasi yotibdi. Shuningdek, milliy o'zlikni anglash tamoyilida tarixiylik va zamonaviylik doirasida yuksalish sir-asrorlarini o'rganish va o'rgatish uchun ular haqidagi tarixiy haqiqatlar va badiiy to'qimalarni farqlab olishga zarurat tug'iladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Temuriy shaxzodalar orasida Markaziy Osiyo tarixida siyosiy aql idroki, ma'naviy jasorati va diniy ilmi va dunyoqarashi, qomusiy bilimdonlikni o'zida mujassam etganligi bilan ajralib turadigan buyuk arbob shubhasiz Zahiriddin Muhammad Boburdir. Uning mashhurlikini boshqa

Amir Temurning o'z farzandlari Jahongir Mirzo, Umarshayx Mirzo, Mironshox va Shoxrux Mirzolaridan-da mashhur. Sohibqiron saltanati davomchisi sifatida u bobosiga izdosh, ajdodlaridan-da fidoyi. U Temur saltanatining o'z yutidan quvg'in, Hind diyorida qo'nim topa olgan Tangri yorlaqagan podshoh. U jaholat olamidagi jamiyat aqidalarini musulmon birodarlikka, insoniylik buysundirgan adolatpesha shahanshoh bo'la olgan zot. Uning tavsifu ta'riflari bisyor bo'lganidek, uni o'z asarlarida bosh qahramon qilib olgan adiblar nazdida uning jozibasi ham insoniylikda. Z.M.Bobur haqida Amir Temurdan so'ng eng ho'p va ko'p asarlar bitildi, tadqiqotlar olib borildi. U haqida yozilgan birgina "Yulduzli tunlar" asariga bag'ishlab I.Sulton, G'.Karimov, M.Qo'shjonov, O.Yoqubov, G'aybulla as-Salom, S.Mirvaliyev, A.Kattabekov, U.Normatov, I.G'afurov kabi zabardast olimlar, adabiyotshunoslar ilmiy izlanishlar olib borishdi, munosabat bildirishdi [1]. Bunday zamonaviy adiblar tomonidan asarlar yaratilishi qadar ham Z.M.Bobur hayoti va harbiy faoliyati haqida yuzlab manbalar yaratilgani ma'lum. Xususan, "Boburnoma", "Shayboniynoma", "Muzakkiri ahbob", "Habib us siyar", "Tavorixi Guzida Nusratnoma", "Humoyunnoma", "Abdullanoma-Sharafnomayi shohiy", "Samariya" va boshqa ko'plab ilmiy va badiiy manbalar. Shuningdek, Z.M.Boburning xususida N.G.Chernishevskiy,

B.G.Belinskiy, N.Rimar, S.Petrov, Fitrat, Oybek, H.Yoqubov, I.Sulton, M.Qo'shjonov, N.Xudoyberganov, O.Sharafiddinov, B.Nazarov, H.Umurov kabi ko'plam adabiyotshunos olimlar, tarixshunoslar uning prototipi asosida ilmiy izlanishlar olib borishdi [2].

Temuriy shaxzodalardan Z.M.Bobur barpo etgan saltanat, yurishlar va quvg'inlik davri tarixiy haqiqat bo'lgani kabi u yashagan muhitning bunga sababkorligi, o'sha davr ruhini so'zlar vositasida anglatmoq adabiyotning badiiy vazifasidir. M.Gorkiy ta'biri bilan aytganda "Muhit bu- inson, muhit bu bir- biriga ta'sir etuvchi psixik birliklarning muayyan miqdori", ekan, badiiy asarda tarixiy muhit inson bilan bog'liqlikda ochib beriladi. Z.M.Bobur va uning avlodlari haqida romanlari bilan elga taniqli Pirmiqul Qodirov ham o'z asarida Bobur yashagan davr muhitini ishonarli, kitobxon tasavvurlariga singib ketadigan tarzga keltirguniga qadar ham, o'zi bitganidek, "talabalik yillarimdan beri Boburnomani qo'ldan beray o'qidim, Boburning qadamjolarini borib ko'rishga intildim. Hindiston, Pokiston bo'ylab sayr qildim, hammasidan chiqargan xulosam shu bo'ldiki, hali hanuz Boburni bizga jozibali qilib ko'rsatayotgan tomoni uning olijanob insoniy fazilatlarini va noyob iste'dodidir"[3]. Muallif romanida tarixiy sharoitning real tasviri asosiy o'rinlarni egallagan bo'lsa, ushbu tarixiy voqealarning Boburning xarakteri, qarashlari, hayot yo'liga ta'siri asarda badiiyatni belgilovchi mezon sifatida baholanadi. Aynan tarixiy sharoitni badiiy talqin hamohang va o'zaro uyg'unlikda ochib bera olingani asarning eng katta yutug'i sifatida baholangan. Demak, tarixiy muhit ta'siri ostida asardagi obrazlar ruhiyati, ularning uy hayollari, oilaga munosabatlari, bizga ma'lum tarixiy faktlarni asarda badiiy jonlantirgan holda, o'sha zamon ruhining asl haqiqatini badiiy inkishof etishda yozuvchi mahoratini ishga soladi. Ushbu Temuriy sulola vakili haqida bitilgan deyarli barcha badiiy asarlarda Bobur o'zi yashagan davr taqozosiga ko'ra, o'z istagiga zid harakat qilishga, vatanini tashlab qochishga, ota bobolaridan unga meros qolgan podshohlik, oila a'zolari taqdiriga mas'uliyati o'laroq harakat qilishga majbur ekanligi, bu muhitdagi uning botinoy iztiroblari, rang-barang va murakkab ichki dunyosi, iqrar va taskinlari, tasalli va afsus nadomatlarini tarixiylik faktlarini inkor etmagan holda uning insoniylik tuyg'ulari bilan hamohang tarzda ifodalangan[4]. P.Qodirov ham yozuvchi sifatida Boburdek buyuk siymo xarakteri va ichki tug'yonlarini, qalbidagi savol-javoblarni o'sha tarixiy davr ruhidan, muhit taqozosidan kelib chiqib, badiiy inkishof etadi. Adabiyotshunos H.Umurov ta'kidicha, "adabiyotda tarixiy sharoit ijtimoiy munosabatlar tasviriga bog'liqligi bilan xarakterni aks ettiruvchi obraz, sharoitni ham yaqqol gavdalantiradi. Xarakter va sharoit vaqt dealektik aloqada rivojlanadi. Mana shu dealektikaga izchil amal qilgandagina xarakterni yorqin, tipik xususiyatlarini ham davrning mohiyatini ham haqqoniy idodalay oladilar. Badiiy asarning g'oyaviy va badiiy sifati ham asardagi xarakter bilan sharoitning bog'lanish darajasiga va poetik tahlilning chuqurligiga bog'liqdir"[5]. Temuriylarning bu zabardast vakilining badiiy siymosini yaratar ekan, P.Qodirov tarixiy haqiqatni inkor etmagan holda, mantiqiylikka, badiiy meyyorga, tarixiy davr haqiqatiga asoslanadi, shoh va shoirni asarida obraz sifatida tiriltiradi. Umarshayx Mirzoning o'limi tufayli shohlikni qabul qilgan Z.M.Boburning bu tarixiy sharoitdagi holati badiiy asarda bolalik davrini undan yulib oladi, og'ir sharoitlarda uni toblaydi. Mana shu o'rinda muallif bosh qahramon qalbidagi alam va qayg'ularni ruhshunos olimdek badiiy chizgilarda ifodalashi, tarixiy sharoitdan, davrning achchiq haqiqatidan kelib chiqib, qahramonning yoshlik yillaridagi og'riqlik tashvishlariyu, fikrlarini to'la ziddiyatli hayot yo'llarini yoritib olganki, asar bir so'z bilan aytganda "o'qimishli" chiqqan[6]. Roman sahifalarini o'qigan kitobxon muallifning o'zi ham o'z qahramoniga achinish hissi bilan yondashganini sezib turadi: "Boburning o'n ikki yoshida taxtga o'tirishi bir tomondan uning taqdiri siylovi bo'lsa, ikkinchi tomondan fojiasini edi. O'n ikki yoshli shaxzoda hali taxtga tayyor emas, uzluksiz davom etayotgan urushlar mamlakatni boshqarishni yanada qiyinlashtirgandi. Shunday og'ir sharoitda Boburning atrofidagi beklar birlashish, tinchlikni saqlash o'rniga, tinimsiz kurash yo'liga o'tdilar"[7].

Natijalar va muhokama (Results and Discussions): Alohida qayd etish kerakki, o'zbek adabiyotshunosligida Amir

Temur va Temuriy shaxzodalarga bag'ishlab, uch yirik epik polotno yaratilgan: Odil Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi", Pirmiqul Qodirovning "Yulduzli tunlar", Muhammad Alining "Ulug' saltanat". Ularning barchasi uchun umumiylik kasb etgan xususiyat bu polotno asarlarda XV-XVI asr boshlaridagi temuriylar davri tarixiy muhiti, sharoiti to'liq va haqqoniy tasvirga olingan bo'lib, murakkab tarixiy sharoitda yashagan bu tarixiy shaxslarning murakkab, ruhiy kechinmalariga, dramatik voqealarga boy hayot yo'llari tasvirga olingan. Aynan mana shu fikr barcha adabiyotshunos olimlar mulohazalarining asosiy pafosi, o'zak nuqtasidir[8].

Asar voqealari Z.M.Bobur haqida bitilgan tarixiy manbalar bilan solishtirish asosida ishonch hosil mumkinki, P.Qodirov eng ishonchli manbalarni taqqoslab, tarix haqiqatiga yaqin, tarix fantaziyasini inkor etmagan ma'lumotlariga badiiy tus berishga intiladi. Jumladan, Gulbadanbegimning "Humoyunnoma" asarida keltirilgan voqealardan xabardor kitobxon, "Yulduzli tunlar" da o'qiganlari bilan tafovut sezmaydi, aksincha, bu voqealarning yanada badiiy tahrirlanganiga, o'quvchining qalbiga kirib borishga qadar harakat qilinganiga amin bo'ladi. Tarixiy faktlar, hujjatlar bilan badiiy kashfiyotni qiyoslashga yozuvchini qanchalik hayolotlarga berilib ketganligini asoslab beradi. Ammo har bir asarda bosh qahramon bilan parallel yashaydigan, u bilan yonma-yon bo'lsa-da begona muhitdan yulib olingan to'qima obrazga ehtiyoj sezadi. "Yulduzli tunlar" da Toxir, "Ulug' saltanat"da Axiy Jabbor obrazlari mana shunday qahramonlardir. Ular, ijodkor bu badiiy obrazlariga o'zgacha bir muhabbat bilan, o'zining aksariyat ideallarini mana shu ikkinchi darajali obrazga singdirgan holda asarni yanada o'qimishli qilishga erishadi. Ko'zda tutilgan sharoit, zamon va makoniy talablar, bosh qahramonni olisdan boshqa bir voqealikka bog'lab ketish uchun ham ular zarur. "Ulug' saltanat" tetralogiyasidagi Axiy Jabbor obrazi orqali muallif Amir Temur haqida unut bo'lib ketayotgan "Sarbadorlar" harakatini eslab o'tishni asar voqealari ulab ketadi. Bu ikki qahramon xalq tantiligi, olijanobligi, sodiqlik va yozuvchi qalbidagi orzularini o'zida tashiydi[9]. Haqiqatdan ham adabiyotshunos olim P.Shermuhamedov ta'kidlaganidek, bu obrazlar bo'lmaganida bosh qahramonlar obrazi "xira chiqqan bo'larmidi?"[10].

Temuriylar sulolasining faxrli vakili Z.M.Bobur haqida bitilgan ushbu asar bir necha marotaba o'zbek va rus, shuningdek, dunyoning ko'plab tillariga tarjima qilindi. Asarni o'qigan har bir kitobxonning ijodiy jasoratiga ushbu asar bosh qahramoni yanada jasorat qo'shadi, har qalbdagi "tarix haqiqatiga sadoqat"ni (U.Normatov) saqlab qola oldi. Ammo shunga qaramasdan, ushbu asar qator tanqidlarga ham uchradi. Ko'p orinlarda Bobur ichki dunyosini izchil ifodalash o'rniga, voqealar silsilasini faktlarga ko'mib, harbiy yurishlar izohiga berilib ketishda, romanning syujet-kompozitsiyasi e'tirozlar o'yg'otishi aytib o'tildi. "Pravda Vostoka" gazetasida "Tarix haqiqatiga zid" nomli maqola e'lon qilindi. Bu asarga yonma-yon Aziz Qayumovning "Zahiriddin Muhammad Bobur" maqolasi tanqid ostiga olindi. M.Vahobov tomondan esa muallif tarixiy haqiqatni no'g'ri badiiy talqin etilgan deb qoralandi[11]. Bobur obrazi ideallashtirilganligi, asarda jangovar hayot targ'iboti kuchli ekanligi, lekin shunga qaramasdan, Boburning lashkarboshilik iste'dodi sust yoritilganligi borasida munosabatlar bildirildi.

Bizningcha esa, Z.M.Bobur yashagan zamon shart-sharoiti, ushbu tarixiy siymoni ochib berishdan, badiiy inkishof etish maqsadidan kelib chiqqan holda, shoh va shoirning badiiyatdagi obraz sifatidagi talqini muvaffaqiyatli chiqqan. Chunki, inkor etib bo'lmay haqiqat bor - Boburning to'liq umri jangu jadallarda, yurtini qaytarib olish, shargardonlik, o'zga yurtlarda ildiz otish harakatlarida o'tdi. Shunga qaramasdan, asarda tarixiy siymo bo'lgan Z.M.Bobur olib borgan asl janglarning yarmi ham tasvirlangani yo'q, aks holda asar tarixiy jangnoma tusiga kirib qolgan bo'lardi. Ammo berilgan janglar lavhalaridan "Laho'r, Panipat, Delhi" bo'limida Boburning bobosi Temurbek singari harbiy sarkardalik salohiyati, harbiy siyosat va zarb berish borasidagi mohirligi yetarlicha badiiy yetkazib berishga harakat qilingan. Yuz minglab askar, bir yarim ming harbiy filga ega Delhi sultoni Inrohim Lodiga qarshi o'n ikki ming askar bilan jangga kirishi[12] jasorati, harbiy taktikasi asarni yetarlicha ta'sirchan bo'lishiga xissa qo'shgan.

Z.M.Bobur singari temuriyozda shaxzodalar haqida bitilgan Muhammad Alining "Ulug' saltanat" asari ham tarixiy haqiqatni badiiy adabiyotga olib kirgan asarlardan sanaladi. Asar yozilganiga qadar adibning "Ona tarix kamoli", "Xalq yaratgan daho", "Sohibqiron farzandlari", "Amir Temur chamani", "Buyuk obida", "Odamiylikning buyuk timsoli", "Qutlug' xonadonning ulug' sobibi", "Amir Temur haqida so'z" kabi maqolalaridan chop etilgan bo'lib, bu borada u to'plagan tajriba ham P.Qodirovni singari boe ekanligi ko'rsatadi. "Ulug' saltanat" epopeyasi yaratilgach, u haqda juda ko'plab ilmiy kuzatishlar yuzaga keldi. Bular orasida adabiy tanqidning deyarli barcha janrlarini o'zida jamlagan "Ulug' saltanat vasfi"[13] nomli to'plam o'zining ilmiy ahamiyati bilan ajralib turadi. To'plamdan joy olgan Matyoqub Qo'shjonov, Begali Qosimov, Baxtiyor Nazarov, Akmal Saidov, Pirmiqul Qodirov, Ubaydulla Uvatov, Damin To'rayev, Islomjon Yoqubov, Nusratullo Jumaxo'ja kabi taniqli adabiyotshunoslarning maqolalarida tarixiy voqelikning badiiy talqini, mazkur tetralogiyani yaratishdagi adib izlanishlari borasida so'z yuritilgan. Xususan, "Sohibqiron tashrifi" hikoyasi, ikki jilddan iborat "Sarbadorlar" romani "Ulug' saltanat" epopeyasining yuzaga kelishida muhim rol o'ynagan ta'kidlanib, temuriyozdalar hayoti va faoliyatini yaratishda adibning badiiy kashfiyotlari tahlil etiladi. Adabiyotshunos olim Damin To'rayevning "O'zbek tetralogiyasi"[14] nomli kitobida Muhammad Alining mazkur roman epopeyasi tarixiy-qiyoсий metod asosida o'rganilib, asosiy e'tibor tarixiylik va xronotop tasviri tahliliga qaratiladi. Yozuvchi tarixiy mavzuga qo'l urar ekan, ko'z o'ngida buyuk foh va sarkardaning shaxs va saltanat tuzish borasida qilgan mehnatlari turganligi diqqat markazida ushlab tura olishi bilan o'z mahoratini ko'rsatib bera oladi.

Amir Temur haqida u hayotlik chog'idayoq ko'plab muarrixlar, shoirlar, yozuvchilar bir qator asarlar yaratishga qo'l urganlar. Shunday bo'lsa-da, Sohobqiron Amir Temur bu yozilganlardan ko'ngli to'lmagan paytlari ham bo'lgan. Ana shu "ko'ngildagi bo'shliq"ni to'ldirish uchun u fors yozuvchisi, muarrix va husni malohatli kotib deya ulug'langan Nizomiddin Shomiyni o'z huzuriga chaqirib, "avom xalqqa tushunarli, sodda shaklda, ravon tilda va ayni paytda ma'rifatli kishilar e'tiboriga loyiq tarzda bir asar yozishini uqtirgan" [15]. Shu bois ham, Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma" asarida Amir Temur shaxsi va uning harb yurishlari, tashqi va ichki siyosiy irodasi mufassal, go'zal tarzda talqin qilingan. Muhammad Ali "Zafarnoma" singari qator tarixiy asarlardan ilhomlanib, o'z poetik mahorati, iste'dodi, talanti va tajribasini yanada charxlagani sir emas. Ushbu asarda esa yozuvchining mahorati temuriy shaxzodlarni badiiy asarda inkishof etgan "Jahongir Mirzo", "Umarshayx Mirzo",

"Mironshoh Mirzo", "Shohrux Mirzo" jildlari orasidagi mantiqiy bog'lamda asar syujet chiziqclarini o'ziga xos yo'sinda tasvirlay olganida ko'rinadi.

Har bir barbo etilgan mamlakatning boshqaruv tizimi, islohotlari va boshqa jihatlarini ijobiy va salbiy munosabatlarda izohlash yo o'rganish xolislikni ta'minlay olmasligi shubhasiz. Ammo, bizning yurtimizda sho'rolar zamonida xolisona turli manbalar asosida o'rganilgan tadqiqotlar "ideallashtirish" tamg'asi bilan tanqid qilinishi masalaning boshqa tomoni. XX asr davomida Chor Rossiyasi tomonidan mustamlaka etilgan bu davlatda tarixda yashab o'tgan ota bobolar, buyuk tarixiy shaxslar haqida so'z yuritish, ularning shonli tariximizda qoldirgan xizmatlarini e'tirof etish ta'qiqlab qo'yilishining sabablari ko'p edi. Shunga qaramasdan, vijdoni amriga bo'yso'ngan holda, tarix haqiqatlarini yashirmagan olimlar ham uchrab turardi. Mana shunday olimlardan B.Ahmedov, I.Mo'minov, R.Mukminova kabi elimizning fidoyi temurshunoslari sifatida qora ro'yhatga kiritilgan Amir Temur shaxsi va u boshqargan davlat tamoyillari, boshqaruv prinsplari xususida qator obyektiv fikrlar ayta olishgan edi. B.Ahmedov "Temur tuzuklari"ni atroflicha boshqa manbalar bilan solishtirish asnosida o'rganar ekan, sohobqironni ne chog'li adolatli va bag'rikeng, tolenrantlik asosida saltanatini idora qilganini izchil tadqiq etadi [16]. Ayniqsa, har bir viloyat, hudud sayyid, ulamo, mashoyix, fuzalo va ulug' din peshvolarini hurmatlab, ularni muborak tutish, olim, shayx va zohidlariga vazifa va oylik maosh tayin etilganligi, kasb qilishga qodir bo'lmagan ojizlarga nafaqa tayinlanishi sohobqiron saltanati tolerantlik va ijtimoiy himoya tamoyillari asosida barpo etilganligini asoslaydi. Uning davlatida avliyo va din ahkomlarining muqaddas qabrlari obod etilib, ularni doimiy pok saqlash ishlariga vaqfdan mablag' ajratilganligi, u yerlar gilam, taom va chiroq bilan taminlanishi[17] ni tuzuklarda o'qishimiz mumkin. Rus sharqshunosi O.Chexovichning o'rganishicha "Temur zamonida umumiy ocharchilik bo'lmagan va qonunlarning bajarilishini qattiq nazorat qilgan"[18] edi.

**Xulosa.** Amir Temur tuzgan markazlashgan saltanatning bosh tayanishi- raiyyat, islomiy qonun qoidalari edi. Amir Temurda uning keyingi sulola vakilari Shohrux Mirzo, Ulug'bek mirzo davrlarida taxt uchungina kurashlar olib borilganligi tarix manbalarida qayd etilsa-da, aholining umumiy ahvoli osoyishta va farovon ekanligi aytiladi. Chunki, sohobqiron davrlaridan oddiy fuqaroga zulum o'tkazganlar qattiq jazolanar, xabarchilar va hufiyalar orqali doimiy xolisona xalq ahvolidan xabardor bo'linar edi. Ichki ahvoloti tinch va farovon davlatgina tashqi aloqalarini mustahkamlash sari olib borgan harakatlari odilona bo'lishini tarix sahifalaridan o'qish va uqish mumkin bo'ladi.

#### ADABIYOTLAR

- Nosirov A. Tarixiy haqiqat va uning badiiy talqini. Fil.fan.nomz.diss. Toshkent.: 1999. 127 b.
- Yaxshiyeva Zebo Rashidovna. Jahon adabiyotshunosligida Amir Temur obrazi talqinlarining qiyoсий tadqiqi. Нововведения современного научного развития в эпоху глобализации: Проблемы и решения. Volume1. Essue 3. www.uzresearchers.com. 18-25.
- Qodirov P.Til, tarix, muhabbat.//Yoshlik, 1989.№5. B.2/40.
- Yakhshieva Z.R. Exploration of the linguistic style of novels about Amir Timur. Journal of advanced linguistic studies vol. 10, no. 2, Jul-dec 2023 (issn 2231-4075). 128-137.
- Umurov H.Tahlil san'ati. T., Adabiyot va san'at. 1978. 144 b.
- Yaxshiyeva Z.R. G'arb va Sharq adabiyotida Amir Temur prototipi asossida yaratilgan asarlar tadqiqi. O'zbekiston: til va madaniyat. Adabiyotshunoslik. 2024 Vol. 1[2] ISSN 2181-92-2x. www.literature.tssull.uz 120-138.
- Qodirov P.Yulduzli tunlar. Bobur. Toshkent. O'zbekiston. 1990.- 443b.
- Nosirov A. Tarixiy haqiqat va uning badiiy talqini. Fil.fan.nomz.diss. Toshkent.: 1999. - B.17 b.
- Zebo Yaxshiyeva. XVI asr ingliz adabiyotida yoritilgan temur obrazining qiyoсий tahlili. Scientific Bulletin of NamSU- Научный вестник НамГУ- NamDU ilmiy axborotnomasi-2023-yil\_8-son. 345-350.
- Shermammedov P.Ruhiiy dunyo ko'zguisi. T.: adabiyot va san'at. 1971. B.165.
- Vaxabov M. Правда истории вопреке. // Правда востока. 1986. 4 дек.
- Qodirov P.Yulduzli tunlar. Bobur. Toshkent. O'zbekiston. 1990.- 378 b.
- "Ulug' saltanat vasfi". - Toshkent: Mashhur Press. 2017. - B. 352.
- T'uraev D. Ўзбек тетралогияси. - Toshkent: Akademnashr. 2017. - B. 212.
- Ўринбоев А. Низомиддин Шомий ва унинг "Зафарнома" асари. - Toshkent: Ўзбекистон. 1996. - B. 5.
- Yaxshiyeva Z.. G'arb va Sharq adabiyotida Amir Temur prototipi asossida yaratilgan asarlar tadqiqi. O'zbekiston: til va madaniyat. Adabiyotshunoslik. 2024 Vol. 1[2] ISSN 2181-92-2x. www.literature.tssull.uz 120-138.
- Temur tuzuklari,-T., 1996. 121 b.
- Чеович А. К вопросу о грамотах Ходжа Ахрар. М., 1949.